

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

12/1.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribegan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oipnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2023 12/1 (199)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-
noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

MUHAMMAD RIZO ERNIYOZBEK O'G'LI OGAGHIY TAVALLUDINING 214 YILLIGIGA

O'rozboyev Abdulla (filologiya fanlari doktori)
MUHAMMAD RIZO OGAGHIY – JAHONIY SIYMO

Xalqimizning jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan daholari safiga haqli ravishda Muhammad Rizo Ogahiy ham mansubdir. Ogahiy millatimiz ma'naviyati rivojida shoir, tarjimon, muarrix sifatida xizmat qildi. Bir shaxs, bir inson vujudida bu qadar keng qamrovli iste'dod, teran tafakkur, millatga mehr-u muhabbat yashamog'i, haqiqatan, hayratlanarlidir. Lekin Ogahiy yashagan muhit, olgan tarbiyasi, keyinchalik, ruhiy kamolot sari intilib, buyuk salaflarga izdoshlikda qanchalik sobitqadamlik qilganini o'ylasak, bizni hayratga solgan jihatlar tabiiy bir uyg'unlik bo'lib tuyuladi.

Ogahiy uchun, eng avvalo, otasi Erniyozbekning akasi, ya'ni, amakisi Shermuhammad Munisday davr dahosining mehru muhabbati, alohida e'tibori qatta saodat edi. Taqdir taqazosi bilan Muhammad Rizoning Shermuhammad Munis tarbiyasida qolishi uning Ogahiy bo'lib yuksalishiga katta omil bo'ldi. Ogahiy Munis zikr qilingan yerda uning "birodarzoda va dastparvarda"si ekanini faxr bilan tilga oladi. Keyinchalik "birodarzoda va dastparvardayi Munis" – Ogahiy o'z asarlarida yaxshi ko'rib ishlatadigan birikma va uning uchun qadrlil unvonga aylandi.

Ogahiy barcha daho ijodkorlar qatori so'zning qudratini yaxshi angladi. Nafaqat har bir shaxsning, balki butun boshli millatlar, mamlakatlar taqdiri so'zga – tilga bog'liq ekanini teran his qildi. Butun borliqni yaratilishiga vosita bo'lgan so'z uni bordan yo'q qilishga ham qodirligi, so'zda shunday salohiyat mavjudligini anglash va anglatishga intildi. Bu ijodiy faoliyatida "Inson ko'nglidagi bir qiymatbaho gavhar" – so'z olam va odam hamda odamiyat bo'qiyiligining boisi deb bildi. "Kishi sonsiz imorat qilsa bunyod", "yo haddin afzun qo'ysa avlod" ulardan bo'qiylik ko'z tutib bo'lmasligi, so'zgina bunday iqtidorga egaligini ta'kidlab, jumladan, "Jome'ul-voqe'oti sultoniy" asarida

*Bilursenkim, bu olam bebaqodur,
Nekim, olamg'a kelmish bevafodur.
Na boqiy qolg'usidur joh-u davlat,
Na jovid o'lg'usidur izz-u shavkat.
G'araz mulki jahon sultonlig'idin,
Bori asnofi Odam xonlig'idin.
Kishidin anda yaxshi ot qolsa,
Hama ko'rgan, eshitgan bahra olsa.
Tanosuldin bu maqsad hosil ermas,
Imorat aylamakdin dast bermas.
Nedinkim, inqilob aylarda davron,
Alar bo'lg'usidur nobudu vayron.
Magar boqiy qolur so'zning binosi,
Yetushmay dahri dun seli jafosi – yozadi.*

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Ogahiy ijod qilgan lirik janrlari miqdori borasida peshqadamligi alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari, u mazkur janrlarni qaysidir jihati bilan boyitganligi, yanada yuksak maqomlarga olib chiqqanligini bilan ajralib turadi.

To'g'ri, biror ijodkorning adabiyot tarixi, millat ma'naviyati rivojidadagi o'rnini belgilashda ijod namunalari hajmi hal qiluvchi omil bo'lgan emas. Sodda qilib aytganda, Alisher Navoiyning o'zbek xalqigina emas, jahon adabiyotidagi maqomi ko'p emas, xo'b yozgani bois yuksak. Ana shu tarzda "ko'p va xo'b" yozish borasida ham Muhammad Rizo Ogahiy Alisher Navoiy izdoshlari orasida birinchilar qatorida. Aslida, buyuklarga baho berish, ularning "reyting"ini belgilashga bizning haqqimiz ham, salohiyatimiz ham yo'q bo'lishiga qaramay, bu faktlar Ogahiy kabi ijodkorlar qadrini yanada teranroq anglash maqsadida keltirilsa joiz, bizningcha.

Ogahiyning millatimiz ma'naviyatida o'rnini yuksaltirgan jihat uning mutarjimlik faoliyatidir. U o'n sakkiz asarni fors tilidan, bir asarni usmonli turk tilidan tarjima qilib, ona xalqimizni bahramand qildi. Bu asarlarning katta ko'pchiligi, aslida, fors adabiyotininggina emas, jahon adabiyotining noyob durdonalari edi. Ustoz Najmiddin Komilovning "Ogahiy mahorat bilan tarjima etgan asarlar o'zbek adabiyoti tarixining muayyan bir bo'lagini tashkil etadi, uni o'rganmay chetlab o'tish esa bu ulkan adibning ijodiga yetarli e'tibor bermaslik, uni yarim-yorti qilib, chala tasavvur etish yoki adabiyot tarixining salmoqdor bir qismini tashlab ketish demakdir" – degan haq fikrlari soha vakillarini bugun ham o'ylantirish kerak. Albatta, Ogahiy darajasidagi mahoratli tarji-

monlar tasodifan, yakka bir shaxsning xos iste'dodi bilangina dunyoga kelmaydi. Buning ko'plab omillari bor. Bu haqda N.Komilov bildirgan "...tashkiliy uyushganlik, ishga davlat va millat ahamiyati nutqayi nazaridan qarab e'tibor qilish, Xorazmda tarjima ishining baland darajaga ko'tarilishi, juda ko'plab ajoyib asarlarning o'zbek tilida paydo bo'lishi uchun ma'lum shart-sharoit vujudga keltirdi", –degan mulohazalar o'zining ko'plab faktik asoslariga ega.

Ogahiy tarixnavisgina emas, tarixshunos ham edi. U muarrix sifatida tarixning nima ekanligini, tarixnavislik mas'uliyati yukini, muarrix kim va qanday bo'lishi kerakligini yaxshi angladi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin"dagi

*Ravon tarix sori rag'bat ayla,
Salotin birla azmi suhbat ayla...
... Vagar tarix sori aylagung mayl,
Muni bilgilki, ne ish qildi har xayl –
so'zlariga hamohang tarzda "Riyoziy ud-davla"da
Xusho, ul tavorix sohibi sharaf,
Ki bor anda axbori ahli salaf,
Savodi aning ko'zni ravshan qilur,
Ko'ngulni iboroti gulshan qilur.
Ma'onisidin gar topar kimsa bahr,
Bo'lur jilvagar anga holoti dahr.
Agar bo'lmasa ul na bilgay kishi,
Kim erdi payambar, na erdi ishi – deydi.*

Bugun oldimizda Ogahiy ijodidan, avvalo, o'z xalqimizni, qolaversa, jahon ziyolilarini bahramand qilishdek katta ko'lamli, katta kuch, mehr-u muhabbat, sabot-u salohiyat, vaqt-u naqd talab qiladigan mas'uliyat turibdi. Taniqli sharqshunos Yuriy Bregel sa'y-harakatlari bilan Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari ingliz tiliga tarjima qilinib, jahon ziyolilari bu muhtasham asardan iste'foda imkoniyatlari kengaydi. Aftodil Erkinov tomonidan "Enciclopedia of Iranica 3" (Leiden. Brill, 2015)da Ogahiy hayoti va ijodiga oid biografik ma'lumot taqdim etildi. F.G'anixov jayev katalogidan tashqari Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti olimlari tomonidan (bu borada professor G.Xalliyeva xizmatlari katta) Ogahiy asarlarining jahon kutubxonalarida, xususan, Rossiya, Turkiya, Finlandiya xazinalarida mavjud asarlari qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar bilan boyitilgan katalog tayyorlanayotgani alohida tahsinga loyiq.

Ogahiy ijodi tadqiqi bugun yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, 2019-yil 20-martda Vazirlar Mahkamasining "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210-yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 238-sonli qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorning 3-bandiga muvofiq, shu kungacha Ogahiy asarlari silsilasining 9 jildi "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida har biri 1000 nusxadan nashrdan chiqdi.

Ma'naviy hayotimizdagi muhim voqea – Ogahiy dastxatidagi "Bahoriston"ning topilishi fanga ogahiyshunos olimlar tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Hilola Nazirova tomonidan ma'lum qilindi. Ikki tarjimani bir asrlik katta davr ajratib tursa-da, matnning bir-biriga juda o'xshashligi chindan ham hayratlanarli edi. Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub "Bahoriston" asaridan Muhammad Rizo Ogahiy amalga oshirgan turkiy tarjimaning hozircha dunyoda yagona nusxasi shu tariqa kashf etildi. Bugungi kunda Ogahiy dastxatidagi "Bahoriston" va "Guliston" Hilola Nazirova va Abdulla O'rozboyevlar tomonidan nashrga tayyorlandi. Bu asar Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mablag'lari hisobidan so'zboshi hamda faksimile bilan birga ikki jildda nashr qilinishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-mayda "Adiblar xiyoboni"ga tashrifida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida nufuzli olimlardan iborat "Ogahiyshunoslar jamiyati" tuzilib, o'z faoliyatini boshladi.

Bu haqda olimlar "Ikki tarjimani bir asrlik katta davr ajratib tursa-da, matnning bir-biriga juda o'xshashligi chindan ham hayratlanarli edi. Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub "Bahoriston" asaridan Muhammad Rizo Ogahiy amalga oshirgan turkiy tarjimaning hozircha dunyoda yagona nusxasi shu tariqa kashf etildi", – deb yozadi.

Uch yildan beri may oyida O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan Ogahiy merosini o'rganishga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazilmoqda. Endilikda ushbu anjumanni xalqaro maqom va miqyosda o'tkazishni ta'minlash zarur.

Muhammad Rizo Ogahiy asarlarining har bir nashri mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea bo'lib qolmoqda. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Adabiyot" nashriyoti tomonidan chop

etilgan “Ogahiy devoni” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi kitobi” tanlovi g‘olibi bo‘ldi.

Respublikamizda ogahiyshunoslikning keyingi yillarda erishgan yutuqlaridan biri shior, muarrix va muarjim ijodi yuzasidan bir qancha monografik ishlar bajarilganidir. Xususan, Dilshod G‘ayipov tomonidan bajarilgan “Ogahiyning badiiy mahorati” (2021), Raufjon Mahmudov tomonidan bajarilgan “Ogahiyning tarixiy asarlarida o‘zlashmalar” (2022) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini bu boradagi asosiy ishlar sifatida qayd etish mumkin. Shuningdek, Is‘hoqjon Ismoilov “Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi” mavzusidagi doktorlik ishini yakunlab, dastlabki ekspertizadan o‘tkazdi.

“Ilm sarchashmasi” jurnali Ogahiy merosining o‘ziga xos targ‘ibot minbariga aylanganini mamnuniyat bilan e‘tirof etish kerak.

Ogahiyshunoslik oldida turgan bugungi muhim vazifalar sifatida quyidagilarni ta’kidlash lozim:

1. O‘z imkoniyatlarimizdan foydalangan holda, Ogahiy tarixiy asarlarini jahon tillariga tarjima qilish. Bu borada muayyan tajriba ham to‘plangan. Xususan, “Материалы по истории Туркменистана и Туркменистана. Т. II. XVI–XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники” (М.–Л., 1938)da P.P.Ivanov tomonidan “Firdavs ul-iqbol”ning Muhammad Rahimxon tarixiga oid qismi; A.K.Borovkov tomonidan “Riyo‘z ud-davla”dan parcha; Z.Aksakov tomonidan “Zubdat ut-tavorix”dan parcha; P.P.Ivanov tomonidan “Gulshani davlat”dan parcha; Z.Aksakov tomonidan “Shohid ul-iqbol”dan parcha berilgan.

Ogahiy tarixiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida eng yaxshi va hozircha yagona namunasi Y.Bregel tomonidan bajarilgan “Firdavs ul-iqbol” tarjimasidir (Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Reza Mirab Agahi, Firdaws al-Iqbal: History of Khorezm translated from the Chaghatay and annotated (Leiden. BRILL. 1999) Keyingi tarjimalarda Y.Bregel tarjimasidan farqli ravishda, asarlarni imkon qadar adabiy xususiyatlarini ingliz tilida bera olish zarur. Bu esa tarjimon(lar)dan juda katta bilim va mahorat talab qiladi. Xususan, Ogahiy tarixiy asarlaridagi nazmiy qismlar tarjimasida Sharq she‘riyati, jumladan, tarixiy-adabiy asar (I.Ismoilov) xususiyatlarini aks ettirishi lozim. Jarayonda she‘riy qismlarning, imkon qadar, asliy matnga yaqin mazmunini berib borish maqsadga muvofiq.

Bu katta ko‘lamli ishning amalga oshishi uchun markazlashgan faoliyat zarur: asliyat va tarjima qilina-yotgan tillar sohiblaridan iborat katta tajribaga ega, dasturiy va moliyaviy ta‘minlangan ijodiy guruh shakllan-tirilishi lozim.

2. Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti jamoasi tomonidan Ogahiy asarlarining turli tillarga tarjima nashrlarini kengroq ommalashini ta‘minlash zarur.

3. Ogahiy asarlari elektron lug‘atini yaratish zarurati. Elektron lug‘at bosma lug‘atga nisbatan kengroq doiraga etib borishi, kamxarjligi, mukammallashtirish imkoni kattaligi kabi jihatlari bilan afzal sanalashi sir emas.

4. Ogahiy tarixiy asarlarini hozirgi o‘zbek adabiy tiliga uyg‘un matnlari bilan birga nashr qilish.

5. Ogahiy asarlarining zamonaviy mobil shakl (format)dagi nusxalarini yaratish va yoyish.

6. Ogahiy hayoti va ijodiga oid materiallardan iborat elektron kutubxona (bu, albatta, sayt shaklida bo‘lgani afzal va qulay) tashkil qilish. Masalan, Ogahiy ijodiga bag‘ishlangan turli yillarda Safarboy Ro‘zimboyev rahbarligida nashr qilingan “Ogahiy olami” to‘plamidagi maqolalar, M.Safarboyev, R.Yo‘ldoshev, M. Matyoqubova, G.Ibodullayeva, O.Ismoilov kabi ogahiyshunos va ijodkorlar maqolalarini jamlab, o‘quvchilarga taqdim qilish lozim. Bu borada, albatta, zamon va zamondoshlar ruhiyatini e‘tiborga olib ish ko‘riladi.

Ogahiy g‘azallaridan birida

Ogahiy holin ko‘rub doim tag‘oful qilg‘asen,

Shoiri donoyi davroning kerakmasmu sango?! –

degan edi.

Bugunga kelib “shoiri donoyi davron” merosiga “tag‘oful” – beparvolik davri kechdi. Endilikda zim-mamizda Ogahiy va mumtoz adabiyotimizning boshqa yirik vakillariga chinakam voris sifatida munosib va zarur ishlarni amalga oshirish mas‘uliyati turibdi.

Xodjabekov Murodjon Usarovich (Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, f-m.f.n.; uzedu@inbox.ru),

Yuldoshova Zarnigor Sayfullo qizi (Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti doktoranti; z.yuldoshova@samdaqi.edu.uz)

STERJENNING HARAKATLANUVCHI DINAMIK SO'NDIRGICH BILAN BIRGALIKDAGI TEBRANISHLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu ishda gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlar-nuvchi chiziqli elastik xarakteristikali qattiq jismlari dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebrani-shlarini matematik modellashtirish masalasi qaralgan. Bunda sterjen materialining gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikalari Pisarenko-Boginich gipotezasi asosida olingan. Matematik modellashtirishda er-kin jism diagrammasidan foydalanilgan.

Аннотация. В данной работе рассматривается задача математического моделирования попе-речных колебаний стержня с упруго-диссипативной характеристикой гистерезисного типа, совме-щенной с движущимся твердотельным динамическим гасителем с линейно-упругой характеристикой. При этом на основе гипотезы Писаренко-Богинича были получены упруго-диссипативные характе-ристики материала стержнегистерезисного типа. Диаграммы свободного тела используются в матема-тическом моделировании.

Annotation. In this work, the problem of mathematical modeling of transverse vibrations of a hysteresis-type elstatic dissipative characteristic beam combined with a moving linear elastic characteristic solid-body dynamic vibration absorber is considered. In this case, hysteresis-type elstatic dissipative characteristics of the beam material were obtained based on the Pisarenko-Boginich hypothesis. Free body diagrams are used in mathematical modeling.

Kalit so'zlar: sterjen, dinamik so'ndirgich, gisterezis, tebranishlar, harakat differensial tenglamalar sis-temasi.

Ключевые слова: стержень, динамический гаситель, гистерезис, вибрации, система дифферен-циальных уравнений движения.

Key words: beam, dynamic vibration absorber, hysteresis, vibrations, system of differential equations of motion.

Kirish. Hozirda mexanik sistemalardagi zararli tebranishlarni so'ndirish va ularning uzoq muddat mu-kammal ishlashiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalari yechilishni talab etadigan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan tebranishlardan himoyalanuvchi sterjenning hara-katini chiziqlimas deformatsiyalanishni e'tiborga olgan holda, matematik modellashtirish dolzarb muammolar-dan hisoblanadi.

Sterjenlarning chiziqlimas tebranishlari, ularning dinamikasi va tebranishlarini so'ndirish masalalariga bag'ishlangan bir qancha ishlar mavjud. Ulardan:

[1.2] ishlarda ikki tomoni qistirib mahkamlangan sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlari tajriba o'tkazish yo'li bilan o'rganilgan. Bunda dinamik so'ndirgich yuqqa sterjen va uning ikki uchiga qo'yilgan massalardan iborat bo'lib, uning geometrik markazidan ko'ndalang tebranishlari o'rganilayotgan sterjenga o'rnatilgan. Tashqi kuch sifatida sterjenning qistirib mahkamlangan bir uchiga ko'ndalang yo'nalishda garmonik kuch qo'yilgan. Amplituda-chastota xarakteristikasini tahlil qilishda akselometr sensori sterjenga ulangan va dinamik so'ndirgich o'rnatilgan hamda o'rnatilmagan hollar uchun amplitudalarni taqqoslash natijalar olingan, muhokama qilingan. Taqqoslash natijalar muhokamasiga ko'ra, sterjen tebranish-larini so'ndirishda dinamik so'ndirgich samarali bo'lgan. Olingan natijalar sterjen tebranishlarni boshqarish imkonini beradi.

[3] ishda sterjen xususiy chastotasi va xususiy tebranish formasiga sterjenga qo'yilgan massaning ta'si-rini o'rganishning analitik metodlari takomillashtirilgan. Barcha chegaraviy shartlarni uchun chastota tengla-malarining analitik ifodalari aniqlangan. Tebranish chastotalarining son qiymatlari Matematika dasturi vosita-sida olingan va analitik yechim bilan taqqoslangan.

[4] ishda sterjenning dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi harakatlari o'rganilgan. Bunda dinamik so'ndirgich massasi konussimon prujina bilan sterjenga o'rnatilgan. Prujinaga uning o'ramlari tekisligiga per-pendikular bo'lgan kuchlar ta'sir qilganda konusli prujinada silindrsimon prujinaga qaraganda egilish katta bo'lishi ko'rsatilgan.

[5] ishda tebranishlardan himoyalanuvchi sterjenlarning tebranish formalari tajriba o'tkazish yo'li bilan tadqiq etilgan. Chastotalarning o'zgarishi bilan xususiy tebranish formalarining o'zgarishi grafiklarda ko'rsatilib, chastotalarning xususiy tebranish formalariga ta'siri bo'yicha xulosalar olingan va zaruriy tavsiyalar berilgan.

[6] ishda bir uchi erkin ikkinchi uchi qistirib mahkamlangan sterjenga dinamik so'ndirgich sifatida uning erkin uchiga o'rnatilgan ikkinchi sterjenning birgalikdagi tebranishlarida xususiy tebranish formalari, chastotalari va uning optimal parametrlarini aniqlash masalalari qaralgan. Tebranishlarni so'ndirishda dinamik so'ndirgich massasining sterjen massasiga nisbatidan tashqari, dinamik so'ndirgich sifatida o'rnatilgan sterjenning egiluvchanlik xossalari va uning uzunligiga bog'liq holda so'ndirish effektivligi ko'rsatilgan. An'anaviy dinamik so'ndirgich bilan taqqoslanganda egiluvchanlik xossalari va uning uzunligi bu dinamik so'ndirgichni zaruriy loyihalashlarda qo'shimcha imkoniyatlar bergan.


[7] ishda ustiga yupqa tekis taqsimlangan massa qo'yilgan sterjenning tebranishlari qaralib, harakat tenglamalari olingan. Bunda elementar bo'lakcha olinib, unga ta'sir qilayotgan yuk taqsimlangan kuch sifatida qaralgan. An'anaviy usul bilan mazkur usulda sterjen tebranishlarni so'ndirish taqqoslanib, taqsimlangan massani o'zgartirish orqali tebranishlarni boshqarish bu usulning afzalligi sifatida ko'rsatilib, amaliyotda sterjen uzunligini cheklanganligi bu usulning kamchiligi sifatida keltirilgan.

Suyuqlik va qattiq jismdan iborat sistema hamda taqsimlangan parametrli sistemalar alohida-alohida matematik modellashtirilgan, dinamikasi o'rganilgan va natijalar tahlil qilingan [8.9].

[10.13] ishlarda gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikali tebranishlardan himoyalanuvchi sistemalar ko'ndalang tebranishlari matematik modellashtirilgan, dinamikasi o'rganilib, ustuvorligi tekshirilgan.

O'tkazilgan tahlil natijalari tebranishlardan himoyalanuvchi gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikali sterjen ko'ndalang tebranishlarini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot o'tkazish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

Materiallar va metodlar. Gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikali stejen va uning uzunligi bo'ylab harakatlanuvchi qattiq jisimli dinamik so'ndirgichning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini matematik modellashtiramiz.



1-rasm. Sterjen va harakatlanuvchi dinamik so'ndirgichli sistema sxemasi.

1-rasmda keltirilgan mexanik sistema uchun erkin jism diagrammasidan foydalansak, gisterezis tipidagi elstatik dissipativ xarakteristikali stejenning va uning uzunligi bo'ylab harakatlanuvchi chiziqli elstatik xarakteristikali qattiq jisimli dinamik so'ndirgichning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida quyidagi munosabatlar o'rinli bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 M}{\partial x^2} - c\zeta\delta(x - vt)H\left(\frac{l}{v} - t\right) = -\rho A \frac{\partial^2 w_a}{\partial t^2}; \quad (1)$$

$$m \frac{\partial^2 w(x_0)}{\partial t^2} + m \frac{\partial^2 \zeta}{\partial t^2} + c\zeta = -m \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.$$

bu yerda: M – eguvchi moment; ρ , A – lar mos ravishda sterjen materialining zichligi va ko'ndalang kesimi yuzi; $w(x_0)$ – dinamik so'ndirgich joylashgan sterjen nuqtasining ko'chishi; $x_0 = vt$ – dinamik so'ndirgich joylashgan nuqta; v – dinamik so'ndirgich tezligi; t – vaqt; $\delta(x)$ – Dirakning delta funksiyasi; $H\left(\frac{l}{v}\right)$ – Hevisayd funksiyasi; l – sterjen uzunligi; s , m – lar mos ravishda dinamik so'ndirgichning bikrligi va massasi; ζ – dinamik so'ndirgichning nisbiy deformatsiyasi; w_a – sterjenning absolyut ko'chishi

$$w_a = w_0 + w, \quad (2)$$

bunda w_0 – asosning ko'chishi; w – sterjen egilishi.

Sterjen materialidagi kuchlanish va nisbiy deformatsiya orasidagi quyidagi munosabatdan foydalanamiz [9].

$$\sigma = E(1 + (-\eta_1 + j\eta_2)[C_0 + f(\zeta_0)])\zeta_0, \quad (3)$$

bunda E – elastiklik moduli; $\eta_1, \eta_2 = \eta_{22} \text{sign}(\omega)$ lar sterjen materialining elastik dissipativlik xossalari bog‘liq bo‘lgan doimiy koeffitsiyentlar bo‘lib, gisterezis sirtmog‘idan aniqlanadi; $j^2 = -1$; $f(\zeta_0)$ – tebranishlar dekrementi bo‘lib, ζ_0 – nisbiy deformatsiya absolut qiymatining funksiyasi hisoblanadi,

$$f(\zeta_0) = C_1\zeta_0 + C_2\zeta_0^2 \dots + C_n\zeta_0^n, \quad (4)$$

C_0, C_1, \dots, C_n – gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo‘lib, sterjen materialining dempferlovchi xossalari bog‘liq [14].

ζ_0 nisbiy deformatsiya quyidagicha hisoblanadi [9]:

$$\zeta_0 = \frac{\partial^2 w(x, t)}{\partial x^2} z, \quad (5)$$

Eguvchi moment ifodasini quyidagicha yoziladi [9]:

$$M = \int_A \sigma z dA. \quad (6)$$

Keltirilgan (3) ifodani (6) eguvchi moment ifodasiga qo‘yamiz va uni hisoblaymiz.

$$M = EI \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \left[1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2) + \frac{24}{h^3}(-\eta_1 + j\eta_2) \int_0^{\frac{h}{2}} f(\zeta_0) z^2 dz \right], \quad (7)$$

bunda $I = \frac{bh^3}{12}$; $b = \text{const}$ va $h = \text{const}$ – sterjen eni va balandligi.

(2) va (7) ifodalarni (1) differensial tenglamalar sistemasiga qo‘ysak, ega bo‘lamiz

$$EI(1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2)) \frac{\partial^4 w}{\partial x^4} + \frac{24}{h^3}(-\eta_1 + j\eta_2) \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left[\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \int_0^{\frac{h}{2}} f(\zeta_0) z^2 dz \right] - c\zeta \delta(x - vt) H\left(\frac{l}{v} - t\right) + \rho A \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} = -\rho A \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \quad (8)$$

$$m \frac{\partial^2 w(x_0)}{\partial t^2} + m \frac{\partial^2 \zeta}{\partial t^2} + c\zeta = -m \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.$$

(8) differensial tenglamalar sistemasining yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$w(x, t) = \sum_{i=1}^{\infty} u_i(x) q_i(t), \quad (9)$$

bunda $q_i(t)$ – vaqtning funksiyasi; $u_i(x)$ funksiyalar ortogonal hisoblanadi, ya‘ni

$$\int_0^l u_i(x) u_m(x) dx = 0, \quad i \neq m. \quad (10)$$

$u_i(x)$ funksiyalar quyidagi differensial tenglamani qanoatlantiradi:

$$\frac{d^4 u_i(x)}{dx^4} - \frac{\rho A}{EI} p_i^2 u_i(x) = 0, \quad (11)$$

bunda p_i – sterjenning xususiy chastotasi.

(9) yechimni (5) ifodaga qo‘yamiz.

$$\zeta_0 = \left| \frac{\partial^2 u_m(x)}{\partial x^2} \right| q_m(t) z, \quad (12)$$

Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va dinamik so‘ndigichning birgalikdagi ko‘ndalang tebranishlarini matematik modellashtiramiz.

Natijalar va ularning muhokamasi. Dastlab, (9) yechimni va (12) ifodani (8) differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yamiz. (11) differensial tenglamani hisobga olib, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\sum_{i=1}^{\infty} \{ [\ddot{q}_i + (1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2)) p_i^2 q_i] u_i + \frac{3EI}{\rho A} (-\eta_1 + j\eta_2) \times$$

$$\begin{aligned} & \times q_i \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) \} - \frac{c}{\rho A} \times \\ & \times \zeta \delta(x-vt) H\left(\frac{l}{v} - t\right) = - \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \end{aligned} \quad (13)$$

$$\sum_{i=1}^{\infty} u_{i0} \ddot{q}_i + \ddot{\zeta} + n_0^2 \zeta = - \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2},$$

bunda $q_{ia} = |q_i|$; $n_0^2 = \frac{c}{m}$.

Hosil bo'lgan differensial tenglamaning ikki tomonini $u_m(x)$ ga ko'paytiramiz hamda $[0; l]$ intervalda integrallaymiz. Natijada (10) integraldan va Dirakning delta hamda Hevisayd funksiyalari xossaligidan foydalanib hamda ba'zi hisoblashlarni bajargandan so'ng, quyidagi differensial tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} & \ddot{q}_i + \{(1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2))p_i^2 + \frac{3EI}{\rho F d_{2i}}(-\eta_1 + j\eta_2) \times \\ & \times \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx\} q_i - \\ & - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0} \zeta H\left(\frac{1}{v} - t\right) = - d_i \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \end{aligned} \quad (14)$$

$$u_{i0} \ddot{q}_i + \ddot{\zeta} + n_0^2 \zeta = - \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2},$$

Bunda: $\mu = \frac{m}{\rho Fl}$; $\mu_0 = \frac{l}{d_{2i}}$; $d_i = \frac{d_{1i}}{d_{2i}}$; $d_{1i} = \int_0^l u_i dx$; $d_{2i} = \int_0^l u_i^2 dx$.

(14) ifoda gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali, sterjen va harakatlanuvchi dinamik so'n-digichning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlari harakat differensial tenglamalar sistemasi hisoblanadi.

Xulosa. Olingan harakat differensial tenglamalar sistemasi sistema parametrlarining turli qiymatlarida qaralayotgan tebranishlardan himoyalalanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning ko'ndalang tebranishlari dinamikasini baholash va ustuvorligini tekshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zainulabidin M.H., Jaini N. Vibration analysis of a beam structure attached with a dynamic vibration absorber. *Applied Mechanics and Materials*. Volume 315, 2013, p. 315 – 319.
2. Zainulabidin M.H., Jaini N. Transverse vibration of a beam structure attached with dynamic vibration absorbers: experimental analysis. *International Journal of Engineering & Technology*, Volume 12(06), 2012, p. 82 – 86.
3. Adil El B., Fulgence R. Transverse vibration analysis of Euler Bernoulli beam carrying point masse submerged in fluid media. *International Journal of Engineering & Technology*, Science Publishing Corporation, Volume 4 (2), 2015, p. 369 – 380.
4. Polukoshko S., Kononova O., Schukin I., Smirnova R. Experimental research of dynamic damping of lateral vibrations of a rigid cantilever beam. *Journal of Vibroengineering*. Volume 15 (1), 2013, p. 265 – 270.
5. Mahesha T.M., Ranjith K. Experimental Investigation of Transverse Vibration Characteristics of Beams. *International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET)*. Volume 7, 2019, p. 265–273.
6. Yingyu H., Waion W., Li Ch. Optimal design of a beam-based dynamic vibration absorber using fixed-points theory. *Journal of Sound and Vibration*. Volume 421, 2018, p. 111 – 131.
7. Jue X., Yuan-jie Ch., Yong-li M. Transverse vibrations of a thin loaded rod: theory and experiment. *European Journal of Physics*. Volume 36, 2015, <http://iopscience.iop.org/0143-0807/36/5/055035>
8. Дусматов О.М. Моделирование динамики виброзащитных систем. –Т.: Издательство Фан. 1997. 167 с.
9. Павловский М.А., Рыжков Л.М., Яковенко В.Б., Дусматов О.М. Нелинейные задачи динамики виброзащитных систем. К., “Техника”, 1997, с. 204.
10. Mirsaidov M.M., Dusmatov O.M., Khodjabekov M.U. The problem of mathematical modeling of a vibration protected rod under kinematic excitations. *IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering*, 1030 (2021) 012069, <https://doi.org/10.1088/1757-899X/1030/1/012069>
11. Mirsaidov M.M., Dusmatov O.M., Khodjabekov M.U. Mode Shapes of Transverse Vibrations of Rods Protected from Vibrations in Kinematic Excitations. *Lecture Notes in Civil Engineering* 170, (2021), pp. 217–227, https://doi.org/10.1007/978-3-030-79983-0_20

12. Mirsaidov M.M., Dusmatov O.M., Khodjabekov M.U. Evaluation of the dynamics of elastic plate and liquid section dynamic absorber. PNRPU Mechanics Bulletin, 2022, no. 3, p. 51–59. <https://doi.org/10.15593/perm.mech/2022.3.06>

13. Mirsaidov M.M., Dusmatov O.M., Khodjabekov M.U. Dynamics of the rod protected from vibration under kinematic excitations. International Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics & Water Resources Engineering”, CONMECHYDRO 2021 AS, 7–9 September 2021, Tashkent, Uzbekistan. AIP Conference Proceedings 2612, 030005 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0113225>

14. Писаренко Г.С., Яковлев А.П., Матвеев В.В. Вибропоглощающие свойства конструкционных материалов. Справочник, Киев, “Наук. Думка”, 1971, 327 с.

Do’sanov Ravshan Xalilovich (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari Markazi direktori o‘rinbosari, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent),

To‘raev Xait Xudaynazarovich (Termiz davlat universiteti kimyo fakulteti dekani, kimyo fanlari doktori, professor),

Tojiev Panji Javlievich (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘quv ishlar prorektori, texnika fanlari doktori, professor),

Eshankulov Xasan Nurmatovich (Termiz davlat universiteti texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori)

MINERAL TO‘LDIRUVCHILAR ASOSIDA OLINGAN ORGANO-NOORGANIK KOMPOZITSION MATERIALLARNING REOLOGIK XOSSALARINI O‘RGANISH

Annotatsiya. *To‘ldirilgan polivinilxlorid (PVX) kompozitsiyalarining fizik-mexanik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, suyuqlanmaning oquvchanlik ko‘rsatkichini vizkizometriya usullari bilan aniqlangan, zarbga chidamlilik Sharpi usuli bo‘yicha o‘rganilgan. Kompozitlarning reologik xususiyati 190⁰Cda polimer kompozitsiyalariga 20, 30, 40% massada bazalt va vermikulit kiritilishi bilan suyuqlanmaning oquvchanlik ko‘rsatkichining (SOK) o‘zgarishi bilan o‘rganilgan. Polivinilxloriddan bazalt minerali asosida kompozitsion materiallar olish uchun to‘ldiruvchi miqdori 1 massa qismdan 5 massa qismgacha olindi. Olingan kompozitsion materiallarning fizik-mexanik xossalari shuni ko‘rsatdiki, to‘ldiruvchining miqdorining ortishi materialning oquvchanlik xususiyatining kamayishiga olib keladi. Natijada kompozitsion materiallar tarkida bazalt tutgan to‘ldiruvchilarning optimal miqdori 5 massa qismni tashkil etadi.*

Аннотация. *Изучены физико-механические свойства наполненных поливинилхлоридных (ПВХ) композиций, определен показатель текучести вискозиметрическими методами, ударная стойкость изучена методом Шарпи. Реологические свойства композитов при 190⁰C составляют 20, 30 и 40 мас.% по сравнению с полимерными композициями. % изучали по изменению показателя текучести (ПНК) при введении базальта и вермикулита. Для получения композиционных материалов на основе базальтового минерала из поливинилхлорида количество наполнителя принимали от 1 массовой части до 5 массовых частей. Физико-механические свойства полученных композиционных материалов показали, что увеличение количества наполнителя приводит к снижению текучести материала. Оптимальное количество базальтсодержащих наполнителей в композиционных материалах составляет 5 массовых частей.*

Annotation. *Physico-mechanical properties of filled polyvinyl chloride (PVC) compositions were studied, fluidity index was determined by viscometric methods, impact resistance was studied by Sharpie method. The rheological properties of composites at 190⁰C are 20, 30 and 40 mas to polymer compositions. % was studied by the change of the fluidity index (SOC) with the introduction of basalt and vermiculite. To obtain composite materials based on basalt mineral from polyvinyl chloride, the amount of filler was taken from 1 mass part to 5 mass parts. To obtain composite materials based on basalt mineral from polyvinyl chloride, the amount of filler was taken from 1 mass part to 5 mass parts. The physico-mechanical properties of the obtained composite materials showed that an increase in the amount of filler leads to a decrease in the fluidity of the material. As a result, the optimal amount of basalt-containing fillers in composite materials is 5 parts by mass.*

Kalit so‘zlar: *polivinilxlorid, bazalt minerali, atom kuchi mikroskopiyasi, fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlari.*

Ключевые слова: *поливинилхлорид, минерал базальт, атомно-силовая микроскопия, физико-химическая механика и свойства.*

Key words: *polyvinyl chloride, basalt mineral, atomic force microscopy, physical-chemical and mechanical properties.*

Kirish. *Ekspluatatsion va konstruksion maqsadlar uchun to‘ldiruvchilar asosida polimer kompozitsion materiallar olishning asosiy maqsadi fizik-mexanik va teplofizik xususiyatlari takomillashtirilgan kompleks*

xossalarga ega bo'lgan polimer kompozit materiallarni olishdir. Bunday kompozit materiallar vermikulit, bazalt tolasi hamda boshqa qatlamli dispers va tolali to'ldiruvchilar asosida olinadi [1]. Polimer "nanokompozitlar" tushunchasi yangi paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, "polimer kompozit" ma'nosini saqlab qolgan holda, faqat dispers faza sifatida (turli geometrik shakl va o'lchamdagi nanokompozitlar 1 dan 100 nm)gacha organik va noorganik tabiatli nanoto'ldiruvchilar tutgan kompozitlar hisoblanadi [2]. Kompozitlar ko'p devorli uglerod nanonaychalari va yuqori molekular PEDan tuzilgan bo'lib, spirt ishtirokida ultratovush ta'sirida va mexanik aralastirilib turib, nanoto'ldiruvchilar olingan. To'ldiruvchining nanzar-rachalari PE to'ldiruvchi matritsa qismida joylashgan bo'lib, kompozit ikki o'lchovli elektr o'tkazuvchan panjarali tuzilishga ega bo'ladi [3]. Turli xil usullar (RSA, DSK, KR, DMA, optik qutblanish mikroskopiyasi) yordamida sof PE va PE-matrisasi nanokompozitlarini kristalli va amorf fazalarda, deformatsiyaning barcha bosqichlarida bo'lgan o'zgarishlarni o'lchash mumkin [4]. Kompozitlarning reologik yuklanish ta'sirida YUZPE hosil bo'lish jarayoni va kavitatsiyalanishi asosan deformatsiyalanish tezligiga bog'liqligi, sof PE bilan solishtirganda, nanokompozitlar hajmi oshganligi (ko'paytirish bosqichida 50% gacha), amorf fazada molekular orientasiya past darajasi amaldagi kuchlanishni kamayishiga olib keladi (1.1:1.5 marta), bunda to'ldiruvchi va matritsa orasida qavatlarini adgezion ajralishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin [5]. Dastlabki namunalarda va yuklangandan keyin to'ldiruvchi zarrachalarning tuzilishi va teksturasi solishtiriladi va PE kristallitlarida molekularlarning harakatchanligi bilan bog'liq alfa o'tish kuchli deformatsiyalangan namunalarda ($\epsilon > 500\%$) past temperaturaga o'tishini kuzatish mumkin [6]. Yuqori zichlikga ega PE nanokompozitlar – mahalliy bentonit gilni interkalatsiyalash yo'li bilan olingan. Rentgen va uzatuvchi elektron mikroskop yordamida nanokompozitlarning appret sifatida malein anhidrid bilan to'rtlamchi ammoniy tuzi bilan ishlov berilgan va ishlov berilmasdan oldin olovga chidamliligi, mexanik va reologik xossalari o'rganilgan [7]. Cho'zilish modulining oshishi natijasida qisman eksfolirlangan yoki interkalatsiyalangan kompozitlar hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Yong'inga chidamliligini o'rganishda nanokompozitlarga gil to'ldiruvchi va appret qo'shilganda yonish tezligi kamayishi va yong'inga chidamliligi oshishi aniqlandi [8]. Appretning qo'shilishi PE matrisani zichligini va termik barqarorligi oshishiga, matritsaning to'ldiruvchiga yopishqoqligining ortishiga va mexanik xususiyatlarini ortishiga olib keladi [9]. Tabiiy nanoxajmli zarralari asosidagi polimer kompozitlar montmorillonit, gektorit, vermikulit, kaolin, saponin kabi tabiiy qatlamli anorganik birikmalar yordamida hosil qilinadi, masalan, gilda uchraydi. Kompozitlarni ishlab chiqarish usuli quyidagicha: 1 nm qalinlikdagi montmorillonit qatlami ion almashinish reaksiyasi vaqtida faol guruhi (ϵ -kaprolaktam, butadien, akrilonitril yoki yepoksid smolasi) bilan monomer to'yintiruvchi bilan to'yintiriladi va so'ngra polimerlanish amalga oshiriladi [10].

Natijalar tahlili. Reologik xossalari, aktivlanish energiyasi va yopishqoqlik oqimi aniqlash. Polimerlarni qayta ishlashda maqbul sharoitlarni tanlashda suyuqlanmalarning reologik xossalari muhim ahamiyat kasb etadi. Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi to'ldiruvchi konsentratsiyasi va uning zarrachalar shakliga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu ishda polimer kompozitsion materiallarning reologik xossalari polimer tarkibiga to'ldiruvchi kiritilishiga bog'liq holda o'rganildi.

1-jadvalda 190°Cda polimer kompozitsiyalariga 20, 30, 40% massada bazalt va vermikulit kiritilishi bilan suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichining (SOK) o'zgarishi ko'rsatilgan.

1-jadval

Mineral to'ldiruvchilar: vermikulit (VK), bazalt (BT), vollostanit (VT) va polietilen P-Y 342 asosidagi kompozitsion materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining (190°C, 2,16 kg) tarkibidagi to'ldiruvchilar miqdoriga bog'liqligi

Kompozitsiya tarkibi	To'ldiruvchilarning zarrachalar o'lchami, mkm	Kompozitsiya tarkibidagi to'ldiruvchilar (VK,BT,VT) va polimer miqdori (mas.%)			
		100	80/20	70/30	60/40
		Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi, g/10min			
P-Y 342		0,32	-	-	-
P-Y 342/VK	1	-	0,33	0,4	0,6
	3		0,5	0,7	0,8
	5		0,55	0,8	0,9
P-Y 342/BT	1	-	0,4	0,5	0,8
	3		0,5	0,7	0,8
	5		0,6	0,75	0,9
P-Y 342/VT	1	-	0,33	0,4	0,5
	3		0,5	0,6	0,7
	5		0,6	0,7	0,8

Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi kompozitsion materiallarni qayta ishlash, xususan, suyuqlanma haroratini va bosim ostida shakl berish sharoitlarini aniqlashda yordam beradi. Ularni o'rganish tegishli usul va ishlov berish rejimini tanlashda yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 190°C haroratda polimer tarkibiga to'ldiruvchi kiritilishi bilan, dastlab, SOK miqdori sezilarli oshmaydi, keyin esa to'ldiruvchi miqdori 30% massa bo'lganda SOK miqdori 0,4 ga teng bo'lsa, to'ldiruvchi miqdori 40% massaga yetganda SOK miqdori sezilarli oshadi. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi to'ldiruvchi miqdori 30% massa va o'lchami 1 mkmga yetganda kam o'zgardi, 40% massaga yetganda esa sezilarli o'zgardi. Bundan kelib chiqadiki, kompaundlarning SOK to'ldiruvchi turiga bog'liq emas, 30 % massa to'ldiruvchi tutgan P-Y 342ning SOK dastlabki polimeriga nisbatan biroz oshdi. Bu esa P-Y 342 uchun to'ldiruvchining maqbul konsentrasiyasini 30% massa va o'lchamini 1 mkm deb olish mumkinligini ko'rsatadi. Ma'lumki, maleinlangan oligomerlar va siloksanlar oldindan ma'lum kompleks texnologik va ekspluatatsion xarakteristikalariga ega bo'lgan materiallar olish uchun ularni modifikatsiya qilishda keng qo'llaniladi. Odatda, polimer asos va to'ldiruvchi o'rtasidagi adgeziyani oshirish uchun modifikatorlar qo'llaniladi. Bunday modifikatorlar sifatida, ko'pincha, maleinlangan polietilen (PEMA) va to'rtlamchi ammoniy asoslarining tuzlaridan foydalaniladi. 2-jadvalda P-Y 342 asosidagi kompozitsiyaga maleinlangan polietilen va modifikator tetraetilammoniy stearat (TEAS) 0,5dan 2% massa konsentratsiyagacha qo'shilganda uning SOK o'zgarishi keltirilgan. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, kompozitsiya tarkibiga PEMA va 1,0 mas.% tetraetilammoniy stearat (TEAS) kiritilganda kompozitsiyaning SOK yuqori darajaga etadi.

2-jadval

Mineral to'ldiruvchilar: vermikulit (VK), bazalt (BT), vollostanit (VT) va polietilen P-Y 342 asosidagi kompozitsion materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining (190⁰ C, 2,16 kg) modifikator tetraetilammoniy stearat (TEAS) miqdoriga bog'liqligi

Kompozitsiya tarkibi	Kompozitsiya tarkibidagi modifikator TEASning to'ldiruvchilar (VK,BT,VT) massa qismiga nisbatan miqdori (mas.%)				
	Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi, g/10min				
	0	0,5	1,0	1,5	2,0
P-Y 342/VK	0,4	0,35	0,3	0,3	0,3
P-Y 342/PEMA/VK	0,35	0,3	0,2	0,2	0,2
P-Y 342/BT	0,5	0,4	0,3	0,3	0,3
P-Y 342/PEMA/BT	0,4	0,3	0,2	0,2	0,2
P-Y 342/VT	0,4	0,35	0,3	0,3	0,3
P-Y 342/PEMA/VT	0,35	0,3	0,2	0,2	0,2

Hozirgi vaqtda P-Y 342 sinfiga doir polietilen quvur ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan asosiy mahsulotlardan biri hisoblanib, undan turli mahsulotlar ishlab chiqarilishi bilan termoplastlar o'rtasida yetakchi o'rin tutadi. 3 jadvalda vermikulit (VK), bazalt (BT), vollostanit (VT) va poliamid PA-6 asosidagi kompozitsion materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichlari o'rganilgan.

3-jadval

Mineral to'ldiruvchilar: vermikulit (VK), bazalt (BT), vollostanit (VT) va poliamid PA-6 asosidagi kompozitsion materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining (220⁰C, 2,16 kg) tarkibidagi to'ldiruvchilar miqdoriga bog'liqligi

Kompozitsiya tarkibi	To'ldiruvchi zarrachalar o'lchami, mkm	Kompozitsiya tarkibidagi to'ldiruvchilar (VK,BT,VT) va polimer miqdori (mas.%)			
		100	80/20	70/30	60/40
		Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi, g/10min			
PA-6		1,5	-	-	-
PA-6/VK	1		1,5	1,6	1,8
	3		2,0	2,0	2,5
	5		2,5	2,5	3,0
PA-6/BT	1		1,6	1,6	1,8
	3		2,3	2,3	3,0
	5		2,6	2,6	3,2
PA-6/VT	1		1,5	1,6	2,0
	3		2,0	2,0	2,4
	5		2,6	2,6	3,0

P-Y 342 juda yaxshi texnologik xarakteristikalariga ega. Suyuqlanmaning qovushqoqligi yuqori bo'lishiga qaramasdan, suyuqlanmada nisbatan quyimolekular fraksiyalar moylash vazifisini o'taydi va ekstruziya jarayonini osonlashtiradi. 4-jadvalda to'ldiruvchining miqdori 30% massaga yetganda, PA-6 asosidagi polimer kompozitsyaning oquvchanlik ko'rsatkichi dastlabki polimerga nisbatan kam o'zgardi.

4-jadval

Mineral to'ldiruvchilar: vermikulit (VK), bazalt (BT), vollostanit (VT) va poliamid PA-6 asosidagi kompozitsion materiallarning oquvchanlik ko'rsatkichining (220°C, 2,16 kg) modifikator tetraetilammoniy stearat (TEAS) miqdoriga bog'liqligi

Kompozitsiya tarkibi	Kompozitsiya tarkibidagi modifikator TEASning to'ldiruvchilar (VK,BT,VT) massa qismiga nisbatan miqdori (mas.%)				
	0	0,5	1,0	1,5	2,0
	Suyuqlanmaning oquvchanlik ko'rsatkichi g/10min				
PA-6/VK	1,6	1,3	1,0	1,0	1,0
PA-6/PEMA/VK	0,8	0,6	0,5	0,5	0,5
PA-6/BT	1,6	1,5	1,2	1,2	1,2
PA-6/PEMA/BT	1,0	0,8	0,5	0,5	0,5
PA-6/VT	1,6	1,2	1,0	1,0	1,1
PA-6/PEMA/VT	1,0	0,6	0,5	0,5	1,2

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, modifikatorlar TEAS va PEMA asosida PA-6dan olingan kompozitsiyalarda SOKning qiymati ancha past. TEASning (1,0 mas. %) polimer tarkibiga kiritilishi bilan PA-6 asosidagi kompozitsiyada SOK miqdori pasayishi (1,6dan 1,0g/10 min.) gacha kuzatiladi. Bu effekt, shuningdek, kompozitsiya tarkibiga PEMA kiritilganda 0,8dan 0,5 g/10 min.gacha kuzatiladi. 220°Cda PA-6 tarkibiga PEMAning 1,0 mas.%. modifikator TEAS bilan birgalikda kiritilishi, SOKning qiymatining birmuncha ko'proq pasayishiga olib keladi, bu esa PA-6ning SOK qiymati uchun modifikatorning maqbul. Konsentratsiyasini 1,0 % massa deb olish mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa. Polimerlar va to'ldiruvchilar asosida olingan kompozitsion materiallarning reologik xossalari ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kompozitsiya tarkibiga 30% mas. miqdorda to'ldiruvchi kiritilishi SOKning qiymatining dastlabki polimerlarga nisbatan sezilarli pasaygani kuzatildi. Kompozitsiya tarkibiga 1,0% massa miqdorda modifikator TEASning kiritilishi o'rganilgan harorat diapazonida oquvchanlikning pasayishiga va qovushqoqlikning ortishiga sabab bo'lganligi va PA-6 va P-Y 342 asosidagi kompozitsion materiallarning reologik xossalari o'rganish ularni qayta ishlashda maqbul sharoitlarni o'rnatishda asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gorrasi Guiliana, Sarno Maria, Di Bartolomeo Antonio, Sannino Diana, Ciambelli Paolo. Vittoria Vittorialncorporation of carbon nanotubes into polyethylene by high energy ball milling: morphology and physical properties. Polym. Sci. B N 5, 2007.
2. Мамбиш С.Е. Карбонаты кальция в полиолефинах. Пласт. массы № 5, 2008, с. 3–6.
3. Герасин В.А., Гусева М.А., Меркалова Н.Д., Гаришин О.К., Свистков А.С., Антипов Е.М. Создание полимер-силикатных нанокомпозитов. Структура и деформационные свойства. Новые полимерные композиционные материалы, 2008, с. 97 – 100.
4. Gao Jie-Feng, Li Zhong-Ming, Meng Qing-jie, Yang Qi CNTs UHMWPE composites with a-two dimensional conductive network. Mater. Lett. № 20, 2008, т. 62, с. 3530 – 3532.
5. Brito Gustavo F., De Oliveira Amanda D., Araujo Edcleide M., De Melo Tomas J. A., Barbosa Renata, Ito Edson N. Nanocompositos de polietileno/argila bentonita nacional: Influencia da argila e do agente compatibilizante PE-g-MA nas propriedades mecanicas e de inflamabilidade. Polim.: cienc. e tecnol. № 2, 2008, т. 18, с. 170–177.
6. Коляда С.Ю., Слоква А.В., Баштанник П.И. Исследование процесса переработки композитов, армированных поливолокнистым наполнителем. 5 Международная научно-практическая конференция. Trans - Mech - Art - Chem, Москва, 2008.
7. Тожиев П.Ж., Нормуродов Б.А., Тураев Х.Х., Нуркулов Ф.Н., Джалилов А.Т. Мингкулова З.А. Свойства полимерно-композиционных материалов наполненных вермикулитом. Научный вестник СамГУ, №1, 2018, с. 63–65.
8. Тожиев П.Ж., Дусанов Р.Х., Тураев Х.Х., Джалилов А.Т. Изучение термостойкости композитов на основе полиамида, наполненного базальтовым волокном. Журнал «Композиционные материалы», 2018, №1, с. 285–287 (02.00.00.№4), 9. Тожиев П.Ж., Дусанов Р.Х., Тураев Х.Х., Джалилов А.Т. Структура и свойства полиамида-6 наполненных вермикулитом. Universum: химия и биология: электрон. науч. журнал, 2020, №8 (74), с. 49 – 52.

10. Do'sanov R.X., Tojiev P.J., Turaev X.X. Yuqori darajada to'ldirilgan polimer kompozision materiallarning olinishi va ularning tadqiqoti. AnDU Ilmiy xabarnomasi, 2020, № 3 (47), s. 102–111.

Холиков Суюнжон Хамрокул ўғли, Тухтаев Кувончбек Хамрокулович, Шарипова Мохинур Шокир кизи
(Навоийский государственный Педагогический институт)
ОБРАТНАЯ ЗАДАЧА ОПРЕДЕЛЕНИЯ НЕСТАЦИОНАРНОГО КОЭФФИЦИЕНТА ДЛЯ
УРАВНЕНИЯ ТЕПЛОПРОВОДНОСТИ

Annotatsiya. Ushbu maqolada chegaralangan sohada issiqlik tarqalish tenglamasi uchun koeffitsiyentni aniqlashning teskari masalasi ko'rib chiqilgan. To'g'ri masala – qismi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalani Furiye usuli yordamida ekvivalent integral tenglamaga keltirilgan. Integral tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi ketma-ket yaqinlashish va Gronuolla tengsizligi usuli bilan isbotlanadi. Teskari masala noma'lum koeffitsiyent uchun ekvivalent integral tenglamalar tizimi bilan almashtiriladi. Integral tenglamalar yechimining mavjudligi va yagonaligi ketma-ket yaqinlashishlar usuli bilan isbotlanadi.

Miskavayhning ideal baxt-saodati—bu oqilona baxt-saodat. Harakat esa, garchi u ham muhim va asosiy narsa bo'lsa-da, ammo u shunchaki bir vosita bo'lib, agar odamni oxirgi maqsadiga olib kelmasa, u nomunosibdir.

Inson o'z-o'zini takomillashtirish yo'lida hamma maxluqot va uning xossalari haqida bilishga ega bo'lgan taqdiridagina (narsalar, ularning mohiyati, belgilovchi chegaralari haqidagi bilimni egallash) u "olam sag'ir" kichik olam deb atalishiga munosibdir. Albatta, inson mavjud narsalarni kulldan bilsa, u juz'larni ham (chunki juz'lar kull ichidadir) bilib olish muqarrar. Boshqa tarafdin inson o'z ruhini ezgu harakatlar bilan bezagandan keyin, u xudoning xalifasi bo'lib qoladi.

Biz yuqorida Ibn Miskavayhning borliq va ruh to'g'risidagi fikrlaridan iqtiboslar keltirdik va ularni o'zimizcha mushohada qilishga urindik.

Xulosa. Miskavayh Roziy o'z davrining barcha ilg'or ta'limotlarini, xususan, qadimgi hind, Yunon, Eron, Turon, o'rta asr arab, uyg'onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o'z dunyoqarashida umumlashtirdi. Ibn Miskavayhning falsafiy qarashlari o'zining tabiiy-ilmiy xarakteri, ularda tabiat falsafasi haqidagi g'oyalarning ustunligini yaqqol ko'rish mumkin. Miskavayh turli xil muammolarni o'zicha yechishga harakat qiladi. U faqat diniy, axloqiy, falsafiy bilimlar bilan bir qatorda, tabiiy bilimlar bilan ham mutanosiblikda shug'ullanganligi e'tiborga loyiqdir.

Shunday qilib, Ibn Miskavayh o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi tabiatshunoslikka oid fikrlari, tabiiy-ilmiy, axloqiy va ijtimoiy, falsafiy qarashlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi.

¹ Ibn Miskaweyh. "Tahdib ul-akhlaq". Beirut, 1966, r. 14 – 26.

Yana bir qiziq ma'lumotni aytib o'tish kerakki, Abu Rayhon Beruniy "Qonuni Ma'sudiy" va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlari muqaddimasida Ibn Miskavayhning nomi tilga olinadi. Ma'mun II fan va adabiyot homiysi bo'lib, Urganchda "Ma'mun akademiyasi" nomli ilmiy markaz barpo etgan edi. Bu "Akademiyaga" Markaziy Osiyo, umuman, Islom Sharqining bir qancha olim, shoir va yozuvchilarini to'plagan edi. Bular orasida buyuk olim Abu Ali ibn Sino, Beruniyning ustozlari Abu Sahl al-Masihiy va Abu Nasr ibn Iroq, tabib Abul-Hasan Hammor, tarixchi Ibn Miskavayh (1030-y. da v.e.) kabilar bor edi. Demak, ma'lum bo'ladiki, Ibn Miskavayh "Ma'mun akademiyasi"da tarixchi, faylasuf olim sifatida faoliyat yuritgan. U IX–XI asrlar Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy "uyg'onishi"ning ma'naviy yutuqlarini o'z asarlarida mujassamlashtirgan holda butun insoniyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning tabiiy-ilmiy, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bugungi kunda ham ahamiyati juda katta. Ibn Miskavayhning ulkan ilmiy merosi biz uchun ochilmagan xazina kabi. Uni o'rganish va tadqiq etish biz tadqiqotchilarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Miskaweyh. "Tahdib ul-akhlaq". Beirut, 1966, r. 14 – 26.
2. Ibn Miskaweyh. Al-Khikmat al-holida. Beirut, 1952, r. 15 – 45.
3. ۱۳۱۹ هـ. الفوز الاصغار. –بيروت، هـ. ۱۳۱۹. //Miskavayh Abu Ali. Al-fayzul asg'ar. Bayrut.
4. Sulaymonova S.N. (2022). Ibn Miskavayh asarlarida hind axloqiga oid mulohazalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 25), p. 635 – 641.
5. Sulaymonova S.N. (2021). Abu Nasr Forobiy va Ibn Miskavayhning hayotiy faoliyati. Ilmiy merosi. "Sharqshunoslik", 2 (214 – 223).

Kilichev Farxod Davlatyarovich (Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi) FALSAFA VA MATEMATIK TAFAKKUR: DIALEKTIK BOG'LIQLIGINING ILMIY-METODOLOGIK MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bilish jarayoni matematika bilan bog'liqligi va mazkur jarayon bevosita yoki bilvosita matematik operatsiyalarni taqozo etishi, shuning uchun faylasuflar matematikaning immanent xususiyatlarini anglashga, ochib berishga intilishlari hamda matematikaning xususiyatlarini anglash esa uning borliq, bilish jarayoni, yon-atrof, obyektning soni, yuz hajmi, sathi, makonda egallagan o'rni, hatto harakatlarini o'lchash bilan bog'liqligi borasida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье познавательный процесс связан с математикой, и этот процесс прямо или косвенно требует математических операций, поэтому философы стремятся понять и раскрыть имманентные свойства математики, а понимание свойств математики – это ее существование, познавательный процесс, окружение. Предметы, количество, размер лица, уровень, положение, занимаемое в пространстве, и даже движения связаны с измерением.

Annotation. In this article, the cognitive process is related to mathematics and this process directly or indirectly requires mathematical operations, so philosophers strive to understand and reveal the immanent properties of mathematics, and understanding the properties of mathematics is its existence, cognitive process, surroundings, objects. the number, the size of the face, the level, the position occupied in the space, and even the movements are related to the measurement.

Kalit so'zlar: aprior sezgi, tabiiy faoliyat, orientatsiya, ong uyg'onishi, o'zini-o'zi anglash, tush, kundalik hayotdagi tajriba, obyektiv borliq, tajriba, tush, xayol, fantaziya, g'ayrihayotiylik, tushni, fantaziya, apriorigcha tajriba, imitatsiya.

Ключевые слова: априорная интуиция, естественная деятельность, ориентация, пробуждение сознания, самосознание, мечта, опыт повседневной жизни, предметное существование, опыт, воображение, фантазия, неживое, изображение, фантазия, неживое, априорное. опыт, подражание.

Key words: aprior intuition, natural activity, orientation, awakening of consciousness, self-awareness, dream, experience in everyday life, objective existence, experience, dream, imagination, fantasy, inanimate, dream, fantasy, aprior experience, imitation.

Olam va ijtimoiy hayot haqidagi bilimlar, qarashlar va tasavvurlar pirovard natijada matematikaga borib taqaladi. Oddiy kuzatuvlarimiz, yon-atrofdagi narsalarning ko'rinishi, shakli, hajmi, soni, yuz sathi haqidagi tasavvurlarimiz barchasi matematik operatsiyalar mahsullaridir. Per Gassendi "biz nima bilsak, bari matematika tufaylidir".¹ Matematika borliqdagi narsalarning soni va shakli haqidagi "universal abstraksiya"dir. "Son va

¹ Гассенди П. Произведения. Москва, "Мысль", 1974, с. 125.

geometrik figura matematik reallikni ifodalovchi asosiy abstraksiya sifatida keladi. Ularni umumlashtirish matematikaning predmetidir. Ushbu umumlashma dunyoning butunligi yoki Xudo, mutlaq g'oya, tabiat qonunlari kabi birlamchi avvallarga tayanadi".¹

Bilish jarayoni matematika bilan bog'liq. Mazkur jarayon bevosita yoki bilvosita matematik operatsiyalarni taqozo etadi. Shuning uchun faylasuflar matematikaning immanent xususiyatlarini anglashga, ochib berishga intiladilar. Matematikaning ushbu xususiyatlarini anglash esa uning borliq, bilish jarayoni, yon-atrof, obyektlarning soni, yuz hajmi, sathi, makonda egallagan o'rni, hatto harakatlarini o'lchash bilan bog'liqdir. Ularning talqinicha, matematika quyidagi xususiyatlari tufayli bilish predmetidir:

1. Matematika narsalarning sathi shakllari va sonli munosabatlarning ifodasi (F.Engels).
2. Matematika sonlar haqidagi ta'limotdir (Galiley).
3. Matematikaning mohiyati sonlardadir (Pifagor).
4. Matematika o'lchash va tartiblash haqidagi fan (R.Dekart).
5. Matematika barcha narsalarni o'lchash usuli.
6. Matematika mantiqning qismidir (mantiqshunoslar).
7. Matematika simvollar o'yinlaridir (formalistlar).
8. Matematika bizga ma'lum emas, ammo nima deyayotganimiz ham mavhum predmetdir (B.Rassel).
9. Matematika intellektual faoliyatning alohida ko'rinishi (intuitiv bilish tarafdorlari).
10. Matematika bu isbotlash ilmi (N.Burbaki).
11. Matematika matematik tuzilishlarni o'rganadi (N.Burbaki).
12. Matematika cheksizlik haqidagi fandir (G.Veyl, D.Gilbert).
13. Matematika narsalarga umumiy nom berish ilmidir (A.Puankare).
14. Matematika san'at ham, shu bilan birga, u turlicha nomlanadi ham (folklor).
15. Matematika univesal abstraksiyani o'rganadi.
16. Matematikada hamma narsa bor (fizik matematiklar).
17. Matematika o'zini-o'zi o'rganadi (folklor).
18. Matematika behad keng metafora.
19. Matematika barcha fanlarda oson, shu bilan birga, ulardan qiyin hamdir.
20. Matematika shaxsni tarbiyalaydi (etik jihati).
21. Matematika shartli narsalar haqidagi haqiqat, mantiq esa mutlaq narsalar haqida.
22. Matematika hodisalar haqidagi fan, ya'ni fenomenologiyadir.²

Bu ta'riflarni yana davom ettirish mumkin va ularning har biri haqida fikrlar, e'tirozlar bildirish, bahslashish mumkin. Masalan, matematikaning fenomenologik xususiyatlari ma'lum bo'lsa-da, uni fenomenologiya deyish qanchalik mantiqqa to'g'ri? Fenomen boshqa, fenomenologiya boshqa, ular o'rtasidagi farqni ko'rmaslik mumkin emas yoki matematika o'zini-o'zi o'rganadi, degan pastulatni olaylik. Agar bu pastulatdan kelib chiqsak, matematika tashqi olam, reallik va narsalar bilan qiziqmaydi, u faqat o'zini o'rganadi, deb o'ylashga majburmiz. Ma'lumki, matematika yon-atrofdagi narsalar va hodisalarga son yoki sath nuqtayi nazaridan baho beradi. ularning o'zining umumiy abstraksiyalarida ifoda etadi. Boshqa tadqiqotchi matematiklar "Matematika fizika, biologiya, iqtisodiyot va boshqa fan sohalarining tekislikda va fazodagi koordinatlarini miqdoriy jihatdan asoslaydi deb hisoblashadi. Ayniqsa, Yevklid tomonidan kashf etilgan geometriya va Al-Xorazmiy tomonidan kashf etilgan algebra fani nazariy va amaliy matematikaning yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi".³ Matematika fani haqida turli ta'riflar uchrasa-da, tadqiqot obyekti sifatida u ma'lum bir abstraksiyani, nazarni, qarashni talab etadi. Bu faqat umumlashgan abstraksiya bo'lishi mumkin.

Professor Y.M.Vechtomovning fikricha, matematika obyekti shakl va son bilan ifoda etiladigan fundamental tushunchalar, ularning turlicha ko'rinishlari hisoblanadi. Matematikaning predmetini esa intellektual izlanishlar, refleksiya, reallikni ifodalash jarayonlarida kashf etiladigan yoki aniqlanadigan matematik tuzilmalar va matematik modellar tashkil qiladi. "Matematikaning umumiy metodi qat'iy deduksiya".⁴

Matematikaning son va sath o'lchovlari, ularni sxemalarda, simvollar va belgilarda ifodalash usullari, obyekt haqida aniq va universal bilim berishi, nazariy va amaliy tavsillarini reallikka tatbiq etish mumkinligi uni boshqa bilim sohalaridan farqlab turadi. Aynan matematika asosida umumiy, barcha fanlarga taalluqli deduktiv usul paydo bo'ldi va u ijtimoiy gumanitar fanlarning amaliy xulosalarini sinab ko'rish, tatbiq etish, prog-

¹ Вечтомов Е.М. Философия математики. Монография, Киров, "Радуга Пресс", 2013, с. 15.

² Ўша асар. 16-бет.

³ Неъматова Ш. Математика фанини ўқитишнинг назарий масалалари ва методикаси. Т., "Tafakkur", 2011, 25-бет.

⁴ Ўша асар. 17-бет.

noz qilish imkonini yaratdi. Mantiq fanining shakllanishi va rivojlanishi ham matematik tafakkur hosilasi hisoblanadi. Zamonaviy mantiq fani bugun matematik operatsiyalarning deyarli barcha ko‘rinishlaridan foydalananadi, ular o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik bir-birini boyitib, qo‘llab-quvvatlab rivojlanishga imkon beradi. L. Vitgenshteyn “Dunyo o‘rniga ega narsalardir. Dunyo faktlarga bo‘linadi” deganida olamdagi barcha narsalar o‘z o‘rni va sonli ifodalariga ega ekanini ta’kidlagan.¹

Demak, biz yashayotgan yoki ko‘rayotgan dunyo fakt, ushbu faktlarni nafaqat ko‘rish, his qilish, shu bilan birga, sanash, sathini o‘lchash, harakatlari trayektoriyasini chizish, sxema tarzida ifodalash mumkin. Matematik tafakkur ana shu ehtiyojlardan kelib chiqadi. Shuning uchun ham u bilish shakli, usuli hisoblanadi. O‘z paytida Leonardo da Vinchi “insoniyatning hech bir tadqiqoti, agar u matematik isbotdan o‘tmagan bo‘lsa, haqiqiy fan bo‘la olmaydi” deb fanlar bilan matematika, ayniqsa, falsafiy izlanishlar bilan bog‘liqlini ta’kidlagan. Uning o‘zi yaratgan suratlari va asarlari matematik tafakkurining bebaho namunalari. Matematikani qaysi fanlar qatoriga kiritish masalasi ham hanzuz aniqlanmagan. Bu borada turli, goho bir-biriga zid fikrlar, yondashuvlar uchraydi. Masalan, A.I. Arnold matematikani tabiiy fanlar qatoriga kiritadi. Unig fikricha, son va sathlar haqidagi qarashlarning barchasi, oxir natijada, tabiiy hodisalar negizida shakllanadi. Matematikaning eksperimental xususiyati uni tabiiy fanlarga kiritishga undaydi.²

Faylasuf va matematik N.N. Nepeyvoda matematikani gumanitar fanlar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, intellektual izlanishlar mahsuli bo‘lgan matematika kishida umumiy qarashlar. matematik tasavvurlar. Universal yondashuvlar, modellar yaratishga olib keladi. Bu subyektiv izlanishlar pirovard natijada gumanitar sohaga taalluqlidir. Faylasuf M.M. Postnikov matematikaning vazifasini rang-barang sxemalarni, modellarni o‘rganish, u tabiiy fanlarga ham kirmaydi, gumanitar fanlarga ham, degan fikrni bildiradi. Modellar esa falsafaning tadqiqot obyektini, aslo, matematikaning emas. Bu taqdirda matematika ma’lum bir sxemalar (sonlar ham sxemalardir)ni o‘rgandi, degan fikr bilan chegaralanishga to‘g‘ri keladi.³

Falsafa fanlari doktori, pffessor Y. Vechtomov ham matematikani na tabiiy fanlarga, na ijtimoiy va na texnik fanlarga kiritish mumkin, deb e’tiroz bildiradi. Uni, “aslida, alohida fan, fanlar qirolichasi degan ma’qul” deb yozadi.⁴

Matematika inson bilish faoliyatining ifodasi, shuning uchun u o‘zining gnoselologik savollariga, predmeti va masalalariga ega. Y.M. Vechtomov matematikaning gnoseologik masalalarini apriorligi, ayonligi, mantiqiyliqi, intuitivligi, empirikligi va amaliyligi bilan bog‘lab tadqiq etishni tavsiya qiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvda ratsional asos mavjud. Unda, birinchidan, falsafiy muammo, mavzu birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Yuqoridagi tushunchalarning deyarli barchasi falsafaga, ijtimoiy falsafaga ham, taalluqlidir. Ikkinchidan, matematikaning ichki xususiy belgilari va u tayanadigan umumiy abstraksiya yuqoridagi falsafiy voqeliklar bilan yanada salmoqli, ahamiyatli va ilmiy bo‘ladi. Uchinchidan, falsafa va matematik tafakkurning bir-biriga dialektik bog‘liqligini kuzatish imkoni mavjud. Apriorlik inson bilimida ungacha mavjud bo‘lgan tasavvurni, tajribadan avvalgi voqelikni anglatadi. Y.M. Vechtomovning yozishicha, “insonga tug‘ilganidan, keyin amaliy faoliyati davomida mustahkam ko‘rinish oladigan va ob’ektiv xarakter kasb etadigan, makon, vaqt va sabab oqibatni sezish hissi xos. Aprior sezgisiz, xuddi tabiiy faoliyat kabi, yon-atrofdan oriyentatsiya, ong uyg‘onishi va o‘zini-o‘zi anglash mumkin emas.⁵ Apriori tajribagacha tajriba ifodasidir. Agar bundan kelib chiqsak, tajribadan oldin ham tajriba bor, bu tajriba ikkinchi tajribaga:

1) aynan; 2) unga zid; 3) ular orasida kabi ko‘rinishlarda kelishi mumkin. Aynan bo‘lsa, birinchi tajriba, ya’ni apriorigacha bo‘lgan tajriba bilamchidir. Aynan bo‘lgani uchun u tajriba ikkinchisiga ta’sir etgan. Bu xuddi tushga o‘xaydi. Tush insonning kundalik hayotida duch kelgan narsani ifoda etishi mumkin. Bu taqdirda kundalik hayotdagi tajriba birlamchi bo‘lib tushga kirgan tajriba ikkilamchidir. Obyektiv borliqning realligidan kelib chiqsak. Ikkinchi tajriba tush, xayol, fantaziya, g‘ayri hayotiylik mahsullaridir. Uni, tush kabi, ana shu hissiy omillar, kunduzi hosil bo‘lgan kechinmalar paydo qiladi. Materialistik nuqtayi nazaridan kelib chiqqanda, tushni, xayol, fantaziya, g‘ayrihayotiylikni kunduzi ro‘y bergan voqealar, kechinmalar hosil qiladi, xayolotga joylashgan epizodlar tushga kirib, o‘sha voqeliklarni qayta jonlantiradi. Tush to‘la aynan bo‘la oladimi, albatta, yo‘q. U o‘rinishimizdan turgan zahoti o‘chib ketadi. Xayolot mahsuli ba’zan ancha esda saqlanib tursa da, u obyektivlikka, real hayotiy tajribaga da’vogarlik qila olmaydi. Shuning uchun aynan tajribalar (apriorigacha tajriba va apriori) yo‘q, ammo ularning tush misol imitatsiyasi mavjud. Bu imitatsiya odamdan. Unig miyasi-

¹ Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. Москва, АСТ, 2022, с. 10.

² O‘sha asar. 383-bet.

³ O‘sha asar. 438-bet.

⁴ Вечтомов Е.М. Философия математики. Монография, Киров, “Радуга Пресс”, 2013, 20-bet.

⁵ O‘sha asar. 21-bet.

dan, miyasiga joylashgan fikr, xayol, tasavvur, demak, obyektiv borliqdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Matematik formulalar ushbu psixologik jarayonlarni ifoda etadi, ular kishining ichki dunyosi, xayolot olamidan tashqarida emas. Matematikaning universalligi, umumni ifoda etishi, abstraksiyaligi ana shundadir. Bular, aslida matematikaning falsafaga yaqinligini tasdiqlaydi.

**Mansurov Farrux Najmitdinovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi)
YA'QUB CHARXIY – NAQSHBANDIYA TARIQATINING NAZARIYOTCHISI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ya'qub Charxiy naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi ekanligi borasidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Ya'qub Charxiy Buxoro shahriga kelib, Bahouddin Naqshbandga shogird tushgan. Ya'qub Charxiy o'z asarlarida ko'proq Xoja Bahouddin Naqshband aytgan so'zlardan iqtiboslar keltirgan. Ya'qub Charxiy ham o'zining asarida o'ndan ortiq ustozining o'gitlarini sharhlab o'tgan.*

***Аннотация.** В данной статье отражена информация о Якубе Чархия, являющемся теоретиком тарикаты накшбандия. Якуб Чархи приехал в Бухару и стал учеником Бахауддина Накшбандом. В своих работах Якуб Чархи больше цитировал слова, сказанные Ходжей Бахауддином Накшбандом. Якуб Чархи также прокомментировал учение более десятка своих учителей в своей работе.*

***Annotation.** This article reflects the information that Yakub Charkhi is a theorist of the Naqshbandi sect. Yakub Charkhi came to Bukhara, and a disciple fell to Bahuddin Naqshband. In his works, Yakub Charkhi quoted more from what Khawaja Bahuddin Naqshband said. Yakub Charkhi also commented on the trainings of more than a dozen of his teachers in his work.*

***Kalit so'zlar:** tasavvuf, tariqat, zikr, naqshbandiya, shoir.*

***Ключевые слова:** суфизм, учение, упоминание, накшбандия, поэт.*

***Key words:** Sufism, teachings, mention, nakshbandiya, a poet.*

Jahon ilm-fanining bugungi tadqiqotlarida buyuk mutafakkirlarning falsafiy merosini tadqiq etish orqali ma'naviy-axloqiy faoliyat mezonlarini o'rganuvchi soha sifatida tasavvuf falsafasining nazariyasi va amaliyotiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Sharq falsafasida shuhrat qozongan mutafakkirlar ilmiy merosi hamda naqshbandiya tasavvufiy ta'limotlarida ilgari surilgan irfoniy-falsafiy g'oyalarini izchillik bilan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shunday mutafakkirlardan biri Ya'qub Charxiydir. Ya'qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud al-G'aznaviy, taxminan, 1363-yilda G'azna (hozirgi Afg'oniston) yaqinidagi Charx qishlog'ida tavallud topgan. Aynan shu sababli mutafakkirga Charxiy taxallusi berilgan. Manbalarga ko'ra, ko'nglida tasavvufga nisbatan xohish paydo bo'lgan Ya'qub Charxiy 1380-yilda Buxoro shahriga kelib, madrasada tahsil olgan va Bahouddin Naqshbandga shogird tushgan. Bahouddin Naqshband Ya'qub Charxiyni bir necha sinovlardan o'tkazgach, shogirdlikka qabul qilib, tasavvuf ta'limoti bilan tanishtirgan.

Ya'qub Charxiy Mavlono Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy qarashlaridan ham yetarlicha xabardor bo'lib, deyarli har bir asarida zarur o'rinlarda Jaloliddin Rumiyning baytlaridan foydalangan. Jumladan, "Risolayi unsiya" ("Do'stlik haqida risola") asarida ham bir necha o'rinlarda Jaloliddin Rumiyning baytlaridan iqtiboslar keltirib, "Orifi Rumiyni" deb e'tirof etgan. Ya'qub Charxiy Jaloliddin Rumiyning she'riyatiga alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lib, "Masnaviy"ning baytlaridan iqtiboslar keltirgan va o'zi ham "Nay nolasi" nomli risola yaratgan. Manbalarda keltirilishicha, Ya'qub Charxiyning "Nay risolasi" Shayx Hasan Xorazmiyning "Javohir-ul asror" asaridan so'ng Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"sining ikkinchi sharhi sanaladi.

Ya'qub Charxiyning "Naynoma" asari Jaloliddin Rumiyning masnaviyiga yozilgan sharh hisoblanadi. Ushbu asar 1973-yilda Qobul shahrida H.Xaliliy tomonidan nashr etilgan [1.121].

Ya'qub Charxiyning "Nay risolasi" masnaviyshunoslikda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, barcha masnaviyshunos olimlar hozirga qadar ushbu asarga murojaat etadilar. Risola tariqat soliklarining tafakkur darajasi va dunyoqarashini nazarda tutib yozilgan. Chunki asarda ayrim tasavvufiy atamalar borki, ularning mohiyatini faqat tariqat nazariyasidan to'la xabardorlargina tushunadi. Ya'qub Charxiy Shayx Kamoliddin Hasan Xorazmiydan keyin birinchilardan bo'lib "Masnaviy"ni sharhlagan bo'lsa, undan keyin Abdurahmon Jomiy va Voiz Koshifiylar bu ishni davom ettirishgan. Eng muhimi, Ya'qub Charxiy va Abdurahmon Jomiy "nay" tushunchasini naqshbandiya tariqatining talablari asosida talqin va tahlil qilishgan. Risola qachon va qayerda yozilgani ma'lum emas. "Nay risolasi"da keltirilgan har bir bayt yoki hikoyat mazmunini Ya'qub Charxiy ko'proq Xoja Bahouddin Naqshband aytgan so'zlar va boshidan kechirgan holatlar bilan tasdiqlagan.

Tasavvuf inson kamoloti to'g'risidagi ta'limot bo'lib, komil inson bo'lish uchun, avvalo, jism va nafs ehtiyojini yengish talab etiladi. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish insonni nafsiga qul qilib qo'yadi. Tasavvuf yo'lini tutgan kishi nafsni rad etadi. Nafs barcha razolat va ma'naviy halokatning sababchisi sanalib, insonni tubanlik botqog'iga yetaklovchidir.

Tasavvuf – bu ilohiyot olami, inson ma’naviyati, ruhiyati, ehtiyojlari va uning Xudoga munosabati haqidagi falsafiy ta’limot. Shu bilan birga, tasavvuf inson qalbiga sayqal berish ilmidir.

Tasavvuf – odob-axloqli, qalbi va ruhi pok, bilimli, komil insonlarning tarbiyalanib kamolga yetishiga zamin yaratgan. Boshqacha soʻz bilan aytganda, insonning ruhiy-ma’naviy kamoloti tasavvufning asosiy maqsadi boʻlib, bu maqsad yoʻlida har bir ulugʻ shayx oʻz tartib-qoidalarini ishlab chiqqan va shu asosda turli tariqat suluklari shakllangan.

Tasavvufda tariqatlar juda koʻp boʻlgan. Jumladan, naqshbandiya, yassaviya, kubraviya va hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan qodiriya (Eron va Afgʻonistonda), rifoʻiya (Eronda), tayfuriya (arab mamlakatlarida), mavlaviya (Turkiyada), chishtiya (Hindiston va Pokistonda), bektoshiya (Turkiyada), safaviya (Eronda) va boshqalar shular jumlasidandir. Oʻrta Osiyoda esa azaldan naqshbandiya, yassaviya va qodiriya tariqatlari keng tarqalgan.

Tariqatlar islom dinining ruhi sanaladi. Shariat va boshqa ilmlarni oʻrganish yoʻllari turli-tuman boʻlganidek, tasavvufda ham turli-tuman tariqatlar mavjud. Har bir tariqat oʻziga xos yoʻldan haqiqatga erishadi. Tasavvufiy tariqatlar xilma-xil boʻlsa-da, ularning asosiy maqsadi bitta, yaʼni Haqqa yaqinlashishdir.

Tasavvufda inson kamolotiga yordam beradigan va uni gʻaflat uyqusidan uygʻotib, hushyorlik, ogohlik manziliga olib chiqadigan asosiy amaliyotlardan biri zikrdir (zikr – Ollohni yodga olish, eslash). Tariqat-larning baʼzi birlarida maxfiy zikrdan, yaʼni, ovoz chiqarmay Ollohni yod etishdan foydalanilsa, baʼzilarida jahriy zikrdan yoki baland ovozda musiqa va raqs (samoʻ raqsi) orqali Ollohni yod etishdan foydalanilgan.

Zikri jahriydan koʻzda tutilgan asosiy maqsad sifatida kishilarning gʻaflat uyqusidan uygʻonib, tavba qilishlari hamda shariat va tariqat yoʻlidan ogʻishmasdan yurishlarini taʼminlash, shuningdek, tili yolgʻon va gʻiybatdan, xulqi shubhali narsalardan, qalbi riyo va soxtakorlikdan pok boʻlgan kishigina bajarishi lozim boʻlgan zikrdir deb eʼtirof etilgan.

Samoʻ (arab. – eshitmoq, tinglamoq), soʻfiylarning diniy gʻazallarni ohangga solib oʻqish uslubi (zikr samoʻ) – Oʻrta va Yaqin Sharqda tasavvuf mazmunidagi asarlarni xonaqohlarda musiqiy, baʼzida esa (mavlaviya va boshqa ayrim tariqatlarda) tana harakatlari vositasida ham ijro etish anʼanasi. Tasavvuf tarixida islom ulamolari va sufiylar tomonidan samoʻga nisbatan turlicha munosabatlar bildirilgan. Jumladan, naqshbandiyada samoʻni maʼqullashmagan.

Mavlaviylarning zikriga “samoʻ” deyiladi. Musiqa joʻrligida, tik holda va aylanib ijro etiladi. Bu zikr asnosida darvishlar oʻz harakatlari bilan turli diniy-tasavvufiy mavzularni timsol etadilar. Zikru samoʻ IX–X asrlarda shakllangan boʻlib, keyinchalik, deyarli barcha tariqatlarda turli koʻrinishlarda keng tarqalgan. Mavlaviylik tariqati jahriy zikrga asoslangan tariqatdir. Mavlaviylikda jahriy zikrning musiqa bilan oshkora hamda tasavvufda aytiladigan “shatahot” holati koʻrinishlari aks ettiriladi [2.470].

Yaʼqub Charxiyning “Risolayi unsiya” asarida jahriy zikr borasida shunday deyilgan: “Buyuklar aytganlaridek, har bir ibodatdan maqsad zikr qilishdir. Zikr jon boʻlib barcha ibodatlar uning qolipidir (asosidir). Agar ibodatda Haqdan gʻofil boʻlsang (unutsang), bu ibodatdan hech qanday foyda yoʻqdur. Shuni ham bilginki, biror-bir hadisda baland ovozda zikr qilishga buyurilmagan, balki xufya zikr amr qilingan”. Yaʼqub Charxiy Qurʼon tafsirlarida baland ovozda zikr qilmaslik buyurilib, “Siz eshitmaydigan yoki mavjud boʻlmagan kishini chaqirmayapsiz, balki siz qalban istaganingizda har doim yoningizda boʻladigan zotni chaqirayapsiz”, deb iqtibos keltirilgan [3. 33]. Bundan tashqari, baland ovozda zikr qilmaslik toʻgʻrisida koʻplab dalillar bor. Binobarin, ulamolar aytdilarki, baland ovozda zikr qilish dalillarga xilofdir.

Yaʼqub Charxiyning ushbu maʼlumotlariga tayanadigan boʻlsak, mavlaviya tariqatida zikri jahriya Jaloliddin Rumiyan keyin vujudga kelgan. Jaloliddin Rumiyan davridan buyon mavlaviyaning asosiy bayrami Navroʻz bayrami boʻlgan. Bundan tashqari, mavlaviya tariqati vakillari juma kunlari oʻzlari istiqomat qiladigan ibodatxonalarida paygʻambar yoki tariqat rahbarlariga bagʻishlangan “aynii sharif” deb ataluvchi ommaviy zikr va samoʻ raqsini bajarganlar.

Tasavvuf odob-axloqli, qalbi va ruhi pok, bilimli insonlarni, yaʼni komil insonlarning kamolga yetishiga zamin yaratgan. Boshqacha soʻz bilan aytganda, insonning ruhiy-maʼnaviy kamoloti tasavvufning asosiy maqsadi boʻlib, bu maqsad yoʻlida har bir ulugʻ shayx oʻz tartib-qoidalarini ishlab chiqqan va shu asosda turli tariqat suluklari shakllangan.

Yaʼqub Charxiy ustoz Bahouddin Naqshband koʻrsatmasiga muvofiq, xalqni Haq yoʻliga daʼvat qilish bilan shugʻullangan. Yaʼqub Charxiy asosan temuriylar davrida aniqrogʻi, Movarounnahrda Ulugʻbek, Xurosonda Shohrux Mirzo hukmronlik qilgan davrlarda faoliyat yuritgan boʻlib, yetishtirgan shogirdlari va yozgan asarlari tufayli shuhrati ortib borgan. Naqshbandiya tariqatining XV asrdagi eng yirik namoyandasi sifatida tanilgan Xoja Ahrori Valiy 1431-yilda Yaʼqub Charxiyning shon-shuhratini eshitib, unga shogird tushgan va

naqshbandiya tariqatining asoslarini Ya'qub Charxiydan o'rgangan. Ushbu voqealarning tafsiloti esa Faxrudin Ali Safiyning "Rashahot ayn al-hayot" ("Obihayot tomchilari") asarida batafsil bayon etilgan [5.34].

Bahouddin Naqshbanddan yetib kelgan ma'naviy merosning muhim qismi uning hikmatli so'zlaridir. Bu haqda Salohiddin ibn Muborakning "Anis at-tolibin va uddat us-solikin", Muhammad Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband", Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" va Ya'qub Charxiyning "Risolai unsiya" asarlarida yozilgan. Ushbu asarlarda Bahouddin Naqshbandning bir yuz ellik beshdan ziyod kalomlari keltirilganligi professor G.Navro'zovning tadqiqotlarida yoritilgan [4.34].

Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotidagi eng muhim masala inson va uning kamoloti masalasidir. Naqshbandiya tariqati ta'limotida insonning mohiyati, uning o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi va insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Komil inson tushunchasi dinda mavjud bo'lmagan. Bu tushunchaning mohiyati qudsiy hadislarda berilgan. Komil inson ilohiy kamolot darajalarini o'zida mujassamlashtirgan kichik olamdir. Bu dunyo komil inson bilan fayzli va barqarordir. Chunki undan hech narsa yashirin qolmaydi. Xalqda Haqni, Haqda xalqni ko'ra olgani uchun ularning xizmatini ezgulik ila ado etadi. Komil inson deganda Muhammad payg'ambar nazarga tutiladi. Komillik yo'lining bosh asosi ko'ngilni mosuvodan xalos etishdir. Komil inson tushunchasi birinchi Ibn Arabiy, Abdulkarim Jiliy, Aziziddin Nasafiy, Ya'qub Charxiy asarlarida batafsil yoritilgan.

"U kishi (Bahouddin Naqshband) haqida ba'zi bir ma'lumotlarni ayrim buyuk birodarlarimiz bayon etganlar va men muxtasar ma'lumot berishga harakat qildim. Lekin, u kishi haqidagi ma'lumotlarni qalam bilan bayon etishning imkoni yo'qdir", deb yozadi Ya'qub Charxiy. Ushbu maxsus toifa vakili bo'lgan buzrug shayxga hamroh bo'lish istagi menda tug'ilgach, Buxoroga borib u kishining xizmatida bo'ldim. Jumladan, "Men u kishining (Bahouddin Naqshbandning) ruhlari fayzu barakotidan bahramand bo'ldim. Bu muqaddas ishda (kitob yozishda) u kishining menga o'rgatgan qoidalaridan biri poklanish edi. Men ushbu kitobda Bahouddin Naqshbanddan tashqari, Xoja Alouddin Attorning ham ba'zi foydali fikrlarini keltirib o'tganman" deb, qayd etgan [3.43].

Ya'qub Charxiy ham o'zining asarida o'ndan ortiq ustozining o'gitlarini sharhlab o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, Bahouddin Naqshbandning bir umr yonida bo'lgan va unga murid tushgan kuyovi Xoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Ya'qub Charxiy kabi mutafakkir shayxlar, Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati to'g'risida noyob ma'lumotlarni o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Jumladan, Xoja Alouddin Attor iltimosiga binoan Xoja Muhammad Porso "Risolayi qudsiya" ("Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari") asarini, Ya'qub Charxiy esa "Risolayi unsiya" (Do'stona suhbat risolasi) asarini yozib, mazkur asarlar Bahouddin Naqshband va Attor tilidan o'z piri haqidagi o'nlab rivoyat va xotiralar keltirgan. Ya'qub Charxiyning "Risolayi unsiya" (Do'stona suhbat risolasi) asari Bahouddin Naqshbandning tarjimai holi, hayot tarzi, odatlariga oid qimmatli ma'lumotlarni, naqshbandiya tariqatiga oid eng mukammal hikmatli so'zlarni o'zida mujassamlashtirgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сост. и отв. редактор А.А.Хисматулин. Санкт-Петербург. Филологический фак-т СПбУ, 2001, с. 121.
2. Ислом энциклопедияси. Тошкент, давлат илмий нашриёти, 2017, 407-бет.
3. Яъқуб Чархий. "Рисолаи Унсия" (Дўстона суҳбат). Таржима ва изоҳлар муаллифи С.Раҳмонов. Самарканд, СамДЧТИ нашриёти, 2022, 77-бет.
4. Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Т., "Фан", 2007, 59-бет.
5. Фахруддин Али Сафий. "Рашахот айн ал-хаёт". Тошкент, Абу Али ибн Сино, 2003, 78-бет.

Tog'ayev Nodirjon Ergashevich (SamDU dotsenti, falsafa doktori (PhD))

O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUHIM OMIL SIFATIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada muqaddas manbalarimiz hamda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ta'limotlarida tinchlikparvarlikka oid qarashlari keltirilgan. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tinchlik va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi bayon etilgan. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat barpo etishda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash muhim omil ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritib berilgan.*

***Аннотация.** Статья рассматривает важность и роль взглядов на мир в учениях наших предков и великих мыслителей. Особое внимание уделяется вопросам мира и безопасности в Узбекистане, отмечая их значение для построения просвещенного общества. Социально-философская перспектива по-*

могает разъяснить, как обеспечение мира и безопасности является важным фактором в развитии страны.

Annotation. *The article examines the importance and role of world views in the teachings of our ancestors and great thinkers. Particular attention is paid to the issues of peace and security in Uzbekistan, noting their importance for building an enlightened society. The socio-philosophical perspective helps to clarify how the provision of peace and security is an important factor in the development of the country.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik, ma'rifatli jamiyat, tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlik, taraqqiyot, farovonlik, barqaror taraqqiyot.*

Ключевые слова: *независимость, просвещенное общество, мир, спокойствие, безопасность, развитие, процветание, устойчивое развитие.*

Key words: *independence, enlightened society, peace, tranquillity, security, development, prosperity, sustainable development.*

Bugungi kunda O'zbekistonni yuksak ma'naviyat hamda madaniyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan ma'rifatli jamiyatga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etmoqdamiz. Mana shunday oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishishimiz, ya'ni, O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish barchamizga hamda har birimizga bog'liq bo'lgan eng asosiy masalalardan biridir. Avvalo, buning uchun barchamiz bunyod etilayotgan yangi ma'rifatli jamiyatimizga munosib bo'lish uchun milliy qadriyatlarimiz hamda boy tarixiy madaniyatimizga tayangan holda, zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan mustahkamlangan salohiyatga ega bo'lishimiz lozim. Shu bilan birgalikda, nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda barqaror taraqqiyotga erishish uchun, avvalo, har bir mamlakat va mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash tizimli tarzda yo'lga qo'yilishini davrning o'zi talab qilmoqda.

Tinchlik va xavfsizlik Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Global miqyos kasb etayotgan bir paytda, har bir inson mamlakat tinchligi va osoyishtaligi yo'lida daxldorligini o'z burchi deb bilmog'i kerak. Har bir inson o'ziga shunday talab qo'ysa, mas'uliyat bilan yashasa, yaxlit jamiyat, butun insoniyat hayoti kafolatlanishi muqarrar. Yer yuzida ezgulik va tinchlik tantana qilishi, shubhasiz. Shuningdek, bu borada Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da kishilarning birgalashib yashashi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloq normalariga tayanishi, vatanparvarlik, tinchlik-ahllik kabi g'oyalar ilgari surilgan. "Avesto"ning ikkinchi daftari bo'lmish Yasnaning 62-hot, 5-qo'shig'ida shunday deyiladi: "Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar" [2].

Insoniyat o'z hayot yo'lida turli urush va nizolarga boy tahlikali kunlarni kechirdi. Bugungi kunda ham bu jarayonlar jahon siyosatida sodir bo'layotganligi har bir insonni hushyorlikka chorlaydi. Bugungi kunda insoniyat tarixiga nazar tashlansa, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshidan kechirganini ko'rish mumkin. Bu urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir. Insoniyat paydo bo'libdiki, jamiyat taraqqiyotida tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto davlatlar o'rtasida tuzilgan ilk shartnoma ham tinchlik shartnomasi ekanligini saqlanib qolgan tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Yadro urushlari xavfi, ekstremizm, terrorizm va mintaqaviy mojarolar hali-hanuz fuqarolar xavfsizligiga tahdid solib kelmoqda. Bunday o'zgarishlar Yer yuzida tinchlikni saqlash masalasini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zaruriyatini oshirmoqda. Bu esa bizdan doimo ogoh bo'lishni mustaqilligimizni har qanday yovuz kuchlardan, jumladan, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm balosidan ko'z qorachig'idek asrab, himoya qilib yashashni talab etadi.

Tinchlik va xavfsizlik davlat va jamiyat hayotida tartibni, ma'lum mezonlarga ko'ra, tizim muvozanatining saqlanishiga xizmat qiluvchi kategorial tushunchalar sirasiga kiradi. Har qanday ijtimoiy-siyosiy islohotlar uchun qulay sharoit yaratilishiga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikning axloqiy-ma'naviy xarakteri inson kamoloti, eng muhimi, ma'nan xotirjamlikni o'zida mujassamlashtiradi. Bu tamoyillarning o'ziga xos funksiyalari urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishni ifodalaydi.

Tinchlikparvarlikka oid ta'limotlar va qarashlar buyuk mutafakkir ajdodlarimizning mumtoz asarlarida ham jamiyat uchun turli tahdidlarning oldini olishda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash masalalari muhim o'rin tutadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiyning (873–950) "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni boshqarishda adolatli qonunlarga tayanish lozimligi uqdiriladi. Unda "Fuqarolarni birlashtirib turuvchi asos insoniylikdir,

shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim" [4], deb ta'kidlanadi.

Afsuski, ayrim odamlarning dunyoqarashida tinchlikni ta'minlash – bu davlat, hukumat va huquq tartibot sohasi xodimlarining ishi, degan noto'g'ri, loqaydlik kayfiyatidagi tushuncha o'rnatilgan qolganligi noxush holatdir. Biroq tinchlik va xavfsizlik har bir insonga daxldor bo'lgan hayotiy zaruratki, uni saqlash shu yurtda yashaydigan har bir fuqaroning muqaddas burchi bo'lmog'i kerak.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi avlodlar ham ko'p mehnat va mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritilgan mana shu bebaho ne'matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqloq yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizga munosib voris bo'la oladi. Mamlakatimiz dunyoda tinchlik, mintaqada qurolsizlanish, xususan, Afg'oniston muammosini xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha sharqona murosa talab va tamoyillari asosida hal qilish borasida bir nechta taklif va tashabbuslar bilan chiqqanligi barchamizga ma'lum. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo, yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda.

Xalqimiz murosayi madora, qo'shni haqi, xalq mulki, yaxshilik nima-yu, yomonlik nima ekanligini juda yaxshi biladi. Unga xos "Bir kun urush-janjal bo'lgan yerdan qirq kun baraka qochadi", "Yon qo'shni – jon qo'shni", "Qo'shning tinch – sen tinch", "Tinchlikning boshi birlikda" kabi serma'no maqollar tinchlik, ahillik, hamjihatlikning asl mazmun-mohiyatini aks ettirib, tarbiyaviy ahloqiy ahamiyatini anglatadi. Mamlakatimizning hozirgi tashqi siyosati ham aynan xalqimizning tinchlikparvarligi, yaxshi qo'shnichilik ibrati, beg'araz va sof niyatli xalq ekanidan dalolatdir.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini yuksaltirish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. O'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashamoqdamiz.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash mustaqillikni qo'lga kiritishga nisbatan ham og'ir va mas'uliyatli vazifa ekanligi ayon bo'lmoqda. Ma'lumki, jahon tarixida o'z siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin uni ichki va tashqi dushmanlardan saqlab qolish, xalqni bu mas'uliyatli ishga safarbar etishga jiddiy yondasha olmaslik sababli yana boshqalarga qaram bo'lib qolish holatlari ham kam emas. Bu esa bizdan doimo ogoh bo'lishni, mustaqilligimizni har qanday yovuz kuchlardan ko'z qorachig'idek asrab, himoya qilib yashashni talab etadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi kerak" [7].

Sohibqiron Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi. Qirq yildan ortiq o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg'oniston buning yaqqol dalilidir.

Zero, so'nggi yillarda global miqyos kasb etib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga kelib, ularning oldini olishning samarali yo'llarini aniqlash ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Xususan, globallashtirish sharoitida jahon hamjamiyatida tinchlikni saqlashga doir turli ijtimoiy-siyosiy islohotlar olib borish dolzarbligini talab etmoqda. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va xavfsizlik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tarilib, ma'rifatli jamiyat sari yuz tutadi.

Bugun dunyoda, qolaversa, O'zbekiston Respublikasida tinch-totuv yashash tamoyili siyosatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Tinch-totuv yashash insonlar, millatlar, davlatlar va birlashmalar orasidagi murosa va o'zaro hamkorlikka asoslangan turmush tarzida namoyon bo'ladi. U turli ijtimoiy tuzumga mansub mamlakatlar o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarda urushdan voz kechishni, nizoli masalalarni urush vositasi bilan emas, balki muzokaralar yo'li bilan ularning ichki ishlariga aralashmasdan, bir-birlarining o'zaro qonuniy manfaatlarini hisobga olib ish tutishni taqozo qiladi. Bu tushuncha xalqlarning o'z taqdirini o'zlari mustaqil hal etishlari, davlatlar suvereniteti va hududiy daxlsizligi hamda ularning chegaralari mustahkamligini qat'iy hurmat qilishni, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan hamkorlikni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatli jamiyat barpo etishda mamlakat tinchligi va xavfsizligi muhim ahmiyat

kasb etadi. Insoniyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va totuvlikka intilib yashagan. Shuning uchun ham barcha davrlarda tinchlikni saqlash va mustahkamlash umumbashariy muammo bo'lib kelgan. Ta'kidlash zarurki, mamlakat tinchligi va xavfsizligini ta'minlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xohish istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qat'iy harakatlar tufayligina erishilgan. Yurt tinchligi va xavfsizligini asrash, uning ozodligi, mustaqilligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurash – vatanparvarlik, uni dushmanlardan himoya etish, milliy manfaatlarni himoya qilish, Vatanga nisbatan chin dildan, sadoqat bilan xizmat qilish orqali amalga oshirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-t., T., "O'zbekiston", 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T., "O'zbekiston", 2020.
4. Karimov I.A. Tinchlik uchun kurashmoq kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2008.
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. A.Mahkam tarjimai. "Sharq", 2001.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. Toshkent, "O'zbekiston", 2001.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Xalq so'zi", 2017-yil 14-yanvar, 10-son.

Abbasova Maftuna Subxonovna (Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi; e-mail: maftuna88@gmail.com),

Abduxoliqova Husniya (Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy yo'nalishi 3-bosqich talabasi; e-mail: husniya 00@gmail.com)

GLOBALLASHUV JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashuv jarayoni, uning bugungi kunda hayotimizga tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omillari va sabablari, shuningdek, sun'iy intellekt nima ekanligi va uning globallashuvi xususida ko'plab fikrlar bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье описан процесс глобализации, основные факторы и причины, по которым он сегодня стремительно и глубоко входит в нашу жизнь, а также многие идеи о том, что такое искусственный интеллект и его глобализация.*

***Annotation.** This article describes the process of globalization, the main factors and reasons why it is rapidly and deeply entering our lives today, as well as many ideas about what artificial intelligence is and its globalization.*

***Kalit so'zlar:** globallashuv, rivojlanish, iqtisodiy islohotlar, integratsiya, madaniyat, erkin harakatlanish, sun'iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta'lim, samaradorlik.*

***Ключевые слова:** глобализация, развитие, экономические реформы, интеграция, культура, свободное передвижение, искусственный интеллект, персонализированное образование, производительность.*

***Key words:** globalization, development, economic reforms, integration, culture, free movement, artificial intelligence, personalized education, productivity.*

Iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan ko'p yillik muammo, yuqori turmush darajasiga erishishdir. Bu maqsadga erishish uchun turli xil yo'llar mavjud. Bugun biz tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan yangi asrda yashayapmiz. Globallashuv uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan jarayondir. Globallashuv madaniy va iqtisodiy tizimlarning yaqinlashuvi bilan bog'liq. Bu yaqinlashuv xalqlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, integratsiya va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga yordam beradi va ba'zi hollarda zarurat tug'diradi. Dunyo mamlakatlari va mintaqalari siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan bir-biriga qanchalik chambarchas bog'liq bo'lsa, dunyo shunchalik globallashadi. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni xususida ko'plab ta'riflar berilmoqda. Xo'sh, globallashuv bu qanday jarayon? U qachondan shakllangan?

Globallashuv – bu g'oyalar, bilimlar, ma'lumotlar, tovarlar va xizmatlarning butun dunyo bo'ylab tarqalish jarayoni.

Falsafiy ma'noda esa globallashuv bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatli birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir [3].

“Globallashuv” atamasi 1981–1986-yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T. Levtit, inglizlik olim R.Robersonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan [4]. Dunyo mamlakatlari va mintaqalari siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan bir-biriga qanchalik chambarchas bog‘liq bo‘lsa, dunyo shunchalik globallashadi.

“Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, ingliz qiyin emas. Shu ma’noda, globallashuv – bu, avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demak” [1].

Keling, globallashuv jarayonini yaxshiroq tushunish uchun eng keng tarqalganlari, xususiyatlari va oqibatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Globallashuv xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- erkin savdo;
- iqtisodiy islohotlar;
- bilimlar taraqqiyoti;
- madaniyat va g‘oyalar almashinuvi;
- odamlar, mamlakatlar va sanoatlar o‘rtasida hamkorlikning kuchayishi;
- jahon aloqa va muloqot tarmog‘ining paydo bo‘lishi;
- ishchi kuchining erkin harakatlanishi va boshqalar.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot, birinchidan, odamlar dunyoqarashi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta’sirni kuchaytiradi, ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o‘rtasida birlashishga intilishni kuchaytirsa-da, ayni vaqtda, milliy xususiyatlar, an’analar va ma’naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko‘rsatib berdi [4].

Shu o‘rinda yana bir muhim masala sun’iy intellektning global ta’siri haqida fikrimizni davom ettiramiz.

Sun’iy intellekt – bu inson aql-zakovatini talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan kompyuter dasturlarining keng doirasini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi.

Sun’iy intellekt tarixining keyingi bosqichi – 50-yillar, tadqiqotchilar inson miyasiga taqlid qilib, aqlli mashinalarni yaratishga harakat qilishgan. Ushbu urinishlar ham apparat, ham dasturiy ta’minotning to‘liq yetishmasligi tufayli muvaffaqiyatsiz tugadi. 1956-yilda Stenford universitetida (AQSH) seminar bo‘lib o‘tdi, u yerda sun’iy aql atamasi birinchi marta taklif qilindi. Sun’iy intellekt tarixidagi 60-yillar fikrlashning murakkab jarayonini simulatsiya qilib, keng sinf muammolarini hal qilishning umumiy usullarini topishga urinishlar bilan ajralib turdi.

Sun’iy intellekt tez rivojlanayotgan texnologiya sohasi bo‘lib, u inson xatti-harakatlariga taqlid qiladigan va vazifalarni insonga o‘xshash aniqlik bilan bajaradigan aqlli mashinalarni yaratish bilan bog‘liq. Sun’iy intellekt sohasi ma’lumotlardan o‘rganish, fikr yuritish, tabiiy tilni tushunish, rasmlar va tovushlarni idrok etish va turli vositalar orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini beradigan dasturiy ta’minot va tizimlarni yaratishga qaratilgan. Shuning uchun ham hayotimizda uning ahamiyati katta.

Sun’iy intellekt tushunchasini aniq ta’riflash shuni taqozo qiladiki, bu ilmiy yo‘nalishning oyoqqa turish va rivojlanish bosqichidir. “Sun’iy intellekt robottexnika va dasturlashni rivojlantirishning navbatdagi bosqichidir, u robotga avval dasturga kiritilmagan “yangi” qarorni mustaqil ravishda qabul qilish imkoniyatini beradi [5].

Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng ko‘lamda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning asosiy kuchi bo‘lib: telekommunikatsiya, ta’minotni ishlab chiqarish sohasida yangi ish joylarini tashkil qiladi hamda yangi-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yangi ish joylarini tashkil qiladi, yangi ta’minotni yaratmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijalari o‘laroq, sun’iy intellekt tizimlari rivoji va insoniyat hayotida tutgan o‘rni kun sayin kengayib tekshiruv, juda ko‘p hududlarda bu sohani ta’minlashga hozirgi kunda alohida urg‘u berilyapti. Sababi globallashuv jarayonida ko‘p ma’lumotlar elektron formatda qabul qilinmoqda. Juda ko‘p ma’lumotlarga egamiz, lekin ularni tahlil qilish inson o‘zgarish qiladi. Buning uchun ham sun’iy intellektga yuzlanilmoqda.

Ta’limda sun’iy intellekt – bu inson ta’limini taqlid qila oladigan tizimni ishlab chiqish uchun ishlatiladigan texnologiya hisoblanadi. Sun’iy intellekt – bu aql bovar qilmaydigan tezlikda o‘tib borayotgan yangi texnologiya. Sun’iy intellekt bizning yashash, o‘rganish, ishlash va muloqot qilish uslubimizni o‘zgartirmoqda. Keling, globallashuv jarayonida sun’iy intellektning afzalliklarini ko‘rib chiqaylik.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim. Sun'iy intellekt talaba nimani bilishi va bilmaganligini aniqlashi mumkin, bu esa har bir o'quvchi uchun bilimlardagi bo'shliqlar asosida shaxsiylashtirilgan o'quv jadvalini yaratish imkonini beradi.

Samaradorlikni oshirish. Sun'iy intellekt samaradorlik va aniqlikni oshirish uchun eng katta salohiyatga ega, chunki avtomatlashtirilgan jarayonlar inson xatolarini bartaraf etishi uchun inson mehnatini to'ldirishi mumkin, shu bilan birga, ularning kuchi bo'yicha vazifalarni bajarish, turli jarayonlarni tartibga solish va resurslarni tejash bilan birga, yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, u hayot tarzini yaxshilaydi, iqtisodiyotni mustahkamlaydi.

Sun'iy intellekt kompyuter texnologiyalardan foydalanib yaratilgan intellektual tizimlar hisoblanib quyidagicha mavzularni o'z ichiga oladi:

Ta'lim va o'quv jarayoni: Sun'iy intellektning o'quv texnologiyalari va o'quv dasturlarida ishlatilishi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Bolalarning ma'naviy rivojlanishi. Sun'iy intellektning tarqalgan tahlil va qabul qilish qobiliyatlari, ma'lumotlar tahlilini amalga oshirish, til va nutqni o'rganish, o'quvchilarning so'zlama va loyihalarini tuzishdagi ko'makchiliklari bolalarning ma'naviy rivojlanishiga o'tishda muhim rol o'ynayishi mumkin.

Maqsadli o'quv tavsifi. Sun'iy intellektning maqsadli o'quv tavsifi va boshqa tahlil vositalari orqali o'quvchilarning istaklarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlash mumkin.

Ma'lumot olish va ta'lim. Sun'iy intellekt, ma'lumotlarni ushlab qolish, ta'lim va o'zlashtirish jarayonida o'quvchiga yordam berish, ma'lumotlar bilan ishlashda avtomatlashtirish va yangi bilimlarni o'rganishda o'rtasidagi bog'lanishlarni ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Insoniyat tarixining hozirgi davri va bugungi dunyo taraqqiyoti bundan 40 – 50 yil oldingi hayot voqealaridan keskin farq qiladi. Biz endilikda globallashtirish jarayonlari har tomonlama avj olayotgan, butun jahonda u bilan bog'liq o'zgarish va yangilanishlar shiddat bilan sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz" [1].

Har bir narsa va hodisalarning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani singari, globallashtirish jarayonining ham shunday tomonlari mavjuddir". ... texnologik inqilob, haddan tashqari sanoatlashtirish jarayonining sayyoramiz iqlimiga global ta'sir etishi oqibatida insoniyat salomatligiga jiddiy xavf tug'ilmoqda. Madaniyatlarning bir xillashuvi esa milliy davlatlar, turli xalqlar qadriyatlariga putur yetkazmoqda" [6].

Globallashtirish jarayonida ezgulik yo'lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning aksidir.

Atrofimizga nazar tashlasak, sun'iy intellektning globallashtirish dunyo tartibining texnologik bazasini kuchaytirayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Globallashtirish – bu biz yashayotgan jarayon. Biz turli qit'alardagi insonlar bilan juda oson muloqot qilishimiz mumkin. Globallashtirish butun dunyo bo'ylab mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirib, barcha jamiyatlarni bog'laydi. Bunda, albatta, sun'iy intellektning o'rni juda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2021.
2. J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. Falsafa. Darslik, Samarqand, 2021.
3. Буянов В.С. Сущность глобализации. Учебник, М., 2008.
4. Q.Nazarov. Falsafa asoslari. Toshkent, 2012.
5. V.A.Laptev. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning ishi uchun javobgarlik. Oliy iqtisodiyot maktabi jurnali, 2019.
6. B.Umarov. Globallashtirish ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. Toshkent, 2006.

Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» kafedrasi assistenti; gulimkuchkarova@mail.ru)
MOVAROUNNAHRDA ISLOM TA'LIMOTI TARAQQIYOTI DAVRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Movarounnahr tarixi, uning atamalari va ma'nolari yoritilib berilgan bo'lib, muallif yangi ma'lumotlarni taqdim etgan holda, Movarounnahrda islom ta'limotiga, dunyoviy ilmlariga asoschi bo'lgan olim-u ulammolar, faylasuf va so'fiylarning bizga meros ma'naviy boyliklari haqida falsafiy tahlillar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье освещена история Мавверанахра, его топонимы и их значение. Предоставляя читателю новые сведения, автор приводит свои философские рассуждения об основоположниках исламского учения и светских знаний, просветителях, учёных, суфиях Мавверанахра.

Annotation. This article highlights the history of Movarounnahr, its terms and meanings, and provides philosophical analysis of the spiritual wealth of the scholars, philosophers and sufis who founded Islamic doctrine, secular sciences in Movarounnahr, with the author providing new information.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, hojatbaror, haytallar yurti, sahobalar, tobe'iylar, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Turon.

Ключевые слова: Мавверанахр, благодетель, земля глашатаев, проповедники ислама, подданные, Абу Абдуллах Мухаммади ибн Исмоил ал-Бухари, Туран.

Key words: Movarounnahr, hojatbaror, land of the haithals, sahabas, Tobe'is, Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail al-Bukhari, Turan.

1. Kirish. Movarounnahrqa ilk qadam. Tarixiy manbalarda hozirgi O'zbekiston hududlari VII asrdan boshlab Movarounnahr nomi bilan tilga olinadi. Bu atamaning kelib chiqishi bevosita islom dinining bu o'lkaga kirib kelishi bilan bog'liq. Movarounnahr atamasi "Daryoning narigi tomoni" ma'nosini anglatadi. Daryodan murod o'sha davrdagi Jayhun, ya'ni hozirgi Amudaryo nazarda tutiladi.¹

2. Materiallar va usullar. Movarounnahr² (arabcha – daryoning narigi tomoni) – o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Movarounnahr arabcha so'z bo'lib, ayrimlar o'ylagandek, "ikki daryo oralig'i" emas, balki "daryoning narigi tomoni" ma'nosini anglatadi. Forslar Jayhun, qadimgi o'zbeklar O'kuz (ho'kkiz), uning o'zgargan shakli Oks nomi bilan greklar atagan Amudaryoning ortidagi yerlar shunday atalgan. "Movarounnahr" atamasining forscha "Varorud" yoki "Varojayhun" greklarning "Transoksaniya", ya'ni "Oks orti" kalka (nusxa)si ham mavjud.

Umar (r.a.) mazkur maktubida daryo ortidagi yurtlarga ishora qilib, maktubda "النهر" (an-nahr – daryo) so'zi va "دون النهر" (dunannahr – daryoning oldi tarafi) iborasini ishlatadi. Bu so'z va ibora o'sha vaqtda "Movarounnahr", ya'ni "daryoning orqa tarafi" atamasi mavjud bo'lib kelgan, degan asosli ehtimolga dalolat bo'la oladi.³ Bu o'lkaning islom dini kirib kelishidan oldingi ijtimoiy holati haqida Yoqut Hamaviy shunday yozadi: "Movarounnahrda murod Xurosondagi Jayhun daryosining narigi tomonidir. Jayhunning sharqiy tarafi "Haytallar yurti"⁴ deb ham ataladi. Eftaliylar (eftalitlar, eftallar, xaytallar, abdallar, yeda) – O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan Movarounnahrning ichki viloyatlariga kirib, milodiy V asr – VI asrlarda davlat barpo etgan qabila ittifoqi. Islom kirib kelgach, bu hududlar "Movarounnahr" deb atala boshladi.⁵ Movarounnahrda ilk islomiy ta'limotlarni Turon o'lkasida uchratish mumkin bo'lib, qadimdan saxiylik, jasurlik, mehmondo'stlik, yurtni himoya qilish, o'zgalarga yordam qo'lini cho'zish kabi yuksak madaniy va ma'naviy qadriyatlarda asrlar osha takomillashib, boyitilgan. Islom dini kirib kelgach, bu qadriyatlar yanada rivojlanib, xalq ongida o'chmas iz qoldirgan. Shubhasiz, Movarounnahr aholisining islom dini kirib kelishdan oldingi ma'naviy qarashlari islom dini ta'limotlariga mos ravishda islomiy axloqlarni o'zida qamrab olgan.

Movarounnahrda islomiy ta'limotlar Qur'on, hadis, fiqh, kalom va boshqa turli islomiy bilimlar orqali tarqala boshladi. Mintaqaga hadis ilmini, shubhasiz, sahobiy (sahoba (arab. صحابة – hamroh yoki Ashaba (arab. أصحاب) – Muhammad payg'ambarni ko'rgan va Allohning elchisi sifatida iymon keltirgan, ya'ni musulmon

¹ Qarang: Abu Bahr at-Tamimiy Ahnaf ibn Qays ibn Muoviya ibn Husoyn (v. 67, 71 yoki 72/686, 690 yoki 691). Asli ismi Zahhok bo'lgan. Oyog'i oqsoq bo'lgani uchun Ahnaf (oqsoq) deb nom olgan. Rasululloh (s.a.v.) davrida musulmon bo'lgan va Umar (r.a.) tomonidan Xurosonga jo'natilgan. Siffin jangida Ali (r.a.)ning lashkarboshisi bo'lgan Shamsuddin az-Zahabiy. Siyar a'lam an-nubala. J.10. Bayrut, Dar al-fikr, 1991, 199-bet.

² Ислом. Энциклопедия. А-Х. Шайх Абдулазиз Мансур тахрири И-80 остида. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2017, 672-бет.

³ Mazkur hududlar qadimda So'g'diyona deb yuritilgan. Bu nomni Iskandar Makedonskiy qo'rganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Keyinchalik, islom dini kirib kelgunga qadar Turon deb atalgan. Arablar kirib kelgach, Movarounnahr atamasi paydo bo'lgan. Ular Movarounnahr deganda O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarni nazarda tutganlar. XIX asrga kelib, mazkur hududlar Turkiston deb atala boshlagan.

⁴ Eftaliylar O'rta Osiyo, shimoliy Hindiston, Afg'oniston va Sharqiy Turkiston tarixida muhim rol o'ynagan. E.ning ilk ajdodlari xunlardan bo'lishi taxmin etiladi. Miloddan avvalgi 7-asrda Xitoyning shim.g'arbi (Xesi)da yashovchi mallasoch, ko'zi ko'k xunlarning bir qismi yashab turgan yerlarini tashlab, Pomirning tog'li viloyatlariga kelib yashaydilar. Keyinchalik, ular mahalliy aholiga aralashib, tillarini ham o'zgartiradi. Xunlarning boshqa bir guruhi hunlar davlati yemirilgach, Jung'oriyaga, Ila havzalariga kelib o'rmasgan va bu yerda Yuyeban etnik uyushmasini tashkil qilgan. Yuyebandan eftal etnik nomi bilan atalgan yirik bir guruh ajralib, 3-asrda Movarounnahrqa kelib o'rmasdi. Eftaliylar xioniyalar (350-yil) va kidariylardan (380-yil) keyin O'rta Osiyoga ko'chishning uchinchi to'lqinini tashkil etganligi, odatda, qabul qilingan. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buning o'rniga milodiy 350–360-yillarda ko'chmanchilar ko'chib o'tishning katta to'lqini bo'lishi mumkin.

⁵ Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-Булдон. Ж.5, Байрут, Дар Байрут, 1984, 45–47-бетлар; Абул Қосим ибн Ҳавқал ан-Насибий. Китаб сураат ал-арз. Лондон, Брилл, 1939, 465-бет.

bo'lgan (umrlarining oxirigacha) sahobalari. Dastlab, Muhammad payg'ambarning harbiy yurishlarida bevosi-ta ishtirok etgan va musulmonlar qo'shinining eng ishonchli qismi bo'lganlargina sahobalar deb atalar edi". Payg'ambarning oila a'zolari va u zot bilan uchrashgan bolalar ham sahobadirlar. Sahobalar u bilan faqat payg'ambarlik missiyasi boshlanishidan oldin uchrashgan va undan keyin uchrashmagan odamlar emas. Obro'li va eng faol sheriklar "Ashob al-qirom" deb ataladi. "Islom dinining shakllanishida sahobiylar alohida rol o'ynaganlar, chunki Muhammad vafotidan keyin ham ular islom dinining asosiy manbalaridan biri bo'lgan hadislarini (payg'ambarning ishlari, xatti-harakatlari va fikrlari haqidagi hikoyalar) yetkazuvchilariga aylangan)¹ va tobe'iyalar (ya'ni, "tobe'iy, tobe'" {تَابِعِي، تَابِعٌ}, (ko'p. tobeiyn) {تَابِعُونَ} so'zi arab tilidagi "taba'a" {تَبَعَ} – "ergashmoq, izidan bormoq" fe'lidani olingan bo'lib, lug'atda "ergashuvchi, izma-iz boruvchi" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa bu so'z Muhammad payg'ambar (s.a.v.) sahobiylaridan bir yoki bir nechalarini ko'rgan, ulardan ilm olgan va o'z hayot yo'lida o'sha zotlar yo'lini tutgan kishilarga aytiladi) olib kirgan. Ular Movarounnahrda ilk tashriflarida mahalliy aholiga islom dini ta'limotlarini hadislar orqali tushuntirganlar.²

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom al-Buxoriy nomi bilan mashhur (arab. إمام البخاري; 19-iyul, 810, Buxoro – 1-sentabr, 870, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'i) – islom ilohiyotchisi Imom al-Buxoriy muhadislar sultoni bo'lib yetishgan buyuk alloma. Imom Abu Hafs Kabir Buxoriyning munosib shogirdi bo'lgan. Tavallud sanasi 810-yil Buxoroning Qorako'l tumanida tug'ilgan. 18 yoshida onalari va akalari bilan haj ziyoratiga boradilar va o'sha yerda 25 yil qolib, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. hayotlarini to'liq qamrab olgan "Sahihi Buxoriy"ni yozadilar. U kishining xotirasi shunchalik mukammal bo'lganki, 600 ming hadisni yoddan bilgan, shundan 7750 tasini ishonarli (Sahih) hadisida to'plamga kiritganlar. Imom al-Buxoriy eshitgan hadislarini turlar (tabaqalar)ga bo'lgan, ya'ni: 1. Sahih-to'liq ishonarli hadis va uning haqiqatdan ham ishonarli ekanligiga 4 kishi guvohlik bergan. 2. Hasan-yarmi ishonarli yarmi yo'q, ya'ni uning ishonarli ekanligiga 2 kishi guvohlik qilgan. Bu degan 50\50 ga ishonarli hisoblangan. 3. Zaif-ishonarsiz unga haqiqatdan ekanligiga guvoh yo'q, xalqda bor-u, biroq u tasdiqlanmagan biror guvoh bilan. Imom al-Buxoriy o'zi hayotda amal qilgan shiori "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay", zero, Qur'oni karimda «iqro'» – «o'qi» – 770 marta uchragan.

3. Natijalar. Yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, IX–XII asrlarda Movarounnahr ma'naviy-ma'rifiy hayotining asosini islom mafkurasi egallab turgan bir paytda, ilk marotaba samoniylar davrida, Islom sivilizatsiyasi rivojlangan davrda, Buxoro Sharq mamlakatlari ichida islom dinining eng nufuzli markaziga aylantirildi. Shu jumladan, arab tili va uning imlosi o'qitila boshadi va islom dini ta'limotini kengroq targ'ib etish uchun maxsus joylar, ya'ni masjid, madrasalar, xonaqolar qurish maqsadga muvofiq bo'ldi. O'rta Osiyoda me'morlik san'ati va uning turlari gurrakib rivojlangan bir paytda naqqoshlik, rangshunoslik, islom arxitekturasi namoyondalaridan Buxorodagi Masjidi Kalon, Boxarziy, Mag'oki Attori, Namozgoh, Abu Xafs Kabir masjidlari yaqqol misol bo'la oladi. Hozirgacha islom me'morchiligimiz dunyo ahlini o'zining takrorlanmas naqsh bezaklari, qurilishi, masjid mazmunining maqsad vazifasiga qarab qurilganligi va uning qadimiyligi va pesh-toqlaridagi arab yozuvlari, ya'ni, xattotlikning qanchalik buyuklik san'atiga aylanganligini, madrasa peshtoqlarida hadislar xattotlik san'atidan foylanilganligi arab tili va yozuvlariga o'zgacha mavj bergani bilan o'zini rom etib kelmoqda. IX–XII asrda nafaqat dunyoviy fanlar, balki diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Movarounnahrda o'z ona tilidan ko'ra, arab tili va yozuvlarini mukammal o'zlashtirgan bilim egalari ko'payishgan. Shu davrlarda "Bayt ul-hikma", ya'ni, donishmandlar uyi tashkil etilib, olim ulamolardan Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar va arab tilida asarlar yaratila boshlangan. Islom ta'limotida o'z hissasini qo'shgan faylasuf, so'fi, olim-ulammolarimiz – Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriylardir.

«Abu Hafs Kabir»³ kunyasi bilan tanilgan Ahmad ibn Hafs Buxoriy 150-hijriy (767-milodiy) yili Buxoro shahrining Fag'sodara mahallasida tug'ilib, 216-hijriy (832-milodiy) yili o'sha yerda vafot etgan. U Buxoroning yetuk olimlari jumlasidan edi. Buxoro shu kishi tufayli «Qubbat ul-Islom» («Islom dini gumbazi») deb atalgan. Buxoro ahlining ilmi bo'lishiga, Buxoroda ilm keng tarqalishiga ko'p jihatdan shu kishi sabab bo'lgan. Olim fiqhning turli masalalariga doir ko'p asarlar yozgan. Bulardan «Fatavoyi Abu Hafs Kabir», «Kitabul imon», ayniqsa, mashhur bo'lgan. Imom Shofi'iy Abu Hanifa ta'riflarida «Odamlar fiqhda u zotning boqimandalaridir» deganlaridek, Buxoroning barcha olimlari ham Abu Hafs Kabir oldilarida qarzdordirlar. Chunki buyuk muhaddis, hadis ilmining peshvosi Imom Buxoriy u kishining shogirdi bo'lgan. Buxoroning aksar olimlari

¹ Гогиберидзе Г.М. Исламский толковый словарь. Ростов н-Д., "Феникс", 2009, 266 с.

²Абу Хотим Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Хиббон ал-Бустий. Машоҳир уламо ал-амсор. Байрут, Дар ал-кутуб ал-илмия, 1995, 227-бет.

³ Имом Абу Хафс Кабир Бухорий <https://qadriyat.uz/tarix/faqiqlar/628-imom-abu-khafs-kabir-bukhoriy>.

Abu Hafsdan tahsil olishgan. Abu Hafs Kabir, amir bo'ladimi, oddiy fuqaro bo'ladimi, qanday muammo bilan kelsa, hal qilib berar edi. Oldi-sotdi yoki ibodat masalalarini juda aniqlik bilan yechardi. Shu bois odamlar olimni «Hojatbaror imom» deb hurmatlashgan. Yana Imomning mozori ostidan (Dari bihisht az Buxoro yala meshavad, az tagi Imomi Hojat baror) ochiladi deb ham ayrim rivoyatlarda aytib o'tilgan ekan. Imomga Eshoni Hojat – baror (“muammolarni hal qilguvchi eshon”) zot deganidir. Imom Abu Hafs Kabir zamonasining mujaddid olimi sifatida tan olingan. Bu zotning bizgacha yetib kelgan noyob asarlari bundan keyin ham musulmonlarga xizmat qilishi, shubhasiz. Rivoyat¹ qilishlaricha, Imom Abu Hafs Kabir Buxoroda hanafiy mazhabi asosida ta'lim beriladigan ilk madrasani qurdirgan. Bu madrasa hozirgi “Poyi Kalon” mavzeyida bo'lgan. Alloma uylaridan madrasaga borishda bozor orqali o'tardilar. Shunda haybatlaridan bozorchilarning shovqin-suroni to'xtab qolardi. Abu Hafs Kabirning ilmda zabardast o'nlab shogirdi bo'lgan. Ulardan Abu Ja'far Rizvon ibn Salim Badakoriy Buxoroning Badakor qishlog'idan edi. Yana shogirdlaridan Abul Hasan Muqotil ibn Said Baydariy, Abu Solih Toyiyib ibn Muqotil Xunomatiy, Muhammad ibn Hotam Subizgukiy, Muhammad ibn Abdullo Abu Zahhok Fazl ibn Hasson Sutikaniy, Abu Usmon Said ibn Sulaymon Shargiy, bu kishining otasi Abu Said Sulaymon ibn Dovud Shargiy ham Abu Hafs Kabirdan ta'lim olgan. Agar tarixga diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, hayotning barcha sohalarida ko'zga ko'ringan arboblari, dunyoga dong'i ketgan buyuk shaxslar ayni Islom davrida, islomiy hayot soyasida voyaga yetganlar. Butun olamga fan, madaniyat, hazorat (sivilizatsiya) markazlari sifatida tanilgan shaharlarimiz ham o'sha vaqtda tilga tushgan. Vaqt o'tishi bilan Abu Hafs Kabir Islom Sharqining asosiy islohotchilaridan biriga aylandi. Muqaddas Imom Islom huquqi bo'yicha bir qator kitoblarning, shu jumladan «Al-Axvo val ixtilof» («Yagona kelishuvlar va kelishmovchiliklar») va boshqa kitoblarning muallifidir. Buxoroning ruhiy va dunyoviy ilmlari rivojlanib, imom va olimlarning obro'-e'tiborli insonlarga aylanishi uning sharafi deb hisoblanadi. Buxoro islom dinining «Qubbatini» deyilishining asosiy sababi ham Abu Hafs Kabir qubba-gumbaz-cho'qqi, ya'ni islomni o'sha davrdan boshlab ilm, ma'rifatini eng yuqori cho'qqisiga chiqargan. Bir necha asrlar mobaynida Buxoro shahri makon tutgan manzil o'zgarmasdan, ya'ni barqaror bo'lib keldi. Buxoro shahri bir necha bor poytaxt bo'lgan, jumladan, buxorudotlar (VII asrning ikkinchi yarmi – VIII asr), somoniylar (IX asrning so'nggi choragi – X asr), shayboniylar (XVI asr), ashtarxoniylar (XVII – XVIII asrning birinchi yarmi), mang'itlar (XVIII asrning ikkinchi yarmi – 1920-yil) davrlarini bunga misol qilish mumkin.² Abu Hafs Kabirdan so'ng 277 ta pir yashab o'tgan. Shu pirlarning birinchisi shu kishi bo'lgan ekanlar. Bu kishidan so'ng 365 ta masjid-madrasa qurilgan ekan, bu kishining o'g'li ham bunday sharif shahar deyishlariga o'z hissasini qo'shgan ekan. Buxoro ahlining ilmi ma'rifatli bo'lishi oddiy xalq, oddiy hunarmand ham fors arab tillarda gapirganlar. Abu Hafs Kabir «Movarounnahr ulammolarining ustozini» degan unvonga sazovor bo'lgan buyuk shaxs, ilm, ma'rifat, din, dunyoviy dunyoqarashlar, falsafiy ilm-fan va diniy ta'limotlarga o'z hissasini qo'shgan, o'z xalqining ma'nan yuksalishiga mehnatini ayamagan, faxrlansa bo'ladigan ustoz va mutaffakkir olim.

4. Xulosa. Movarounnahrda islom ta'limoti taraqqiyot davrida buyuk faylasuf, olim ulammolarimizning o'rni beqiyosdir. Ular asos solgan mafkura hozirgi davrda o'z qiymatini yo'qotgan emas, chunki bejizga Abu Hafs Kabirning qabr toshida yozilgan hadisni eslatmay ilojimiz yo'qdir. Ushbu xattotlik san'atida yozilgan bitiklarda shunday deyilgan: Paygambar s.a.v. muborak hadislaridan “Kun aliman, ov muta'liman, ov mustamian ov mutabian”, ya'ni, olim bo'lgin yoki muta'llim ya'ni ilm o'rgatuvchisi bo'lgin yoki ilmni eshituvchisi bo'lgin deb yozilganligi yana bir bor ular tutgan yo'l haqiqat yo'liga eltuvchi yo'l ekanligini isbotlab beradi. Kelajak avlodga qoldirilgan ma'naviy meros buyuklar izidan ilmga ergashish kabi faxrlansa bo'ladigan bir ne'mat misolidadir.

¹<http://www.e-tarix.uz>.

²Ф.Абдухолиқов, А.Раззоқов, К.Рахимов, Е.Некрасова. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Бухоро, 1-қисм, Т., «Uzbekistan today», 2016, 9-бет.

Yunusova Shaxlo Raximdjanoyna (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti;
shakhlo.yunusova@gmail.com)

TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishni tartibga soluvchi huquqiy asoslar o'rganilgan. Bank tizimida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning keng spektrini o'z ichiga olgan chakana bank sektorini nazorat qiluvchi organlar, chakana bank mahsulotlarini sotishning me'yoriy va huquqiy asoslarini belgilaydigan va shakllantiradigan asosiy xususiyatlari o'rganilgan hamda moliya institutlari va tartibga solish muhiti o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir yoritilgan. Tadqiqotda chakana bank faoliyatini tartibga soluvchi umumiy me'yoriy-huquqiy bazasi, jumladan, markaziy bank, moliyaviy nazorat qiluvchi organlar va chakana bank faoliyati bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari uchun ko'rsatmalar va standartlarni belgilovchi boshqa tegishli nazorat qiluvchi organlarning chuqur tahlili keltirilgan. Tahlil, shuningdek, texnologik taraqqiyot va iste'molchilarning xatti-harakatlarining o'zgarishiga javoban qonunchilik bazasining rivojlanayotgan holati ko'rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые основы регулирования реализации розничных банковских продуктов в коммерческих банках. Органы регулирования розничного банковского сектора, включающего широкий спектр финансовых продуктов и услуг в банковской системе, основные особенности, определяющие и формирующие нормативно-правовую основу реализации розничных банковских продуктов, а также динамические взаимоотношения между финансовыми изучаются институты и нормативно-правовая среда. В исследовании представлен углубленный анализ общей правовой базы, регулирующей розничные банковские операции, включая центральный банк, органы финансового надзора и другие соответствующие регулирующие органы, которые устанавливают руководящие принципы и стандарты для коммерческих банков, занимающихся розничными банковскими операциями. В анализе также рассматривалось изменение состояния правовой базы в ответ на технологические достижения и изменения в поведении потребителей.

Annotation. This article discusses the legal basis for regulating the sale of retail banking products in commercial banks. The regulatory authorities of the retail banking sector, which includes a wide range of financial products and services in the banking system, the main features that define and form the regulatory framework for the implementation of retail banking products, as well as the dynamic relationships between financial institutions and the regulatory environment are studied. The study provides an indepth analysis of the overall legal framework governing retail banking, including the central bank, financial supervisory authorities and other relevant regulatory bodies that set guidelines and standards for commercial banks engaged in retail banking. The analysis also looked at how the legal framework has changed in response to technological advances and changes in consumer behavior.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, chakana bank xizmatlarini sotish, normati-huquqiy asos, moliya institutlari, raqamli texnologiyalar, kredit risklari, elektorn tijorat.

Ключевые слова: коммерческие банки, продажа розничных банковских услуг, нормативная база, финансовые институты, цифровые технологии, кредитные риски, электронная коммерция.

Keywords: Commercial banks, sale of retail banking services, regulatory framework, financial institutions, digital technologies, credit risks, e-commerce.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida bank moliya institutlarining asosiy amaliyotlari sifatida o'z faoliyatini an'anaviy bank xizmatlarga yo'naltirmoqda. Moliyaviy xizmatlarining rivojlanish bosqichida, bank sektorida chakana bank orqali jamiyatga asoslangan xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirmoqda [1]. Chakana bank mahsulotlarini sotish – bu tijorat banklari iste'molchilarga va kichik biznes subyektlariga filiallar, raqamlashgan axborot texnologiyalari va boshqa tarmoqlar orqali taqdim etadigan mahsulotlar va xizmatlar klasteri jamlanamasidir [2].

Bank moliya institutlari mamlakat iqtisodiyotining tayanchi bo'lib, moliyaviy vositachilik va iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlarda bo'lgani singari O'zbekistonda ham chakana bank xizmatlarini ko'rsatish, bank xizmatlari sifatini oshirish, taklif etilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni tijorat banklar standartlariga muvofiqlashtirish ustuvor vazifalar sirasiga kirmoqda.

Chakana bank xizmatlari tijorat banklari filiallar orqali moliya institutlarini individual asos bilan bog'laydigan bankning sohasini tashkil etadi [3].

Chakana bank ishi kengroq bank faoliyati doirasidagi asosiy bo‘lim bo‘lib, keng filiallar tarmog‘i orqali moliya institutlarini alohida mijozlar bilan bog‘laydigan muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, chakana bank faoliyati jismoniy shaxslar va kichik biznes subyektlarining har xil moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan bo‘lib, kundalik moliyaviy operatsiyalar uchun zarur bo‘lgan qator mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadi. Unga ko‘ra omonat va chek hisoblari, kreditlar, kredit kartalari va iste‘molchilarning noyob talablariga moslashtirilgan turli xil investitsiya variantlarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy tizimda tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotish moliyaviy xizmatlar sohasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlari, iste‘molchi bank sifatida ham tanilgan bo‘lib alohida mijozlar va kichik biznes uchun moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning keng spektrini taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chakana bank faoliyati moliya institutlarini jismoniy shaxslar bilan bog‘lovchi filial sifatida tijorat banklari va ularning filiallari tarmog‘i o‘rtasidagi sinergiya asosida rivojlanadi. Filiallarning jismoniy mavjudligi kirish imkoniyatini, ishonchni va jamoatchilikni jalb qilishni rag‘batlantiradigan poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tijorat banklarida tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishning vujudga kelish sabablari va o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy jihatlarini hamda ularni joriy etish masalalari bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishning vujudga kelish sabablari va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab nazariy ilmiy ishlar qilingan va ta‘riflar berilgan.

Xususan, huquq va iqtisod sohasidagi taniqli olim D.Campbell chakana bank sektori va uning tushunchalari moliyaviy institutlarga ta‘sir qiluvchi kengroq huquqiy va iqtisodiy dinamikani tushunishga ta‘siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [4].

Xorijlik taniqli huquqshunos olim J.Coffee bank amaliyotlari, korporativ huquq, qimmatli qog‘ozlarni tartibga solish va moliya bozorlari sohasidagi keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Olim korporativ faoliyat, qimmatli qog‘ozlar savdosi va moliyaviy bozorlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy jihatlarini tahlil qilishga e‘tibor qaratgan. Olim tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishda moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishda huquqiy asoslarni muntazam amaliyotini birlashtirishni taklif qilgan [5].

Xorijlik huquqshunos olim E.B.Rock korporativ huquq va moliyaviy tartibga solish sohasidagi keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Olim o‘z ilmiy ihslanmalarida, korporativ boshqaruv, moliyaviy bozorlar va bank faoliyatining huquqiy jihatlarini o‘rganishi natijasida moliyaviy institutlarni boshqaradishda murakkab qonunchilik asoslarini tizilashdirishgan holda korporatsiyalar va banklarning xatti-harakatlarini, operatsiyalarini shakllantirishni tartibga solishda qimmatli hulosalarni taqdim etgan [6].

Xorijlik iqtisodchi olim Charlz Gudxart pul-kredit iqtisodiyoti va moliyaviy tartibga solishda moliya sektorining turli jihatlarini, shu jumladan, chakana bank faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy bazani tushunishda keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Olim tadqiqotlari natijasiga ko‘ra markaziy bank, pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlikni tartibga solishda huquqiy me‘yoriy-huquqiy bazani muntazam yanagilab shakllantrilib amaliyotda tatbiq etilishni o‘z ibotini topgan. [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usulardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotish bo‘yicha rivojlantirishdagi ahamiyati va zarurati asoslandi. Shuningdek, tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotish bo‘yicha qonunchilikda me‘yoriy-huquqiy asoslar bo‘yicha tahliliy yondashuvlar izohlangan.


Tahlil va natijalar. Tijorat banklari chakana bank xizmatlari jismoniy shaxslar, kichik biznes va uy xo‘jaliklarining turli xil moliyaviy ehtiyojlarini qondiradigan moliyaviy xizmatlar sanoatining asosiy ustuni hisoblanadi. Chakana bank xizmatlari tijorat banklari hamda turli moliya institutlari tomonidan taklif etilib, moliya tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyatida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Raqamli transformatsiyalar hukmron bo‘lgan davrda jismoniy tarmoqlarning dolzarbli shubhalanishi mumkin. Biroq bu filiallar chakana bank tajribasining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Ular jamiyatni jalb qilish uchun markaz bo‘lib xizmat qiladi, bu esa banklarga mahalliy mavjudligini o‘rnatish va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Jismoniy shaxslar va kichik biznes uchun chakana bank mahsulotlari iste‘mol kreditlari, kichik biznes kreditlari, kredit kartalari, ipoteka, uy-joy kreditlari, avtokreditlar, talabalar kreditlari va turli xil shaxsiy kredit variantlari kabi keng ko‘lamli moliyaviy takliflarni o‘z ichiga oladi.

Tijorat banklarida kreditlar va depozitlar asosiy takliflar bo‘lib xizmat qilsa-da, chakana bank bo‘linmalari jismoniy shaxslar va kichik korxonalar ehtiyojlariga moslashtirilgan bir qator qo‘shimcha moliyaviy xiz-

matlarni taklif etadi.

Iste'molchilar va kichik biznes asosan ular foydalanadigan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning umumiy tufayli izchil mijozlar guruhini tashkil qiladi. Bundan tashqari, filiallar tarmog'i orqali iste'molchilarga va kichik biznesvakillari uchun ham samarali xizmat ko'rsatilmoqda. O'zbekistonda bank xizmatlarini takomillashtirishning ahamiyati, xususan, tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotish ushbu muhim maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda mamlakatimizda ko'plab me'yoriy-huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotishda o'z ahamiyatini oshirib boradi. Quyida tijorat banklari chakana bank xizmatlarini sotish orqali bank moliya sektorini rivojlantirish tendensiyalari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklari chakana bank xizmatlarining rivojlantirish tendensiyalari.¹

1-rasmga ko'ra, tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotishda mamlakatda investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy xizmatlarni rag'batlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosidagi bank xizmatlaridagi texnologik taraqqiyot, tartibga solish islohotlari, malaka oshirish, diversifikatsiya qilish milliy bank xizmatlarini rivojlantirishda asos bolib xizmat qiladi. O'zbekiston moliya tizimida islohatlari taraqqiyotda davom etar ekan, uning bank sektorini o'zgartirish iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'ladi.

Hukumatimiz tomonidan Respublikada tijorat banklari chakana bank mahsulotlarini sotish bo'yicha ko'plab me'yoriy-xuquqiy asoslari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan. Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega deb belgilangan [8]. Bizning fikrimizcha yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu moddasiga ko'ra integratsiyalashgan moliyaviy tizimda chakana bank mahsulotlarini taklif qilish, sotish va boshqarish uchun normativ-huquqiy va operatsion bazani yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, yagona moliyaviy pul-kredit va bank tizimining chakana bank mahsulotlarini sotish bilan bog'lanishida normativ nazorat, moliyaviy barqarorlik, valuta boshqaruvi hamda bozor ishonchi kabi

¹ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

omillar asosiy usullari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 12-noyabrdagi O‘RQ-582-sonli yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklarini nazorat qiluvchi asosiy tartibga soluvchi organ hisoblanib, tijorat banklari faoliyatini shakllantirish va amalga oshirish, tijorat banklariga litsenziyalar berish va ularning faoliyatini nazorat qilishda [9] asosiy rol o‘ynaydi. Markaziy bank tijorat banklari operatsiyalarining turli jihatlarini, shu jumladan, chakana mahsulotlarni sotishni tartibga soluvchi qoidalar va ko‘rsatmalarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, O‘zbekiston hududida bank amaliyotlarning huquqiy tuzilmasini belgilab beruvchi asosiy qonunchilik hujjati bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu me‘yoriy hujjatga ko‘ra, tijorat banklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish, litsenziyalash shartlarini belgilashi hamda bank takliflari va xizmatlari-ning ruxsat etilgan spektrini sanab o‘tadi [10].

Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Markaziy qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va qarorlarni ishlab chiqadi. Unga ko‘ra foiz stavkalari, to‘lov tuzilmalari va axborotlarni oshkor qilish majburiyatlari kabi elementlarni o‘z ichiga olgan chakana bank mahsulotlarini sotishning alohida jihatlarini bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni taklif etilgan. Xususan, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasiga ko‘ra, bank xizmatlarining iste‘molchilari tijorat banklarni va bank xizmatlarini tanlashda erkinligi hamda banklar iste‘molchining talabiga binoan unga bank xizmatlarini ko‘rsatish shartlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart ekanligi belgilab berilgan. Tijorat banklarda xizmatlarini ko‘rsatish chakana bank mahsulotlarini sotish va mijozlarga yetkazib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu qonunga muvofiq, tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini quyida ajratib ko‘rsatilgan. Investitsiyalarni jalb qilishda depozitlar inflatsiyaga qarshi mablag‘lar qiymatini saqlab qoladigan foiz stavkasi bo‘yicha moliya institutiga pul joylashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu tijorat bankning mablag‘larini to‘plashga yo‘naltirilgan passiv bank amaliyotlarini tashkil etadi. Omonatlarni muddati va muddatsiz bo‘yicha toifalarga bo‘lish mumkin. Farq shundaki, doimiy mijozlar talab qilib olinmagan depozitlarga istalgan vaqtda kirishlari mumkin, muddatli depozitlar esa ma‘lum muddat davomida saqlanadigan, belgilangan stavka bo‘yicha foiz oladigan moliyaviy resurslarni o‘z ichiga oladi.

Chakana bank xizmatlari sohasida mijozlarning bank hisobvaraqlari orqali jismoniy shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, vositachi banklar uchun pul o‘tkazmalarini osonlashtirish amaliyoti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy globallashtirish dunyoda xalqaro pul o‘tkazmalari asosida tovarlarni sotib olishda keng qo‘llanilmoqda. Chakana bank xizmatlari ushbu operatsiyalarni vositachi banklarning tegishli mamlakatlari valutalarida amalga oshiradil.

Shuni ta‘kidlash kerakki, bunday operatsiyalar, odatda, katta komissiyalar va aniq to‘lov shartlarini o‘z ichiga oladi, bu esa chakana bank xizmatlarining umumiy narxi va samaradorligiga ta‘sir qilishi mumkin. Tijorat banklarda asosiy xizmatlarsiz chakana bank mahsulotlarini sotish va ulardan foydalanish emas balki ushbu xizmatlar hisobni boshqarish, tranzaksiyalar, kreditlash, me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish, mijozlarni qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlik, texnologiya infratuzilmasi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi O‘RQ-582-sonli “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonuni tijorat banklari tomonidan chakana bank mahsulotlarini sotish bilan chambarchas bog‘liq, bo‘lib, unga ko‘ra, tijorat banklarida to‘lov tizimlari va operatsiyalariga xizmat ko‘rsatishni tartibga solishning me‘yoriy huquqiy asoslarini belgilab berilgan.

Ushbu qonunning tegishli moddalariga muvofiq, to‘lov xizmatlarini provayderlar va to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, to‘lov xizmatlari tizimini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, taklif etilayotgan xizmatlarning miqyosini oshirish va raqamli vositalar asosida elektron to‘lov tizimini amalga oshirishda tranzaksiyalar uchun foydalanish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan [11].

Bizning fikrimizcha, to‘lov xizmatlarini etkazib beruvchilar, shu jumladan, tijorat banklari, chakana bank mahsulotlarini iste‘molchilarga yetkazish uchun javobgar bo‘lib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish iste‘molchilarga foyda keltiradigan mustahkam va raqobatbardosh bank moliya tizimini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Normativ me‘yoriy asoslarga muvofiq to‘lov xizmatlarini etkazib beruvchilarning huquqiy chegaralar asosida faoliyatini ta‘minlaydi. Tijorat banklarida elektron to‘lov xizmatlari tizimini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chakana bank mahsulotlarining kengayishi va innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bank moliya tizimida iste‘molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondiradigan yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga undaydi. An‘anaviy bank amaliyotlari jumladan, jamg‘arma va hisobvaraqlarni tekshirishdan tashqari, tijorat banklari raqamli hamyonlar, oldindan to‘langan

kartalar va onlayn to'lov tizimlari kabi ko'plab moliyaviy mahsulotlarni taqdim etadi. Ushbu jarayondagi kengayish nafaqat iste'molchilar uchun mavjud imkoniyatlarni oshiradi, balki tijorat banklar uchun daromad oqimlarini ham kengaytirishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-sonli "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, elektron savdo maydonchasi orqali tovarlarni (xizmatlarni, ishlarni) chakana va (yoki) ulgurji sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, yuridik shaxslarga mahsulotlarni (xizmatlarni, ishlarni) yetkazib berish va o'zaro hisob-kitoblarning hisobini yuritishda tijorat banklari tomonidan chakana bank xizmatlarini ko'rsatishda tegishli idoralarga uzluksiz onlayn hisobot berish imkonini beruvchi virtual nazorat-kassa mashinasining majburiy joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda [11].

Ushbu qonunchilikka muvofiq, elektron savdoda mahsulotlarni jo'natish, elektron savdoda xaridorlarga to'lovlarni qaytarishning o'ziga xos xususiyatlari, jamg'arma depozitlari tizimi va elektron tijoratda ijro jarayonlari asosiy jihatlarni qamrab oladi. Ushbu qonunga muhim maqsad va vazifalarni, jumladan, axborot tizimi operatsiyalarida dasturiy ta'minotni qo'llash amaliyotini, shuningdek, elektron hujjat va ish-tirokchilar o'rtasida axborot almashishni tartibga soladi.

Ushbu huquqiy asosning afzallik tomonlari shundan iboratki tijorat banklarida elektron tijorat bilan ishlash usullari iste'molchilarning bozor bilan aloqalarini o'zgartiradi. Chakana bank xizmatlari sohasida elektron pul mablag'laridan foydalanish banklar va mijozlar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etuvchi asosiy komponentga aylanadi. Chakana bank xizmatlaridagi elektron mablag'lar deyarli bir lahzada bank amaliyotlarini qayta ishlashni taklif etib, mijozlar bir necha marta bosish orqali pul o'tkazishlari, to'lovlarni to'lashlari yoki investitsiya qilishlari mumkin va mablag'lar, odatda, darhol mavjud.

Bu xususiyat mijozlarga qulaylikni oshiradi va o'z vaqtida moliyaviy operatsiyalarni ta'minlaydi. Suningdek, tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotishda mijozlarga hisob-kitoblar, kreditlar va investitsiyalar uchun avtomatlashtirilgan, rejali to'lovlarni o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotishda elektron mablag'lar blokcheyn va kriptovalutalar kabi rivojlanayotgan texnologiyalarga moslashishda davom etmoqda. Banklar xavfsizlikni kuchaytirish va yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish uchun ushbu yangiliklarni o'rganmoqda.

Tijorat banklarda chakana bank xizmatlarini sotishda elektron mablag'larning xususiyatlari bank moliya tizimining raqamli boshqariladigan ekotizimga aylanishini ta'kidlaydi. Elektron mablag'lar samaradorlik, xavfsizlik, foydalanish imkoniyati va qulaylikni taklif etishi bilan birga, ularni zamonaviy bank faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qaroriga ko'ra, bank bank xizmatlar bozorini samardorligini oshirishda ko'plab vazifalar belgilab berilgan.

Birinchidan, bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish vazifasi qo'yilgan [12]. Ushbu bandga ko'ra bank amaliyotlari bo'yicha ilg'or jahon amaliyotini tahlil qilish va bank xizmatlari va mahsulotlarining innovatsion toifalarini o'z ichiga olish chakana bank xizmatlarini sotishni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Soha tendensiyalari yetakchisi bo'lib, mijozlarga yangi va moslashtirilgan moliyaviy yechimlarni taklif qilish orqali chakana bank xizmatlarda kengroq mijozlarni jalb qilish va ushlab turish, buning natijasida bank xizmatlari amaliyotlari orqali mijozlar ehtiyojini qondirishni oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, banklar filiallari va mini-banklar qoplanishini hamda bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda banklar filiallari va mini-banklari tarmog'ini kengaytirish belgilab berilgan. Ushbu bandga ko'ra bank filiallari va mini-banklar tarmog'ining o'sishi chakana bank xizmatlari marketingi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu filiallar va mini-banklarning geografik joylashuvi hamda qulay va xilma-xil bank yechimlariga bo'lgan o'zgaruvchan talablarni hisobga olgan holda tijorat banklari mijozlarining chakana bank xizmatlarining sotishini ta'minlaydi, natijada bank faoliyatining umumiy samaradorlik ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy va ilg'or bank xizmatlari turlarini amaliyotda joriy etish tashabbuslarini ilgari surish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish. Ushbu bandni chakana bank xizmatlarini sotish bilan izohlar ekanmiz masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy va ilg'or bank xizmatlarini rag'batlantirish moliya sanoatining raqamli transformatsiyasini qamrab olish yo'lidagi strategik tashabbuslardan biri hisoblanadi. Ushbu siljish yangi axborot texnologiyalari integratsiyasi va ularning chakana bank mahsulotlarini sotishdagi muhim roli bilan chambarchas bog'liq.

Chakana bank xizmatlarini sotishda mobil banking ilovalari, onlayn platformalar va interaktiv bankomat-

lar aqamli kanallar mijozlarga qoldiqlarni tekshirish, tranzaktsiyalarni amalga oshirish, to'lovlarni to'lash va keng ko'lamlı xizmatlardan osongina foydalanish imkonini oshiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yangi chakana bank mahsulotlarini sotishda jadal rivojlantirish va joylashtirishga yordam beradi. Tijorat banklar innovatsion jamg'arma hisoblarini, investitsiya imkoniyatlarini hamda to'lov echimlarini joriy etish orqali bozor talablariga javob berishi mumkin. Tijorat bank mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va bozor tendensiyalariga moslashish qobiliyati mahsulot portfelining jozibadorligini oshiradi va natijada bank amaliyotlarining ko'lamini oshirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga moljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, zamonaviy bank tizimi doirasida moliya bozorida teng sharoit yaratish, faqat bozor talablaridan kelib chiqqan holda kreditlar berish, banklarning davlat resurslariga bog'liqligini kamaytirish, avtomatlashtirish va samarali infratuzilmani rivojlantirish orqali bank xizmatlarini ko'paytirish hamda bank faoliyatini rivojlantirish, ilg'or xalqaro tajribadan foydalangan holda bank xizmatlari ko'rsatish sifatini kengaytirish va u orqali bog'liq bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali tizim samaradorligini oshirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu me'yoriy huquqiy asosning tegishli bandlariga ko'ra, tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, masofaviy bank xizmatlari shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish, avtomatlashtirilgan tizim, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish hamda bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish, bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni [13] tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotish bilan ifodalanadi. Shuningdek ushbu qarorga ko'ra, bank tizimini isloh qilish doirasida aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish, turli hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash strategiyasi amalga oshirildi. Ushbu strategiya "Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ, "Agrobank", "ATB" va "Mikrokreditbank" ustav kapitalidagi davlat ulushini saqlab qolish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 10-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni tijorat banklarida raqamli amaliyotlarni rivojlantirishda muhim chora-tadbirlar sifatida ishlab chiqilgan.

Ushbu me'yoriy huquqiy asosga ko'ra tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga internet-banking, bank-mijoz platformalari, SMS-banking va masofaviy bank xizmatlarini o'z ichiga olgan mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'lami va sifatini kengaytirishni nazarda tutilgan. Shuningdek, raqamlashtirish amaliyotlarida QR-kod va NFC to'lov texnologiyalari orqali elektron tijorat korxonalari uchun tranzaktsiyalarni osonlashtirish hamda mobil qurilmalar orqali to'lovlarni zamonaviy va foydalanuvchilarga qulay usullarda qabul qilish imkonini berishni o'z ichiga oladi.

Masofaviy bank xizmatlari sifatini oshirish uchun barcha banklar uchun raqobatbardosh va jozibador narxlarni saqlash sharoitida mijozlarning masofaviy xizmatlardan foydalanishini kuchaytirishga katta e'tibor qaratgan holda xizmatlarni optimallashtirishning maqsadli rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishda tijorat banklari chakana bank mahsulotlarini sotishda muhim ahamiyatini oshirib borishi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga moljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoniga ko'ra, tijorat banklarida chakana bank xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish, standartlashtirilgan kredit mahsulotlarini joriy etish va ularning bank kredit portfelida ishtirokini kengaytirish, tez va tejamkor chakana bank xizmatlarini taklif qilish turlarini diversifikatsiya qilish hamda tijorat banklarining kreditni baholash mexanizmlari samaradorligini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan [14].

Shuningdek, moliya bozorida shaffof raqobatni rag'batlantirish, kreditlashning faqat bozor dinamikasiga muvofiqligini ta'minlash, banklarning davlat resurslariga bog'liqligini kamaytirish, tijorat bank xizmatlarini yangilash, avtomatlashtirilgan operatsiyalarga ega mustahkam bank infratuzilmasini yaratish va samaradorlikni oshirish uchun bank faoliyatining asosiy bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich to'xtatish chakana bank xizmatlarini sotishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga moljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoniga ko'ra, tijorat banklari infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab berilgan.

Xususan, raqamli texnologiyalarni moddiy iqtisodiyot, shuningdek, moliyaviy va bank sohalarida ishlab chiqarish, operatsion jarayonlarga integratsiya qilish, iqtisodiyotda real sektori, moliya va bank sohalarida

ham ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan aniq dasturni ma’qullash, moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va dispetcherlik boshqaruv jarayonlarini (SCADA) avtomatlashtirish bo’yicha tizimlari ishlab chiqish, savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko’rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o’zaro munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlarini joriy qilish, onlayn-bank xizmatlari ko’lamini kengaytirish va kredit mablag’larini taqsimlashni avtomatlashtirilgan baholash uchun skoring tizimini joriy etishni ko’rib chiqishni inobatga olish shular jumlasidandir [15]. Shuningdek, tasdiqlangan dasturda belgi-langani tashabbuslarni amalga oshirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida va moliya-bank institutlarida amaliyotlarni raqamlashtirishning 30 foiz darajasiga erishish, iqtisodiyotni real sektorida va tijorat banklari axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida 700 nafar mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish hamda sun’iy intellektni mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2023–2030-yillarda rivojlantirish Strategiyasi”ni ishlab chiqish kabi vazifalar tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini sotishda asos bo’lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu farmon ijrosining istoqbolda kutilayotgan natijasi moliya va bank institutlarida ishlab chiqarish hamda operatsion jarayonlarni raqamlashtirishda chakana bank xizmatlarini sotish orqali transformativ ta’sir ko’rsatadi.

Texnologik jarayonlarning taraqqiyoti fonida, tijorat banklarida chakana bankning kelajagi raqamlashtirish orqali shakllantirilishi, mijozlar uchun yanada qulaylik va qiymatni ta’minlashda vujudga keladi. Raqamli iqtisodiyotning kuchini moslashtiradigan va ishlatadigan moliya institutlari raqobatbardosh chakana bank sohasida muvaffaqiyat va o’sishning davom etishiga zamin yaratadi.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 4-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo’lishi qoidalari to’g’risidagi”gi 3294-sonli qaroriga ko’ra, tijorat banklarida bank kartalaridan foydalanishning tartibi, huququ va majburiyatlari hamda bank kartasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotlari kabi vazifalar qo’yilgan [16].

Birinchidan, naqd pul berish operatsiyasini amalga oshirishda ekvayer tariflari o’zgariganligi to’g’risidagi axborotni bank karta saqlovchilariga yetkazish belgilangan. Bizning fikrimizcha, ushbu bandga ko’ra, naqd pul o’tkazmalarini amalga oshirish jarayonida bank kartalari egalari ekvayer to’lovlariga o’zgartirishlar kiritish to’g’risida ma’lumot berish chakana bank takliflarining shaffofligi va ishonchliligini kafolatlashning muhim elementi hisoblanadi.



2-rasm. Jozibador chakana bank xizmatlarini sotish ketma-ketligi.¹

Quyida ushbu band bo’yicha jozibador chakana bank xizmatlarini sotish ketma-ketligi keltirilgan (2-rasm).

Yuqoridagi chizimga ko’ra tijorat banklarida naqd pul o’tkazmalari bo’yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ekvayer tariflarining o’zgarishi to’g’risidagi ma’lumotlarni bank kartalari egalari yetkazish chakana bank operatsiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. U shaffoflik va ishonchni ta’minlaydi, shu bilan birga, shaxsiylashtirilgan aloqa va tegishli chakana bank mahsulotlarini o’zaro sotish imkoniyatini beradi. Samarali muloqot mijozlarning umumiy tajribasini yaxshilaydi va savdo hajmining oshishiga va doimiy mijozlar munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi.

¹ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Ikkinchidan, savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarini tuzilgan shartnomada belgilangan shartlar asosida bank kartalari egalariga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan qurilmalar va ma'lumotlar bilan ta'minlash vazifasi belgilangan. Bizning fikrimizcha ushbu bandga ko'ra savdo va xizmat ko'rsatish muassasalarini shartnomada nazarda tutilgan bank kartalari egalariga xizmat ko'rsatish uchun zarur vositalar va ma'lumotlar bilan ta'minlash o'rtasidagi inkor etilmaydigan bog'liqlik chakana bank faoliyatining murakkab va asosiy jihati hisoblanadi.

Savdo va xizmat ko'rsatish subyektlarini shartnoma shartlari asosida qurilmalar va ma'lumotlar bilan ta'minlash ko'p qirrali jarayon bo'lib, ta'siri keng ko'lamli hisoblanadi. Bu nafaqat korxonalariga bank karta to'lovlarini qabul qilish imkonini beradi, balki mijozlarga qulay va xavfsiz to'lov imkoniyatlaridan foydalanishini ham ta'minlaydi. Chakana bank xizmatlarini sotishda savdo va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik pirovardida tijorat banklarida o'sish, qulaylik va rentabellikni ta'minlovchi kuchli, o'zaro manfaatli hamkorlik zarurligini ta'kidlaydi.

Uchinchidan, tijorat ankalri to'lov tizimi operatori bank kartalari emissiyasini amalga oshirish to'g'risida shartnoma tuzgan emitentlarning ro'yxatini yuritishi belgilangan. Unga ko'ra tijorat banklarida to'lov tizimining operatori bank kartalari va chakana bank xizmatlari bilan bog'liq operatsiyalarni osonlashtirish va boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu rolning bir qismiga ular bilan bank kartalarini chiqarish va chakana bank xizmatlarini sotish bo'yicha shartnomalar tuzgan emitentlar ro'yxatini yuritish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tijorat banklarida to'lov tizimining operatori emitent to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish va yuritish yo'li bilan ular bilan shartnomalar imzolagan emitentlar ro'yxatini yuritadi. Ushbu jarayon tranzaksiyalarni samarali qayta ishlash, muvofiqlikni boshqarish, nizolarni hal qilish va to'lov tarmog'ining umumiy ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra karta operatsiyalarini samarali va xavfsiz boshqarish orqali chakana bank xizmatlarini sotishni osonlashtiradi hamda moliyaviy institutlar va oxirgi foydalanuvchilarga iqtisodiy samaradorlik ko'rastikichlarini oshirishga xizmat qiladi.

1. Tijorat banklari tomonidan chakana bank mahsulotlarini sotishda mustahkam me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilgani asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu tizim iste'molchilar uchun bank xizmatlarining shaffofligi, adolatligi va xavfsizligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga banklar uchun tizimli muhit hisoblanadi.

2. Tijorat banklarida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va axloqiy xulq-atvorida normativ jarayonlarda nafaqat bank amaliyotini boshqarish, balki iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish uchun ham ishlab chiqilgan. Huquqiy bazalar shaffoflik talablarini, oshkor qilish standartlarini va nizolarni hal qilish mexanizmlarini belgilab, chakana bank faoliyatida huquqiy xatti-harakatlar zaruritani oshiradi. Bu tijorat banklarida mijozlarning moliyaviy munosabatlari davomida ijobiy munosa-batda bo'lishini ta'minlaydi

3. Chakana bank sektoridagi risklarni boshqarishda tartibga solish choralari muhim ahamiyatga ega. Huquqiy bazalar kreditlashning oqilona amaliyoti, kapitalning etariligi va risklarni baholash bo'yicha ko'rsatmalarni belgilaydi, bu ham tijorat banklarining, ham kengroq iqtisodiyotning umumiy moliyaviy barqarorligiga hissa qo'shadi.

4. Normativ talablarga rioya qilish chakana bank faoliyatida operatsion yaxlitlikni ta'minlash uchun asosiy omil bo'lib chiqadi. Tijorat banklari qonunchilik bazasiga moslashish, tartibga solish standartlariga rioya qilish madaniyatini oshirish va huquqiy oqibatlar xavfini yumshatish uchun mustahkam muvofiqlik mexanizmlarini yaratishi kerak.

5. Raqamli banking yuksalishiga qaramay, normativ-huquqiy baza jismoniy filiallarning doimiy ahamiyatini tan oladi. Ushbu filiallar nafaqat tranzaksion maydonlar, balki moliyaviy inklyuzivlikka hissa qo'shadigan va mijozlar uchun aniq interfeysni ta'minlovchi jamoalar bilan hamkorlik qilish markazlari sifatida ham xizmat qiladi.

6. Shuningdek, tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishning me'yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish nafaqat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, balki bank sohasining barqarorligi, raqobatbardoshligi va rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Me'yoriy huquqiy asosning mavjudligi tijorat banklari, iste'molchilar va iqtisodiy manfaatlarini muvozanatlash uchun zarur tuzilmani ta'minlash bilan birga chakana bank mahsulotlari mas'uliyatli va xavfsiz tarzda taklif qilinishini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kirubi C. Et al. Community-based electric micro-grids can contribute to rural development: evidence from Kenya //World development. 2009, T. 37, №. 7, c. 1208 – 1221.
2. Clark T. et al. The role of retail banking in the US banking industry: risk, return, and industry structure //Eco-

conomic Policy Review. 2007, T. 13, №. 3.

3. Yeshmin F., Nasrin M. Enhancement of Retail Banking Operation of Commercial Banks in Bangladesh //Journal of Business and Technology (Dhaka). 2010, T. 5, №. 2, c. 166–179.

4. Campbell D. the end of Posnerian law and economics. 2010.

5. Coffee Jr J. C. Law and the market: The impact of enforcement. U. pa. L. rev. 2007, T. 156, c. 229.

6. Rock E.B. Adapting to the new shareholder-centric reality. University of Pennsylvania Law Review. 2013, c. 1907–1988.

7. Goodhart, Charles. The evolution of central banks. MIT press, 1988.

8. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. 2023, 30-aprel.

9. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.11.2019-yildagi O‘RQ-582-sonli.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 05.11.2019-yildagi O‘RQ-580-sonli.

11. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonuni, 01.11.2019-yildagi O‘RQ-578-sonli.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” qonuni, 29.09.2022-yildagi O‘RQ-792-sonli.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 23.03.2018-yildagi PQ-3620-sonli.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 12.05.2020-yildagi PF-5992-sonli.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli.

16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “O‘zbekiston respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalari to‘g‘risida ”nizomi, 03.04.2021-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3294.

Mamajanova G'uncha Xemrayevna (Toshkent davlat Transport universiteti assistenti;
orcid: <https://orcid.org/0000-0002-9817-111X>)

LEKSIK KOMPETENSIYA VA UNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz leksik kompetensiyaning ahamiyatini o'rganamiz va uni rivojlantirishning turli usullarini muhokama qilamiz. Leksik kompetensiya yoki so'zlarni samarali tushunish va ulardan foydalanish qobiliyati til o'rganishning asosiy jihati hisoblanadi. Bu muloqotda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu odamlarga o'z fikrlari, g'oyalari va his-tuyg'ularini aniq ifoda etish imkonini beradi. Leksik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, diqqat va izchil amaliyotni talab qiladi.

Аннотация. В статье мы исследуем важность лексической компетентности и обсудим различные способы ее развития. Лексическая компетентность или способность эффективно понимать и использовать слова-ключевой аспект изучения языка. Она играет решающую роль в общении, позволяя людям четко выражать свои мысли, идеи и чувства. Развитие лексической компетентности-многогранный процесс, требующий целенаправленной и последовательной практики.

Annotation. In this article, we examine the importance of lexical competence and discuss various ways to develop it. Lexical competence, or the ability to understand and use words effectively, is a central aspect of language learning. It plays a crucial role in communication, allowing people to clearly express their thoughts, ideas and feelings. Developing lexical competence is a complex process that requires attention and consistent practice.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kollokatsiya, kontekst, idiomatik, leksik ko'nikma, idiomatik ibora, lug'at, semiotik funktsiya, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ munosabat.

Ключевые слова: компетентность, словосочетание, контекст, идиоматика, лексические навыки, идиоматическая фраза, словарный запас, семиотическая функция, коммуникативная компетентность, коммуникативное отношение.

Key words: competence, collocation, context, idiomatic, lexical skill, idiomatic phrase, dictionary, semiotic function, communicative competence, communicative attitude.

Kirish. Leksik kompetensiya deganda shaxsning ma'lum bir tilda so'z boyligining bilishi va tushunishi tushuniladi. Bu nafaqat so'zlarning ma'nosini bilishni, balki ularni turli kontekstlarda to'g'ri ishlata olishni ham o'z ichiga oladi. U so'zlarni tanib olish, so'z birikmalari, kollokatsiya va idiomatik iboralarni o'z ichiga olgan keng jihatlarni qamrab oladi. Leksik kompetensiya grammatika va sintaksisdan tashqariga chiqadi, chunki u samarali muloqotning markaziy elementi sifatida lug'atga qaratilgan. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishda belgi-ramziy va semiotik funksiyalarning roli yosh o'quvchilarda mavhumlashtirish va umumlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Leksik mahorat leksik kompetensiya tarkibida ko'rib chiqilishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda vazifalardan biri har xil turdagi kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ta'limning dastlabki bosqichida u yoki bu ko'nikmalarni sifatli o'zlashtirish kompetensiyalarni shakllantirish uchun mustahkam asosdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chet tilini o'qitish metodologiyasidagi "kompetensiya" tushunchasi ta'limning umumiy xususiy maqsadlari va mazmuni bilan tavsiflanadi. "Kompetensiya" juda keng tarqalgan. Faoliyat ta'limi kontekstida kompetensiya, R.P.Milrudning so'zlariga ko'ra, "ma'lum bir sohada tashqi dunyo bilan samarali o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydigan va buning uchun zarur bo'lgan vakolatlarga bog'liq bo'lgan murakkab, shaxsiy manba" [1]. Olimning so'zlariga ko'ra, kompetensiyalar o'quv dasturining birliklariga aylandi va kompetensiyaning "anatomiyasi"ni tashkil etdi [1].

Kompetensiya tushunchasini ta'kidlab, olimlar uni umumiy va individual sifatida o'zaro bog'lashadi. Kompetensiya tushunchasi bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'z ichiga oladi, kompetensiyada – shaxsning xususiyatlari va shakllangan kompetensiyalar asosida bajarilgan faoliyatga shaxsiy munosabati paydo bo'ladi. Biz ta'lim maqsadlariga javob beradigan turli xil vakolatlarni shakllantirish haqida gapiramiz. Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'qitish maqsadini nutq faoliyatining asosiy turlarida: tinglash, gapirish, o'qish va yozishda boshlang'ich o'quvchining boshlang'ich kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish sifatida belgilaydi.

N.D.Galskova va Z.N.Nikitenko kommunikativ kompetensiya ostida "ma'lumotni tushunish va uzatish uchun chet tilidan moslashuvchan va samarali foydalanish qobiliyatini" tushunadilar [2]. M.N.Vyatyutnev kommunikativ kompetensiyani "insonning ma'lum bir aloqa muhitida harakat qilish qobiliyatiga qarab, nutq xatti-harakatlari dasturlarini tanlash va amalga oshirish sifatida" tushunadi; suhbat oldidan, shuningdek, o'zaro

moslashish jarayonida suhbat davomida paydo bo'ladigan mavzular, vazifalar, kommunikativ munosabatlarga qarab vaziyatlarni tasniflash qobiliyati paydo bo'ladi [3]. F.M.Litvinko kommunikativ kompetensiyani "til tizimi va uning birliklari, ularning nutqda tuzilishi va faoliyati, o'rganilayotgan tilda fikrlarni shakllantirish va boshqalarning hukmlarini tushunish usullari, o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilarning milliy va madaniy xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlar to'plami" deb ta'riflaydi. Turli xil nutq turlari; bu tilni o'rganuvchining turli xil nutq faoliyatida hal qilinadigan kommunikativ vazifalarga muvofiq muloqot qilish, izchil bayonotlarni tushunish, talqin qilish va yaratish qobiliyati" [4]. Ushbu tushuncha nafaqat chet tilida gapirish qobiliyatini, balki madaniy tarkibiy qismga ega bo'lgan leksik birliklarni bilish va faol ishlatishni ham nazarda tutadi.

I.L.Bimning so'zlariga ko'ra, "chet tillarini o'qitishning integral maqsadi sifatida ishlaydigan kommunikativ kompetensiya deganda, standart-dastur tomonidan belgilangan chegaralarda ona tilida so'zlashuvchilar bilan chet tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati hamda tayyorligi tushuniladi" [5].

Z.N.Nikitenko umumiy ta'lim faoliyati deganda "yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishni, ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydigan o'quv ishlari ko'nikmalari bilan bog'liq bo'lgan o'quvchining harakat usullarining umumiyligini" tushunadi [2]. Barcha fanlarda shakllangan umumiy ta'lim qobiliyatlari muvaffaqiyatli o'qishni ta'minlaydi va uyda mustaqil ishlarni yuqori darajada bajarishga yordam beradi. Chet tilini bilish bo'yicha dunyo miqyosidagi vakolatlariga ko'ra, kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik. Lingvistik komponentda leksik, grammatik, semantik va fonologik kompetensiyalar ajralib turadi. Ushbu hujjatda leksik kompetensiya "leksik va grammatik elementlarni o'z ichiga olgan tilning so'z boyligini bilish va ularni nutqda ishlatish qobiliyatini" anglatadi.

I.P.Korotkova leksik kompetensiyaning to'liq ta'rifini beradi: "og'zaki va yozma matnda leksik birliklarni tanib olish, o'quv vazifasiga muvofiq matn materiallari bilan ishlash, aloqa jarayonida o'rganilgan lug'at bilan ishlash, oddiy so'z yasovchi elementlarni ajratib ko'rsatish, til taxminidan foydalanish qobiliyati. o'qish va tinglash jarayonida murakkab matnli vaziyat, bu nutq faoliyatining barcha turlari asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlashga imkon beradi" [6]. A.N.Shamov leksik kompetensiyani inson so'zining kontekstual ma'nosini aniqlash, uning ma'nosi hajmini ikki tilda taqqoslash, so'z ma'nosining tuzilishini aniqlash va ma'lum bir tuzilishda o'ziga xos milliy xususiyatni ajratib ko'rsatish qobiliyati" deb ta'riflaydi [7]. Olimning fikriga ko'ra, leksik kompetensiyaning yuqori darajasi talabalarga nutq aloqasi harakatlarida so'zlarni ishlatish va so'zlarni idrok etish jarayonlarini to'g'ri amalga oshirishga imkon beradi. Leksik kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: 1) leksik bilimlar; 2) leksik ko'nikmalar; 3) leksik qobiliyatlar; 4) til va nutq tajribasi; 5) maktab o'quvchilarining shaxsiy fazilatlarini. Tadqiqot leksik mahoratga katta e'tibor beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. A.A.Smirnov mahoratni "mashqlar tufayli harakat qilish usuli" deb ta'riflaydi [8]. Ushbu ta'riflar nutq faoliyati kontekstida mahorat tushunchasini to'liq aks ettirmaydi. Mashqlarni bajarish orqali mahoratni rivojlantirish asosiy narsaga javob bermaydi mahoratni nutqqa o'tkazishni ta'minlamaydi. Ko'pincha, talaba jummalarni tuzish, mashqlarda so'z birikmalaridan foydalanish bilan osonlikcha kurashadi va jummalarni erkin so'zlashda ishlatishda qiyinchiliklarga duch keladi. E.I.Passov nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan mahoratning to'liq ta'rifini beradi. Olimning fikriga ko'ra, mahorat ongli faoliyat tizimidagi nisbatan mustaqil harakat bo'lib, bu fazilatlarining to'liq to'plami tufayli ushbu faoliyatni amalga oshirish shartlaridan biriga aylandi. Ong ongli nazorat darajasida harakatlarni avtomatik ravishda bajarish qobiliyati bilan belgilanadi [9].

"Nutq mahorati" tushunchasi sanab o'tilgan barcha fazilatlarini o'z ichiga oladi va nutqqa faoliyat turi sifatida tegishli ekanligidan dalolat beradi. Nutq qobiliyatlari leksik va grammatik ko'nikmalarga bo'linadi. Leksik mahorat leksik birlikni tanlash bo'yicha sintez qilingan harakat g'oyaga va uning boshqalar bilan to'g'ri kombinatsiyasiga mos keladi, mahorat parametrlarida amalga oshiriladi hamda nutqda ushbu leksik birlikdan situatsion foydalanishni ta'minlaydi [9]. Vaziyatli bog'liqlik tufayli so'z funksional birlik sifatida o'zlashtiriladi. Boshlang'ich maktab yoshida bolalar so'zlarning o'zgarishi va ularning so'z birikmasi, jumla, matn darajasida boshqa so'zlar bilan muvofiqligi naqshlari bilan tanishadilar.

Tahlil va natijalar. Vaziyat grammatik mahoratni shakllantirishda zaruriy shartdir. Grammatik mahorat-mahorat parametrlarida bajariladigan va har qanday nutq darajasidagi nutq birligining yetarli morfologik va sintaktik dizaynini ta'minlaydigan sintez qilingan harakat [9]. Grammatik mahorat har doim o'quvchilar erkin foydalanishi mumkin bo'lgan leksik birliklar asosida shakllanadi. So'z asosiy kommunikativ yukni ko'taradi. Leksik ko'nikmalar, grammatikadan farqli o'laroq, ko'proq mantiqiy va semantik xabardorlik bilan ajralib turadi. Leksik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich-nutq harakatlarining taxminiy asosini yaratish. Ikkinchi bosqich - mashg'ulotni tashkil etish. Uchinchi bosqich-dasturni

tashkil etish. Ko'nikmalarni shartli ravishda reproduktiv (gapirish va yozishda) va retseptiv (tinglash va o'qish paytida)ga bo'lish mumkin.

Semiotik va ramziy funksiyalar so'z bilan ishlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu funksiyalar abstraksiyaning birinchi darajasidir. Ularning asosida narsalardan chalg'itish va so'zlar bilan ishlash sodir bo'ladi. So'zlar shunchaki nomlanmaydi, ularga ma'no beriladi. Tarkib so'z shakli bilan bog'liq. Til belgisi tushunchasi qayd etiladi, keyinchalik, nutq faoliyatida qo'llaniladi. Belgilar va ramziy vositalardan foydalangan holda tabalar haqiqatni ichki harakat rejasiga osonroq o'zgartiradilar, mustaqil ravishda leksik birliklar va ularning ma'nolari bilan ishlashni optimallashtirish uchun belgilar va ramziy vositalarni yaratishni hamda o'z ichiga olishni boshlaydilar.

Xulosa. Leksik kompetensiyani rivojlantirish til o'rganishning muhim jihati hisoblanadi. Bu odamlarga samarali muloqot qilish va tilni osonlik bilan tushunish imkoniyatini beradi. Lug'atni kengaytirish, kontekstli o'rganish, so'z birikmalari, faol amaliyot, so'z shakllantirish va raqamli resurslardan foydalanishga e'tibor qaratish orqali til o'rganuvchilar leksik vakolatlarini oshirishi hamda maqsadli tillarida yanada malakali bo'lishlari mumkin. Lug'atning mustahkam poydevorini yaratish doimiy amaliyot va turli xil haqiqiy materiallarga ta'sir qilishni talab qiladigan doimiy jarayondir. Izchil harakat bilan o'quvchilar o'zlarining leksik qobiliyatlarini rivojlantirishlari va maqsadli tillarida ko'proq malakaga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мильруд Р.П., Максимова И.Р. Современные концептуальные принципы коммуникативного обучения иностранным языкам. "Иностранные языки в школе", 2000, № 4, с. 9 – 15.
2. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика [текст]. М., «Академия», 2002, с. 165; Никитенко З.Н. Развивающее иноязычное образование в начальной школе. Монография [текст], М., "Глосса-Пресс", 2010, 438 с.
3. Вятютнев М.Н. Теория учебника русского языка как иностранного (методические основы) [текст], М., "Русский язык", 1984, 186 с.
4. Литвинко Ф.М. (2009). Коммуникативная компетенция как методическое понятие.
5. Бим И.Л. Первые шаги. Книга для учителя к учебнику немецкого языка для 4 класса общеобразовательных учреждений [текст]. И.Л.Бим, Л.И.Рыжова, Л.В.Садомова, О.В.Каплина. М., "Просвещение", 2005, 96 с.
6. Короткова Г.Г. Новые виды для адвентивной флоры Казани и её окрестностей. Окружающая среда и устойчивое развитие регионов: экологические вызовы XXI века. Сборник междунар. научной конф., Казань, 2017, с. 538 – 539.
7. Шапов А.Н. Психолого-дидактические основы организации познавательной деятельности учащихся в процессе овладения лексической стороной иноязычной речи. Монография [текст], Н.Новгород, НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2003, 239 с.
8. Смирнов С.Д. Мир образов и образ мира [текст]. Вестник Московского университета, серия 14, "Психология", 1981, № 2, с. 15 – 29.
9. Пассов Е.И. Урок иностранного языка в средней школе [текст]. М., "Просвещение", 1988, 267 с.

Mustayeva Guldora Salohiddinovna (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti;

e-mail: mgulyas00@gmail.com),

Miraxmedova Zilola Erkinovna (Toshkent davlat Transport universiteti assistenti;

e-mail: zilolamirakhmedova@gmail.com)

MODALLIKNING LINGVISTIK JIHLARI TAHLILI

***Annotatsiya.** Modallik – bu ma'ruzachilarga o'z munosabatlari, fikrlari, e'tiqodlari va imkoniyatlarini ifoda etishga imkon beradigan tilning hal qiluvchi jihati. Bu bayonot yoki savolda zarurat, majburiyat, imkoniyat, qobiliyat, ruxsat yoki iroda darajasiga ishora qiladi. Ushbu maqolada biz modallikning ba'zi lingvistik jihatlari va ularning turli tillarda qanday ifodalanishini o'rganamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, modallik tillarda farq qilishi mumkin. Ba'zi tillarda kengroq modal tizimlar mavjud modal fe'llar va qo'shimchalar, boshqalari esa kamroq imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, modallikni ifodalash uchun grammatik qoidalar va tuzilmalar sezilarli darajada farq qilishi mumkin.*

***Аннотация.** Модальность – важнейший аспект языка, который позволяет носителям языка выражать свое отношение, мысли, убеждения и способности. Это относится к степени необходимости, обязательства, возможности, умения, разрешения или волеизъявления в заявлении или вопросе. В этой статье мы рассмотрим некоторые лингвистические аспекты модальности и то, как они выражаются на разных языках. Следует отметить, что условия могут варьироваться в зависимости от языка. Некоторые языки имеют более обширные модальные системы – модальные глаголы и суффик-*

сы, в то время как другие могут предлагать меньшие варианты. Кроме того, грамматические правила и структуры для выражения модальности могут существенно различаться.

Annotation. Modality is a crucial aspect of language that allows speakers to express their attitudes, thoughts, beliefs, and abilities. It refers to the degree of necessity, obligation, opportunity, ability, permission or will in a statement or question. In this article we examine some linguistic aspects of the modality and how they are expressed in different languages. It should be noted that the modalities may vary depending on the language. Some languages have more extensive modal systems – modal verbs and suffixes, while others may offer fewer options. Furthermore, grammatical rules and structures for expressing modality can vary significantly.

Kalit so‘zlar: kategoriya, lingvistik tahlili, sintaksis modallik, morfologik, sintaktik, fonologik, funksional-semantik kategoriya, ritorik, interaktiv, pragmatik komponent.

Ключевые слова: категория, лингвистический анализ, синтаксическая модальность, морфологическая, синтаксическая, фонологическая, функционально-семантическая категория, риторический, интерактивный, прагматический компонент.

Key words: category, linguistic analysis, syntactic modality, morphological, syntactic, phonological, functional-semantic category, rhetorical, interactive, pragmatic component.

Kirish. Bugungi kunda tillarning murakkab va xilma-xil tuzilishi bo‘yicha tadqiqotlar tilshunoslarning e‘tiborini tortmoqda. Inson miyasining murakkab tuzilishi va tildan foydalanish haqida ko‘proq bilish tilshunoslarning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadga erishadigan ko‘plab yondashuvlar mavjud va bu sohada modallik yondashuvi juda muhimdir. Tildagi lingvistik kategoriya sifatida modallik «Tilning grammatik elementlari sohasida ham, uning leksik-nominativ elementlari sohasida ham» ifodalanishi mumkin [1]. Bunday holda atrof-dagi dunyoni baholashni ifodalovchi so‘z modal hisoblanadi. Modallikning lingvistik tahlili uning muammolari va o‘rganish yondashuvlarini hisobga olgan holda, ko‘plab variantlarga ega. U turli lingvistik fanlarda amalga oshiriladi. Masalan, morfologiya modallik turli tillarda ifodalanadigan leksik shakllarni tavsiflaydi, sintaksis modallikni aktualashtiradigan murakkab sintaktik konfiguratsiyalarni o‘rganadi, semantikada modallar morfologik, sintaktik, fonologik va pragmatik jihatdan ifodalanadi ma’nolar hamda ushbu ma’nolarning turli usullarini o‘rganadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bir tomondan, modallik mantiqiy-semantik va funksional-semantik kategoriya sifatida tushuniladi, unga fe‘l kayfiyatining grammatik shakllari, bayonotning voqelikka munosabatini ifodalashning leksik-sintaktik vositalari kiradi. Modallikni o‘rganishga funksional-semantik maydon pozitsiyasidan yondashiladi. Boshqa tomondan, modallik sintaktik kategoriya sifatida tushuniladi. V.A.Plungyaning fikricha, modallik «universal grammatik to‘plam» elementidir [2].

Modallik grammatika va nutqda o‘rganiladi [3]. Tadqiqotchilar o‘zlarining kognitiv tabiati bo‘yicha nutq multimodal ekanligiga e‘tibor berishadi [4] va bilimlarni talqin qilish hamda tashqi hamda ichki dunyoni talqin qilish kognitiv kontekstlardan kelib chiqadi.

Til – bu faoliyat. Modallik barcha aloqa ishtirokchilariga ta‘sir qiladi. Tilni tavsiflovchi so‘zlarni yetkazish vositasidan ko‘proq narsa bor. Modallik interpersonal funksiyani amalga oshirish va ma‘ruzachi-yozuvchi hamda tinglovchi-o‘quvchining ijtimoiy rollarini ifodalashning eng muhim lingvistik vositasidir. Modallikning super toifasi tilning leksikosintaktik sohasi sifatida keng ta‘riflanadi, bu ma‘ruzachining munosabatini ifodalaydi–faktual, evidensial, epistemik yoki deontik. Modallik bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati modallik taklifga qanday mos kelishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa-da, so‘nggi o‘n yilliklarda ushbu sohada tahlilning boshqa jihatlari ham paydo bo‘ldi. Ma‘ruzachining pozitsiyasini ochib beradigan mexanizm, uning malakaviy funksiyasidan tashqari, ishonitirish, manipulatsiya qilish, qarshi turish, qarama-qarshilik, qabul qilish, muhokamani rag‘batlantirish va matnning izchilligini yaratish uchun ritorik, interaktiv hamda matnli funksiyalarni bajariшини hisobga olish odatiy holga aylandi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, til nafaqat g‘oyalar bilan aloqa qilish vositasi, aloqa vositasi sifatida ishlaydi, balki u o‘zining pragmatik funksiyasida ifoda etilgan propozitsiyaning haqiqatiga ishonish va u yoki bu tarzda harakat qilishga ishonitirish uchun ishlatiladi. Nafaqat assertiv-baholovchi va rivoyat faoliyati, balki boshqa odamlarning xatti-harakatlariga ta‘sir ko‘rsatadigan faoliyat ham amalga oshiriladi [5]. Bizning fikrimizcha, ko‘plab tasniflarda modallik fenomenini keng talqin qilish uchun imkoniyatlar ochadigan pragmatik komponent mavjud emas. Bu haqda F.R.Palmer semantik va pragmatik xususiyatlarning kombinatsiyasini subyektivlik tushunchasi ostida birlashtirganda, tilning turli darajalarida ishlaydigan modallikni muhokama qilishda gapirdi [6]. Xuddi shunday pozitsiya J.Coates tomonidan ham qabul qilingan [7].

J.Vershuerenning fikricha modallik – bu tilga xos bo‘lgan pragmatik hodisa. Pragmatika til foydalanuvchisining rolini va tilni haqiqiy dunyoning ijtimoiy hamda madaniy kontekstlarida inson xatti-harakati sifatida

ishlatish faktini tasdiqlaydi. U sof referent-predikativ, ya'ni, propozitiv bayon mazmuniga munosabatni ifodalashning ko'plab usullarini o'z ichiga oladi [8]. B.Malinovskiy tomonidan o'tgan asrning boshlarida yangi Gvi-neyaning Papua qabilalarida urf-odatlar va xatti-harakatlarining mashhur antropologik tadqiqotida tan olingan. B.Malinovskiy tilning asosiy vazifasi fikrni ifodalashda emas, aqliy jarayonlarning takrorlanishida emas, balki uning inson xatti-harakatlaridagi faol pragmatik rolida ekanligini yozadi. Til insonning barcha harakatlarining asosiy tarkibiy qismidir [9]. Tildan foydalanishning pragmatik istiqboli ma'ruzachilar nuqtayi nazaridan, tilning funksiyasi va dialektik sinergetika nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan nutq harakatining o'ziga qaratilgan bo'lib, bu elementlar va til foydalanuvchilari mavjud bo'lgan va faoliyat yuritadigan o'zgaruvchan ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy kontekstlar o'rtasida yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). So'nggi paytlarda yo'nalishlar paydo bo'ldi va juda samarali rivojlanmoqda, ularning yadrosi bayonotlarning interaktiv, matnli va ritorik funksiyalarini o'rganishdir. Bunga persuzivlik, manipulatsiya, qiyinchilik, qarama-qarshilik, kelishuv, nutq oqimini rag'batlantirish, matnning izchilligi va uyo'unligini yaratish va boshqalar kiradi.

Modallik, ayniqsa, tillararo tadqiqotlarda aniqlash qiyin bo'lgan murakkab tushunchadir. F.R.Palmerning fikricha, modallik – bu tipologik o'rganish obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy til grammatik toifasi [10]. Masalan, J.Baybi va S.Fleyshman tillarning tegishli semantik tarkibni lingvistik shaklga o'tkazishda qanchalik farq qilishini ta'kidlaydilar [4].

So'nggi paytlarda tilshunoslikda modallik uning tizimli ta'rifi va og'zaki so'zlash vositalarini tasniflash usullari nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Tadqiqotchilar muammoni o'rganishning rasmiy-sintaktik, leksik-semantik, tarkibiy-distributiv, funksional-pragmatik va kognitiv mezonlaridan kelib chiqdilar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yondashuvlarning ko'p o'lchovli tabiati va olingan natijalarning nazariy ahamiyatiga qaramay, modallikni konsepsiyalashning muhim qiyinchiliklarini ham ta'kidlash mumkin, bu ma'lum darajada ushbu yo'nalishlar modallikni o'z pozitsiyalaridan ifodalagan bo'lsa-da, modallik a'ziligiga kiritilgan uni ifodalashning muayyan vositalarini ko'rsatdi va ta'kidladi. Ularning aksariyati modal yordamchi fe'llarga modallikni ifodalovchi prototipik birliklar sifatida tegishli edi. Yana bir kamchilik shundaki, modallik sof, qattiq tizim sifatida tushunilgan va bu ba'zi mezonlarning boshqalarga nisbatan keng tarqalishiga olib kelgan. Semantik yondashuvlarning ustunligi bilan toifalashning bu aniqligi, albatta, kontekstdan, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarning ona tili sifatida umumiy sezgilaridan ajralgan modallikni noto'g'ri tushunishni yaratdi. Boshqa tomondan, modallikning sof sintaktik qarashlari uni grammatika sohasiga qaratdi va modallik faqat grammatik kategoriya sifatida qabul qilindi, modallikning ma'nosi esa e'tiborga olinmadi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirib, biz tilshunoslikda modallik deb tushundik grammatiklashtirish yoki so'zlovchining ko'rib chiqilayotgan taklifning ehtimoli, bashorat qilinishi, zarurligi, haqiqati yoki ehtimolligi haqidagi munosabati, yoki ma'nosini leksikallashtirish tushuniladi. Hodisa kuzatuvchilar tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan aniq harakatlar yoki o'zgarishlarning vaqti va makonini, ularning yutug'i va yakunlanishini bildiradi. Agar ma'ruzachining munosabati haqiqat qiymatiga ishora qilsa, unda biz epistemik modallik bilan shug'ullanamiz, agar vaziyat yoki hodisani yaratish haqida gapiradigan bo'lsak, demak, bu deontik modallikdir.

Biz modallikni munosabatlar malakasining keng sohasi bilan bog'liq bo'lgan kategoriya sifatida, ya'ni, ma'ruzachining nutq mavzusiga munosabatini ifodalovchi malaka yoki ma'ruzachining subyektiv bahosi yoki aloqa ishtirokchilarining pozitsiyasini subyektlararo anglashni ko'rib chiqamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, modallik tilda muhim rol o'ynaydi, ma'ruzachilarga o'z munosabatlari, e'tiqodlari va imkoniyatlarini ifoda etishlariga imkon beradi. U modal fe'llar, qo'shimchalar, zaralar, grammatik tuzilmalar va madaniy omillar orqali ifodalanishi mumkin. Modallikning lingvistik jihatlari tushunish turli kontekstlarda tilni tushunish va samarali foydalanish qobiliyatimizni oshiradi. Modallik masalasini aniqlashtirish nazariy ahamiyatga va amaliy ahamiyatga ega, chunki olingan natijalar matnli xulosalar, fakt hamda hissiyotlarni tahlil qilish holati bilan bog'liq ba'zi muammolarni aniqlab berishi, bir tomondan, vaqt va jihatlar o'rtasidagi munosabatni, boshqa tomondan, sintaktik tuzilmani aniqlab berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Блох М.Я. Теоретические основы грамматики. М., “Высшая школа”, 1986, 159 с.
2. Плуныян В.А. Введение в грамматическую семантику. Грамматические значения и грамматические системы языков мира. М., Российский государственный гуманитарный университет, 2011, 672 с.
3. Bybee J., Fleischman S. (eds.). Modality in grammar and discourse. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins, 1995, 575 p.
4. Манерко Л.А. Изучение мультимодальности дискурсивного знания средствами методологического аппарата когнитивной лингвистики. “Когнитивные исследования языка”, 2015, № 22, с. 86 – 89.

5. Правикова, Л.В. Персуазивность как когнитивная стратегия в парламентском дискурсе. “Филологические науки”, Вопросы теории и практики. Тамбов, 2018, № 1 – 2 (79), с. 359 – 362.
6. Palmer F.R. Mood and modality. Cambridge, Cambridge University Press, 1986, 243 p.
7. Coates J. The semantics of the modal auxiliaries. London and Canberra: Croom Helm, 1983, 259 p.
8. Verschueren J. Understanding pragmatics. London, Arnold; New York, Oxford University Press, 1999, 295 p. (Understanding language series).
9. Malinowski B. Coral gardens and their magic. Vol II. The Language of Magic and Gardening. London, George Allen and Unwin, 1935, 610 p. [Electronic resource]-URL: <https://archive.org/details/coralgardensandt031834mbp>.

**Xudayberganova Dildora Kulmatovna (O‘zbekiston Milliy universiteti, PhD)
DOSTONLAR TILIDA ARXAIZMLARNING NUTQIY VOQELANISHI**

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazm dostonlari leksikasidagi arxaik qatlam tahlil etiladi. Dostonlardagi leksik, frazeologik arxaizmlar tasnif etilib, ularning mohiyati xarakterli misollar orqali yoritiladi. Og‘zaki variantlar va yozma nusxalar orqali yetib kelgan dostonlardagi arxaik qatlamning farqlari ochib beriladi.*

***Аннотация.** В статье исследуется архаический пласт из лексики хорезмских дастанов, классифицируются лексические, фразеологические архаизмы, их сущность освещается на основе характерных примеров, раскрываются различия в архаическом пласте дастанов, сохранившихся посредством устных вариантов и письменных экземпляров.*

***Annotation.** The archaic layer in the vocabulary of dastans is analyzed in this article. Lexical and phraseological archaisms are classified and their special features are brightened up via characteristically exemplified. The difference of archaic layers in the oral and written forms of dastans are revealed.*

***Kalit so‘zlar:** Xorazm, doston, arxaizm, leksika, frazeologiya, eskirgan so‘zlar, voqea, tarixiy so‘zlar, savodxon, madrasa, kotiblar, xattotlar.*

***Ключевые слова:** Хорезм, дастан, архаизм, лексика, фразеология, устаревшие высказывания, события, исторические высказывания, грамотные, медресе, секретари, каллиграфы.*

***Key words:** Khorezm, dastan, archaism, lexics, phraseology, obsolete words, event, historical words, literate, madrasa, secretaries, calligraphers.*

Kirish. Xalq dostonlari og‘zaki ravishda tarqalib, ming yillar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, ajdodlar merosi sifatida baxshilar repertuari orqali bizgacha yetib kelgan. Dostonlarning og‘zaki variantlari leksikasida ham tarixiy va eskirgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Xorazm dostonlariga xos bir xususiyat boriki, ular XIX asrdan boshlab yozuvga ko‘chirilgan bo‘lib, dostonlar matnida o‘sha davrga xos leksika barqaror saqlangan. Shu sababli mazkur dostonlarda arxaik so‘zlar ko‘p uchraydi. Ushbu mavzu bo‘yicha ko‘pgina ishlar e‘lon qilingan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz dostonlar tilidagi arxaizmlarni quyidagi tasnif asosida ko‘rib chiqamiz:

A) Leksik arxaizmlar. Arxaizm yunon tilidan olingan bo‘lib, *qadim, qadimgi* degan ma‘nolarni bildiradi. Ular hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so‘z hamda iboralardir [2]. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari og‘zaki tarzda ijro qilinishiga qaramasdan, ular matnida ham eskirgan so‘zlar anchani tashkil etadi. Eskirgan so‘zlarning aksariyati maishiy turmush bilan aloqadordir. Doston voqealari ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni tasvirlaganligi sababli ular tarkibida qadimgi turmush tarziga oid anchagina so‘zlar saqlanib qolgan.

Turar joylar: *kuma* – yerto‘la; *chotma* – yozgi chortoq. *Safar ko‘sani olib borib, bir kumaga qamab, ustidan tamma urib qo‘yaverdilar* [3]. *Men Uch gumbaz tog‘idagi chotmada sigir so‘yib bergan bolaman, dedi Go‘ro‘g‘li* [3].

Kiyimlar: *chekman* – tuya junidan to‘qilgan ustki kiyim; *kuloh* – darveshlar kiyadigan uchli telpak; *janda* – darveshlar kiyadigan to‘n; *qabo* – xotin-qizlar kiyadigan yengil chopon, *zar qubba* – malikalar kiyadigan bosh kiyimi.

Go‘ro‘g‘li o‘ttiz tuyaning junidan to‘qilgan chakmanini egniga olib, belini o‘ttiz gaz arqon bilan bog‘lab maydonga chiqdi [3]. *Go‘ro‘g‘li kiyimlarini yechib boshiga kuloh, egniga janda kiydi* [3]. *Boshlariga zar qubbalar taqmidur, Shirin jonim ishq o‘tina yoqmishdur* [3]. *Egnimdan yechilmish gulgun qabolar, Tark aylagan bizni kayf-u safolar* [3].

Xo‘jalik anjomlari: *xurjun* – ikki ko‘zli, ot yoki eshak ustiga yuki bilan ortiladigan, jundan ishlangan anjom, *kajava* – arava ustiga o‘rnatiladigan yuk anjomi. *Ravshanbek yangasi bilan buvasini otga mingashtirib xurjunini yelkasiga tashlab, qal‘adan chiqdi* [3]. *Gulamdonni darrov tuyaga yuklangan kajavadan tushirdilar, to‘y ustiga to‘y boshlanib ketdi* [3].

Qurol-yaroqlar: o‘q-yoy; sadoq – o‘qdon; **nayza; choroyna** – sovutning ostidan kiyiladigan temir to‘r. **Shashpar** (shamshir) – xanjarning bir turi. *Jig‘olibek Ravshanbekka bir o‘q-yoy yasab berib aytdiki, endi umidimiz sendan, ovchilik qilib bir narsa topib bizlarni boqarsan, dedi [3]. Sodoqimda bir o‘q qoldi, dedi Go‘ro‘g‘li [3]. Nayza aytar men yarog‘man, yovni sanchishga yararman [3]. Arabning orqasida choroyna bor ekan. O‘q uning tanasiga o‘tmadi [3]. Shashpar aytar mening ishim o‘n ikki bo‘lakdir boshim [3].*

Boshqa tillardan o‘zlashma sifatida o‘tib, keyinchalik, eskirgan so‘zlar: mashvarat – maslahat yig‘ilishi. *Chamlibelning katxudolari yig‘in–mashvarat etib aytdilarki, ey xaloyiq, Odibek o‘lgandan beri yur-timiz sultonsiz qoldi [3]. Mehrob* – namoz o‘qiladigan joy. *Go‘ro‘g‘li ketmonni mehrobning tagiga qo‘yib, yovani orqasiga qistirib o‘rmdan turdi [3]. Zakot* – soliqning bir turi. *Zakotingni berib ketgil, Bozirgon[3]. Sim* – kumush; *zar* – oltin. *Yemay yig‘ib sim-u zarni birga olib ketgan bormi [3]. Mahshar* – qiyomat. *Unutib ro‘zi mahsharni oxiriga yetgan bormi [3].*

Oziq-ovqat nomlari: **ko‘mach** – xamirdan qozonda qotirib pishi-riladigan non. *Hozir sen ikki ko‘mach pishirib birini menga ber, birini o‘zing belingga tug dedi Jig‘olibek[3]. Uzunlik va og‘irlik o‘lchovlari: gaz* (105 smga teng” deyilgan bo‘lsa, etimologik lug‘atda 71 smga teng uzun-lik o‘lchovini anglatishi haqida keltirilgan) [4]; **arshin** (0,71 metr); **botmon** – og‘irligi 20,16 kg dan 40,95 kg gacha (Xivada) *Otga mingan, bo‘yi ikki gaz, eni bir yarim gaz, ko‘zlari yonib turgan bir yigit [3]. O‘n sakkiz arshin ot mindim, Otdan armonim qolmadi [3]. Yo‘qdir sening tengu toying, Ustingda uch botmon yoying [3].*

Pardoz-andoz bilan bog‘liq so‘zlar: mushk – qora tusli xushbo‘y modda. **Anbar** – xushbo‘y modda. *Yurganda iziga mushk anbar sochar, Gulandomdek navjuvonn ko‘rmadim [3]. Anbar soching, zarga to‘lgan kokiling, Birdir abrishimdan, taldan, Avazim! [3].*

Bu so‘zlar jamiyat taraqqiyoti jarayonida asta-sekin unutilib, eskirgan leksika qatoridan joy olishgan.

Xalq dostonlari leksikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, og‘zaki variantlar hozirgi davrda ijro etilganda ham unda eskirgan so‘zlar ko‘p ishlatiladi. Agarda so‘rasangiz, baxshining o‘zi ham uning ma‘nosiga tushunmaydi. Chunki doston matni ustozdan shogirdga o‘tganda o‘zgarimasdan o‘tadi. Baxshichilik an‘anasida ularni o‘zgartirish ayb hisoblangan. Eskirgan so‘zlar voqea tafsilotlarini berishda qulay vosita hisoblanadi. Ularni qo‘llash voqealar bo‘lib o‘tgan davrni qayta jonlantiradi. Bu so‘zlarning etimologiyasini tadqiq qilish til tarixining ochilmagan sahifalarini yoritadi.

B) Frazeologik arxaizmlar. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida hamma narsa o‘zgarib boradi. Bu degan so‘z, bir narsaning o‘rniga uning takomillashgan ikkinchi turi keladi. Moddiy hayot o‘zgarishi bilan ma‘naviy hayotda ham, albatta, o‘zgarish yuz beradi. Til ijtimoiy hodisa sanalar ekan, u ham jamiyatga moslashgan holda yangilanib boradi. Demak, tilda ham nimalardir eskiradi, nimalardir yangilanadi. Xalqning so‘zlashuv nutqida ko‘plab frazeologik iboralarga murojaat qilinadi. Ular gapga sayqal berib, nutqqa jon kiritadi. Xalq dostonlarida ijrochi tomonidan bayon etiladigan badiiy nutq ham o‘sha xalqning so‘zlashuv nutqi zaminida ro‘y beradi. Doston ijrochilari frazeologik iboralar negizida go‘zal ifodalarni yuzaga keltiradilar. Shu sababli dostonlarni xalq jon qulog‘i bilan tinglaydi. Jamiyat ilgariylaydi, davr o‘zgaradi. Ammo bundan yuz yillar, balki undan ham oldin xalq orasida faol ishlatilgan iboralar dostonlar tilida saqlanib qoladi. Bu iboralarning aksariyati hozirda iste‘moldan chiqqan. Uni yosh avlod sharhlarsiz tushunib yeta olmaydi. Bunday iboralar fan tilida frazeologik arxaizmlar deb yuritiladi.

Mang‘itlik Tursun baxshi Jumaniyozov tilidan yozib olingan “Hurliqo va Hamro” dostonida shunday bir jumla bor: *“Hurliqo parizod: hey, kanizlar, berroq kelinglar, tezroq kelinglar deb surangni solaberdi” [6].*

Bu jumlada **“surang solmoq”** iborasi e‘tiborni tortadi. Alisher Navoiy asarlari lug‘atida *sur* so‘zi *karnay, surnay* tarzida izohlangan [5]. Shoir:

Ey Navoiy, dardlig‘ nolang qilur elni halok,

Aytqil: Suri qiyomat, yo‘qsa afg‘ondurmu ul? degan baytida suri qiyomat birikmasini keltiradi. Diniy afsonalarda aytilishicha, Isrofil farishta chaladigan surnay ovozi kishilarni qiyomat boshlanganidan ogoh qilar ekan. Endi dostondagi birikma masalasiga kelsak, uning *sur+ang* tarzida berilishi **sur** va **hang** (ovoz) so‘zlarining birikuv natijasidir. Agarda to‘g‘ridan to‘g‘ri oladigan bo‘lsak, **surnay ovozi** ma‘nosi kelib chiqadi. Biroq baxshi bu yerda **shovqin-suron**, qattiq baqirib, hayajon bilan aytilgan so‘zlarni ifodalamoqchi. Suron so‘zining o‘zagi ham **sur** bo‘lib **on** qo‘shimchasi ko‘plikni anglatadi. Demak, **surang solmoq** birikmasi shovqin-suron ko‘tarmoq ma‘nosini berar ekan.

Bunday iboralar dostonlar matnida anchani tashkil qiladi. Ulardan ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

Yilimning kadisiday. *Safar ko‘sa yilimning kadisiday lo‘nkillab podshoning oldiga bordi [3].*

Tadqiqot metodologiyasi. Keksalarning aytishicha, ilgari Xorazmda ko‘llar ko‘p bo‘lgan. Vaqti-vaqti bilan ommaviy baliq oviga chiqishib, ko‘lga baliq ovlash uchun to‘r tashlangan. To‘rni suv yuzida tutib turish

uchun unga suv qovoq – xorazmcha suv kadi bog‘lashgan. To‘rni tortganda suv qovoqlar goh cho‘mib, goh chiqib, lo‘killab turgan. Yilim – yilishtirish, o‘rnidan jildirish ma‘nosiga ega. *Yilimning kadisiday* lo‘killay-verma iborasi o‘shandan qolgan ekan. Dostonda o‘sha hodisaga ishora qilingan.

Pizlovuq kadiday. *Uning kallasi pizlovuq kadiday yumalanib ketdi [7].*

Aytishlariga qaraganda, ilgari zamonlarda to‘y-tomoshalarda suv qovoqning tubiga kichik o‘q o‘rnatib, avvalo, qo‘l bilan aylantirib yuborib keyin qamchiga o‘xshatib, tayoq uchiga ip bog‘lab bo‘sh ip bilan kadini urib aylantirib, tomosha ko‘rsatishgan. Kadi vizillab sas chiqargan. Shu sababli pizlovuq so‘zi qo‘shib aytilgan. Ip bilan urish to‘xtatilgan paytda kadi yumalanib ketgan. Yuqoridagi misol ana shu ikki hodisaga asoslangan.

Moy davladay sollanglab... *Go‘ro‘g‘li inarning ustida moy davladay sollanglab turaberdi [3].* Axbotchilarning qayd qilishlaricha, qadimda yog‘ saqlanadigan idishni meshga o‘xshatib, hayvon terisidan ish-lashgan. Uni davla deb atashgan. Ularga yog‘ solib, ikkalasini ot yoki eshak ustiga xurjunday tashlab qo‘yish-gan. Yo‘l yurish jarayonida ular sollanglab, harakatda bo‘lishgan. Go‘ro‘g‘lini ham asirga olgan arab tuyaning ustiga moy davladay ikki bukib tashlagan. Iborada ana shu o‘xshashlikka ishora mavjud.

Digirmonga sumak qoqqanday. *Avazxon arabning yag‘irnidan urdi nayzani, digirmonga sumak qoq-qanday bo‘lib arabni yer qoptirdi [3].* Ilgari zamonlarda Xorazmda qo‘lda aylantiriladigan tegirmonlar bo‘l-gan. Tegirmonning toshlarini mustahkam tutib turish uchun uning markaziga qattiq yog‘ochdan o‘q qoqilgan. Uning yerga kirib turgan qismi 1,5 – 2 metrni tashkil etgan. Ana shu o‘q Avazxonning nayzasiga qiyoslangan.

Qanorga to‘nka tashlaganday. *Arab Rayhon inarning etlarini qanorga to‘nka tashlaganday og‘ziga dursil-datib tashlab yotir [3].* Yaqin o‘tmishda qanor – qoplar bo‘lar edi. O‘sha paytlarda o‘tin g‘o‘lalarini unga so-lib, orqalab uyga tashilgan. “Go‘ro‘g‘li” eposida Arab Rayhonning ovqat yeyishi, to‘g‘rirog‘i, tuya go‘shining bo‘laklarini og‘ziga xuddi qanor qopga o‘tin tashlaganday otib turishi mubolag‘ali qiyoslangan.

Qalandarning kadisiday bo‘m-bo‘sh. *Ertasi kuni o‘rnidan turib qarasa, uy qalandarning kadisiday bo‘m-bo‘sh [3].*

Qadimda so‘fiylik tariqatiga e‘tiqod qo‘ygan qalandarlar, darveshlar doimo el kezib yurishgan. Aytishla-riga qaraganda, qalandarlar kokil qo‘yib, ko‘chama-ko‘cha yurib, turli so‘fiyona g‘azallar o‘qib yurishgan. Ular bellariga suv qovoq osib qo‘yishgan. Biror bir xayr-sadaqa beradigan kishi o‘sha suv qovoq-kadiga bir ik-ki chaqa yoki pul tashlagan. Ammo kadi hamisha ham chaqaga to‘lavermagan.

Ba‘zan bo‘m-bo‘shligicha qolgan. “Go‘ro‘g‘li” eposida Og‘a Yunus parining arazlab Bog‘i Eramga ke-tib qolgandan keyin, uyning bo‘m-bo‘sh huvillab qolishi o‘sha qalandarlarning kadisiga o‘xshatilgan.

O‘kchani ko‘tardi. *Bu gapni eshitgan zamon o‘g‘lon shaharga qarab o‘kchani ko‘tardi [7].* **O‘kcha-ni ko‘tarmoq** iborasi keksalar nutqida hozirda ham ahyon-ahyonda qo‘llaniladi. Bu iboraning ma‘nosi **tezda jo‘nab ketmoq, shu zahoti** yo‘l olmoq kabi ma‘nolarda qo‘llaniladi.

Bu iboraning yana bir ko‘rinishi “Go‘ro‘g‘li” eposida keltirilgan: *“O‘g‘rilar bu baloning nerdan kelga-niga hayron bo‘lib, ikki oyog‘ini alina olib zim-ziyo bo‘ldilar [7].* **Kadi-kadiga qoqilishganday.** *Go‘ro‘g‘li bilan Avazxon urushga kirishdi, kadi-kadiga qoqilishganday bo‘lib, kallalar yumalanaverdi [3].*

Kuzda poliz ekinlarini yig‘ishtirganda kadi, qovunlardan xirik (uyum) yasalgan. Ularni uyumga yaqin-lashganda yumalab yuborishgan. Kadi-kadiga, qovun-qovunga tegib uyum yasalgan. Yuqoridagi misolda urush sahnasi berilgan bo‘lib, kallalarning yumalanishi, polizdagi kadi-qovunlar uyumiga qiyosan keltirilgan. **Oltini-ni yo‘qotgan qulday.** *Ne balo, oltinini yo‘qotgan qulday shalvirab nishab turibsan, dedi Go‘ro‘g‘li [7].*

Tahlil va natijalar. O‘tmishda qul saqlashgan. Uning na huquqi, na mol-mulki, hech narsasi bo‘lmagan. Endi u tasodifan oltin topsa, undan baxtli odam yo‘qligi ayon. Ammo shu oltinni yo‘qotib qo‘ysa, uning qay ahvolga tushishi ma‘lum. Qulning, albatta, esankirab, shalvirab, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi turgan gap. Bu iborada Safar ko‘saning xotinini yo‘qotib, talmovsirab qolgani, maslahat so‘rash uchun Go‘ro‘g‘lining oldiga kelgani-dagi ayanchli ahvoli tasvirlangan. **O‘q yegan arslonday.** *Safar ko‘sa o‘q yegan arslonday to‘rt tarafga og‘iz tashlay berdi [3].* Arslonning kuch-qudrati o‘z-o‘zidan ma‘lum. Agar u yarador qilinsa, sherning sherligi o‘n chandon oshishi tabiiydir. Ushbu keltirilgan misolda Safar ko‘saning jahлга minishi va asabga berilib to‘lg‘a-nishi ana shu sher ahvolotiga taqqoslanadi. Frazeologik ibora bu yerda yuksak badiiy ifoda sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday qiyoslashlar hozirgi davrda unutilib ketgan. **Ekinga cho‘kitga dorig‘anday.** Ilgarigi zamon-larda vaqti-vaqti bilan ekinlarni chigirtka bosib, dalalarni ship-shiydon qilib ketgan. Ushbu hodisa “Go‘ro‘g‘li” eposida och qalandarlarga nisbatan ishlatilgan. *“Qalandarlar yaxna etni, choy-chilimni ko‘rib, ekinga cho‘kitga dorig‘anday ustiga o‘zlarini otdilar. Etni yeb, choyni ichib, chilimni chekib, uyquga ketdilar [3].*

Maydondan qochgan qo‘chqorday. O‘tgan zamonda keng daladan maydon tanlab, to‘y davrasi tashkil qilganlar. Maydonda kurash tutish, qo‘chqor urishtirish va boshqa tomoshalar ko‘rsatilgan. Albatta, kurashda kimdir yengilgani kabi, qo‘chqorlarning bittasi ham urishishda yengilib, maydonni tashlab qochgan. “Go‘ro‘g‘li” eposida Go‘ro‘g‘lidan qo‘rqib qochgan g‘anim askarining ahvoli o‘sha hodisaga qiyoslangan: *Askar may-*

dondan qochgan qo'chqorday, tili tanglayiga yopishib so'zlab bilmay o'tirdi [3]. **Xaltasini yo'qotgan devonaday.** Qosimning lofi kaj bo'ldi. **Xaltasini yo'qotgan devonaday** o'tirib qoldi [7].

Ushbu iboraning ham tarixi ancha uzoq. Ilgari devona-tilanchilar ko'p bo'lgan. Xalq o'ta kambag'al, och-nahor kun kechirgan. Devonalar uyma-uy yurib tilanchilik qilib, bir burda nonni zo'rg'a topib xaltasiga solishgan. Ana endi o'sha xaltaning yo'qolishini tasavvur qiling. Bu holatda devonaning ochlikdan sillasi quriydi, uni g'am bosadi. Yuqoridagi misolda dostonning bosh qahramoni o'z sevgilisini izlab kelib, boshqa bir qizga duch keladi va hafsalasi pir bo'ladi. Ana shu holat xaltasini yo'qotgan devona ahvoliga qiyoslanadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, Xorazm dostonlari tilidagi bu toifa arxaizmlarning rang-barangligiga asosiy sabab ularning yozuvga ko'chirilganligidir. Savodxon, madrasa ta'limini olgan kotiblar, xattotlar dostonlarni matnga ko'chirganlarida o'sha davrdagi kitobiy adabiy tilga yaqinlashtirib, ixcham bir tizimga solishgan va ularni qissaxonlar maxsus auditoriyalarda qiroat bilan o'qishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. Т., "Фан", 2007, 151-бет.
2. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлил. Т., "Ўқитувчи", 1995, 15-бет.
3. Гўрўғли. Урганч, "Хоразм", 2004, 480-бет.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, Тошкент, "Университет", 2009, 474-бет.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том, Т., "Фан", 1984, 126-бет.
6. Ошиқнома. 3-китоб, Урганч, "Хоразм", 2006, 292-бет.
7. Ошиқнома. 6-китоб, Урганч, "Хоразм", 2013, 350-бет.

**Abdullayev Davronbek (QQDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini o'qituvchisi, f.f.d. (PhD),
Abdullayev Oxunjon (QQDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini o'qituvchisi)
BA'ZI SOMATIK IBORALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI**

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek tilining izohli lug'atidan joy olgan ayrim somatik iboralarning lingvomadaniy tahliliga bag'ishlangan. Maqolada iboralarning milliy xarakter kasb etishi, til madaniyatini o'zida namoyon qilishi haqida fikrlar bildirilib o'tilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена лингвострановедческому анализу некоторых соматических выражений, включенных в толковый словарь узбекского языка. В статье высказываются мнения о приобретении национального характера выражений и проявлении языковой культуры как таковой.

Annotation. This article is dedicated to the linguo-cultural analysis of some phrases from the explanatory dictionary of the Uzbek language. In the article, opinions are expressed about the acquisition of national character of expressions and the manifestation of language culture in itself.

Kalit so'zlar: ibora, frazeologiya, lug'at, lingvokulturologiya, madaniyat, tasvir, leksika.

Ключевые слова: фраза, фразеология, словарь, лингвокультурология, культура, образ, лексика.

Key words: phrase, phraseology, dictionary, linguo-cultural science, culture, image, lexicon.

Ma'lumki, har qanday frazeologik birlik grammatik me'yorni izchil ta'minlashga xizmat qiladi, uning asosida shakllangan leksik ma'no bayondagi ifoda va tasvir bo'shliqlarini to'ldiradi, biroq ibora inson tomonidan anglangan voqelik qirralarini to'liq tasavvur qilishga imkoniyat yarata olmaydi, balki predmet, borliq, xususiyat, vaziyat va holatga xos ma'no tarmog'ini ifodalanish bilan cheklanadi. Mohiyatan, konsept va tushuncha ham ma'no, ham ong hosilasi sanaladi, unda anglash va idrok qorishib ketadi. Inson tana a'zolari bilan bog'liq somatik frazemalar ma'rifati tafakkur ehtiyoji va cheklangan til lug'aviy zaxirasining to'qnashuvidan shakllanadi. Ba'zi hollarda frazema lug'aviy muqobil shakliga ega bo'lsa ham, uslubiy munosabat ifodasida o'zaro farqlanadi. Frazeologiya, umuman, barqaror birliklar (maqol, matal, aforizmlar ham) – tilning tengsiz, muqobilsiz xazinasi hisoblanadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarining «Leksikologiya va semasiologiya» qismida «bosh» so'zining asl ma'nosi gavdaning bo'yindan yuqori qismi, ammo u turli xil so'z birikmalarida turli ma'noni ifodalaydi: yo'lning boshi, ish boshi, bosh vazifa. Bu so'z frazeologik birliklar tarkibida ham keladi: bosh ko'tarmoq – qo'zg'aldoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq – rahbarlik qilmoq; bosh egmoq – bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq»,¹ deya ta'kidlangan.

Ularda xalq dunyoqarashi, tarixi, madaniyati, ma'naviyati va maishiy turmush tarzining o'ziga xosliklari namoyon bo'ladi. Aslini olganda, frazeologik birlikma sof milliy-mental xarakterga ega, biroq tillararo ham-

¹ Фахри Камол. Лексикология ва семасиология. Ҳозирги узбек адабий тили. Икки томлик, 1-том, Фонетика, лексикология, морфология. Тошкент, "Фан", 1966, 116-бет.

korlik baynalmilal ifoda madaniyatini shakllantirishini inkor qilib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar ingliz tili fraza fondida frantsuz, nemis va italyan millatlari lug'at fondiga xos frazeologik birliklar uchrasa, o'zbek iboralari fondida fors-tojik va arab mentalitetiga aloqador iboralarga duch kelish tabiiy holdir. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar, aynan, ifoda madaniyati til sathining oliy shakllaridan biri bo'lib, ularda nutq malakasi va obraz yaratish qayta namoyon bo'ladi.

Demak, millatning milliy-mental o'ziga xosliklari, millatimizga xos turg'unlashgan axloq normalari, qadriyatlar, xalqimizning milliy tafakkuri bilan aloqador tomonlari o'zbek tilining lingvomadaniy birligi sanaluvchi frazeologik birliklarda ham yorqin aks etadi. Ana shunday purma'no iboralardan biri "belida belbog'i bor" FBSidir. Qizig'i shuki, bu frazeologik birikma "O'IFL"da ham, Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovlarning "Qayroqi so'zlar (xalq iboralari)"da¹ ham uchramadi. Ostida millatimizning o'zligini aks ettirgan bu kabi iboralar lug'atlardan, albatta, o'rin olishi shart.

Bu ibora predmetli kodga asoslanuvchi frazeologik birikma bo'lib, "belbog'" so'zi qatnashgan iboralarining katta ko'pchiligida voqelikka milliy munosabat hamda milliy ruhiyat uyg'unidir. Yangi davr lingvistikasida bu kabi birliklarni lingvomadaniy kodlar asosida o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.² "Lingvokulturologiya terminlarining izohli lug'ati"da "predmetli kod – atrofda predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog'liq kodlar" tarzida izohlangan. Shundan kelib chiqilsa, "belbog'" so'zi milliy xoslanganligi va bo'yodqorligi bilan xarakterlanadi, uning ko'chma ma'nosi lingvomadaniy kodga aylanishida asos bo'lgan. Natijada "belida belbog'i bor" iborasi mard, haqiqiy erkak, lafzi halol yigit ma'nosini ifodalay boshlagan.

Nutqda namoyon so'z birikmalari intizomida grammatik qoida murakkab birikuv tizimiga ega iboralar, garchand, mushohada mantig'i nazoratiga tayansa-da, yaxlit birliklar sanaladi, ayni paytda, frazeologik konstrukt u yoki bu qirrani oydinlashtiradi yohud yaratilmaydi, balki nutqda yaxlit tarzda voqe bo'ladi. Xususan, «tilga kirmoq» iborasi, yosh xususiyatiga daxldor ravishda matnda real salmoq kasb etsa (go'dakning tilga kirishi fiziologik jarayon; kam gap insonlarga nisbat berilganda, iboraning ma'no ifodasi kengayadi), «me'dasiga tegmoq», «ko'ngli aynidi» iboralarida nimaga nisbatlanishiga ko'ra farqlanadi (ovqat yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo'ymoq; ovqatdan boshqa narsa – harakat-holatdan bezmoq kabi). Solishtiring: «Paxta yig'imi davrida makaron va mosh talabalarning me'dasiga tegadi-da, o'rtoq. O'n-o'n besh kundan beri bir xil ish, bu rosa me'daga tegdi-da, endi cho'ponlikka bo'lsa ham, boshqa ishga o'taylik. Shunday ekan, ibora tarkibidagi lug'aviy birliklararo munosabat frazema tabiatini belgilaydi va har qanday frazeologik birlik komponentlarini ijodiy birikuv qonuniyatlari grammatik me'yor talabidan chetga chiqmaydi. Ba'zi olimlar «frazelogizm» istilohini so'z birikmalari tasavvuri bilan bog'lashadi.³

Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologik birlik grammatik jihatdan so'z birikmasidan katta bo'lmasligini qayd etadi. Bu holat frazema tabiatini frazeologik birlik, frazeologik shakl sifatida ajratishga olib keladi. Bizning fikrimizcha, mazkur ajratish nazariy chalkashliklarga olib keladi. Negaki, ifoda madaniyati bo'lagi – frazeologiya semantik, morfologik-sintaktik va uslubiy farqlanishga ega tushuncha bo'lib, unda ibora doimiy o'zgarmas mazmun kasb etadi. Binobarin, barqaror so'z birikmalari sintaktik qatori tildagi ichki hamda tashqi omillarga bog'liq bo'ladi:

Shamollarning qulog'iga quyib qo'ysaydim

Har bir bino peshtoqiga o'yib qo'ysaydim. (M.Jalil. Saylanma. 148)

Qulog'iga quyib qo'ymoq – gap uqdirmoq. Odatda, ushbu ibora qayta-qayta ta'kidlamoq, mushohadani ongga singdirish bilan bog'liq jarayonga nisbatan qo'llaniladi. Unda shakl va mazmun birligi timsoliy munosabat hosil qiladi, barqaror konstruksiya esa mohiyat uzluksizligini ta'minlaydi.

Tilning boshqa birliklari singari, ibora yoki frazeologik birikma ham, vazifaviy uslublarda qo'llanilishiga ko'ra o'zaro farqlanadi. O'zbek tilida frazeologizmlarning asosiy qismi so'zlashuv va badiiy uslubda qo'llanishga xoslangan. Bu muammo tahliliga B.O'rinboyev va uning shogirdlari alohida e'tibor berib kelmoqdalar.

Bunday ko'p ma'noli iboralarning aksar qismi fe'l so'z turkumiga to'g'ri keladi, 156 ko'p ma'noli frazmadan 142 tasi fe'l-ibora bo'lsa, 8 tasi ravish-ibora, 4 tasi sifat-ibora, faqat ikkitasi ot-ibora ekanligi kuzatishlarda ma'lum bo'ldi. Frazani shakllantirish jarayonida inson omili muhim o'rin tutadi. Negaki, jamiyat, tabiat va koinot munosabatlari bevosita va bilvosita inson faoliyati – aloqasi bilan bog'liq. Shaxs manfaat va qiziqishlari, talab va ehtiyojlari dunyoni anglashga yo'naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, kommunikativ munosabatda somatik ifoda shakllanadi. Aslida til antropomorfizmi tafakkur madaniyatini shakllantiradi. O'z navbatida, tafakkur daniyati milliy o'lchamining til nominatsiyasini hosil qiladi.

¹ Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар (халқ иборалари). Тошкент, "Ўз.МЭ", 2011, 224-бет.

² Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. Тошкент, "Nodirabegim", 2020, 30-бет.

³ Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. М., 1972.

Tilshunos olim A. Boboyeva *gardaniga olmoq, gardaniga ortmoq, gardaniga yuklamoq, gardaniga tushmoq, bo'yniga olmoq, bo'yniga tushmoq, bo'yniga ortmoq, bo'yniga yuklamoq, ustiga olmoq, yelkasiga olmoq kabi gardan, bo'yin, ust va yelka* so'zlari yordamida shakllangan iboralarni "zimmasiga olmoq" iborasining xalq nutqida qadimdan qo'llanilib kelgan variantlari deb hisoblaydi.¹ Olima o'sha davr matbuot tili materiallarini o'rganib, "zimmasiga olmoq" iborasining boshqa variantlardan qo'llanish darajasiga ko'ra ancha yuqori ekanligini aniqlagan. Buning sababini u quyidagicha izohlashga intiladi: "asli arab tilidan yozma nutq orqali o'zlashgan "zimma" so'zi bilan shakllangan variantlarning hozirgi ona tilimizga, xususan, gazeta tiliga juda singib ketib, qo'llanish darajasi jihatidan ustun chiqishining boisi, dastlab, u so'z (zimma)ning umumiy salmog'i, undan anglashilgan serqirra ma'no xususiyati bilan xarakterlanadi. Chunki genetikasi jihatidan arab tiliga mansub zimma so'zining ma'nosi gardan, bo'yin, ust va yelka so'zlarining ma'nosidan ancha keng, serqirra va umumiyligi bilan belgilanadi."²

O'TFLda sakkizta (dodini bermoq, jon kirdi – jon kirgizmoq//jon kiritmoq, ishga solmoq, yo'lga solmoq, ko'z qismoq, ko'ngliga tugmoq, o'ziga kelmoq, qo'lga olmoq) to'rt ma'noli polisemantik ibora izohlangan. Nafaqat frazeologik birliklar, balki tildagi barcha lisoniy birliklar antropotsentrik nuqtayi nazardan, tahlilga tortilsagina kerakli natijaga erishiladi. Shu jihatdan iboralar tizimi ham har bir xalqning milliy boyligi, o'zida katta ma'naviy boyluk, xalqning yo'qotishi mumkin bo'lmagan qadriyatlarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy mulkidir.

O'zbek tilidagi ko'p ma'noli iboralar tizimini antropotsentrik paradigma doirasida o'rganishda ularning lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik jihatlariga ham e'tibor qaratishni, shuningdek, iboralar mustaqil so'zlarning obrazli turg'un birikuvi bo'lishidan tashqari milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, kraektiv, akkumulativ, aksiologik, estetik, emotiv vazifalarni bajarishini nazardan soqit qilib bo'lmaydi. Bular ayniqsa, somatik iboralarda ko'proq namoyon bo'ladi.

Frazema vazifasi davriy madaniyatga xoslangan semantik maydonning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Tilimiz lug'aviy fondi mavhumligining universal mohiyati ifoda yo'sinida barqarorlik kasb etadi va ma'no siljishini hosil qiladi. Milliy-madaniy yaxlitlik iboraning tabiatini ochib beradi. Mazmun kengayishining murakkab tizimini anglash aynan odam va olam bog'liqligini yaxlitlikda tasavvur etish ehtiyojining hosilasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, somatik frazema til madaniyatining oliy bosqichi – nutqiy ifoda bilan bog'liq. Unda antropologik shakl vosita vazifasini bajaradi hamda semantik talabning ijodiy mantig'ini belgilaydi. Unda paralingvistik komponentlar substansiyadan ajralgan holda, ijodiy qayta shakllanadi hamda aniqlovchi mohiyat darajasiga ko'tariladi. Kommunikativ aloqa tasavvur va taassurotlarni bir-biriga ulaydi hamda vazifadoshlik nuqtayi nazaridan barqarorlik kasb etadi. Ayni paytda, muammoga semiotik va funksional yondashuv masalani to'g'ri hal qilishning kafolati hisoblanadi. Zero, somatik ifoda ham madaniyat, ham ma'no, ham shaklga daxldor tushuncha sanaladi.

Achilova Risolat Azamovna (Buxoro davlat universiteti "Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik" kafedrasida dotsenti, PhD; risolat_lola@mail.ru)

LINGVOKULTUROLOGIK METODLAR TARAQQIYOTI

Аннотация. *Ushbu maqola lingvokulturologiyaning metodlariga bag'ishlangan bo'lib, unda tilga oid hodisalarni o'rganishda uning madaniyat bilan munosabatini yoritish muhim ahamiyat kasb etganligi, antropotsentrik paradigma yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiya fanining eng asosiy maqsad va vazifasi milliy madaniyatning til bilan o'zaro munosabati masalasini yoritishga qaratilgan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена методам лингвокультурологии, в которых при изучении явлений, связанных с языком, важное значение приобретает освещение его взаимоотношений с культурой, одним из направлений антропоцентрической парадигмы является конечная цель и задачи лингвокультурологической науки, направленные на освещение вопроса взаимодействия национальной культуры с языком.*

Annotation. *This article is dedicated to the methods of linguacultural, in which in the study of phenomena related to language, the coverage of its relationship with culture becomes important. One of the directions of the anthropocentric paradigm is the ultimate goal and objectives of linguo-cultural science, aimed at highlighting the issue of interaction between national culture and language.*

¹ Бобоева А. Газета *зиммасига олмоқ* иборасининг вариантлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1978, 2-сон, 56–58-бетлар.

² Shu manba. 57–58-бетлар.

Kalit soʻzlar: lingvokulturologiya, metod, madaniyat, antropotsentrik paradigma, lingvistika, dominant tahlil, klaster tahlil.

Ключевые слова: лингвистическая культура, метод, культура, антропоцентрическая парадигма, лингвистика, доминантный анализ, кластерный анализ.

Key words: linguistic culture, method, culture, anthropocentric paradigm, linguistics, dominant analysis, cluster analysis.

Inson bilishining har qanday sohasida fan: 1) oʻrganish obyekti; 2) tadqiq predmeti; 3) maxsus lingvistik atamalar toʻplamiga ega boʻlishi kerak. Shuningdek, fanda tadqiqot usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi [Xrolenko. 2006.133]. Metodologiya (yunoncha *metodos* – tadqiqot yoʻli va *logos* – soʻz, taʼlimot) til fanidagi tadqiqot tamoyillari haqidagi taʼlimot sifatida tushuniladi. Tilshunoslikdagi metod (yunoncha *metodos* – tadqiqot usuli) esa tilning u yoki bu tomonlarini oʻrganish uchun texnik vosita sifatida maʼlum nazariy tamoyillarga asoslangan individual usullardir.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiyaning eng zaif nuqtasi uning metodologiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. 20-asr oxiri – 21-asr boshlarida lingvokulturologiya boʻyicha olib borilgan katta hajmli va keng koʻlamli ishlarga qaramay, til va madaniyat bilan aloqador muammolarning ayrim jihatlari boʻyicha qoʻshimcha tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati mavjud boʻlib turibdi [Ivanova. 2009.108–109]. Ushbu lingvomadaniy tadqiqotlarni amalga oshirishda quyidagilar muhim sanaladi: tushunchalar, madaniy belgilar va madaniy komponentlar. Madaniyat bilan bogʻliq komponentda lingvomadaniy birliklikning axborot va maʼno qismlari ahamiyatlidir.

Til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatga moddiy jihatlar va iqtisodiy rivojlanish taʼsir koʻrsatadi. Chunki “inson faoliyatining natijalari til vositasida amalga oshiriladi”. Til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatga madaniy birlikning koʻrinishi, lugʻatlar, badiiy tafakkur rivoji, ijtimoiy-siyosiy tuzum, turmush tarzi, urf-odatlar, tabiiy resurslar va geografik xususiyatlar taʼsir koʻrsatadi.

Ushbu yondashuv nafaqat madaniy komponentni mahalliyashtirishga, balki madaniy belgilar manbasini taʼkidlashga imkon beradi, bu esa, oʻz navbatida, tilda aks ettirilgan madaniyatning muhim sohalarini aniqlash imkonini beradi. Diskurs tahlili matn lingvistikasi, stilistika, psixolingvistika, semiotika, ritorika va falsafa bilan bogʻliq boʻlgan fanlararo bilim sohasidir. Diskurs tahlili jarayonida matnning nafaqat leksik va sintaktik tuzilishi, balki matn qachon, qayerda, kim tomonidan yozilganligi ham hisobga olinadi, kimga qaratilgan, nima sababdan, qanday maqsadda, kimning manfaatlarini koʻzlab, muallifning baholovchi, mafkuraviy munosabati qanday boʻlganligi eʼtiborga olinadi [Xrolenko. 2006.138].

Bugungi kunda lingvomadaniy tadqiqotlar oʻtkazishning boshqa tasdiqlangan usullari mavjud. V.V. Krasnix milliy-madaniy komponentni aniqlash orqali lingvomadaniy tahlilni amalga oshirishni taklif qiladi. Bu milliy ongning jihatlari, soʻzlayotgan shaxs ongida saqlanadigan va muloqotda namoyon boʻladigan xususiyatlarni belgilovchi komponentdir. Mazkur xususiyatlar ona tilida soʻzlashuvchilarning kognitiv bazasi bilan bogʻliq boʻlgan madaniy makonda, milliy presedent hodisalar tizimida, milliy stereotiplar qatorida, ongning ramka tuzilmalarida va yuzaki – vakillar oʻrtasida tuzilgan birlashmalarda oʻz aksini topadi. Muloqot jarayonida, milliy lingvistik-madaniy jamoalarning xususiyatlarini tadqiq etishda V.S.Krasnix madaniyat kodeksi tushunchasidan foydalanadi. Lingvomadaniy tahlil madaniyatni semiotik jihatdan oʻziga xos “til” sifatida koʻrib chiqishi mumkin, degan nuqtayi nazarga asoslanishi mumkin. Bir qator oʻzaro matnlar birlashib yaxlit matnlararo madaniy makonni tashkil qiladi.

V.N.Teliya fikricha, madaniy matnda uni ifodalovchi madaniy birlik va belgilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bular muayyan madaniy vaqt orasida maʼlum oʻzgarishlarga uchrashi mumkin. Hukmron hokimiyat mafkurasi madaniy belgilar tizimiga u yoki bu darajada taʼsir oʻtkazishi mumkin. Marosim, mif, din, folklor kabilarda madaniy belgilar yaqqol namoyon boʻladi. Madaniy tezaurus matnning konseptual mazmunining taksonomik tasviridir. Matnlardan olingan madaniyat tezaurusi uning toifalarini va ular bilan bogʻliq boʻlgan “madaniyat doimiylari”ni ifodalovchi ramziy shakllarni aniqlash uchun asosdir. Madaniyat kodi matnlarning taksonomik asosidir. U yoki bu kodlarning taksoni boʻlgan belgilar majmui madaniyat ramzi deb ataladi. Madaniyat timsolini tadqiq qilish mumkin, chunki u “eng oz rivojlangan metalingvistik tushuncha boʻlib, batafsil tushuntirishni talab qiladi”. Tabiiy til birliklarining maʼnosi va madaniyat “tili” belgilarining madaniy semantikasi oʻrtasida muayyan bogʻliqlik mavjud [Teliya. 1999.24]. Teliya fikricha, lingvomadaniy tahlilning yakuniy maqsadi – madaniy konnotasiyalar tavsifi asosida lingvomadaniy hamjamiyat subyektlarining “kundalik” madaniy va lingvistik kompetensiyasini aniqlashdir. Lingvomadaniy birliklar til belgilarining konseptual mazmun bilan bevosita bogʻliq boʻlib, tildan foydalanish jarayonlarida ular bilan birga takrorlanadi hamda jamiyatning umumiy madaniy mentalitetining bir qismi sifatida madaniy va lingvistik oʻz-oʻzini anglashning umumiy oʻziga xosligi haqida maʼlumot olib boradi [Teliya. 1999.24]. D.A.Xrolenko lingvokulturologiya metodologi-

yasining asosini tashkil eta oladigan manba va asoslar tizimini taklif qiladi: 1) dominant tahlil; 2) klaster tahlil; 3) konkordans yondashuv; 4) leksikografik tahlil.

Dominant tahlil metodologiyasi matnni yoki matnlar korpusini ifodalovchi chastotali lug'atlarning mavjudligini nazarda tutadi va eng ko'p uchraydigan leksemalar orasida etnik guruh, ijtimoiy guruh va lingvistik maydon dominantlarini bildiruvchi so'zlar bor, degan taxminiy fikrga asoslanadi. A.T.Xrolenko bu borada rus va ingliz qo'shiqlarining chastotali ro'yxatini misol sifatida keltiradi. Uning o'rganishicha, rus xalqi lirikasining chastotali lug'atida dominant nomlar orasida do'stlik mavzusidagi otlar yuqori darajada turadi. Ingliz xalq qo'shiqlarining chastotali lug'atida esa bu otlar dominant sifatida tasniflanmagan. Bu holat tadqiqotchining fikriga ko'ra, rus mentalitetida "do'st" mavzusi alohida o'rin egallashiga va tilshunoslar tomonidan alohida ta'kidlangan juda ishonchli dalil bo'lib xizmat qiladi [Xrolenko. 2006.153].

Klaster tahlil leksikografik tavsifdir, unda har bir so'zning boshqa so'zlar bilan barcha bog'lanishlari parallel o'rganiladi, klaster tarkibiga kiruvchi barcha leksemalar mufassal tahlil etiladi. Klasterda leksemalarning ma'lum bir to'plami ajratilib olinib, chuqur tahlilga tortiladi, har bir qism va verbal bog'lanishlar e'tiborga olinadi, madaniy tushunchali leksemalarga alohida diqqat qaratiladi [Xrolenko. 2006.161–162]. Matn tarkibidagi lingvokulturologik birliklarning qo'llanilish holati va bog'lanish xususiyatlarini tahlil etish jarayonida nazarda tutish lozim. Madaniyatlar tilning muhim birliklari kabi ularning tarkibiy qismlari darajasida taqqoslanishi mumkin. Bunda lingvomadaniy birlikning shakli va mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda turli madaniyatlarda bir-biriga to'g'ri keladigan yoki bir-biridan ajralib turadigan madaniyatlar o'rtasidagi barcha eng muhim korrelyasiya turlarini mantiqiy hisoblash mumkin [Gak. 1998.142–143].

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik va mantiqshunoslikda hal qiluvchi omil belgi va qurilma, shuningdek, ona tilida so'zlashuvchilarning ongi hisoblanadi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy jihatdan lingvistik birliklarning semantikasini aniq ajratish kerak, realliklarning semantikasini chuqur tavsiflash lozim. Tilni kompleks o'rganishda madaniyat bilan bog'liq holda ayrim metodlardan foydalanishni taklif qiladi. U lingvokulturologik soha tushunchasiga umumiy (invariant) ma'noga ega bo'lgan, ma'lum bir madaniy sohani tavsiflovchi til madaniyatlari majmuining iyerarxik tuzilishini kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М., "Наука", 2004, 384 с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Монография, М., 2008, 336 с.
3. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., "Наука", 1981, 144 с.
4. Иванова С.В. Лингвокультурология: проблемы, поиски, решения. Монография, Иванова С.В., Чанишева З.З., Уфа, БашГУ, 2010, 366 с.
5. Кузьмина Н.А. Интертекст и его роль в процессе эволюции поэтического языка. М., Редиторнал УРСС, 2004, 272 с.
6. Культурология. XX век. Словарь. СПб., "Университетская книга", 1997, 640 с.
7. Мамаева А.Г. Лингвистическая природа и стилистические функции аллюзии. Автореф. дисс. канд. филол. наук, М., 1977, 24 с.
8. Телия В.Н. Типы языковых оценок. Связанное значение слова в языке. М., "Наука", 1981, 270 с.
9. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии. Учебное пособие, М., «Флинта», "Наука", 2006, 184 с.

**Matkarimova Salomat Ko‘ziyevna (UrDU dotsenti, f.f.n.)
KOMPOZITSION STILISTIK USULLAR ISTIFODASIDA NAVOIYGA ERGASHISH**

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompozitsion stilistik usullar istifodasida Navoiyga ergashish masalasi Ogahiy ijodi misolida tahlil qilingan. Radd ul-matla’, tashobeh ul-atrof kabi she’riy san’atlar haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос о следовании Навои в использовании композиционно-стилистических приемов на примере творчества Агахи. Также приведена информация о таких выразительных средствах, как рadd уль-матла, ташабех уль-атроф.

Annotation. In this article, there has been analyzed the issue of following Navoi in the use of compositional and stylistic techniques using the example of Agahi’s creativity. Also some information about expressive means such as radd ul-matla, tashabeh ul-atroph has been provided.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Ogahiy, kompozitsion stilistik usullar, radd ul-matla’, tashobeh ul-atrof.

Ключевые слова: Навои, Агахи, композиционно-стилистические приемы, рadd уль-матла, ташабех уль-атроф.

Key words: Navoi, Agahi, compositional and stylistic techniques, radd ul-matla, tashabeh ul-atroph.

Alisher Navoiyning asarlari buyuk tafakkur samari, betakror go‘zallik obidasi, har bir bayti so‘zdan yaralgan miniaturalardir. “She’rlaridagi quyuq fikr va mantiqiy asos, fikriy izchillik va badiiy nozikliklar san’atkor shoirning tengsiz mahoratidan dalolat beradi”.¹ Navoiy devonlarida she’rning kompozitsiyasi va uslubi bilan aloqador san’atlar xarakteri e’tiboridan kompozitsion stilistik usullar sifatida qayd etiladi.² Ushbu usullardan Navoiy ijodida keng qo‘llanilgan turi – radd ul-matla’ dir. “Radd ul-matla – g‘azal yoki qasida matlaidagi misralardan birini keyingi baytlardan biri tarkibida yoki maqtada muayyan maqsad bilan yangicha stilistik aspektda takrorlash san’atidir”.³ G‘azalning matla’ va maqta’sidagi raddul matla’ g‘azaldagi yetakchi fikrni yoki fikr, tasvir bilan aloqador bo‘lgan asosiy obyektini yoki uning muhim bir qirrasini alohida ta’kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Navoiy ijodida radd ul-matla’ning bu tipiga oid qator namunalar mavjud bo‘lib, ulardan bir nechtasining chuqur ilmiy tahlili Y.Is’hoqov tomonidan amalga oshirilgan. Navoiyning raddul matla’ qo‘llash bilan bog‘liq an‘analari Xorazm shoirlari ijodida ham davom qildirilgan. Ogahiyning “Ey ko‘ngul, aftodalig‘ yo‘lin tutub, olamdin o‘t”, “Vahki sandin manga juz javru jafu nodiru shoz”, “Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz”, “Dahr bazm-u ayshi anduhi g‘amig‘a arzimas”, “Hijron o‘tig‘a tashlab bordi mani jononim”, “Qo‘ying, yig‘layki, ushbu kun sevar yorimdin ayrildim”. “Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lma-sun, netay” boshlanmali g‘azallarida raddul matla’ san’ati istifodasining guvohi bo‘lamiz. Ogahiyning quyidagi g‘azalida raddul matla’ bosh g‘oya-fikrni ta’kidlash uchun qo‘llanilgan:

Dahr bazm-u ayshi anduhi g‘amig‘a arzimas.

Sharbati jonparvari muhlik samig‘a arzimas.

Istabon aysh, Ogahiy, g‘am boshinga kelturmakim,

*Dahr bazmu aprel ayshi anduhi g‘amig‘a arzimas.*⁴

Matla’ning birinchi misrasi tezis xarakterida. Unda shorning asosiy fikri – dahr bazm-u ayshi anduhi g‘amig‘a arzimasligi muxtasar ifodalangan. Ikkinchi misrada g‘azalning asosini tashkil etgan mazkur fikr konkretlashtiriladi – dahr bazmining bosh unsuri – sharbati jonparvar halok qiluvchi zahriga arzimasligi ta’kidlanadi.

Keyingi baytlarni shoir o‘z fikrini dalillar bilan sharhlashga bag‘ishlaydi. Har bir baytda dastlabki misradagi dahr bazmining ijobiy tomoni ikkinchi misrada zidlash asosida inkor qilinadi. Dahr bazmida yor vaslining safolig‘ subhida yuz yil bo‘lsang ham, ma’shuqadan bir zamonlik ayriliq shomi yetkazgan zulmi-azobiga arzi olmaydi. Chunki yuz yil visol, xuddi bir lahzada o‘tgandek, ammo bir zamongina ayriliq yuz yildan-da uzoqqa cho‘zilgandek kishini qiynoqqa soladi, oldingi vasl onlaridan yetgan huzur-halovatni ham yo‘qqa chiqaradi, besabr-u betoqat qiladi (2-bayt). Dahr bazmida senga davrondan umr bo‘yi to‘y ustiga to‘y bo‘lib, rohat-faroh

¹ Набиев Ф. Табиат тасвири ва шоир маҳорати. Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. Тошкент, “Фан”, 1993, 93-бет.

² Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т., “Фан”, 1983, 132-бет.

³ Shu manba. 133-бет.

⁴ Огаҳий Муҳаммад Ризо. Тўла асарлар тўплами. Девон, 1-т, Т., “Mumtoz so‘z”, 2014, 143-бет.

g'atda umrguzaronlik qilgan bo'lsang ham, boshingga bir nafas yetgan motam musibatning maloliga arzimaydi: barcha huzur halovat adam bo'lib, g'am va huzunlik oxiri yo'qdek dilni o'rtaydi (3-bayt). Agar muroding shohidining la'lidan jon topib quehsang, jon chiqish paytida jismingning to'lg'onib, egilib bukilganiga arzimaydi (4-bayt). Dahr xalqi madhinga xush iborat birla til ochsa, seni yaxshi so'zlar bilan alqab, dilingga xushnudlik yetkazsa, bular ulusning bir kuni bir yomon so'z bilan qalbingga yetkazgan ozoriga arzimaydi (5-bayt). Bu besh-u kam dunyoning ziynati-yu molini teng tut, kam-ko'p dema, zotan, jahon shodligining barchasi anduhining kamiga, ozginasiga arzimaydi (6-bayt).

Kuzatiladiki, shoir dahr bazmining xarakterli, inson uchun qadrli bo'lgan jihatlarini tanlab olib, zidlantirish orqali ushbu jihatlarining arzimasligini tasvirga tortadi. Baytlardagi har bir detal muayyan vazifaga ega bo'lib, shoirning mulohazalari g'azalning birinchi baytdagi xulosaviy fikrini quvvatlashga xizmat qiladi.

Maqta'da g'azal markazida turgan xulosa tarzidagi fikr mantiqiy takror tarzida takrorlanadi. Shoir oxirgi baytni oldingi uzvidan ajratib qo'ymaslik, mantiqiy izchillikni ta'minlash maqsadida o'ziga murojaat qiladi: Ogahiy, aysh istab boshingga g'am keltirma, chunki dahr bazm-u ayshi anduhi g'amig'a arzimaydi. G'azalning cematic kompozitsiyasi uch qismdan iborat: tezis (matla'), undan chiqadigan xulosa(maqta') va ana shu tezisning isboti-sharhi (2–5-baytlar). G'azal asosidagi bosh fikr – dahr bazm-u ayshi g'amiga arzimasligi, bir paytning o'zida, ham tezis, ham xulosadir. Chunki g'azal to'g'ridan to'g'ri mulohaza fikr bayoni bilan boshlanadi, keyin uning sharh isboti keladi va oxirgi baytda tasvir yana dastlabki holatga qaytadi.

Ogahiy quyidagi g'azalida ham asosiy fikr ilk misrada tezis sifatida berilib, keng izohlash hamda uni yana xulosa tarzida ta'kidlash va bunda mantiqiy izchillikni saqlashda katta mahorat ko'rsatganligini ko'rish mumkin:

*Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz.
Ogahiy, bo'lsa tong emas faqr eli gar muteimiz,
Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz.¹*

Quyidagi g'azal mulohazaviy xarakterda bo'lib, shoirning o'z ahvoli va ruhiy kayfiyati bayoniga bag'ishlangan:

*Vasl aro mushkil g'ami hijron ekanni bilmadim,
Hajr dardi bo'yla bedarmon ekanni bilmadim.*

*Ogahiy yanglig' hamisha aysh ila mag'rur o'lub,
Vasl aro mushkil g'ami hijron ekanni bilmadim.²*

G'azal ishqiy mavzuda yozilgan bo'lib, uning asosida kutilmaganda yor vaslidan mosuvo bo'lgan oshiqning hijron g'amidan mahzun kayfiyati, iztirobli kechinmalari turadi. She'r to'g'ridan to'g'ri lirik qahramonning achchiq qismatining istioraviy bayoni (hijron g'ami) bilan boshlanib, izhor-xabar tarzida beriladi. Ogahiy birinchi misradagi "vasl", "g'am", "hijron" tushunchalaridan birini qolgan barcha baytda ishtirok qildirgan va bu uch so'z orqali baytlaloro bog'liqlikni ta'minlashga erishgan. Har bir baytda yopiq istioralar (g'ami furqat, baloyi jon, bazmgohi vasl, hajr dashti, vasl bazmi, zahri firoq, hajr dardi, dardi hijron) qo'llash bilan shoir o'z fikrini istioraviy tasvir vositasida dalillagan. 8-bayt lirik chekinish xarakterida bo'lib, katta umumlashma xulosa sifatidagi xulosa hisoblanadi va u radifga taalluqli mazmun vositasida umumiy fonga bog'lanadi. Shundan so'ng butun tasvirni yakunlab, umumiy xulosaga o'tgan.

Navoiy ijodida asosiy fikrning ma'lum bir jihatini ta'kidlashga qaratilgan raddul matla' san'ati qo'llaniladi. Buni quyidagi g'azalda ko'rish mumkin:

*Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun,
Nishona har biriga, deyman, ushbu xasta bosh o'lsun.*

*Navoiy, ashk durridek, tilarkim, ko'zda yer bergay,
Agar ishqing havosida yog'ar har jola tosh o'lsun.³*

Ogahiy ijodida ham shu tipdagi raddul matla' namunasi kuzatiladi. Quyidagi g'azalda raddul matla' she'rdagi bosh fikrni emas, balki yetakchi fikrning ma'lum bir jihatini ta'kidlash va bo'rttirish uchun xizmat qilgan:

Vahki sandin manga juz javr-u jafo nodir-u shoz,

¹ Шу манба. 133-бет.

² Шу манба. 225-бет.

³ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-т, Т., "Фан", 1989, 364-бет.

O'zgaga g'ayri karam birla vafo nodir-u shoz.

*Naylasun Ogahiy chekmay sitam-u javr-u jafo,
Vahki, sandin manga juz javr-u jafo nodir-u shoz.¹*

Bunda shoir yorning javr-u jafosidan boshqasi nodir kamyobligini ta'kidlar ekan, asosiy diqqatni nodir-u shozga qaratadi. Maqta'da esa matla'dagi fikrni kuchaytirib, yorning javr-u jafosini chekmoqdan boshqa chorasi yo'qligini aytar ekan, yordan undan boshqani kutmasligiga, balki javr-u jafosi ham uning uchun xushligi, yordan nima ravo ko'rilsa, shunga qone'ligi va agar bu javr-u jafo bo'lsa-da, xursandchilik bilan qabul qilishiga ishora qiladi. Quyidagi g'azal ham shu tipdagi raddul matla' qo'llanilgan:

*Hijron o'tig'a tashlab bordi mani jononim,
Gar cheksa sharar tong yo'q gardun uza afg'onim.*

*Kul bo'lsa yonib jismim, ey Ogahiy, tong yo'qkim,
Hijron o'tig'a tashlab bordi mani jononim.²*

Quyidagi g'azalda raddul matla' san'ati she'rdagi bosh fikrning o'zini emas, shoirdagi fikr-mulohazalarining yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan asosiy obyektini (murojaat obyektini) ta'kidlashga qaratilgan. Asosiy fikr matla'da umumiy planda, maqta'da esa aniq shaxs (Ogahiy) bilan bog'liq holda ifoda etilgan:

*Ey ko'ngul, aftodalig' yo'lin tutub, olamdin o't,
Bu biyik me'roj ila bu nilgun toramdin o't.*

*Ogahiydek izzat avjida maqom istar esang,
Ey ko'ngul, aftodalig' yo'lin tutub, olamdin o't.³*

O'zbek adabiyotiga Navoiy ijodi bilan kirib kelgan va Xorazm shoirlari ijodida qo'llanilgan poetik tasvir vositasi tashobeh ul-atrofdir. Doiy Javod ta'riflashicha, "Tashobeh ul-atrofnii tasbig' ham deydilar va u shundan iboratki, yozuvchi yoki shoir yozgan jumlasining oxiridagi so'zlarni yoki misra oxiridagi qofiyani keyingi jumla yoki misra boshida aynan keltiradi".⁴ Alisher Navoiy ijodida bu san'atning qo'llanilish holati quyidagicha tasniflangan:

1. Tashobeh ul-atrof yoki tablig' san'atining bir bayt tarkibida istifoda etilishi:

*Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar.⁵*

2. Bir she'r, g'azalni to'laligicha shu san'at asosida qurish:

*Yordin ayru ko'ngul, mulkedurur, sultoni yo'q
Mulkkim, sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.⁶*

Birinchi marta Navoiy ijodida ko'ringan tashobeh ul-atrof san'atining o'ziga xos namunasi faqat XIX asrga kelib, Ogahiy devonida uchrashi qayd qilinadi.⁷ Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu san'at nafaqat Ogahiy, balki Feruz davri adabiy muhitida qalam tebratgan boshqa shoirlar ijodida ham istifoda etilgan.

Ogahiyning quyidagi g'azalida tashobeh ul-atrof san'ati 3 bayt doirasida kuzatiladi:

*Ey mutribi gulchehra, tuz sozingni ovozing bila –
Kim, jon-u dil bo'lsun fido ovozinga sozing bila,*

*Sozing eshitmakka bori bazm ahlidurlar muntazir,
Kel soz vaqtin bu kecha o'tkarmagil nozing bila.*

*Nozing base ko'bdur, vale sozing bag'oyat oz erur,
Qilgil mubaddal ul ko'bing bir lahza bu ozing bila.⁸*

¹ Огаҳий Муҳаммад Ризо. Тўла асарлар тўплами. Девон, 1-т, "Mumtoz so'z", 2014, 100-бет.

² Шу манба. 228-бет.

³ Шу манба. 70-бет.

⁴ Ё.Исҳоқов. Навоий поэтикаси. Т., "Фан", 1983, 157-бет.

⁵ Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-т, Т., "Фан", 1988, 136-бет.

⁶ Шу манба. 251-бет.

⁷ Ё.Исҳоқов. Навоий поэтикаси. Т. "Фан", 1983, 160-бет.

⁸ Огаҳий Муҳаммад Ризо. Тўла асарлар тўплами. Девон, 1-т, "Mumtoz so'z", 2014, 262-бет.

Mutribi gulchehraga murojaat qilgan lirik qahramon sozini ovozi bilan birga tuzishini, ya'ni, qo'shiq kuylashini so'rar ekan, uning ovoz-yu soziga jon-u dilni fido qilmoq istaydi. Ayni baytning ilk misrasida sozning ovozining bila birikmasi ikkinchi misrada ovozinga sozning bila tarzida kelishi tard-u aks san'atini yuzaga keltirgan bo'lsa, baytning "Ey" undov so'zi bilan boshlanishi nido san'atini paydo qilgan. Shuningdek, jonning mutribning ovozigacha, dilning soziga fido qilinishi ham baytga o'zgacha bezak bo'lib tushgan.

Navbatdagi misra boshidagi "Sozing" so'zi baytlararo uzviylikni ta'minlagan. Binobarin, mutribi gulchehraning sozi-yu ovozi eshitmakka faqat lirik qahramon emas, balki butun majlis ahli ishtiyoqmand. Shuning uchun soz vaqtini noz bilan o'tkazmaslikka chaqiradi. Fikr yorning nozi masalasiga taqalgach, navbatdagi bayt "Nozing" so'zi bilan boshlanadi. Lirik qahramon mutribi gulchehraga nozining ko'p, ammo sozining bag'oyat ozligidan yozg'iradi va bu kop-u ozning o'rini almashtirish, sozni ko'paytirib, nozni ozaytirishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy she'riy san'atlarni mukammallashtirib, ularning ko'pchiligini o'zbek she'riyatidagi yetuk san'atlar darajasiga olib chiqishga jiddiy kirishgan va poetik tasvirda ularning rang-barang qirralarini namoyish qilishga muvaffaq bo'lgan. Ogahiy Navoiyning so'zni obraz darajasiga ko'tara olish san'ati, uni turli ma'no va ohang tovlanishida qo'llash mahoratidan ibrat-u ilhom oldi, kompozitsion stilistik usullarni, o'zbek adabiyotiga Navoiy ijodi bilan kirib kelgan tashobeh ul-atrof kabi poetik tasvir vositalarini unumli va o'rinni qo'lladi va yangiliklar bilan boyitdi.

**Kuchkarov Tuxtamurod Olimovich (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Jizzax akademik litseyi "Tillarni o'rganish" kafedrasini mudiri, f.f.d (DSc), dotsent; murod0566@mail.ru)
"SHIROQ" RIVOYATI SUJETNING YUZAGA KELISH ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada Shiroq haqidagi qadimiy epik sujet sak-massaget qabilalarining folklor an'analarini doirasida shakllangan bo'lib, rivoyat va dostonlarda ajdodlarimizning o'z yurtini bosqinchi dushmanlardan himoya qilish maqsadida olib borgan mardonavor kurashi hamda ana shunday hayot-mamot janglaridagi jasorati tasvirlangan. Antik davr tarixchilarining kitoblarida qadimgi sak va massaget eposining bir necha namunasi qoldiq holdagi epik bayonlari keltirilgan. Sak-massaget qabila birlashmasining yirik urug'laridan biri hisoblangan siroqlarning jasorati va qahramonliklari tasvirlangan "Shiroq" (yoki "Siraq") rivoyati o'zbek folklorining arxaiq qatlamiga mansub epik sujetlar sirasiga kirishi haqida so'z boradi.*

***Аннотация.** Статья основана на древнем эпическом сюжете Ширака в фольклорных традициях сакско-массагетских племен. Книги древних историков содержат эпические описания остатков нескольких образцов древнего сакского и массагетского эпоса. Легенда о «Шираке» (или «Сираке»), описывающая мужество и героизм сираков, одного из крупнейших родов сак-массагетского племени, является одним из эпических сюжетов архаического пласта узбекского фольклора.*

***Annotation.** The article is based on the ancient epic story of Shirak in the folklore traditions of the Sak-Massaget tribes. The books of ancient historians contain epic descriptions of the remnants of several examples of the ancient sak and massaget epic. The legend of "Shirak" (or "Siraq"), which depicts the courage and heroism of the Siraks, one of the largest clans of the Sak-Massaget tribe, is one of the epic plots of the archaic layer of Uzbek folklore.*

***Kalit so'zlar:** folklor, rivoyat, epik sujet, sak-massaget, skif, sirak, sarmat, aors, konflikt, Kanik, Jilbulok chashmasi.*

***Ключевые слова:** фольклор, легенда, эпический сюжет, сак-массагет, скиф, сирак, сармат, аорс, конфликт, Каник, родник Джилбулак.*

***Key words:** folklore, legend, epic plot, sak-massaget, skif, sirak, sarmat, aors, conflict, Kanik, Jilbulak spring.*

Antik davr tarixchilarining kitoblarida qadimgi sak va massaget eposining bir necha namunasi qoldiq holdagi epik bayonlari keltirilgan. Masalan, "Ko'r qullar rivoyati", "Doroning Skifiyaga yurishi", "Skiflar ovi", "To'maris", "Skiflar qozoni" (Gerodot), "Shiroq" yoki "Sirak" (Polien), "Zarina va Striangey" (sitsiliyalik Diodor), "Amorg va Sparetta" (Ktesey) eposlari shular jumlasidandir. Jumladan, Polianning "Harbiy hiylalar" kitobida keltirilgan "Shiroq" (yoki "Sirak") rivoyati qadimgi saklarning vatanparvarlik, yurtsevarlik va ozod diyori uchun kurash g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qahramonlik eposining ixcham bayoni hisoblanadi. Ushbu rivoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: "Doro qo'shini bilan saklar o'rtasida urush borar edi. Saklar o'z yerlarini jon-jahdlari bilan himoya qilishar, ammo dushman qo'shini son jihatdan ko'p bo'lgani uchun ular qurshovga tushib qolishadi. Ana shunda sak qabilasi sardorlari Saksfar, Omarg va Tomiris maslahatga to'planadilar. Ular bu qiyin ahvoldan qanday xalos bo'lish haqida maslahatlashib turishganida davraga

saklarning bir otboqar cho‘poni Shiroq kirib keladi-da, sardorlarga yuzlanib: “Agar mening oilamga, bolalarim-ga g‘amxo‘rlik qilishga qasamyod etsangizlar, men el-yurtini Doro qo‘shinining bosqinidan xalos qilardim”, – deydi. U Eron qo‘shinini hiyla bilan halok etajagini aytadi va oilasiga, bolalariga, avlodiga g‘amxo‘rlik qilishga qasam ichdirib, shu va‘dani olgach, o‘sha zahotiyoyq yonidan pichog‘ini chiqarib, o‘zining quloq-burnini kesadi, boshqa a‘zolariga ham jarohat yetkazadi, so‘ngra go‘yoki saklardan ozor chekib, Eron qo‘shini tomon qochib o‘tgan kishi bo‘lib, Doroning huzuriga keladi.

Shiroq ana shunday ahvoli xarob holda Doroning qarorgohiga borib, arz qiladi va o‘zini saklardan alam-zada kishi qilib ko‘rsatadi. “Meni shu ahvolga solganlardan o‘ch olishim kerak, shuning uchun sizlarga yordam beraman”, deydi Shiroq. Shundan keyin u Eron qo‘shinini saklar kutmagan yerdan olib borajagini, u yerda turib, sak qo‘shiniga to‘satdan hujum qilib, g‘alaba qozonishlarini aytadi. Eron qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo‘lga tushadi. Qo‘shin uzoq yo‘l yuradi. Oziq-ovqat tamom bo‘ladi. Bir mahal ular tevarak-atrof qum barxanlaridan iborat jazirama sahrodan iborat cho‘lning qoq o‘rtasiga yetib boradilar. Ana shundagina Eron qo‘shini aldanganini anglaydi. Eron sarkardaridan biri Shiroqdan: “Shunday ulug‘ podshoni aldab, katta qo‘shinni biror quduq bo‘lmagan, biror qush uchmaydigan, biror jonivor ko‘zga ko‘rinmaydigan, na olg‘a yurish, na ortga qaytish mumkin bo‘lmaydigan sahroga boshlab kelishdan muroding nima edi?” – deb so‘raydi. Shiroq esa mag‘rur turib: “Men sizlarni yengdim! Bu bilan o‘z hamyurtlarim hayotini saqlab qoldim, endi ana shu suvsiz sahroda Eron qo‘shinini halok etaman”, – deb javob beradi. Buni eshitgan Ranosbat darhol Shiroqning boshini tanasidan judo qiladi. Bu orada dushman lashkarining ko‘p qismi ochlik va suvsizlikdan tinkasi qurib, nobud bo‘ladi. Buni ko‘rib tashvishga tushgan Doro suv so‘rab Apollonga iltijo qiladi, biroz vaqt o‘tgach, yomg‘ir yog‘adi. Eron qo‘shining qolgan-qutganlari arang Baqtriya daryosi (Amudaryo) sohiliga yetib oladilar”.¹

Qadimgi sak eposining yorqin namunalaridan biri hisoblangan “Shiroq” rivoyatida miloddan burungi VI –V asrlarda O‘rta Osiyoda yuz bergan real tarixiy voqealarning epik talqini o‘z ifodasini topgan. Rivoyatda oddiy otboqar Shiroqning o‘z ona diyorining ozodligi va tinchligi yo‘lida jonini fido qilganligi, o‘zining mislsiz jasorati tufayli vatandoshlarini halokatdan saqlab qolganligi bayon etilgan. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi 520–485-yillarda ahmoniyar hukmdori Doro I o‘zining tish-tirnog‘igacha qurollangan son-sanoqsiz qo‘shini bilan saklar o‘lkasiga bostirib kirgan. Ko‘chmanchi chorvadorlik, yarim o‘troq va o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan sak qabilasining jasur yigitlari dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borgan.

Poliennning “Harbiy hiylalar” asari orqali saqlanib qolgan qadimiy sak eposi namunasi – “Shiroq” rivoyati, mohiyatiga ko‘ra, qahramonlik xarakteriga ega. Antik davr yozma manbasiga kiritilganligi tufayli unut bo‘lib ketishdan saqlanib, bizgacha yetib kelgan bu rivoyatning sujet qurilishi “konflikt” (saklarning dushman qurshovida qolishi va urug‘ sardorlarining maslahatga yig‘ilishi) va “yechim” (otboqar Shiroqning dushman qo‘shinini aldov yo‘li bilan cho‘lga olib chiqib, mag‘lub qilishi) qismlaridan iboratligi bu asar qachonlardir saklar folklorida qahramonlik eposi sifatida keng ommalashganligini ko‘rsatadi. Folklorshunos olim K.Imomov to‘g‘iri yozganidek, “To‘maris”, “Shiroq” rivoyatlarning jangnoma tipini tashkil etgan. Har ikkisida tarixiylik to‘lali-gicha saqlangan. Sabab shuki, mazkur rivoyatlar yuzaga kelgan davrdan uzoqlashmasdan, shakliyl tuzilishi o‘z-garmasdan, variantlashmasdan oldin yozib olingan. “To‘maris” asosini bosqinchi Eron shohi Kayxusravga qarshi jang voqealari tashkil etadi. “To‘maris”, “Shiroq”, “Zarina va Odatida” nomi bilan O‘rta Osiyoda shuhrat topgan rivoyatlar jang, mardlik, qahramonlikni madh etuvchi alohida guruh sanaladi”.²

“Shiroq” rivoyati sujetining yuzaga kelishiga saklar hayotida ro‘y bergan real tarixiy voqelik asos bo‘lgan. Chunki tarixiy manbalarda bayon etilishicha, Turonga bostirib kirgan Doro lashkari saklar, so‘g‘diylar va massagetlarning qattiq qarshiligiga duch kelgan. Ular mahalliy aholining kuchli irodasi va jasoratini sindira olmay, ortga chekinishga majbur bo‘lishgan. Bunda, tabiiyki, Shiroq singari haqiqiy vatanparvar yigitlarning jasorati, mardonavor xatti-harakatlari muhim rol o‘ynagan.

Rivoyatning asosiy qahramoni Shiroq bo‘lib, u o‘z yurtini tashqi dushmanlar xurujidan omon saqlash uchun jonini ham berishga tayyor turgan mard, bahodir o‘g‘lon, o‘zining tadbirkorligi va aql-idroki bilan g‘animlarni tuzoqqa tushirishga muvaffaq bo‘lgan vatanparvar kishilarning umumlashma obrazi darajasida tasvirlanadi. Garchi rivoyat matnida bayon etilgan voqealar hayotiy uydirma asosida tasvirlangan bo‘lsa-da, epik sujet real hayotiy voqelik asosiga qurilgan.

Nazarimizda, miloddan burungi VI–V milodiy I asrlarda sak-massaget qabilalari birlashmasiga mansub etnoslar o‘rtasida “Shiroq” rivoyati juda mashhur bo‘lgan bo‘lib, uning bayoni o‘zaro madaniy aloqalar nati-

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том, Тошкент, “Фан”, 1977, 49-bet; Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. Т., “Ўқитувчи”, 1991, 128 – 129-betlar.

² Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. Тошкент, “Фан”, 2008.

jasida Orolbo‘yi epik arealida ancha keng ommalashgan ko‘rinadi. Chunki Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida keltirilgan “Kanik” afsonasi² mazkur epik sujetning badiiy evolusiyasi mahsuli hisoblanadi. Beruniyning hikoya qilishicha, “Kanovj rojasining Kanikka yuborgan hadyalari orasida ko‘rkam, maqtashga arzi-gudek kiyim bo‘lgan. Kanik undan kiyim tikishni xohlab, tikuvchiga tikishga buyursa, tikuvchi: “Unda odam qadamining izlari bor”, –deb tikishga rozilik bermaydi. Keyinchalik, Kanik bilsaki, Kanovjning hokimi shu yo‘l bilan uni xo‘rlab, pastga urishga qasd qilgan ekan. Shu bahona bo‘lib, ikki o‘rtada janjal chiqadi va u katta urushga aylanib ketadi. O‘zini tahqirlangan deb his etgan Kanik katta qo‘shin to‘plab, o‘z askarlari bilan Kanovj hokimi yerlariga hujum qiladi. Nima qilishini bilmay, hayron bo‘lib qolgan Kanovaj vazirini maslahatga chaqiradi. Ana shunda tadbirkor va aqlli vazir Kanikni yengishni o‘z zimmasiga oladi. O‘zining quloq-burnini kestirib, qattiq sitam ko‘rgan kishi bo‘lib Kanikning oldiga boradi. U Kanovj hokimi zulm qilganini vaj qilib, Kanikka yordam berajagina ma‘lum qiladi. Kanik rozi bo‘lgach, u dushman lashkariga yo‘l boshlab, ularni cho‘lga olib ketadi. Sahroning o‘rtasiga borgach esa: “Shuncha askarni bir o‘zim yengdim!” –deb mag‘rur qichqiradi. Askarlari suvsizlikdan nobud bo‘layotganini ko‘rib, g‘azabi qaynagan Kanik bora solib, jahl bilan o‘z nayzasini o‘sha joyning o‘rtasiga sanchadi: nayza sanchilgan yerdan buloq suvi otilib chiqq boshlaydi. Buni ko‘rgan vazir: “Men mo‘jiza ko‘rsatishdan ojiz bo‘lganlarga qasd qilgan edim, ammo bu ishga qodir bo‘lgan farishtalarga qasd qilganim yo‘q”,–deydi.

Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, Kanik milodiy 78–123-yillarda istiqomat qilgan hind hukmdoridir. U haqdagi afsona bilan saklar folkloriga mansub “Shiroq” rivoyati sujetining asosiy motivlari deyarli bir xil bo‘lib, farqli jihatlar personajlar ismidadir. “Shiroq” rivoyatidan farqli ravishda “Kanik” afsonasida urush chiqishi-ning sababi kiyim tikish voqeasiga bog‘lanib, vatanparvar qahramonning shijoati va aql-zakovati tufayli sahro-ga doxil bo‘lgan dushman lashkarining suvsizlikdan xalos bo‘lishi yerga sanchilgan nayza o‘rnidan suv chiqishi motivi orqali ifodalangan. Qayd qilish kerakki, “Kanik” rivoyatida nayza sanchilgan joydan suv chiqishi folk-lorning an‘anaviy motivlaridan biri bo‘lib, Xizr to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonalarida ham uchraydi. Masalan, “Jilbuloq chashmasi” afsonasida aytilishicha, bir kuni xo‘jayi Xizr buva qirq yamoq to‘n kiygan bir qalandar qiyofasida Sarmish qishlog‘iga to‘yga boribdi. Odamlar uni gadoy gumon qilishib, to‘yxonaga kiritmay quva-dilar. Xizr buva qochib borayotib qarasalarki, quvg‘inchilar yaqin kelib qolgan emish. Shunda u kishi hassa-larini yerga bir suqib olgan ekanlar, o‘sha joydan chashma paydo bo‘libdi. Uning sersuvligidan dushman yo‘li to‘silib qolibdi. Xizr buva “shu buloq jildirab oqib turib, bandalarning dardiga shifo bo‘lsin!” –deb niyat qil-gani uchun bu chashmaning nomi Jilbuloq bo‘lib qolgan emish.¹

Bizningcha, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida keltirilgan “Kanik” afsonasi sak-massagetlar folklorida ommalashgan “Shiroq” afsonasi sujetining Xorazm vohasi og‘zaki epik an‘anasidagi badiiy evolut-siyasi bilan bog‘liqdir. Chunki ulug‘ olim o‘zining “Hindiston” asarini yaratish jarayonida o‘zi tug‘ilib-o‘sgan diyorning folklor materiallari, jumladan, tarixiy rivoyatlarning syujetlaridan ham foydalangan ko‘rinadi. Har ikki asar syujetining motivlar tarkii va mazmunidagi o‘xshashlikning boisi ham ularning genetik ildizi mush-tarakligida, degan fikrdamiz.

“Shiroq” rivoyati sujetining yetakchi motivlaridan biri – epik qahramonning o‘z quloq-burnini kesib, jabrdiyda kishi sifatida o‘zga yurt xoqoni huzuriga borishi va aldov yo‘li bilan uni tuzoqqa tushirishi motivi o‘zbek xalq eposida, xususan, “Yusuf bilan Ahmad” dostonida ham uchraydi. Dostonning atoqli xalq baxshisi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan variantida tasvirlanishicha, Go‘zalshoh podsho chin-mochinlik Bobo Qambarga o‘zining tushini yo‘rdirgandan keyin Yusuf bilan, Ahmadbek bilan taraf bo‘lib qoladi. Bir kuni u o‘z eliga qarab:

*Eshitinglar, amaldorlar, so‘zimni,
Mo‘ysafid chol sarg‘ aytirdi yuzimni.
Yusufman Ahmadni bandi qip kelsang,
O‘rdada berayin Gulnor qizimni.*

*Gap eshitdim, xafa bo‘lgan vaqtimdi[r],
Taraflarim tomosha qip saxtimdi.
Ahmadman Yusufni bandi qip kelsang,
Xizmatiga beray yarim taxtimdi, –*

² Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 2-том, Ҳиндистон. Тошкент, “Фан”, 1965, 311–313-бетлар.

¹ Ипак йўли афсоналари (жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тўплаб, нашрга тайёрловчи М.Жўраев. Т., “Фан”, 1993, 87-бет.

deb murojaat qiladi. Shunda uning a'yonlaridan Mirza Mahmud degan kishi o'rta qiqib, bu xizmatni ado etishni o'z zimmasiga oladi. U kattagina qo'shin bilan Urganchga qarab yo'lga tushadi va lashkarini Polopon tog'ining etagiga yashirib qo'yib, o'zi Go'zalshohdan jabr-sitam ko'rgan kishi suratida Yusuf bilan Ahmadning huzuriga boradi. Eralixon podshoning maslahatiga ko'ra, Yusuf bilan Ahmad bu kelgan mehmondan gap so'rganlarida, u Go'zalshohning zulmidan shikoyat qilib, o'z jonini qutqarish uchun bu yerga qochib kelganligini aytadi:

*Go'zalshohga o'zim xazinachi bo'ldim,
G'aznalarni qaroqchiga urdirib,
Axtartib har qishloqni ko'rdirib,
Otu ovozangga keldim, Yusufjon,
Xizmatim qilgani keldim, Yusufjon.*

*Go'zalshohman mehrlarim tosh bo'lib,
Ovqat degan dasturxonga chosh bo'lib,
G'aznalarni qaroqchiga urdirib,
Go'zalshohman o'la-o'lguncha g'ash bo'lib,
Shonu shavkatingga keldim, Yusufjon,
Xizmatkor bo'lgani keldim, Yusufjon.*

Shu tariqa hammaning ishonchiga kirib olgan Mirza Mahmud kunlardan bir kuni ov bahonasida Yusuf bilan Ahmadni bog'lab, bandi qilib Misr eliga haydab ketadi.¹

Ko'rinadiki, "Yusuf bilan Ahmad" dostonidagi ayyor Mirza Mahmudning xatti-harakatlari, ikki bahodirni aldov yo'li bilan qo'lga tushirish uchun amalga oshirgan tadbiri – o'zini hukmdoridan jabr ko'rgan kishi qilib ko'rsatish orqali maqsadiga yetishishi Shiroq obrazini yodga tushiradi. Mohiyatiga ko'ra, "Shiroq" rivoyati ham, "Yusuf bilan Ahmad" dostoni ham jangnoma epos namunalari hisoblanadi. Bu esa epik an'ananing uzluksiz rivoji va takomillashib borishi jarayonida qadimgi sak eposida shakllangan "Shiroq" rivoyati sujetining motivlari o'zbek xalq jangnoma dostonlarining shakllanishida muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

Endi shu o'rinda Polien tomonidan hikoya qilingan qadimgi sak eposi namunasi "Shiroq" rivoyatida nomi qayd etilgan personaj nomi xususida to'xtalib o'tsak. Bizning fikrimizcha, rivoyatda epik qahramon nomi sifatida keltirilgan "shiroq" so'zi, aslida, atoqli ot bo'lmay, Doro qo'shinini tor-mor etgan qahramon mansub bo'lgan urug' nomi, ya'ni etnik atama bo'lishi kerak.

Yunon mualliflarining tarixiy-etnografik va jo'g'rofiy ma'lumotlariga asoslangan Y.S.Gagloyti aorslar va siraklarni skiflar tarkibiga kiritadi.² Strabonning keltirishicha, "aors va siraklar Kavkaz tog'larining janubiy qismida istiqomat qiluvchi qabilalar bo'lib, chodirlarda yashaydilar va dehqonchilik bilan shug'ullanadilar".³ Boshqa bir o'rinda esa "Undan narida, Meotida va Kaspiy dengizlari oralig'ida nabianlar, pansanlar, shuningdek, siraklar va aorslar yashashadi. Bu siraklar va aorslar o'z yurtidan quvg'in qilinganlar bo'lishsa kerak, binobarin, aorslar siraklardan shimolroqda joylashishgan. Siraklar hukmdori Abeakning ikki mingta suvoriy lashkari (o'sha paytda Farnak Bosforni egallab turgan edi) bo'lgan.⁴ Milodning 20-yilida o'zining "Geografiya" asariga oxirgi o'zgartishlarni kiritgan Strabonning yozishicha, sarmat qabilalari sirasiga mansub siraklar Orol dengizidan Kavkaz tog'lari etaklarigacha bo'lgan hududda yashaganlar.⁵ Diodora Sitsiliyskning Bospor taxti uchun kurashgan sirak hukmdori Arifarn haqidagi hikoyasini tahlil qilgan V.P.Shilov sirak va aorslarning Kavkazoldi dashtlarida paydo bo'lish vaqtini xronologik jihatdan miloddan burungi IV asrning oxiri deb hisoblaydi.⁶

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, miloddan burungi 130–125-yillar oralig'ida aors va sirak qabilalari Sharqiy Yevropa hududiga ko'chib o'tishgan. Binobarin, sarmat qabilalarining Orol dengizidan to Dunaygacha bo'lgan hududga ko'chishi Baqtriyaga yuechji-toxarlarning kirib kelishi jarayoni bilan parallel ravishda kechgan.⁷

¹ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 2-жилд, "Юсуф билан Аҳмад" дostonи (Муҳаммадкул Жонмурод ўғли Пўлкан ва Фозил Йўлдош ўғли варианты). Нашрга тайёрловчи М.Жўраев. Масъул муҳаррир Э.Очилов. Тошкент, Гафур Гулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2015.

² Гаглойти Ю.С. Аланы и вопросы этногенеза осетин. Тбилиси, 1966, с. 95.

³ Страбон. География. М., 1991, с. 177.

⁴ Ўша манба. 193-бет.

⁵ Страбон. География. М., 1993, с. 259; 283 – 284.

⁶ Шилов В.А. Аорсы (историко-культурный очерк). История и культура сарматов. Саратов, 1983, с. 36.

⁷ Гутнов Ф.Х. Ранние аланы. Проблемы этносоциальной истории. Владикавказ, 2001, с. 24.

Surxon vohasida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning etnografiyasini o'rganagan B.X.Karmishevaning aniqlashicha, qo'ng'irotlarning to'rtinchi shoxobchasi ichida siyroq urug'i ham bo'lgan.¹ Etnograf olim A.Malikov qo'ng'iroq qabilasi tarkibidagi "siyroq" urug'i miloddan burungi I asrlarga mansub yozma manbalarda ham qayd etilganligini yozadi.² Binobarin, qoraqalpoqlarning qo'ldovli, ashamayli va muyten urug'lari tarkibida "qara siyrak" shoxobchasi borligi etnograf olim L.S.Tolstova tomonidan aniqlangan.³ "Siyroq" urug'i yirik sarmat qabilalaridan biri – siraqlarning avlodlari deb qaraladi.⁴ Siraqlar miloddan burungi II – milodiy I asrlarda Azov va Kaspiy dengizlari oralig'idagi hududda istiqomat qilishgan. Ular I asrdan keyin ana shu hududda mavqeyi ancha kuchayib ketgan alanlar tarkibiga singib ketishgan.⁵ Sarmat qabilalari esa qadimgi Qangyuy aholisi tarkibiga mansub etnoslardan biri bo'lgan. Qo'ng'iroq qabilasi tarkibidagi tortuvchi urug'ining qadimgi ajdodlari kelib chiqishi jihatidan qangyuy'larga aloqadorligi ma'lum. "Siyroq" ham tortuvchi urug'ining shoxobchasidan biri ekanligi ham bu urug'ning genetik ildizlari sarmat-qangyuy'larga bog'lanishini tasdiqlaydi.

Bizning fikrimizcha, siraq qadimgi sak-massaget qabilalari birlashmasi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi bo'lgan. Sak qabilalari (shu jumladan, siraqlar ham) esa o'zbek xalqining qadimiy ajdodlari sirasiga kirganligi uchun o'zbek etnonimlari orasida "siyroq" atamasi saqlanib qolgan. Binobarin, sak-massaget qabila birlashmasining yirik urug'laridan biri hisoblangan siraqlarning jasorati va qahramonliklari tasvirlangan "Shiroq" (yoki "Siraq") rivoyati o'zbek folklorining arxaik qatlamiga mansub epik sujetlar sirasiga kiradi.

**Abdullayeva Xurshida Ne'matjonovna (Andijon davlat universiteti birinchi bosqich doktoranti;
khurshidakhon.abdullayeva.86@mail.ru)**

INGLIZ HAMDA O'ZBEK ERTAKLARIDA G'AROYIB MIFOLOGIK JANG MOTIVI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz hamda o'zbek sehrli ertaklarida mifologik jang motivi qisqacha tahlil qilingan. Ingliz ertaklaridagi qahramonlar janglari, hiyla bilan yengish usullari, o'zbek sehrli ertaklarining kuchli qahramonlarining devlar bilan yaxshilik va ezgulik uchun davomiy va mifologik janglari ko'rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье кратко анализируется мотив мифологического сражения в английских и узбекских магических сказках. Рассмотрены битвы героев в английских сказках, способы преодоления с помощью трюков, непрерывные и мифологические сражения сильных героев узбекских волшебных сказок с великанами за добро и добро.

Annotation. This article briefly analyzes the motif of mythological battle in English and Uzbek magical tales. Battles of heroes in English fairy tales, methods of overcoming with tricks, continuous and mythological battles of strong heroes of Uzbek magical tales with giants for goodness and humaneness are considered.

Kalit so'zlar: barkamol badiiyati, devlar, Kiyik polvon, Tuva polvon, Tolmas.

Ключевые слова: идеальный артистизм, Гиганты, Храбрый Олень, Храбрый Верблюд, Толмас.

Key words: perfect artistry, giants, Kiyik Palvan, Tuva Palvan, Tolmas.

Kirish. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning ta'kidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga yaqin turgan janr ertakdir. Uning qiziqarli hamda estetik badiiyati bilan ajralib turuvchi sehrli ertaklar butun dunyo xalqlarini o'ziga jalb qilib keladi. Sehrli ertaklarning yaratilish asoslarida o'xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu xususiyati ham ularning juda qadimdan yaratilganidan, turli xalqlar maishiy hayotida o'xshashliklarning ko'pligidan darak beradi. Sehrli ertaklar yaratilishi muayyan epik tamoyillar bilan bog'liq. Ularda xayoliy uydirmadan foydalanishning o'ziga xos epik qonuniyatlari va bunga asos bo'luvchi badiiy-estetik omillar mavjud. Bunda foydalaniladigan turli lingvopoetik vositalar ham alohida diqqatni jalb qiladi. Sehrli ertaklar sujetida uchraydigan tilsim, sehr-jodu, mo'jizaviylik, sirlilik, g'aroyib narsa-hodisalar, jonzotlar obrazining o'ziga xos xususiyatlari, genezisi, tasnifi va badiiyati bilan bog'liq masalalar yaxlitlikda uning janriy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Tilsim, evrilish, g'aroyib tug'ilish, g'aroyib joylarga

¹ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., "Наука", 1976, с. 92.

² Маликов А.М. К вопросу о происхождении кунградцев. Вестник Каракалпакского филиала АН РУз. Нукус, 2008, № 1 (210), с. 63.

³ Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. М., "Наука", 1984, с. 187.

⁴ Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике. Ономастика Средней Азии. М., 1978, с. 9–10.

⁵ Мошкова В.Г. Краткий очерк истории савромато-сарматских племен. Степи европейской части СССР в скифо-сарматское время. М., 1989, с. 156–157.

safar, maxluqlarga duch kelish va ular bilan kurashib g'olib kelish va boshqalar sehrli ertak fantastikasining asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek xalq sehrli ertaklari B.Karimov, F.Abullayev, M.Afzalov, K.Imomov, X. Egamov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular Xamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li kabi o'nlab ertakchilardan yozib olganlar, tahlil qilganlar. Xalq ertaklarining tasnifini quyidagi folkloristlarning asarlaridan, tahlillardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. O'zbek xalq ertaklari ham boy sujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitsion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o'z o'rniga ega. Ularda xalqning qadimiy urf-odatlarini, marosimlari hal qiluvchi rol o'ynagan tufayli xalq milliy qiyofasi butun bo'y-basti bilan gavdalangan bo'ladi. Shu sababli ular uzoq asrlardan beri tarixchilar, qadimshunoslar, etnologlar, o'lkashunoslar va adabiyotchilar, folklorshunos va tilshunoslarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Maqola metodologiyasi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklari orasida o'xshash mavzularni ko'plab uchratish mumkin. Bu jihatdan ertakdagi o'xshash mavzular sayyor sujetlar qatoriga kiritiladi. Bu sujetlardagi o'xshashlik, milliy jihatlardagi moslik adabiy aloqalar sohasida o'rganilishi kerak bo'lgan asosiy masalalardan biridir. Ikki tilning sehrli ertaklari jang bilan bog'liq bo'lgan sujetlarini tahlil qilganda etimologik, kulturalagik hamda kognitiv usullaridan foydalanish eng munosib usul hisoblanadi.

O'zbek va ingliz sehrli ertaklaridagi mifologik janglar haqida so'z ketganda, juda ko'p ertaklarda qahramonlar devlar bilan jang qilganliklari va bu bilan qahramonlar o'zlarining jasurligi, qo'rqmasligini, mardligini, o'z xalqiga jonkuyar ekanligini namoyon qiladi.

Tahlil va natijalar. Tahlilni misollar tariqasida ko'rilsa "O'zbek xalq fantastikasi" kitobidagi Oyjamol ertagida Tolmasbek Oyjamolni topish uchun juda ko'p devlar bilan jang olib boradi, janglarda kuch va jasurlik bilan birga aql va zakovati ham unga juda katta yordam beradi [1.154]. Tolmasbekning g'ayrioddiy kuchi bo'lib hamma devlarni osmonga otib o'ldiradi. Shu bilan birga, shartlarni bajarish bilan ham devlardan g'olib chiqadi.

O'zbek xalqining "Kiyik polvon" ertagi [2.7] Namangandan yozib olingan. Unda aytilishicha, qadim o'tgan zamonda bir chol bilan kampir bo'lib, ular o'tin terib, sotib tirikchilik qilar ekanlar. Ular keksayganlarida o'g'il ko'rishibdi. Bolaning onasi suti bo'lmaganidan bolani boqishga rosa qiynalibdi. Kunlardan bir kun chol o'tin terib yurib uxlab yotgan kiyikni ko'rib qolibdi. Uni asta borib ushlabdi va uyiga olib kelibdi. Endi ular bolani shu kiyik suti bilan boqa boshlabdilar. Shuning uchun bolaning nomini Kiyik polvon deb atashibdi. Bolaning yoshi o'n ikkiga borganda juda zo'r polvon bo'lib yetishibdi. U ko'p joylarda kurash tushib, hech yelkasi yerga tegmagan ekan. Bir kuni Kiyik polvon sayohatga chiqibdi. Yo'lda unga Tuya polvon uchrabdi va Kiyik polvon bilan kurash tushgani ketayotganini bildiribdi. Kiyik polvon Tuya polvonga o'zini tanitibdi. Ular rosa ikki kun kurash tushishibdi. Tuya polvon holdan ketib, charchab qolibdi. Kiyik polvon uni bir ko'tarib yerga urgan ekan, Tuya polvon beligacha yerga kirib ketibdi. Tuya polvon undan tortib olishini yalinib so'rabdi. Kiyik polvon uni tortib olibdi. Shundan so'ng Kiyik polvonga Ho'kiz polvon uchrabdi. U bir buzoqni yoshligidan ko'tarib katta qilganini, og'irligi va kuchi ho'kiz bilan tengligini aytibdi. Ular bel ushlabdi, ikki kun olishibdilar. Nihoyat, Ho'kiz polvonni Kiyik polvon bir ko'tarib yerga urgan ekan, u ko'kragigacha yerga kirib ketibdi. Kiyik polvon uni yerdan tortib olibdi va uchulasi yo'lga tushishibdi. Ular yo'lda keta turib, allaqanday tosh ovozi eshitib qolishibdi. Bu bir-biri bilan urishayotgan ikki tog' ovozi ekan. Tog'lar oralig'ida esa katta bir qo'rg'on bor emish. Bir payt tog' urishishdan to'xtabdi. Polvonlar birgalashib haligi qo'rg'onning katta darvozasidan ichkariga kirishibdi. Qarashsa, u yerda bir qiz o'tirgan emish. "Bu yer kimning qo'rg'oni?" deb so'rashibdi ular qizdan. Qiz bu devlarning joyi ekanini aytib, tezroq chiqib ketishga undabdi. So'ngra devlar uyingning kaliti o'rmini ko'rsatibdi. Shu payt ular dev sharpasini eshitib, devga peshvoz chiqishibdi. Dev ularga: "Maning bitta bitim senlarni yer bilan yakson qilib tashlaydi", – debdi. "Mayli bo'lmasa, bit, mo'ylov irg'itishamiz", – deyishibdi polvonlar. Dev mo'ylovidan ozgina yulib irg'itibdi. Kiyik polvon sahrodan ketayotib, "kerak bo'lib qolar" deb, bir toshbaqani qo'yniga solib, bir otning dumini kesib olgan ekan. "Mana bu bizning mo'ylovimiz", – deb otning dumini devning oldiga tashlabdi. Dev: "Mana bu maning bitim", – deb mushtdek keladigan bitini tashlabdi. "Mana bu bizning bitimiz bo'ladi", – deb Kiyik polvon qo'ynidagi toshbaqani tashlabdi. Dev haligi toshbaqa bilan otning dumini ko'rib, "bularning biti bilan mo'ylovi shunchalik katta bo'lsa, o'zlarining kuchi qancha ekan deb qochib ketibdi. Uchala polvon haligi qo'rg'onni o'zlariniki qilib olishibdi. U yerda qamalib yotgan kishilarning hammasini ozod qilishibdi. Devlarning uchta otini minib, uchala polvon har kuni ovga chiqib boshlabdilar. Ular ov qilib kelgan narsalarining go'shtini navbatma-navbat kechasi pishirar ekan. Birinchi kuni kechasi Tuya polvon go'shtlarini pishiribdi. Go'sht pishib bo'lgandan keyin soqoli ming qarich, o'zi bir qarich odam kelib, haligi go'shtni olib qochib ketibdi. Tuya polvon orqasidan quvib yeta olmabdi. Ertasiga Ho'kiz polvon ham go'shtni pishirib bo'lgandan keyin haligi soqoli ming qarich, o'zi bir qarich odam kelib, pishgan go'shtni olib qochib ketibdi. Uchinchi kuni ovqat qilish navbati Kiyik polvonga kelibdi. Kiyik

polvon go'shtni pishirib, ziyraklik bilan o'tirgan ekan, o'sha chol yana kelibdi. Kiyik polvon mo'ljalga olib turib, qilich bilan cholning kallasini shartta olib tashlabdi. Cholning tanasi qolib, kallasi qochib ketibdi. Bu sirni Kiyik polvon o'rtoqlariga aytib beribdi. Uchovi kallani quvib ketishibdi. Haligi kalla bir zindonga kirib ketibdi. Ular arqon bilan zindonga tushishga qaror qilishibdi. Avval Tuya polvon tushibdi. U zindonning yarmiga borganda, juda ham vahima bosib, "dod, tortib olinglar", deb baqiribdi. Uni tortib olishibdi. Navbat Ho'kiz polvonga kelgan ekan, u ham g'or og'ziga yaqinlashay deganda, dod solibdi. Uni ham tortib olishibdi. Navbat Kiyik polvonga kelibdi: "Mani dod desam ham, tortib olmaglar", – debdi u. Kiyik polvon xuddi do'zax og'ziga kirganday haligi kalla kirgan joyga kirib boribdi. Qarasa, kalla yotgan emish, uning yonida bir chiroyli qiz o'tirganmish. Kiyik polvon qizdan kimligini so'rabdi. Qiz devlar tutib olib kelib, bandi qilishgani, bir necha yildan beri bu yerdan chiqib ketolmayotganini aytibdi. Kiyik polvon bu devning joni qayerda turishini surishtiribdi. Qiz shu yerda bir kaptar borligi, devning joni shu kaptarda ekanligi haqida xabar beribdi. Kiyik polvon qiz aytgan kaptarni topib ushlabdi. Uni o'ldiribdi.

Qiz: "Mana bu yerda ikkita ot bor, otning oldiga borganingizda sizni oq ot tepsa, yerning betiga chiqasiz, qora ot tepsa, yerning tagiga tushasiz", – debdi. Kiyik polvon qizni arqonga bog'lab yer yuziga chiqaribdi. Yer yuzidagi Tuya polvon bilan Ho'kiz polvon arqonni yana qaytib zindonga tashlamabdilar. Yigit nima qilarini bilmay biroz o'ylanib turibdi-da, qiz aytgan haligi otning oldiga boribdi. Uni qora ot tepib yuboribdi. Bola bir zumda yerning tagiga tushib ketibdi. Ko'zini ochib qarasa, bir dehqon qo'sh haydayotgan emish. Kiyik polvon uning oldiga borib so'rashibdi. Haligi chol: "Tovushingni chiqarma, bu yerda katta ajdaho bor, eshitsa yutib yuboradi", – debdi.

Kiyik polvon ajdahoni izlab ketibdi. Bir daraxtning tagida juda katta bir ajdaho yotganini ko'ribdi. Kiyik polvon uning oldiga borgan ekan, ajdarho uni nafasiga tortibdi. Kiyik polvon qilichini peshonasiga ko'ndalang qilib, ajdarni og'zidan tilib, orqasidan ikkiga bo'lib chiqibdi. So'ngra yana haligi dehqonning oldiga qaytib kelibdi. Qo'rqib ketgan chol qo'li bilan bolaning og'zini yopib: "Bolam, tovushingni chiqarma, bu yerning xalqi hech qattiq gapirmaydi, ajdarho eshitib qolmasin, deb. San boshqa dunyo odamiga o'xshaysan", – debdi.

Bola ajdarni o'ldirganini aytibdi. Chol darrov bu xabarni yer osti podshosiga yetkazibdi. Podsho Kiyik polvonni o'z taxtiga oldirib kelibdi: "San bizni balodan qutqarding, xohlasang sanga qizimni ham, podsholigimni ham in'om etaman", – debdi. Kiyik polvon esa: "Man yorug' dunyo kishisiman, agar himmat qilsangiz, maning yorug' dunyoga chiqishimga yordam bering", – debdi. Podsho unga bir tog'ning etagida katta bir tup daraxt borligini, o'sha daraxt oldiga borib tursa, u yerdagi burgut uning yorug' dunyoga chiqishiga yordam berishi mumkinligini aytibdi. Kiyik polvon podsho aytgan daraxt tagiga borib turgan ekan, bir burgut kelib, boladan: "Ey yorug' dunyo kishisi, san bu yerda nima qilib yuribsan?" – deb hol so'rabdi. Bola bo'lgan voqealarni aytib beribdi. Burgut ajdardan qutulganiga suyunib: "Manning yorug' dunyoga chiqishga hech ilojim yo'q edi, lekin san bolalarimni ajdahodan qutqarganing uchun tilagingni bajaraman", debdi va bolani yelkasiga mindirib, yer yuziga olib chiqib qo'yibdi. U yerda haligi ikki polvon qizni talashib, janjallashib turishgan ekan. Kiyik polvon ularning ikkovining ham kallasini uzib, qizni o'zi olibdi va maqsadiga yetibdi.

Ko'rinyaptiki, bu ertak "Ayiqqolvon" ertagiga ham o'xshaydi. Xullas, tilsim bilan bog'liq hayoliy uydirmalar asosida biror maqsad yotishi ayonlashadi [5.69–70].

"Adventures of Jack the Giant-Killer" [ATU.302] ertagidagi dehqon o'g'li Jek odamxo'r maxluqlar bilan jangga kiradi xalqini odamxo'rladan qutqarish yo'lida haqiqiy jangchiga aylanib bor kuchini va zakovatini ishga soladi. Yana shu kabi boshqa ingliz ertaklari hiylagarlik va aldov orqali o'z niyatlariga erishishlari mumkin bo'lgan janglar ham bor. Lekin bunda qahramonlarning o'ziga xoslik – tadbirkorlik va shijoat xarakterlarining asosiy belgisi hisoblanadi. Bu inglizlarda yuqori baholanib kelingan. Chunki bu xususiyat kapitalizm rivojlantirib, burjua jamiyati shakllanayotgan davrda yaratilgan. Masalan, ko'p ingliz ertaklarida jang orqali emas hiyla nayrang orqali ham ularni yengish mumkinligini ko'rsatib beradi. Odamxo'r maxluqlarni aldash bilan "Molly Whoopie" ertagida Molli, "Jack and the Beanstalk" [4.59] ertagida Jek o'zlari va o'z yaqinlari uchun baxtga erishadi.

Xulosa qilib aytilganda, ikki xalqning sehrli ertaklaridagi jang motivining mushtarakliklarni yoki ba'zan turfa xilliklarini ko'rish mumkin. Ko'p holatlarda epik asarning qahramonlari ezigulik va adolat, vatanparvarlik va sadoqatni namoyon qiladilar. Janglarda ikki xalqning ham qahramonlari, birinchi navbatda, aqlga so'ng esa kuch qudratga suyanadilar. Albatta, sehrli ertaklarning asosiy ko'rinishi va jozibasi bo'lmish sehr, tilsim buyumlar bilan amalga oshirilgan va g'alabaga erishgan janglari ertaklarni yanada mukammal, bo'yoqdor, qiziqarli yaratilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq fantastikasi. Sehrli ertaklar. 5-kitob. "Yosh gvardiya", 1986, 24-bet.

2. G'oziboyev T. Namangan ertaklari. "Sharq", Toshkent, 1998, 7–172-betlar.
3. A dictionary of British folk-tales in the English language, incorporating the F.J.Norton collection. <http://www.mftd.org/index.php?action=atu&act=range&id=300-399>
4. English fairy tales by Jacobs. Joseph, 1854–1916, p. 312.
5. Imomov K. Ertak. O'zbek folklori ocherklari. 3 jildlik, 2-jild, Toshkent, "Fan", 1989, 69 – 70-betlar.

Berdiyeva Nazira Uralovna (Termiz davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi; naziraberdiyeva@mail.ru)

KO'CHIB YURUVCHI QAHRAMONLAR: MIKROMAKON VA MAKROMAKON UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Ko'ramizki, sobiq ittifoqning tugatilishi, sotsialistik realizm ijodiy metodining kun tartibidan tushishi o'zbek yozuvchilarini dovdiratib qo'ymadi. Aksincha, qadimiy milliy va diniy qadriyatlarga tayanagan holda, haqiqatni bo'y-basti bilan badiiy obrazlarda tasvirlash imkonini berdi.

Аннотация. Наблюдая развитие современного литературного процесса, мы видим, что распад бывшего союза и снятие с повестки дня творческого метода социалистического реализма не смущали узбекских писателей. Напротив, опираясь на древние национальные и религиозные ценности, оно позволяло отобразить действительность в художественных образах.

Annotation. We see that the dissolution of the former union and the dropping of the creative method of socialist realism from the agenda did not confuse Uzbek writers. On the contrary, relying on ancient national and religious values, it allowed to depict reality in artistic images.

Kalit so'zlar: badiiy tafakkur, obraz, sujet, milliy turmush tarzi, qadriyat.

Ключевые слова: художественное мышление, образ, сюжет, национальный быт, ценности.

Key words: artistic thinking, image, story, national lifestyle, value.

Kirish. Yangi badiiy tafakkur badiiy obraz yaratish printsiplariga ham kuchli ta'sir o'tkazdi. Buning yorqin dalilini Murod Muhammad Do'stning "Mustafo", "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati", "Iste'fo" qissalarida ko'rishimiz mumkin. Qissaga ko'p marta qalamga olingan mavzu – sobiq sovet hokimiyatining o'rnatilishi va bosmachilik harakati, mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlarning poymol bo'lishi, urush qoldirgan asoratlar, insonlar orasidagi munosabatlarni izdan chiqishiga sabab bo'ladigan omillar, xalqning milliy qadriyat va an'analardan uzoqlashtirilishi va uning salbiy oqibatlarini asos bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Yozuvchi "Mustafo", "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati", qissalarini yaratish jarayonida milliy qadriyatlarimizdan ijodiy oziq oladi. Davrning murakkab tarixiy voqealariga obyektiv baho bera olgan. Tarixiy voqelikni qayta tiklash masalasini badiiy obrazlar yordamida amalga oshirgan. "Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati" katta shaharda yurgan, hayotda o'z o'rnini topa olmagan, eng yaqin do'stidan xiyonat ko'rgan, ishning ko'zini bilmaydigan halol va to'g'riso'z Toshpo'latning otasi Raim oqsoqolning o'limi va qabr boshidagi manzaradan boshlanadi.

"Javzoning boshida Raim oqsoqolni yerga qo'yishdi. G'aybarov janozaga arang yetib keldi. Ukalari, ko'ngil yetar qarindoshlar – hamma uni yig'lab qarshi oldi. Lekin uning o'zi yig'layolmadi. Hatto mozorda ham ko'zidan yosh chiqmadi, begona odamday bir chekkada turdi".¹ Hamma unga ajablanib qaraydi, bunga chidolmagan ukasi Mavlonboy unga tanbeh beradi. "Loaqal ko'zni tupuklang, aka!.." G'aybarov shunda ham ukasiga bir so'z demaydi, indamay go'rga yaqinroq boradi. Karaxt va og'ir o'y-xayollarga g'arq Toshpo'lat qoraygan lahad og'zida turgan Naim amaki unga yig'lamsirab mo'ltiradi. Kimdir tobutning iplarini yechdi. G'aybarov otasining oq kigizga o'ralgan jasadini avaylab ko'tardi, g'or qiblasidan kelib, Naim amakiga uzatdi. Marhum bo'ychan odam edi – Naim amaki eplashi qiyin bo'ldi. Uning yoniga Mahanboy sakrab tushdi, marhumning oyoq tarafini qo'ltiqqa qisib, kigiz chetlarini yoydi va lahad og'ziga ro'para qildi. Lahad ichida turgan Mannon murdani kigiz orasidan sekin sug'urib oldi. Kigiz oq, kafan oq – murdaning lahadga o'tgani sezilmadi. ...oq pilla ichida oppoq bir g'umbak".²

Bu tasvirlar yozuvchi tomonidan bejiz keltirilmagan. Yozuvchi haqiqatni anglatish maqsadida milliy turmush tarzini o'ziga xos milliy bo'yoqlarda bermoqda. O'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, janoza marosimi orqali milliy turmushimiz qanchalik o'ziga xosligini kitobxonga yetkazmoqchi. Mozor tasvirida bo'lsa kishilarning ichki olamini, o'zbekona andishani ko'rsatmoqchi.

¹ Murod Muhammad Do'st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati. T., G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 3 – 4-betlar.

² Shu manba.

Yangi badiiy tafakkurning mohiyati shundaki, voqelik bor bo‘yi bilan idrok qilinadi, soxtalashtirilmaydi, o‘tkinchi mafkuralarga moslashtirilmaydi, hayotiy haqiqat badiiy haqiqatga aylantiriladi. Albatta, bunda yozuvchining iste‘dodi va mahorati asosiy mezon vazifasini o‘taydi.

“Mustafo” qissasida ham hayotiy haqiqatning badiiy talqinini kuzatamiz. Voqealar silsilasida ko‘chib yuruvchi qahramon Toshpo‘lat G‘aybarov obrazi o‘rin olgan. Mustafo va Nazar Maxsum suhbatlari orqali yozuvchi uni yaqindan tanishtiradi. Nazar Maxsum nutqi orqali Toshpo‘lat va Sanabek obrazlari zidlantiriladi. Insonning qadri, obro‘si uning jamiyatdagi nufuzi va mavqei bilan o‘lchana boshlaganligi kinoya bilan ta‘kidlanadi:

– Sanabekning ishi ko‘p yomon emas, Mustafo, – deydi Nazar Maxsum. – O‘qiganning ham hammasi katta bo‘lavermas ekan. Mana, Raim oqsoqolning o‘g‘li Toshpo‘lat biror yigirma yildan beri o‘qiydi. Na ro‘zg‘ori, na mashinasi bor.

– G‘aybarovning o‘g‘li bama‘ni yigit, – deydi Mustafo.

– Bama‘ni bo‘lgani bilan, ishning ko‘zini bilmasa qiyin, – deb e‘tiroz qiladi Nazar maxsum.¹

Har ikkala qissadagi Toshpo‘lat va uning otasi sobiq rais obrazlari aynan bir xil. Ularning xarakteri, olam va odamga munosabati, o‘zaro munosabatlari bir asardan ikkinchisiga ko‘chib o‘tgan. Bu obrazlar bir asardan ikkinchisiga ko‘chib o‘tar ekan, bir-birining mantiqiy davomidek taassurot uyg‘otadi, kitobxonni tobora o‘ziga yaqinlashtiradi.

Toshpo‘lat, aslida, jonkuyar, sadoqatli, halol, iymonli, ilmsevar, millat fidoyisi. Yozuvchi uni bir necha rakursdan turib kuzatadi. Toshpo‘lat obrazining o‘ziga xos qirralarini ochishga harakat qiladi. Bunda u Toshpo‘lat va unga xayrixoh obrazlar, Toshpo‘latga antipatik munosabatni ifodalovchi obrazlar guruhidan foydalanadi.

Bevosita roviy (yozuvchi) va Toshpo‘lat o‘rtasidagi badiiy mantiqiy, dunyoqarash va e‘tiqod uyg‘unligi seziladi. Xuddi shu o‘rinda roviy va qahramon; roviy va muallif munosabati ayni uyg‘unlikni ta‘minlaydiki, bu “epos janriga xos xususiyat” hisoblanadi.²

Ko‘rinyaptiki, yozuvchi obraz yaratishda milliy turmushimizning manzaralarini berishda aniqlikka rioya qiladi. Toshpo‘latning ruhiy iztiroblariga butun bir davrning ma‘naviy inqirozini singdirib yuboradi. Toshpo‘lat o‘z-o‘zini ayblaydiyu, o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolar zamirida davrning yetilmagan ijtimoiy tafakkurini ko‘radi. Toshpo‘lat har doim o‘zi bilan olishib yashaydi. O‘zining ilmiy rahbari yoki do‘sti Samad bilan Toshpo‘latning tortishuvlarida ikki xil dunyoqarashni ko‘ramiz. Ulardan biri milliy g‘ururi va e‘tiqodi butun inson, ikkinchisi aldangan, sarob g‘oyalar quli. Asarda qizil imperiya va hurfikrli, o‘z meniga ega, shaxsiyati butun inson mafkurasining hayot-mamot jangi butun ziddiyati bilan ochib berilgan.

Toshpo‘lat ilm o‘rganishni o‘ziga sharaf deb biladi. E‘tiqodli odamlar haqida fikr yuritib, haqiqatni oshkor etadi. Tasvirda kommunistik haqiqat deb tarix soxtalashtirilayotganligiga ishora etiladi.

Yozuvchi tasvirda bot-bot orqaga chekinib, retrospektiv usulda hikoya qiladi. Samad bilan bog‘liq lavhada Toshpo‘lat o‘tmishi, sevgan vaqtlarini eslaydi. Samadning xiyonatini iztirob bilan xotirlaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, oilaviy turmush manzaralari orqali Toshpo‘latning individual qiyofasini chizadi. Toshpo‘lat Samad bilan mansab talashmaydi. Unga bo‘ysungisi kelmaydi, o‘z qarashlaridan voz kechmaydi.

Toshpo‘latning opasini uyida mehmon bo‘lishi va u yerda mullaning nasihati, yoshlarning davrada o‘zini nomunosib tutishlari, adibning hayotga qarashlari va xulosalari uning aniq ijodiy motivga rioya qilganligidan dalolat beradi.

Samadning oilaviy ishqiy sarguzashtlari uning individual tomonlarini aks ettirsa, sho‘ro hukumati dargohidagi faoliyati uni davrning adabiy tiplaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Toshpo‘latning xotira daftarida Samad davrning markaziy figuralaridan biri sifatida talqin etiladi. Qissadagi Ma‘suma obrazi ham diqqatga sazovordir. U turmush o‘rtog‘i Qobilning sevgisiga, o‘z oilasiga xiyonat qiladi. Tasodifan xiyonat guvohiga aylanib qolgan Toshpo‘lat Samadni sotqinlikda ayblab, ayovsiz kaltaklaydi. Ular o‘rtasidagi olishuvni adib quyidagicha tasvirlaydi:

“G‘aybarov indamadi. Samad uning hasad qilmasligini anglab, battar g‘azablendi: – Inarang esingdami? – deb baqirdi u. – Esingdami, hajiqiz?! G‘aybarov Inarani haligacha unutmagan edi, yalt etib qaradi. Ich-ichidan o‘rtandi, yondi, do‘stim-ku, deb o‘yladi, ishongisi kelmadi. Uning ko‘zlariga boqdi. Samad g‘olibona iljayib turardi.

– Senmiding o‘sha? – deb so‘radi iztirob bilan.

– Bo‘lmasa kim? Sen yana kimga sir aytuvding?

¹ Мурод Муҳаммад Дўст. Мустафо. Т., “Ёш гвардия”, 1985, 21 – 22-бетлар.

² Хализев Е.Н. Теория литературы. М., “Высшая школа”, 1999, с. 303.

– Faqat senga, – dedi G‘aybarov. – Mana bu Inara uchun!..– cho‘mich bilan qulochkashlab tushirdi, so‘ng cho‘michni bir chetga uloqtirdi. Eshikka yugurgan Samadga yetib olib, naq jag‘iga musht tushirdi: – Buyam Inara uchun! Bunisi Qobil uchun! Bunisi Ma‘suma uchun!..

– O‘ldirib qo‘yasan, nomard!.. – deb xirilladi Samad.

– O‘lmaysan, sendaqalar o‘lmaydi, – dedi G‘aybarov va yana musht urdi. – Bunisi qizchang Saida uchun! Bunisi ham Saida uchun!!! Samad biqinini changallab, yerga o‘tirib qoldi.

– Nomard!.. – deb xirqiradi u. – Tuzukroq baqirolmasang, shuyam hayot bo‘ldimi, – dedi G‘aybarov. – Bo‘ldi, tur o‘rningdan... Samad, aft-basharasi qora qonga bo‘yalgan, bir amallab o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Yuzi ochiq, ikki qo‘li hamon biqinida.

– Arz qilib borolmaganing yomon, – dedi G‘aybarov. – Nomingga dog‘ tushadi, obro‘ing to‘kiladi... Se-ning biror dog‘siz joying bormi o‘zi, ablah?!¹

Qissada hayot haqiqati buzilmaydi. Birovning ayolini o‘z tarafiga og‘dirib, yana bir ishongan do‘stining sevgilisi nomusiga tekkan odamlar yo‘q emas. Koinot gultoji bo‘lgan inson ba‘zan tubanlab ketadi, odamiylik chegaralarini buzadi. Toshpo‘lat nutqida Samad va u kabilar mansub jamiyatning xato, kirdikorlari shafqatsiz bayon etilgan.

Yangi ijtimoiy davr yozuvchilarga to‘la erkinlik berdi. Endi yozuvchi obraz yaratayotganda qahramonlari ijobiy va salbiyga ajratib o‘tirishi shart emas. Har bir adabiy tip taqdirida insonga xos fazilatlarni ham, insoniylikka dog‘ tushiradigan nuqsonlarni ham badiiy obrazga ko‘chirishi mumkin. Yangicha badiiy tafakkurga xos mezon shundaki, tarixiy voqelik soxtalashtirilmasligi, balki ro‘y-rost o‘z bahosini olishi, soxta ko‘tarinkiliklardan holi bo‘lmog‘i lozim. Toshpo‘lat Samad va unga o‘xshaganlarning xatolarini xiyonat timsolida ochib tashlaydi.

Xulosa. Asarda musulmon o‘zbek ayolining umumlashma adabiy tipi yaratilgan. Biz Mas‘umaning o‘z uyida Toshpo‘lat bilan suhbatidan har qanday og‘ir sharoitda ham qaddi bukilmaydigan, irodali, sevgida sadoqatli inson obrazini tasavvur qilamiz.

Qissada yana ikki ayol – Inara va Mas‘uma obrazi ham o‘rin olgan. Ular sadoqatli, vafodor ayollardir, dunyoning barcha moddiy ne‘matlaridan mehr-oqibat, sadoqat, or-nomusni ustun qo‘yadilar. Toshpo‘latning Inaraga bo‘lgan sadoqati yoki Samadning qizchasi bahonasida uy egalari aytgan gaplari yozuvchining badiiy tip yaratishdagi mahoratidan dalolatdir.

**Yunusova Gulandom Samiyevna (BuxMTI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası mudiri, f.f.d.)
ABDULQODIR GIYLONIY – TASAVVUF ADABIYOTI NAMOYANDASI**

Аннотация. Мақоллада ислом дунyosining mashhur shayxi Abduqodir Giyloniyning ilm olamidadagi bahsli hayoti, ma‘naviy merosi va uning tahlili keltirilgan. Asarlari nomlari berilib, bu asarlar sharhlangan.

Аннотация. В статье представлены противоречивая жизнь, духовное наследие и анализ идей знаменитого шейха исламского мира Абдулкадира Гилани в мире науки. Даются названия духовного наследия и комментируются эти произведения.

Annotation. The article presents the controversial life, spiritual heritage and analysis of the famous sheikh of the Islamic world Abdulkadir Gilani in the world of science. The names of the spiritual heritage are given and these works are commented on.

Kalit so‘zlar: qodiriya tariqati, tasavvuf adabiyoti, ma‘naviy meros, fors ilohiyotchisi, toshbosma va qo‘yozma asarlar.

Ключевые слова: учение кадирия, суфийская литература, духовное наследие, персидский богослов, литографы и рукописи.

Key words: teachings of Qadiriya, Sufi literature, spiritual heritage, Persian theologian, petroglyphs and manuscripts.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ilmiy, ma‘naviy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimiz ilmiy-ma‘naviy merosini, ularning diniy-irfoniy ta‘limotlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. “Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur” [1]. Bu vazifalarni bajarishda tasavvuf adabiyotining o‘rni beqiyosdir.

¹ M.M.Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 207-bet.

Islom dunyosining mashhur shayxi, qodiriya tariqatining muassisi bo'lgan bu zoti sharifning hayoti va faoliyati borasida ko'plab fikr-mulohazalar bayon qilingan. Ularning bir qanchasi esa bahslidir. Bu esa buyuk shayxning juda mashhurligi hamda hayoti va faoliyati turli davrlarda, turli shaxslar tomonidan har xil talqin etilganligidandir. Abdulqodir Giyloniyning tarjimai holi keltirilgan ko'pgina asarlar uchun ingliz sharqshunos olimi Olvort maxsus ro'yxat tuzgan (2.8).

Tarixiy manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Abdulqodir Giyloniyning fors ilohiyotchisi, mutasavvif sifatida talqin qilinishiga, uning o'zi yashagan davrda qodiriya tariqati asoschisi sifatida emas, balki 13 fandan saboq beruvchi mudarris sifatida tanilganligi sabab bo'lgan. Bu haqda quyidagicha ma'lumot berilgan: "O'z davrining ulug' olimlarida tahsil ko'rib, islom dini asoslari va tasavvuf ta'limotini puxta egallaydi. Bag'dod shahrida madrasa barpo etib, o'ttiz uch yil davomida tolibi ilmlarga saboq beradi. G'avsul A'zam raziyalohu anhu o'z madrasalarida o'n uch qism ilmg'a dars aytur erdilar. Chunonchi, ilmi tafsir, ilmi hadis, ilmi mazhab, ilmi usul, ilmi axloq, ilmi fiqh..." [3.7].

Giyloniy maqbarasi Bag'dodda bo'lib, islomdagi muqaddas joylardan biri hisoblanadi. Bu shayxning kelajak avlod uchun ibrat olsa arzigulik ishlari ko'p va xo'bdir.

Abdulqodir Giyloniyning ijtimoiy-axloqiy, falsafiy qarashlari aks ettirilgan asarlarining ayrim toshbosma va qo'lyozma nusxalari saqlangan. Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida ushbu asarlarning bir qismi tarjima etildi va ilm ahli qo'liga yetdi. Ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan Abdulqodir Giyloniyning asarlari quyidagilar:

1. "Al-G'unyatun li tolibi tariqil haq"¹ ("Haq yo'lini istovchi uchun boy va mukammal manba"). Ushbu manbada insonni kamolotga yetaklovchi 10 xislat talqini berilgan bo'lib, unda komillikning asosida bag'rikenglik, qalb pokligi, kechirimlilik, kamtarlik, tavoze' kabi fazilatlar Qur'oni karim oyatlari va hadislardan namunalar orqali ochib berilgan, shuningdek, go'zal axloq va go'zal tabiatlilik xususida alohida to'xtalgan.

2. "Tuhfat ul-qodiriya"² Asar arab tilida yozilgan bo'lib, yozilish sanasi 1321-milodiy yil, ko'chirilishi sanasi 1856-yil ekanligini aniqladik. Ushbu asar unvon varag'ida "Qasidai G'avsiya" nomi bilan bitilgan bo'lib, uning qolgan qismida 90 ta manqabat, 1 ta kursiynoma va Ismi A'zam bayoni berilgan.

3. "Qasidayi G'avsiya"³ Qasida janri ilk marotaba arab adabiyotida qo'llangan, keyinchalik, fors va turkiy adabiyotlariga kirib kelgan. Qasida so'zining lug'aviy ma'nosi qasd qilmoq bo'lib, yozishga qasd qilmoq ma'nosini anglatadi. Uning qofiyalanish shakli masnaviyonikiga o'xshash bo'lib, 19 baytdan 45 baytgacha hajmda yozilgan. Turkiy tilda yozilgan ilk qasida XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Bahor madhi" qasidasidir. Qasidalar ikki xil ko'rinishda bo'lib, birinchi xili birovg'a atalgan yoki biror-bir tarixiy voqeaning vasfi berilsa, ikkinchi xili qasidayi holiya bo'lib, unda asar muallifi o'zining xislatlari, ahvoli bayon etiladi.

"Qasidayi G'avsiya" bir qismi suls yozuvida, asarning qolgan qismi nasta'liq yozuvida bitilgan. Abdulqodir Giyloniy "Qasidayi G'avsiya"da o'zi va karomatlari, shuningdek, Haq taolo nazaridagi mavqeyi xususida ma'lumotlar bergan. Demak, ushbu asar qasidayi holiyadir. Asar arab tilida bitilgan bo'lib, har bir misra ostida forsiy zabonda izohi bitilgan. Hajman 26 bayt, 52 misra bo'lib, qasidaning maqta'sida shoir nomi zikr etilgan.

4. "Devone G'avsul A'zam"⁴ Asar fors tilida yozilgan bo'lib, u Mulla Mir Alim Xoja ismli kotib tomonidan ko'chirilgan. Yuzida mavjud manbada ko'chirilish sanasi 1324-hijriy (1906-yil) deb ko'rsatilgan. Asarning yozilish sanasi esa noaniq. Bizdagi nusxaning ayrim betlari, jumladan, 1-3, 15-16, 40-46 yo'qolgan.

¹ Ushbu asar arab tilidan S. Сайфуллоҳ томонидан таржима қилинган бўлиб, 2005 йилда нашрдан чиққан "Сиррул асрор" китобига киритилган. Қаранг: Сирр ул-асрор. Мактубот. Таржимон О.Жўрабоев. Т., "Мовароуннаҳр", 2005, 220-бет; ЎзР ФА ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлғезмалар фондида "Ғун-ятун ли толиби тариқил Ҳаққ" асарининг қўлғезма нусхаси 6038-рақами остида сақланмоқда.

² Ushbu asar таркибидаги "Қасидаи ғавсия"ни форс тилидан таржимасини амалга оширдик; Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2004, 1-сон. Асарнинг қўлғезма нусхаси ЎзР ФА ҳузуридаги Шарқшунослик институти Бухоро филиали хазинасида 27775/11-рақами остида сақланмоқда.

³ Ushbu асарнинг биз таржима қилган варианты "Тухфат ул-қодирия"нинг таркибида бўлиб, унинг яна 4 нусхаси ЎзР ФА ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлғезмалар фондида "Қасидаи Жилоний" ва "Қасидаи Ғавсия" номлари билан мавжуд. Улар 10650, 11342, 6491, 504-рақамлари остида сақланмоқда.

⁴ Ushbu asar toshbosma nusxada бўлиб, уни биз илк маротаба топиб, тўла таржима этдик ва унинг бир қисми ҳақида "Имом ал-Бухорий сабоқлари" журналининг 2004 йил 3-сонида маълумот бердик. Асарнинг ЎзР ФА ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлғезмалар фондида "Девони Мухйи" номи билан 11 нусхаси мавжуд. Улар қуйидаги рақамлар остида сақланмоқда: 7321, 3337, 7015, 3876, 3393, 1049, 7498, 682, 676, 5646, 919, 1044.

Asar fors tilida Muhyi taxallusi bilan bitilgan g'azallardan tarkib topgan.¹ Fazallarning mavzusi orifona, oshiqona bo'lib, unda qiyomat, savob, gunoh, jannat, do'zax kabi tushunchalar izohi istiora va o'xshatishlar orqali ifodalangan. Asar oxirida qodiriya tariqatining mashhur marosimlaridan biri "Xatmi yozdahum"ning² qoidasi berilgan.

5. "Sirr ul-asror fima yahtaju ilayhil-abror" [10.224]. ("Aziz va pok kishilar toifasining ehtiyojlariga atalgan sirlarning siri"). Asarda inson hayotida vujud pokligi bilan birga qalb pokligi masalasiga alohida e'tibor beriladi. Musulmonlar uchun farz bo'lgan Haj ziyorati bandani gunohlaridan poklanishiga sabab bo'lsa, uning qalbi uchun muhim bo'lgan shart sifatida tariqatdagi Haj bayoni xususida qimmatli fikrlar bildirilgan.

Mazkur asar muqaddima va 24 fasldan iborat bo'lib, tasavvuf va hayot, unga amal qilish va bu yo'lga mansub kishining ruhoniyyati, ahamiyat berishi kerak bo'lgan jihatlarga to'xtalgan. Asar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, unda falsafaning asosiy kategoriyasi borliq, inson borlig'i, bilish falsafasi, ilmlar va ularning tasnifi batafsil bayon etilgan. Unda juda ko'plab oyat va hadislar keltirilgan.

6. "Maktuboti Giyloniy". Ushbu asar "Sirr ul-asror"ning mantiqiy davomidir. Giyloniyning «Maktuboti Giyloniy» asari maktublardan iborat bulib, u boblarga, boblar fasllarga, fasllar esa naqlarga bo'linadi.³

«Maktuboti Giyloniy» asari hanuzgacha kimga atalgani haqida ma'lumot yo'q. Faqat ayrim ma'lumotlarga ko'ra Ahmad Rifo'iyga yozilganligi taxmin etiladi. Lekin bu asardagi istalgan bir maktubni o'qigan kishi uni bir kishiga emas, balki butun insoniyatga qarata yozilgan bo'lib, ya'ni, shu insoniyatni yaxshilikka, ezgulikka da'vat etayotganini ilg'ashi mushkul emas.

7. "Hizb ul-faxr-il-kabir-bil-Jilani" (Jiloniyning faxrli buyuk hizbi). Sharqshunoslik instituti arab qo'l-yozmalari fondida (Moskvadagi FA bo'limida) shu nomli asar mavjud bo'lib, u 3523-raqami ostida saqlanayotganligi haqida ma'lumot berilgan [12.176].

8. "Avrodi Shayxi Abdulqodiri Jiloniy".⁴ Haqiqat darajasiga yuksalgan shayxlar o'z muridlariga ilohiy fayzlarni qabul qilish yo'llarini o'z avrodlari orqali ochib berganlar.

Qodiriya ta'limotining asoschisi Sayyid Abdulqodir Giyloniy (1079–1165) ma'naviy merosida Devoni G'avsul A'zam asari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, komil insonni tarbiyalashga pozitiv ta'sir ko'rsatuvchi irfoniy-falsafiy g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishda muhim ilmiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganimizda:

– Abdulqodir Giyloniy tasavvuf ta'limotini mukammal o'zlashtirgan XI–XII asrda ma'lum va mashhur bo'lgan shaxsdir.

– Abdulqodir Giyloniy qodiriya deb nomlangan tasavvufiy ta'limot va tariqatning asoschisidir.

– Abdulqodir Giyloniy qoldirgan boy ma'naviy merosi diniy-falsafiy ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli falsafa tarixi sohasida muhim manbalar sanaladi.

¹ Ushbu asarning tarjimasini amalga oshirdik. Qarang: Fazaliyot. Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Tarjimon G. Yunusova. Toshkent, "Mumtoz s'uz", 2018.

² U'n birinchi xatm, ya'ni har o'ining u'n birinchi kundan to' yigirma birinchi kunigacha utkaziladigan marosim (izox – Yu.G.).

³ Ushbu asarning fors tilidan tarjimasi filolog olim O. J'uraboev tomonidan amalga oshirilgan va bu haqda "Imom al-Buxoriy saboklari" jurnalining 2002 yil 4-sonida ma'lumot berilgan. 2005 yil "Movaroouna'hr" nashriyatidan nashrdan chiqdi. U'zR FA xuzuridagi Abu Rayxon Beruniy nomiдаги Шарқшunoslik instituti q'ul-ёzmalар fondida "Maktuboti Giyloniy" asarining 2 nusxasi mavjud. Ular 10772, 2093-raqamlar ostida saqlanmoqda.

⁴ Ushbu asarning matni "Avrod va vazoif" toshbosma asaridan olingan. Bu asar nusxasi Buxoro shaxridagi "Piri Dastgir" masjidi imomi Jonmuhammad Gulov shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda. Asarni biz imkon darajasida arab tilidan tarjima qildik. U'zR FA xuzuridagi Abu Rayxon Beruniy nomiдаги Шарқшunoslik instituti q'ulёzmalар fondida "Avrodi Shayx Abdulqodir Jiloniy" 4 nusxada saqlangan. Bu asar nusxasi Санкт-Петербургда хам mavjudligini B.Холидов ёzган. Unda berilgan ma'lumotga k'ra, 3445-raqami ostida saqlanaётган asarning t'uliq nomi "Al avrod ul-usbu'iyā – Abdulqodir Giloniy". "Abdulqodir Giyloniyning haftalik viridlari" sifatida berilgan.

Saydaliyeva Feruza Xayritdinovna (Nizomiy nomidagi TDPU “Matematika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti),

Yusupova Sanobar Xasanovna (Nizomiy nomidagi TDPU “Matematika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi)

MAKTAB GEOMETRIYASINI O‘QITISH JARAYONIDA AMALIY-TATBIQIY MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH

Аnnotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab geometriyasini o‘qitish jarayonida amaliy xarakterli masalalarni yechishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiribgina qolmay, ularning tadbiqiy ko‘nikmalarini shakllantirish ko‘rsatilgan. Bunda hayotiy masalalardan bir nechtasini yechish yo‘llari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье показано повышение познавательного интереса и формирование прикладных умений учащихся общеобразовательных школ в процессе обучения геометрии, путем использования задач практического содержания. Здесь приводятся пути решения нескольких жизненных задач.

Annotation. This article shows the increase in cognitive interest and the formation of applied skills of students of secondary schools in the process of teaching geometry, through the use of tasks of practical content. Here are ways to solve several life problems.

Kalit so‘zlar: amaliy masala, hayotiy tasavvur, matematik tushuncha.

Ключевые слова: практические задачи, жизненные представления, математическая концепция.

Key words: practical tasks, imagination of life, mathematical concept.

Matematika – o‘quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, matematik tushuncha va munosabatlarni ular tomonidan ongli o‘zlashtirilishiga hamda hayotga tatbiq eta olishiga erishishga o‘rgatadi. Geometriyaning amaliy masalalarini hal qilishga tatbiq qilinishi g‘oyat katta ahamiyatga ega. Sistemali ravishda masalalar yechib borish nazariyani ongli va puxta o‘zlashtirishga yordam beradi, uning amaliy qiymatini ko‘rsatadi, shu bilan birga, masala yechish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, ijodiy tashabbuskorligini, fahm-farosatini tarbiyalaydi hamda ularga bir qancha zarur amaliy mahorat va malakalar beradi [2]. Matematik ta’lim jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qo‘llanib kelinmoqda. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o‘rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o‘rganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi.


2. Matematika fanini o‘rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani o‘rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi [4].


Geometriya fanini o‘qitishda amaliy-tadbiqiy masalalardan foydalanish o‘quvchilarni fanga qiziqishini orttiradi. Biz quyida shunday masalalardan bir nechtasini yechishlari bilan ko‘rsatamiz.

1-masala. 1-rasm quduq va obikash berilgan bo‘lib, obikashning kichik yelkasi – 2 m, katta yelkasi – 3 m. Kichik yelkasi yerdan 0.8 m balandlikda bo‘lganda, katta yelkasi qancha ko‘tariladi?

Yechish: “Obikashli” quduq chizmasini ko‘rib chiqaylik, obikashning kichik yelkasi 0.8 m ko‘tarilgan-da:



1-rasm.




2-rasm.

Obikashning uchlari boshlang'ich holatini A va B , so'nggi holatini esa A' va B' deb belgilaymiz. Biz OAA' va $OB B'$ o'xshash uchburchaklarga ega bo'lamiz. Bundan quyidagi munosabat kelib chiqadi: $\frac{AA'}{BB'} = \frac{OA}{OB}$

$AA' = 0.8$ m, $OA = 2$ m, $OB = 3$ m berilganlardan $BB' = \frac{AA' \cdot OB}{OA} = \frac{0.8 \cdot 3}{2} = 1.2$ m kelib chiqadi.

2-masala. Asoslari to'g'ri chiziqda yotgan uchta ustunga og'ma tom o'rnatilgan. O'rta ustun asosi kichik va katta ustunlar asosidan bir xil masofada joylashgan. Agar kichik ustun uzunligi 1.9 m, katta ustun uzunligi 2.9 m. O'rta ustun uzunligini toping.




3-rasm.

Yechish: e'tibor bersak, bu yerda kichik va katta ustunlar, tom va yer sathi trapetsiya shakllarini, o'rta ustun esa trapetsiyaning o'rta chizig'ini beradi. Chunki u ikkita asosga parallel bo'lib, trapetsiyaning yon tomonining o'rtasidan o'tgan. Shuning uchun ushbu trapetsiya o'rta chizig'ining uzunligi kichik va katta ustunlari yig'indisining yarmiga tengdir:


$$\frac{1.9 + 2.9}{2} = 2.4 \text{ m}$$

3-masala. 4-rasmda balandligi 5.1 m bo'lgan ustunga fanar osilgan bo'lib, bo'yi 1.7 m bo'lgan odam 10 m uzoqlikda turibdi. Odam soyasining uzunligini toping.



4-rasm.

Yechish: odam bo'yini BC va ustun asosini C' , uchini B' deb belgilash kiritamiz




5-rasm.

$B'C' = 5,1 \text{ m}$ $BC = 1,7 \text{ m}$ va A nuqta esa soyaning uchi, u holda quyidagi uchburchaklar hosil bo'ladi: $\triangle ABC$ va $\triangle AB'C'$. Odam soyasining uzunligi AC . Demak, $\frac{AC}{AC'} = \frac{BC}{B'C'} \Rightarrow \frac{AC}{10+AC} = \frac{1,7}{5,1} \Rightarrow AC = 5 \text{ m}$

Javob: odam soyasining uzunligi 5 m ekan.

4-masala. Proyektordan 160 sm uzoqlikda joylashgan 300 sm balandlikdagi B ekranni to'liq yoritaypti. Projektorning sozlamasini o'zgartirmagan holda, u to'liq yoritilishi uchun 360 sm balandlikdagi A ekranni projektordan qanday eng kichik masofada joylashtirish kerak.



6-rasm.

Yechish: projektordan ekrangacha bo'lgan masofa bu ekranning o'rtasiga tushgan perpendikulyardir. Demak ikkita to'g'ri burchakli $\triangle DFN$ va $\triangle DLM$ hosil bo'ladi.

$\triangle DEN$ va $\triangle DKM$ uchburchaklar teng yonlidir, bundan $FN = \frac{1}{2}EN = 40 \text{ sm}$, $LM = \frac{1}{2}KM = 80 \text{ sm}$ va $DL = 300 \text{ sm}$. DFN va DLM uchburchaklarning asos burchaklari o'xshashligidan $\frac{DF}{DL} = \frac{FN}{LM}$ kelib chiqadi. Demak, $DF = \frac{FN}{LM} \cdot DL = \frac{40 \cdot 300}{80} = 150 \text{ sm}$.

Javob: 150 sm

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim maktab geometriyasini o'qitish jarayonida amaliy xarakterdagi masalalar yechish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiribgina qolmay ularning tadbqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Geometrik masalalarni yechish jarayonida har bir berilayotgan masalani elementlarga ajratish jarayonida erinmasdan puxta o'rgatish natijasida o'quvchilarning geometrik tushuncha va faktlarni, matnda yoki chizmada tasvirlangan hamma elementlarni mustaqil ajrata olishga erishiladi. Yuqoridagi ko'rsatilgan masalalar va savollardan foydalangan holda o'tiladigan har qanday darslar o'quvchilarning ko'proq bilim olishga yordam beradi. Mustahkam bilim esa kelajak poydevori hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, agar o'quvchilarga bir fanni o'rgatish jarayonida uni hayotga bog'lab o'rgatilsa, o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda ko'proq bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Преподавание алгебры и геометрии в школе. Пособие для учителей. О.А.Боковнев. М., "Просвещение", 1982, 223 с.
2. Сайдалиева Ф.Х. Методика развития геометрических умений и навыков учащихся общеобразовательных школ (методическое пособие). Ташкент, 2006, с. 58 – 60.

3. Пышкало А.М. Методика обучения элементам геометрии в начальных классах.
4. Алихонов С. Математика ўқитиш методикаси. Тошкент, 2002.
5. В.Хайдаров, Е.Сариқов, А.Қо‘чқоров. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, T., 2019.

**Iskandarova Aybibi Raximbayeva (O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya, fanlari nomzodi;
e-mail: oybibiiskandarova26@gmail.com)**

**“O‘ZBEK TILI” DARSIDA “ADABIYOT–MA’NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA”.
“BADIY TASVIR VOSITALARI” MAVZUSINI O‘TISHGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik oliy o‘quv yurtlarida “O‘zbek tili” fanidan rusiyzabon guruh talabalarining davlat tiliga bo‘lgan muhabbati hamda ularning so‘z boyligini oshirishda “Konseptual jadval”, “FSMU” kabi pedagogik texnologiyalar samarasi haqida so‘z boradi. Mumtoz adabiyotimiz g‘azallarini yod olib, tahlil qilish jarayonida, talabalarda o‘zbek adabiy tili jozibasini his qilish imkoni yaratiladi, so‘zga mehr uyg‘onadi, ularning badiiy didi shakllanadi.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о любви студентов русскоязычных групп к предмету “узбекский язык” в технических вузах, к государственному языку, а также о плюсах таких педагогических технологий, как “концептуальное расписание”, “FSMU” в увеличении их словарного запаса. В процессе запоминания и анализа Газелей нашей классической литературы у студентов появляется возможность ощутить очарование узбекского литературного языка, пробуждается любовь к слову, формируется их художественный вкус.

Annotation. This article will focus on the love of students of Russian-speaking groups in the subject “Uzbek language” in technical universities for the state language, as well as the advantages of such pedagogical technologies as “conceptual schedule”, “FSMU” in increasing their vocabulary. In the process of memorizing and analyzing the Gazelles of our classical literature, students have the opportunity to feel the charm of the Uzbek literary language, their love for the word awakens, their artistic taste is formed.

Kalit so‘zlar: poetik so‘z, tanosib, husni ta’lil, tashbih, tazod, tashxis, badiiy did.

Ключевые слова: поэтическое слово, пропорция, описание красоты, сравнение, тазод, диагноз, художественный вкус.

Key words: poetic word, tanosib, husni ta’lil, tasbih, tazad, tashxis, artistic taste.

Kirish. Milliy-ma’naviy taraqqiyotimizning o‘zagi bo‘lgan til va adabiyotni keng miqyosda hayotga tatbiq etish ehtiyoj va zaruratga aylanmoqda. Bu esa ta’lim jarayoniga til va adabiyot o‘qitish bilan bog‘liq zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish mexanizmini yanada mukammallashtirish talabini qo‘ymoqda.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri shoir va adib, adabiyotshunos va muarrix, elshunos va mutarjim Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning badiiy merosida ikki yuzga yaqin g‘azallari bor. Milliy o‘zlik, inson erki, Vatan qadri kabi tushunchalarni yosh avlodga singdirishda Furqat ijodi hayotiy manbadir.

Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh “Badiiy tahlil asoslari” kitobida quyidagi fikrni ta’kidlaydilar: “Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra, badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘qirman tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. Hayotda mavjud, ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlar borliqqa ta’sir qilolmagan kabi his etilmagan, anglanmagan go‘zallik ham shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish, ya’ni, badiiy asar o‘qitish orqali yoshlarda ezgu-ma’naviyat hamda yuksak did shakllantirish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallagan bo‘lishi shartdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yetuk badiiy matnlarning ko‘pchilik tomonidan to‘la anglanishiga erishmay tirib, biror jamiyat miqyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir” (2.12). Pedagog darsda rusiyzabon guruh talabalariga “FSMU” texnologiyasi asosida “Fasli navbahor o‘ldi” g‘azali sizga qanday ruhiy quvvat berdi? Bu g‘azalning sehri nimada? Tabiat tasviriga bag‘ishlangan yana qanday she’r va g‘azallarni bilasiz? kabi savollar bilan murojaat qiladi. “O‘zbek tili” fan dasturida adabiyot bilan bog‘liq “Adabiyot–ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba. Badiiy tasvir vositalari” kabi nutqiy mavzular, mustaqil ta’limda esa “Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta’siri”, “Kitob mutolaasi” kabi mavzular berilgan.

“O‘zbek tili” fan dasturida talabalarining nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy talablardan biri sifatida belgilangan. Talabalarining “G‘azalning ruhiy quvvati” mavzusidagi yaratgan essesi ularda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Furqatning “Fasli navbahor o’ldi, ketibon zimistonlar” g’azali tabiat lirikasining go’zal namunasi. Gazal 8 baytdan iborat, so’zlar nafis va ohorli.

Birinci baytda shoir bahor kelib, zimistonlar chekingan paytda do’stlarni gulistonlarda sayr etishga chaqiradi. G’azalda guliston va zimiston so’zlari orasidagi ziddiyat – tazod san’ati (guliston–bahor, zimiston–qish) yaratilgan.

*Fasli navbahor o’ldi ketibon zimistonlar,
Do’stlar, g’animatdur, sayr eting gulistonlar.*

Keyingi baytda shoir bahor faslining dilga huzur bag’ishlaydigan “erkaliklarini” quyidagicha chizadi:

*Subhidam tushib shabnam, bo’ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog’di abri naysonlar.*

Bu baytda *shabnam, xurram, kam-kam* so’zlari ohangdosh bo’lib, ichki qofiya san’ati – musajjani yaratgan (Subhidam – tong, sabzalar – o’t-o’lanlar, abri naysonlar – yomg’ir).

Shoir quyidagi baytda nastarinning yuzini yuvib, nargisning ko’zini ochib intizori yoronlarni kutish holatini–jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko’chirish san’ati – tashxis orqali tasvir etgan (Nastaran – oq, qizil rangli, xushbo’y guli bo’lgan o’simlik; yosumon – xushbo’y oq, sariq, moviy to’p gulli manzarali buta; nargis–oq yoki sariq gulli o’simlik):

*Nastaran yuvib yuzni, yosumon to’zib o’zni,
Nargis ochibon ko’zni intizori yoronlar.*

G’azalning beshinchi baytida qo’llangan taqlidiy so’zlar satrga musiqiylik baxsh etgan, bu yaratilgan o’z-gacha ohanrabo bag’ishlagan:

*Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg’onlar.*

Bu baytda *qumri, bulbul, sarv, gul, oh-u afg’on* kabi bir-biri bilan mantiqiy bog’langan so’zlar orqali tanosib san’ati yaratilgan (sarv-badiiy adabiyotda go’zallik ramzi sanalib mashuqaning tik qomatiga ishora qiladi, oh-u afg’on – oshiqning nola chekishi, notinch bo’lishini anglatadi).

6-baytda husni ta’lil – chiroyli isbotlash, dalillash san’ati qo’llangan:

*Bulbul o’qug’och yig’lab, subhidam xazon faslin
G’uncha qon yutib, yuz chok etti gul giribonlar.*

Ya’ni, bulbul tong saharda xazon faslidan nola qilganini eshitgan g’uncha yoqasi-giribonini yirtadi, deyiladi g’azalda. G’unchaning ochilish jarayoni unga daxli bo’lmagan ana shu voqea bilan chiroyli isbotlangan. Ya’ni, bulbul nolasi, hazon faslidagi bu noladan g’unchaning yoqasini yirtishi (ochilish jarayoni) tasvirlangan. Bu voqealar bir-biriga bog’liq emas, lekin go’yo biri ikkinchisini taqozo qilganday, shoirona dalillangan.

8 baytli mazkur g’azalga 7-baytdan ijtimoiy ma’no kirib kela boshlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Akademik Aziz Qayumov Furqat lirikasi bo’yicha ayrim qaydlar va sharhlar bag’ishlangan “She’riyat jilolari” asarida shoirning tabiat tasviriga bag’ishlangan g’azallarida ijtimoiy ma’no kasb etish xususiyati haqida fikr bildirganlar. “Fasli navbahor o’ldi, ketibon zimistonlar” g’azalini tahlil etib, 5-bayt bilan bahor vasfi tugaydi. Shoir kitobxon diqqatini tabiat madhini yakunlab, jamiyat va shaxsga oid og’riqli muammolarga qaratadi.

*Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,
Kiydi ko’k qilib sunbul zulfini parishonlar.*

Ya’ni, vafo ahli dunyodan o’tib ketdi, ularga ko’zlagan maqsadlarini amalga oshirmoq nasib bo’lmadi. Vafo ahlining ketganidan qayg’uga tushgan sunbul ko’k kiyib, sochlarini parishon qildi. Vafo ahliga motam ochdi deya tahlil qiladilar: “Furqat o’z zamonasida yuz berayotgan ahvolni ko’rsatadi. Vafo ahlini xarob etuvchi, sunbullarni motamzadalarga aylantiruvchi sharoitni qoralaydi. Bunday ayblov she’ning oxirgi baytida o’zining yuqori darajasiga ko’tariladi:


*Kuymasin bu savdodin ne uchun dimog’imkim,
Ranj-u g’ussada dono, kechsa shod nodonlar!*

Bu o’sha zamonadagi adolatsizlik va nohaqlik, ularning hukmron ekanidan norozilik, donolarning ranj-u g’ussada, nodonlarning shodlikda vaqt o’tkazayotganliklariga – e’tiroz... Furqatning hassos qalbi tabiat go’zalligini chuqur sezar, xususan, navbahor navjuvonligidan g’oyat ilhom topar edi. Shoir ta’sirli misralarda bu fusunkor chiroy tasvirini yaratdi, uni ulug’ladi. Ammo bu go’zallik ijtimoiy hayotdagi badxo’likni yanada bo’rttirib ko’rsatar edi. Shuning uchun ham yil fasllaridagi tabiat tasviriga bag’ishlangan har bir she’rda Furqat ijtimoiy masalalarni ham ko’taradi. U nodonlar, johillar, didsiz badbinlar ustun bo’lgan davrni qoraladi, undan noroziligini baralla bildirdi. Yovuzlikka qarshi kurashdagi ojizlik va yakkalik shoir qalbida chuqur g’amgin-

likni vujudga keltirgan edi. Shu hazinlik Furqatning har bir she'ridagi kabi tabiat chiroyini kuylovchi she'rlarida ham o'z aksini topgan" (3.42).

Demak, Furqatning tabiat tasviriga bag'ishlangan g'azallarida ijtimoiy ma'no mavjud. Ya'ni, shoir she'rlarida erksizlik dardi isyon bilan birlashib ketadi, badiiy-hayotiy mazmunga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Pedagog dars jarayonida mavzuni yoritishda "Konseptual jadval" texnologiyasidan foydalanadi:



Konseptual jadval namunasi

	Tushunchalarga yondashuvlar	Tavsiflar	Misollar
1	G'azal	Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan she'r shakli. O'zbek adabiyotida XIV asrdan qo'llana boshlangan	
2	Matla'	G'azalning birinchi bayti (arabcha boshlanma)	
3	Maqta'	G'azalning oxirgi bayti. (arabcha tugallanma)	
4	Badiiy san'atlar	Timsollarning yorqin, hayotiy, ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladigan soz'lar, birikmalar	<i>Badiiy san'atlar ma'naviy va lafziy san'atlarga bo'linadi</i>
5	Tazod	Baytda poetik fikrni zid ma'noli so'zlar orqali ifodalaydigan lafziy san'at	<i>Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar, Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.</i>
6	Tashxis	Jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chiruvchi ma'naviy san'at	<i>Nastaran yuvib yuzni, yosumon to'zib o'zni, Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.</i>
7	Tanosub	Baytda bir biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning qo'llanilishi	<i>Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah, Sarv gul uza doim tortar oh-u afg'onlar</i>
8	Husni ta'lil	Baytda voqeani unga daxli bo'lmagan boshqa hodisa bilan chiroyli dalillash	<i>Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin,</i>

			<i>G'uncha qon yutib, yuz chok etti gul giribonlar</i>
9	Musajja'	Baytda qofiyadosh so'zlarning ketma-ket kelishi	<i>Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram, Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar</i>
10	Tashbih	O'xshatish ma'nosini ifodalaydigan ma'naviy san'at	<i>Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan, Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.</i>

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, badiiy asarlarning ijobiy energiyasini o'qir-manning o'ziga yuqumli qilishi uchun o'quv tahlili katta ahamiyatga egadir. Biz ma'naviyatga badiiy asar tahlili orqali boramiz. Zero, "Agar badiiy asarga mo'jizaviy bir daxlsiz butunlik tarzida yondashilmaydigan bo'lsa, uning sir-u jozibasi bir zumda yo'qqa chiqib, adabiy asar o'ziga xos ta'sir qudratidan tamomila mahrum bo'lishi mumkin. Tahlil qilinayotgan asarning barcha jihatiga birvarakayiga sinchkovlik bilan yondashib, butunning qismlaridagi jozibani kashf etishga e'tibor qaratish tahlilning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omildir" (2.57).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фуркат. Таъланган асарлар. I–II том, Т., 1960.
2. Қозокбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. Т., 2016, 306-бет.
3. Азиз Қаюмов. Шеърят жилolari. Т., 1997, 125-бет.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т., 2007.

**Qulmamatov Romazon Juma o'g'li (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti assistenti;
e-mail: ramazonqulmamatov@gmail.com)**

BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY SIFATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim yurtlaridagi bo'lajak muhandislarni kasbiy sifatlarini raqamlashtirish ta'lim texnologiyalari yordamida mustaqil ishlash jarayoniga tayyorlash. Bo'lajak muhandislarni intellektual qobiliyatlarini namoyon qilishda ularni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy sifatlarini boyitishga qaratilgan zamonaviy metodlari va ularga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish, o'ziga bo'lgan tashabbuskorlikni yanada oshirish mazmun-mohiyati ko'rsatilgan.

Аннотация. В статье речь идёт о подготовке будущих инженеров в высших учебных заведениях к процессу самостоятельной работы с использованием образовательных технологий оцифровки их профессиональных качеств. Показаны современные методы обучения будущих инженеров, направленные на обогащение их профессиональных качеств, связанных с применением их при проявлении интеллектуальных способностей, и дальнейшее повышение их интереса к ним, дальнейшее повышение самоэффективности.

Annotation. In this article, digitalization of professional qualities of future engineers in higher education institutions for independent work process using educational technologies. Modern methods aimed at enriching the professional qualities of future engineers, which are related to their application in the manifestation of their intellectual abilities, and the essence of increasing their interest in them and increasing their own initiative are shown.

Kalit so'zlar: rivojlantirish, muhandis, raqamlashtirish, oliy ta'lim, ta'lim, bo'lajak, kasbiy sifat, mustaqil ishlash, loyihalash, kompetentlik, intellektual, integratsiyalashuv, intellektual, ijodiy, kelajak, qobiliyat, samaradorlik.

Ключевые слова: разработка, инженер, оцифровка, высшее образование, образование, будущее, профессиональное качество, самостоятельная работа, дизайн, компетентность, интеллект, интеграция, интеллектуальность, креативность, будущее, способности, эффективность.

Key words: development, engineer, digitization, Higher education, education, future, professional quality, independent work, design, competence, intellectual, integration, intellectual, creative, future, ability, efficiency.

Kirish. Hozirda jahon miqyozida, qolaversa, respublikamizdagi taraqqiy etish davrida rivojlantirishda har bir sohani raqamlashtirish muhim rol tutadi, fan va texnika jadal suratlarda rivojlanib bormoqda, bu bora-

da jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli ko'rsatkichlar bilan yoritmasdan qoldirib bo'lmaydi. Buni, o'z navbatida, ilm-fanning yanada taraqqiy etayotganini bilishimiz mumkin. Bu borada respublikamizda ham oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi [1].

Bu borada oliy ta'lim muassasalari bo'lajak muhandislarni kasbiy sifatlarini oshirishga bo'lgan ishlarni raqamlashtirish jarayonini ta'lim tizimida hal qilish maqsadida professor-o'qituvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni va ularning o'quv jarayonini takomillashtirishda amalga oshirish uchun raqamlashtirish ta'lim texnologiyalardan foydalanish orqali mutaxassislarining kasbiy sifatlarini yanada oshirish nazarda tutadi.

Raqamlashtirish ta'lim shaklida muhandislarning kasbiy sifatlarini oshirish maqsadida yuqori ehtiyoj mavjud bo'lgan ayni paytda texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim yurtlarida raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy sifatlarini kompetensiyasini takomillashtirish zaruriyat yuzaga keladi. Jahon oliy ta'lim yurtlarining texnik-texnologik innovatsiyalar bozorini rivojlanishi muhandislardan o'z kasbiy sifatlarini yuqori texnologiyalari yordamida amalga oshirish qobiliyatini talab qiladi, bunda muhandislik ta'limi tizimini yangi bosqichda modernizatsiya qilish vazifalarini qiyinlashtiradi. Hozirda mehnat bozorida bo'lgan talab uchun muayyan kasbiy bilim va ko'nikma, malaka va kasbiy mahoratlariga ega bitiruvchilarimiz kamdan kam. Muhandislik fanlarini o'qitishda kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi masala ko'p ko'rilmogda. Kompetentlik (ingl. "competence" – "qobiliyat") – dars faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy sifat, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir [3].


Kasbiy kompetentlik – o'qituvchi va mutaxassis tomonidan kasbiy sifatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikma egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisobga olib bunga misol tariqasida kasbini yaxshi bilishi uchun yangi elektron dasturlar, elektron darsliklar, mediatilim va virtual qo'llanmalar bilan dars jaryonlarini o'tkazish. Kasbiy sifatlarini namoyon qilishda mutaxassis tomonidan alohida bilim va ko'nikmalarini egallanishda emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini hisobga oladi [6]. Shu bilan birga, bo'lajak muhandislarning kasbiy sifatlarini bilishida talabalar muhandislik fanlarini yuqori bilim egallashlari kerak bo'ladi, yo'l muhandisligini ta'lim yo'nalishi bo'lajak muhandislarini olib qaraydigan bo'lsak mutaxassislik fan sifatida "Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlar" fanini bilim va ko'nikmalarini oshirishda fanning juda qiyin va murakkab ekanligini hisobga olib bu fanni qismlarga ajratib bo'lajak muhandislarni fanni o'rganishda osonlashtirish maqsadli bo'ladi. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim muhitida AKTdan foydalanish masalalarini yetarlicha nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish bilan masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak muhandisning asosiy kasbiy sifatlarini shakllantirish muammosi bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borishga to'g'ri keladi. Oliy ta'lim yurtlari ichida texnik-texnologiya ta'lim tizimidagi tadqiqotlar va sinov tajribasi bir qator qarama-qarshiliklarni shakllantirishda maqsadga muvofiq [3.4]:

- bo'lajak muhandislarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish zarurati, ular orasida asosiy mutaxassislik bilimini oshirish uchun xizmat qiladigan yangi elektron darsliklar va dasturlar ishlab chiqilmaganligi;
- oliy ta'lim jarayonida raqamlashtirish bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda mavjud tizimiga nazariy va uslubiy yechimlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- muhandislik sohalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha mexanizmining nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqilmaganligi.

Muhandislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirish ta'lim muhitida muhandislarning kasbiy sifatlarini shakllantirishga nazariy, uslubiy va tajribalar o'tkazish orqali yondashish lozim bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta'lim muassasalarida raqamli elektron ta'lim bilan talabalarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish, talabalarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo'lib, ularda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining didaktik ta'minotini ishlab chiqish va joriy etishga ko'proq e'tibor qaratish kerak, bu esa oliy ta'lim muassasalari talabalarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish, bu bilan erkin tarbiyani anglash davri bo'lib, unda kompyuterli ta'lim jarayonida raqamli elektron dasturlar bilan ishlashda talabalarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish g'oyalarini tizimli amalga oshirish darajasiga yetkazishi mumkin bo'lgan tadqiqot dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Hozirda raqamlashtirish ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya muhitining mazmuni, mashg'ulotlarni o'qitish jarayoniga o'quv materiallarini

taqdim etish yangi metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va o'quv jarayonida talaba (tinglovchilari) uchun bilimga ega bo'lish faoliyati erkinligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim muhitini raqamlashtirishda innovatsion metod sxemasi.

Raqamlashtirish ta'lim muhitini takomillashtirish uchun mediao'qitish metodi, o'quv materiallari va o'quv jarayonlarini elektron darsliklar bilan qo'llash samarali hisoblanadi, quyidagilar mediata'lim metodi orqali raqamlashtirish modelini yaratishga imkon bo'ladi:

- birinchi bo'lib medianing mazmunini tahlil qilish. Bunda televideniya, filmlar, ko'rsatuvlar yoki gazetadagi maqolalar tizimli ravishda tahlil qilinib, jamiyat hayotida dolzarblik kasb etadigan mavzular, an'analar, muammolar va rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi;

- ikkinchi bo'lib tanqidiy nutq tahlili, mediamazmuniga singdirilgan g'oyalar va turli guruhlarning qiziqishini raqamli qo'llanilgan ma'lumotlarni bayon qilishda uning pazitiv o'rnini tanqidiy tahlil qilish tavsif etadi;

- uchinchi bo'lib etnografiya. Bunda talabalar mediamanbalarni qabul qilish, anglash va mohiyatini tushunishini o'rganuvchi metodi hisoblanib, suhbat, kuzatish va boshqa kvalitatif metodlar qo'llanilib boyitiladi.

- to'rtinchi bo'lib tarixiy tahlil. Bunda medialarni artefakt sifatida qarab, ma'lum bir vaqtdagi jamiyat talablari va madaniy qadriyatlarni taqqoslab o'rgatadi.

- beshinchi bo'lib tarmoqlararo bog'liqlik. Bunda medialararo bog'liqlik, taqdim etishdagi ustuvor yo'nalishlari o'rganiladi [5].

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak muhandislarni yetuk kadr sifatida har qanday dolzarb lohiyalarni taqdim etishdami yoki innovatsion qurilish ishlarini olib borishdami o'ziga xos qiyinchiliklar duch keladi, albatta, shu sababli muhandislik inshootlarini yaratishda esa inson omili bilan bajarib bo'lmaydigan yoki bajarish iloji topilsaki, unga ketgan vaqt va sarmoya ko'p talab qiladigan murakkab loyihalarni yechimini topishda, albatta, raqamli modulini yaratish kerak bo'ladi. Muhandislarni bu qiyin vaziyatlardan oqilona qaror chiqarishlari uchun soha bo'yicha virtual olamga va tasavvurlarga ega bo'lishi kerak, albatta. Shu boisdan aytish kerakki, hozirgi vaqtda muhandislarni nazariy va amaliy bilimlari bilan bir qatorda, egallagan mutaxassisliklari bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, mavjud vaziyat yuzasidan ijodiy yondasha oladigan bo'lishlari uchun kasbiy sifatlarini raqamlashtirish orqali amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent, 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 24.12.2021-yildagi PQ-60-sonli qarori.
3. Бурханова Ш., Бурханов Ш., & Куланов И. (2023). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), с. 134 – 137.
4. Xodjaboyev A., Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T., "Fan va texnologiyalar", 2007.
5. Umarov Azizbek Vahobovich. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muhandis-pedagoglarning media-madaniyatini rivojlantirishning amaliy mexanizmi. Замонавий таълим. Современное образование, 2023, 7 (128).
6. Avazov J.D. Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligining takomillashtirishning tasnifiy shakllari. "Ilm sarchashmalari", Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali, 2021, 12-son.

Tursunov Qahor Shonazarovich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti professori),

Egamberdiyeva Ozoda Shuhrat qizi (Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti)

UZLUKSIZ FIZIKA TA'LIMIDA NAZARIY METODLAR ASOSIDA TEBRANISHLARNI O'RGANISH

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz fizika ta'limida tebranma va to'liq jarayonlarni bayon qilishda fizikaning fundamental nazariyalar asosidagi, mexanik, tovush, elektromagnit, optik tebranish va to'liqlarga doir siljish, amplituda, faza, rezonans, davr, chastota, tebranish energiyasi kabi tushunchalarning fizik mazmuni analitik, grafik, vektor va spektral metodlar asosida ochib berilgan.

Аннотация. В статье описаны вибрационные и волновые процессы в непрерывном физическом образовании, основанном на фундаментальных теориях физики. Физическое содержание таких понятий, как смещение, амплитуда, фаза, резонанс, период, частота, энергия вибрации, относящиеся к механическим, звуковым, электромагнитным, оптическим колебаниям и волнам, раскрываются на основе аналитических, графических, векторных и спектральных методов.

Annotation. In the article, when describing vibration and wave processes in continuous physical education, based on fundamental theories of physics, The physical content of such concepts as displacement, amplitude, phase, resonance, period, frequency, vibration energy related to mechanical, sound, electromagnetic, optical vibrations and waves is revealed on the basis of analytical, graphic, vector and spectral methods.

Kalit so'zlar: analitik, grafik, vektor, spektral, siljishi, amplituda, chastota, faza, rezonans, davr, tebranish energiyasi, tezligi, tezlanishi, chiziqli spektr, tutash spektr, garmonik, sinusoidal, tovush generatori.

Ключевые слова: аналитический, графический, векторный, спектральный, смещение, амплитуда, частота, фаза, резонанс, период, энергия вибрации, скорость, ускорение, линейный спектр, непрерывный спектр, гармонический, синусоидальный, звуковой генератор.

Key words: analytical, graphic, vector, spectral, displacement, amplitude, frequency, phase, resonance, period, vibration energy, speed, acceleration, linear spectrum, continuous spectrum, harmonic, sinusoidal, sound generator.

Tabiatiga ko'ra, turlicha bo'lgan tebranish va to'liqlik jarayonlarning fizika kursining bir bo'limiga birlashtirish vaqtini birmuncha tejaydi va ularning davriylik, energiyaning aylanishi, tebranishlarni elastiklik muhit yoki elektromagnit maydon orqali uzatilishi kabi, umumiy xossalarni chuqurroq ta'kidlashga imkon beradi.

Tebranish va to'liqlik jarayonlarning asosiy masalalaridan biri tebranma harakatlarning tasvirlanish metodlarini o'rganishdir. Lekin hozirgi vaqtdagi foydalanib kelayotgan o'quv darsliklarning [1.2.3] asosiy kamchiliklaridan biri – bunda tebranma jarayonlarning tavsiflanish metodlari (analitik, vektor, grafik, spektral) haqidagi o'quv materiallarning juda kam berilishidir.

Uzluksiz fizika ta'limida tebranma va to'liqlik jarayonlarning tavsiflash metodlarini o'rganish zarurati, dastavval, pedagogik mulohazalar bilan bog'liqdir. Tebranishlarning tavsiflash metodlarini o'rganmay turib, "Erkin va majburiy elektromagnit tebranishlar", "O'zgaruvchan tok generatori", "O'zgaruvchan tok hosil qilish" kabi bir qator mavzularni o'quvchilarga tushuntirish juda qiyin. Radiofizikaning ko'pgina amaliy qo'llanishi tamomila tebranishlarning murakkab ko'rinishlariga asoslangan [4]. Tebranishlarni tavsiflash metodlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadigan ikkinchi dalil shuki, bu o'quv materialni o'rganish, mexanik, tovush, elektromagnit, optik tebranish va to'liqlarga doir siljish, amplituda, faza, rezonans, davr, chastota, tebranish energiyasi kabi tushunchalarning fizik mazmunini ochib berishda juda zarurdir. Demak, tebranishlarning tavsiflanishi haqida qanday bilimlarni o'quvchilarga berish mumkin degan savol tug'iladi. Kursning mantiqiy tah-

lili va pedagogik mulohazalar asosida akademik litsey o'quvchilariga o'zimiz tayyorlagan va litsey laboratoriya xonasida mavjud bo'lgan fizik asboblardan yordamida fizik demonstratsiyalar ko'rsatish bilan quyidagi tushunchalarni tavsiya qilamiz [5].


Ma'lumki, tebranma harakatlarni to'rt xil, ya'ni, analitik, grafik, vektor va spektral metod bilan tasvirlash mumkin.

1. Analitik metod. Analitik metod o'zining ko'rsatmaliligi bilan boshqa metodlardan tubdan farq qiladi. Tebranma harakatning tenglamasidan uning siljishi, amplitudasi, chastotasi, fazasi, davri, tebranish energiyasi, tezligi, tezlanishi kabi kattaliklarning son qiymatlari aniqlanadi.

Dars analitik metodga ta'rif berishdan boshlanadi. O'qituvchi bu metodga quyidagicha ta'rif beradi: tebranma harakatning hamma parametrlarini uning formulasidan hisoblab topish analitik metod deb yuritiladi. O'qituvchi bu ta'rifni quyidagi misollar bilan asoslaydi.

a) garmonik tebranishlar. Garmonik tebranishlarni tushuntirish ketma-ketligi fizika o'quv darsliklari va qo'llanmalarida batafsil yoritilgan;

b) pulsirlangan tebranish. Pulsirlangan tebranishning to'g'ridan to'g'ri formulasini yozishdan oldin o'qituvchi uni tajribada ko'rsatadi. Buning uchun 1-rasmda ko'rsatilgan sxemani D7J dioddan va 1 kΩ li rezistordan foydalanib yig'iladi. Sxemaning kirish klemmasiga tovush generatoridan signal beriladi. Chiqish klemmasi ossillografning "u" va "umum" klemmalariga ulanib, ekranda pulsirlangan tebranishni o'quvchilarga namoyish etiladi. So'ng o'quvchilar e'tiborini zanjirda bo'ladigan jarayonlarni tushunishga tortiladi.



1-rasm. Pulsirlangan tebranishlar olish sxemasi.

Diode klemmalarida kuchlanish garmonik tebranish qonuniyatiga mos ravishda o'zgarib turadi. Masalan, klemmaga $u = u_m \cos \omega \cdot t$ signal berilsa, uning o'zgarishi garmonik bo'lib, tok kuchining o'zgarishi esa bu qonundan chetlashadi yoki sinusoidal qonunga bo'ysunmaydi, ya'ni murakkab tebranishlar hosil bo'ladi.

Dioddan o'tuvchi tok kuchining tebranishlari analitik holda quyidagicha yoziladi:

$$i = J_0 + au + bu^2 + cu^3 + \dots$$

bu yerda


$$u = u_m \cos \omega \cdot t$$

yoki

$$i = J_0 + au_m \cos \omega \cdot t + bu_m^2 \cos^2 \omega t + cu_m^3 \cos^3 \omega t + \dots$$

d) "Arrasimon" tebranish. "Arrasimon" tebranishlarni 2-rasmda tasvirlangan sxema bo'yicha tajribada ko'rsatiladi. Chunki fizika darsligida "arrasimon" kuchlanish haqida gap boradi-yu, uni ossillograf ekranida kuzatishga doir hech narsa deyilmaydi. Vaholanki, bu tebranish hosil bo'ladigan zanjir bir qator diod va stabilitronlardan tuzilgan. Zanjirdagi bo'ladigan fizik jarayonlarni o'rganish o'quvchilarning bilim saviyalarini kengaytiradi. O'qituvchi tajribani quyidagicha tushuntirish lozim:

Stabilitron D_1 va qarshilik R_1 yordamida tovush generatoridan olingan kuchlanish amplitudasi 8 – 10 volt bo'lgan II shaklli tebranishga aylantiriladi.




2-rasm. "Arrasimon" tebranishlarni hosil qilish sxemasi.

Bu kuchlanish C_1R_2 zanjirga o'tganda, zanjirda qisqa davrli impulslar hosil bo'ladi. Bu kuchlanish C_2 kondensatorni zaryadlaydi. C_2 kondensator R_3 qarshilik orqali zaryadsizlanib turadi. Diod D_2 , C_1R_2 zanjirdagi impulsning o'tishini sekinlashtiradi. Natijada C_2 kondensatorida zaryad to'planishi ma'lum bir vaqtga cho'ziladi. C_2 kondensator zaryadlanib bo'lgandan so'ng R_3 qarshilik uni zaryadsizlantiradi. Bu jarayon teng vaqtlar davomida tak-

rorlanib turadi. Bu jarayonni kuchlanishning “arrasimon” tebranishlari deb yuritiladi. Buning analitik ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$u(t) = 2u \left[\sin \omega t + \frac{1}{2} \sin 2\omega t + \dots + (-1)^{n-1} \frac{1}{n} \sin \cdot n\omega t + \dots \right]$$



3-rasm. “II” shaklli tebranishlarni olish qurilmasi.

Tajriba uchun sig‘im, qarshilik diodlarni: $R_1 = 160\Omega$, $R_2 = 100\Omega$, $R_3 = 1k\Omega$, $C_1 = 0,1\mu F$, $C_2 = 1\mu F$, $D_1 = 817G$, $D_2 = D7J$ kattaliklarda olishni tavsiya etamiz;

g) “II” shaklli tebranish. “II” shaklli tebranishlarni $D - 817G$ markali yarim o‘tkazgichli bunday rostlovchi qurilmadan foydalanib, (3-rasm) kuzatishimiz mumkin.


Tovush generatoridan olinadigan kuchlanish R qarshilik orqali rostlovchi qurilmalarga o‘tadi. D_1 rost-

lovchi kuchlanishning yarim tebranishlarini to‘liq kesadi va o‘zidan o‘tgan tebranishlarning amplitudalarini eng yuqori qiymatida rostlaydi. Generator yordamida rostlovchi D_2 zanjirga teskari yo‘nalishda ulanganligi uchun zanjirning chiqish klemmlarida “II” shaklli impulslar hosil bo‘ladi.

Asboblarni tayyorlashda $D - 817G$ markali yarim o‘tkazgichli rostlovchi qurilmalardan va 80Ω li qarshiliklardan foydalaniladi. Hosil qilinadigan “II” shaklli tebranishlar amplituda va chastotalari qiymati tovush generatoridan beriladigan tebranish amplituda va chastotasining qiymatiga teng bo‘lib, “II” shaklli tebranish chastotasini tovush generatori yordamida 20 Hz dan 20 kHz gacha o‘zgartirish mumkin. “II” shaklli tebranishlarni analitik ko‘rinishda quyidagicha yoziladi:

$$u(t) = u_0 + u_1 \sin(\omega t + \varphi_0) + u_2 \sin(\omega t + \varphi_0) + \dots + u_n \sin(n\omega t + \varphi_0) ;$$

d) so‘nuvchi elektromagnit tebranishlar. So‘nuvchi elektromagnit tebranishlarni kuzatish uchun: universal transformatorning g‘altagi, sig‘imlari $C_1 = 0,015\mu F$, $C_2 = 2\mu F$ bo‘lgan kondensatorlar, $R_1 = 100\Omega$, $R_2 = 200\Omega$ qarshiliklar, ossillograf, $D - 817A$ markali rostlash qurilmasi, tovush generatori, ulash simlaridan foydalanib, 4-rasmdagi sxema bo‘yicha hosil qilinadi.



4-rasm. So‘nuvchi elektromagnit tebranishlar hosil qilish sxemasi.


Tebranish konturiga tovush generatoridan signal yuboriladi. Zanjirdagi erkin elektromagnit tebranishlar.

zanjir tarkibida aktiv R qarshilik bo‘lganligi uchun so‘nuvchi bo‘ladi. Zanjir qarshiligini o‘zgartirish bilan tebranishning so‘nish tezligini oshirish yoki kamaytirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollarning hammasida (faqat garmonik tebranishlardan tashqari) tebranishlarni tushunishning analitik usuli ancha murakkab bo‘lsa-da, uni fizik eksperiment ko‘rsatish bilan to‘ldirilsa, bu formulalar va tebranishlarning hosil bo‘lish jarayonlarini o‘quvchilar osonlik bilan o‘zlashtirib oladi-


lar.

2. Grafik metod. Tebranma harakatlarni tasvirlashda grafiklar o‘zining ko‘rsatmaliligi, chuqur mazmuniga ega bo‘lganligi uchun fizik jarayonlarni tasavvur qilishda yordamchi metod bo‘lib qolmasdan, balki o‘rganiladigan fizik jarayonlar uchun asosiy metoddir. Grafik tasvirda fizik kattaliklarning o‘zgarishi bir-biriga funksional ravishda bog‘liqligini, bir kattalikning son qiymati o‘zgarishi bilan unga bog‘liq boshqa parametrlar son qiymatlarining o‘sishi yoki kamayishini ham ko‘rsatadi. Shuningdek, tebranma harakat parametrlarining eng yuqori va eng past qiymatlarini aniqlashga yordam beradi.



5-rasm. Tebranishlarni grafik tasvirini hosil qiluvchi qurilma.


kinligi va oldin o'tkazilgan tajribalar ossillogrammasi shu fizik jarayonlarning grafik tasviri ekanligi, bu esa tebranishning davri, chastotasi, amplitudasi, fazasi haqida to'liq tushunchalar berishi aytiladi.




6-rasm. Tebranishlarning vektor diagrammasi.

bilan $\omega \cdot t + \varphi_0$ ga teng burchak tashkil qiladi va uning OA o'qdagi proeksiyasi $x = x_0 \cos(\omega \cdot t + \varphi_0)$ bo'ladi, ya'ni tebranma harakatning t paytdagi siljishini beradi. Bundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni garmonik tebranma harakat – biror o'qning ixtiyoriy nuqtasidan boshlang'ich fazaga teng burchak ostida chizilgan va nuqta atrofida ω burchak tezlik bilan aylanuvchi amplituda vektori uchining shu o'qdagi proeksiyasi bajardigan harakat bilan tasvirlanadi, degan xulosaga olib keli-nadi.

4. Spektral metod. Agar garmonik tebranishlarning fazalari haqidagi ma'lumotni bilishning zarurati bo'lmasa, garmonik tebranishlarni tushunishning spektral metodi juda qulaydir. Spektral metodda garmonik tebranishlarning faqat chastotalari va amplitudalari berilib, ularning fazalari berilmaydi, chunki ko'pchilik holda chastota va amplitudalarni bilishning o'zi kifoya qiladi.



7-rasm. Sodda garmonik tebranishlar spektri.



8-rasm. Murakkab garmonik tebranishlar spektri.

Spektral metodda tebranishlar amplituda qiymati ordinata o'qiga, chastota qiymati esa absissa o'qiga qo'yiladi va har bir tebranish bitta vertikal to'g'ri chiziq bilan belgilanadi. Vertikal to'g'ri chiziqning balandligi tebranish amplitudasi qiymatini, absissa o'qidagi o'rni shu tebranishning chastotasini ko'rsatadi. Masalan,

Tebranishlarning grafik tasvirini hosil qilish uchun, birinchi navbatda, o'quvchilarga quyidagi tajribani ko'rsatiladi:

Yuqoriga mahkamlangan shnurning (5-rasm) ikkinchi uchiga ostida ingichka bo'r kukunini sepuvchi moslamasi bo'lgan m massali shar osiladi. Harakatlanuvchi qora rangli doskani bo'r kukunini sepuvchi moslamaga qulay holda o'rnatib, mayatnik tebrantiramiz va qora doskani tekis torta boshlaymiz. Natijada qog'oz ustida tebranib turgan jismning vaqtga bog'liq harakat grafigi hosil bo'ladi. Tebranib turgan sistemaning o'zi chizgan bu grafikni shu tebranishning ossillogrammasi deb tushuntiriladi. Shunga o'xshash turli tebranuvchi sistemalarning ossillogrammalarini tajribada kuzatish mumkinligi va oldin o'tkazilgan tajribalar ossillogrammasi shu fizik jarayonlarning grafik tasviri ekanligi, bu esa tebranishning davri, chastotasi, amplitudasi, fazasi haqida to'liq tushunchalar berishi aytiladi.


3. Vektor diagramma metodi. Tebranma harakatlarni grafik tasvirlashda vektor diagramma metodi ko'rsatmalidir. Bu usul bilan tebranma harakatlar tasviri quyidagicha yasalishi aytiladi:

Tekislikda OA koordinata o'qi chiziladi va o'qda ixtiyoriy O nuqtani koordinata boshi deb belgilanadi (6-rasm). Garmonik tebranishning siljishi vektor ko'rinishda ifodalani, vektor uzunligi tebranish amplitudasini, OA koordinata o'qi bilan tashkil etgan burchagi tebranishning fazasini ko'rsatadi. Vektorning o'qdagi proeksiyasi oniy siljish $x = x_0 \cos \varphi_0$ ni beradi. Agar amplituda vektori ω burchak tezligi bilan soat strelkasining aylanishiga qarama-qarshi yo'nalishda aylantirsak, biror t vaqtda amplituda vektori OA o'qi


agar tebranma harakat bitta garmonik tebranishdan iborat bo'lsa, koordinata sistemasida bir vertikal chiziq bo'lib, bu vertikal chiziq shu garmonik tebranishning spektri deb yuritiladi (7-rasm).

Agar harakat 2 ta garmonik tebranishning qo'shilishidan iborat bo'lsa, bunday tebranish murakkab tebranish deb yuritiladi va bu tebranishning spektri 8-rasmdagidek tasvirlanadi. Shundan so'ng o'qituvchi "spektr" so'zining ma'nosini tushuntiradi, ya'ni, spektr so'zi lotincha "Spektrum-obraz" degan ma'noni bildiradi. Agar tebranma harakatlari davriy xarakterda bo'lsa, bu murakkab tebranishlarning spektrlarini chiziqli spektr deb yuritilishi aytiladi. So'ng o'quvchilar diqqatini tebranishlarning ikkinchi bir holini tushunishga tortiladi yoki o'quvchilar yana yangi bir tushuncha bilan tanishtiriladi. Buning uchun o'quvchilarga: harakat tebranma bo'lsa-yu, davriy bo'lmasa-chi? deb savol beradi va uni o'zi quyidagicha tushuntiradi:

O'qituvchi doskaga 9-rasmda ifodalangan so'nuvchi elektromagnit tebranishlar grafigini chizadi. Rasmda tebranish amplitudasi uzluksiz ravishda kamayib borishini, bir marta vujudga kelgan biror muayyan harakat holati qaytadan vujudga kelmasligi aytiladi va bunday davriy bo'lmagan harakatni diskret ω , 2ω , 3ω ,... chastotalarga ega bo'lgan oddiy garmonikalarga yoyish mumkin emasligi tushuntiriladi. Bunday tebranishlarni cheksiz ko'p garmonik tebranma harakatlari qatoriga yoyish mumkin. Bu yoyilmadagi "qo'shni" tebranishlarning chastotalari bir-biridan cheksiz kichik farq qiladi, ayrim elementar tebranishlarning Δx_i amplitudalari esa cheksiz kichik bo'ladi, degan tushunchalar kiritiladi.



9-rasm. So'nuvchi elektromagnit tebranishlar grafigi.



10-rasm. Murakkab tebranishning tutash spektri.

Grafikda bunday tebranishga endi alohida chiziqlardan iborat bo'lgan spektr ("chiziqli spektr") mos kelmaydi; unga uzluksiz spektr mos keladi, bu esa "barcha xil" chastotalardagi tebranishlarning mavjud bo'lishini ko'rsatadi, degan xulosaga o'quvchilar ishontiriladi. Tutash spektrni grafik ravishda tasvirlash uchun absissalar o'qi bo'yicha yana ω chastotalarni qo'yib chiqilishi, ordinatalar o'qi bo'yicha esa $\frac{\Delta x_i}{\Delta \omega_i}$ nisbat qo'yilishi

aytiladi va grafik chizilib, bu grafikdagi egri chiziq berilgan murakkab tebranishning tutash spektrida (10-rasm) chastotalar bo'yicha "amplitudalar taqsimoti"ni tasvirlaydi, deyiladi.

Ko'p yillik tajriba shundan dalolat beradiki, tebranma harakatlarning tasvirlanish metodlari bizning tavsiyamizdek tushuntirilsa, o'quvchilar yangi bilimlar bilan tanishadilar, chiziqli va tutash spektrlar haqida elementar tushunchalarga ega bo'ladilar. Bu esa uzluksiz fizika ta'limining "Optika", "Atom va atom yadro fizikasi" bo'limlaridagi bir qator mavzularini tushuntirishda katta ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, spektr tushunchalarini shakllantirishga yaxshi yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aniyev A.G., Avliyoqulov A.K., Alimardonova G.A. Fizika 1–2-qism. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik, T., "O'qituvchi", 2015.
2. Ulmasova M.R. Fizika (1–3-qismlar). T., "Cho'lpon", 2015.
3. Нўъмонхўжаев А., Хусанов А., Худойбердиев А. ва бошқ. Физика. 1–3-китоб. Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма, Т., "Ўқитувчи", 2005, 256-бет.
4. Tursunov Kakhor Shonazarovich. Levels of theoretical generalizations in the course of physics of the continuing education system. /International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 03, 2020.
5. Турсунов Қ.Ш. Табиий-илмий фанларни ўқитишда моделлаштириш. Монография, Т., «Davr press» NMU, 2018, 185-бет.

Abdualimov Rufat Uchqun o'g'li (SamDU tayanch doktoranti; Rufatabdualimov9@gmail.com)
YILLIK MASHG'ULOTLAR DAVOMIDA BASKETBOL VA STRITBOLCHILARNING
JISMONIY TAYYORGARLIGI DARAJASINING O'ZGARISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada basketbol va stritbolchilarning jismoniy salomatligini oshirishda mashg'ulotlarda bajarilayotgan yuklamalar miqdori va sifati ko'rsatkichlari ilmiy-metodik jihatdan keltirib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье с научно-методической точки зрения приведены показатели количества и качества нагрузок, выполняемых в упражнениях, в укреплении физического здоровья баскетболистов и стритболистов.

Annotation. In this article, the indicators of the quantity and quality of the loads performed in the exercises to improve the physical health of basketball and streetball players are scientifically and methodically cited.

Kalit so'zlari: sport, basketbol, stritbol, kuch, chidamlilik, tezkorlik, texnik, taktik, integral, o'yin, mashq, jismoniy salomatlik.

Ключевые слова: спорт, баскетбол, стритбол, сила, выносливость, скорость, технический, тактический, интеграл, игра, упражнение, физическое здоровье.

Key words: sport, basketball, streetball, integral, strength, speed, technical, tactical, game, tools, exercise, physical health.

Kirish. Mamlakatda aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning asosiy maqsadi insonlarning doimo sog'lom bo'lishi, bolalikdan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga odatlantirish, yoshlarni sportga safarbar etish, sportchilarning jahon sport maydonlarida ishtirok etishi hamda yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston shuhratini jahonda yoyishiga qaratilgan. Shu sababdan kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash, mehnat qobiliyatlarini takomillashtirish va mehnat samaradorligini oshirish yo'lida jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (2020-yil 23-sentabr), "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri, 2015-yil 4-sentabr),² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi (2018-yil 14-avgust) hamda "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020-yil 24-yanvar) qarori va farmonlari joriy qilindi.

Yosh avlod jismoniy tarbiyasining bunday foydali vositalariga basketbol va uning zamonaviy turi stritbol kiradi. Ulardan muntazam ravishda mashg'ulot va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish zarur harakat-ko'nikmalarini otmallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Basketbol va stritbol vositalarini integral qo'llash bilan o'smirlarning mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi saqlanib qoladi, jismonan sog'lomlashishida, sport tayyorgarligini oshishi keng imkoniyatlar ochadi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida inson ko'plab harakat faoliyatini namoyon etadi, bunda nafas olish tizimi yurak – qon tomir va organizimning boshqa tizimlari va funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, texnik-taktik ko'nikma va bilimlar yaxshilanadi.

Adabiyot ma'lumotlarining yetishmasligi va o'spirinlarning to'garaklarida basketbol va stritboldan har yili integral foydalanish dasturlarning kamligi sabab, mashg'ulotchilarning jismoniy tarbiya jarayonida ushbu mashg'ulot turlaridan samarali foydalanishning to'siqlar paydo bo'lmoqda.

Tadqiqotning masadi – yuqori sinf o'quvchilarining basketbol va stritbol mashg'ulotlarini integrativ tarzda tashkil etish va mazmunini takomillashtirish asosida o'yin faoliyati samaradorligini oshirish.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi. Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanilgan:

- adabiy manbalarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik tajriba;
- matematik statistika;

Ushbu ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish basketbol va stritbol mashg'ulotlari

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (2020-yil 23-sentabr), "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri, 2015-yil 4-sentabr).

² A.A.Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A.Pulatov. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik, «Sanostandart» nashriyoti, 2017, 348-bet.

asosida sog'lomlashtirish bo'yicha yillik mashg'ulotlarni integral qo'llash asosida o'smirlar va yoshlarni jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish muammosini ishlab chiqish holatini aniqlash, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarining bunday darslarning tashkiliy-uslubiy va tarkibiy-mazmunli jihatlariga oid turli xil tasdiqlarini belgilash maqsadida qo'llanildi [2.3.5].

Bir yillik makrosikl doirasida basketbol va stritbol bilan integral va ketma-ket mashg'ulotlar jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, va amalga oshirish samaradorligi, bajarilayotgan mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini tezkor, joriy va istiqbolli nazorat qilish masalalari, turli sport mahoratlii basketbolchilarining tayyorlanishining turli tomonlari darajasi, ushbu turdagi muntazam jismoniy faolligi jarayonida ularning salomatligini mustahkamlash imkoniyatlari ham o'rganildi.

Pedagogik kuzatuv natijalari ta'lim shartlari va uning shug'ullanuvchilari haqida umumiy ma'lumotlar blogini, shuningdek, amalga oshirilgan harakatlarning miqdori, intensivligi, takrorlashlar soni, ular orasidagi dam olish pauzalarining miqdori va boshqalar haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan.

Pedagogik tajriba. Yuqori sinf o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda basketbol va stritbol vositalarini qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan bir yillik dasturning samaradorligini aniqlash uchun pedagogik tajriba o'tkazildi.

15–16 yosh o'smirlar nazorat guruhi an'anaviy dasturi, tajriba guruhi sportchilarda stritbol bo'yicha musobaqalarda ishtirok etish bosqichiga ko'ra basketbol va stritbol bilan shug'ullanuvchi tuzilishi va mashg'ulotlar mazmuni, bajarilayotgan yuklamalarning nisbati, mikro va mezosikl ketma-ketligi bilan bog'liq yangiliklarni o'z ichiga olgan.

Jismoniy rivojlanish, jismoniy, o'yin, texnik va taktik tayyorgarlik darajasini aniqlash. Sportchilarning gavda uzunligi (balandligi) antropometr yordamida aniqlandi, vazn kg) tibbiy tarozida o'lchandi.

Matematik statistika. Tanlangan taqsimotlarning asosiy xususiyatlari (arifmetik o'rtacha, dispersiya, o'zgarish koeffitsiyenti) qiymatlarini aniqlash taniqli statistik usullarni qo'llash orqali amalga oshirildi. Basketbol va stritbolning an'anaviy jarayonining samaradorligini aniqlashda sportchilarning turli xil yuklamalari ta'siri va sport mashg'ulotlarida ko'rib chiqilayotgan parametrlarning o'zgarish dinamikasining tabiati bo'yicha javob berish darajasini aniqlash juda muhimdir. Jismoniy salomatlik darajasini aniqlashda G.L.Apanasenko va R.G.Naumenko tomonidan o'tgan asrning oxirida ishlab chiqilgan va hozirda muvaffaqiyatli ishlatilayotgan usul qo'llanildi. Jismoniy salomatlikni saqlash boshlang'ich darajasini aniqlash, o'rtacha (4–14 ball) yuqorida o'rtacha (15–9,0 ball) uchun past (9,0 ball va kam)dan individual sportchilar orasida o'zgarib turadi, deb topildi o'rtacha va o'rta darajadan past bo'lgan chegaradagi ko'rsatkichlar.


Shuni ta'kidlash kerakki, har bir sportchi ballarining arifmetik o'rtacha miqdori va har bir indikatorning o'rtacha qiymatlari yig'indisi sifatida olingan jismoniy salomatlik darajasi guruh qiymatlarining mos kelmasligi o'rganilayotgan mezonlarning katta miqdordagi tarqalishi bilan bog'liq. Misol uchun, 20 soniyada 30 marta o'tirgandan so'ng, 1 min 30 s va 1 min 59 s.ga teng bo'lgan yurak tezligini tiklash vaqti bir xil tarzda baholanadi 3 balda va 29 s.da vaqt oralig'i sinaluvchilar guruhida o'rtacha arifmetik qiymatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 12 nafar tekshirilgan sportchilarning guruhida deyarli bir xil (2–4 kishi bo'yicha) to'rtta jismoniy salomatlik darajasi mavjud: past, o'rtachadan past, o'rtacha, o'rtachadan yuqori.

Jismoniy salomatlikning yuqori darajasi (17–21 ball) qayd etilmagan, ikkita yosh basketbolchi uchun xavfsiz daraja (14 ball) qayd etilgan, bu sport bilan shug'ullanadigan yoshlar uchun yetarli emas. Jismoniy salomatlik darajasini aniqlashda G.L.Apanasenko va R.G.Naumenko tomonidan o'tgan asrning oxirida ishlab chiqilgan va hozirda muvaffaqiyatli ishlatilayotgan usul qo'llanildi.


2021-yil aprel oyida o'tkazilgan yosh basketbolchilarning yakuniy so'rov natijalari 6–7 oy davomida to'g'arak mashg'ulotlar jismoniy salomatligi darajasiga biroz ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi. Guruh bo'yicha o'rtacha hisobda 10,2 ball to'pladi, bu o'rta darajadagi boshlang'ich guruhga mos keladi. Oktabrdan aprelgacha bo'lgan davrda basketbol va stritbol bilan shug'ullanadigan o'smirlar guruhida yuz bergan jismoniy salomatlik darajasining o'zgarishi 1-rasmda aks ettirilgan.

Jismoniy salomatlik darajasi. Past-past (4 balldan kam). O'rtadan past (5 balda 9 ballgacha). O'rtacha (10 balldan 13 ballgacha). O'rtadan yuqori (14-balldan 16 ballgacha).

Natijalar va ularni muhokama qilish. Rasmdan ko'rinib turibdiki, basketbol mashg'ulotlarining boshida (2020-yil oktabr) qayd etilgan to'rtta jismoniy salomatlik darajasining nisbati yakuniy imtihon paytida biroz o'zgardi: jismoniy salomatligi darajasi o'rtacha va o'rtacha darajadan past bo'lgan guruhlarda, mos ravishda, 3 va 4 kishi (25,0%), nihoyat, uch sportchida (25,0%) bo'lgan ikki kishini, ya'ni, jami 16,8%ni tashkil etdi. o'rganilgan parametr o'rtacha qiymatdan yuqori deb baholandi.



1-rasm. Yosh basketbolchilar jamoasida jismoniy salomatligi har xil darajadagi guruhlarining nisbati (%) (boshlang'ich kuzatuv, 2020-yil oktabrdan).



2-rasm. Yosh basketbolchilar jamoasida jismoniy salomatligi har xil darajadagi guruhlarining nisbati (%) (yakuniy kuzatuv, 2021-yil aprel).

Shunday qilib, uchta sportchining sog'ligini yaxshilash ularning yuqori baholash darajasiga o'tishiga olib keldi va guruhning o'rtacha qiymatining 9,0 dan 10,2 ballgacha o'sishiga olib keldi.

Salomatlikni saqlashning aniqlangan yaxshilanishi nafaqat basketbol va stritbolning ta'siri, balki hozirgi yoshdagi yoshlarning tabiiy rivojlanishi bilan bog'liq deb taxmin qilish mumkin, bu esa ushbu bo'limlarda seksion mashg'ulotlarning samarali dasturlarini ishlab chiqish, ommaviy sport intizomlari zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**O'rinov Shuhrat Suyunovich (Jizzax Politehnika instituti "Fizika" kafedrasida assistenti;
shuhraturinov1980@gmail.com)**

BO'LAJAK MUHANDIS TALABALARNI "FIZIKA" DAN KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHNING METODIK MODELINI

Annotsiya. Mazkur maqolada bo'lajak muhandislarni "Fizika" fanidan kasbga yo'naltirilgan umum-texnik masalalarni yechishga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari va kasbga yo'naltirib o'qitishning metodik modeli muammosi hal etiladi. Ushbu maqolada "Fizika" fanidan talabalarni kasbga yo'naltirilgan masalalarni yechishga tayyorlashning metodik modellari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье решается проблема научно-методической основы подготовки будущих инженеров к решению общетехнических задач, ориентированных на профессию, и методичес-

кой модели профессионального обучения. В статье представлены методические модели подготовки студентов-физиков к решению профориентационных задач.

Annotation. In this article, the problem of the scientific-methodical basis of training future engineers in physics to solve general technical problems oriented to the profession and the methodical model of vocational training is solved. This article presents methodological models for preparing physics students to solve career-oriented problems.

Kalit soʻzlar: metodologiya, empirik asos, nazariy yadro, nazariyaning qoʻllanilishi, gnoseologik, metodologik, didaktik, texnologik komponent, diagnostika, empirik bilish.

Ключевые слова: методология, эмпирическая база, теоретическое ядро, применение теории, гносеологическая, методологическая, дидактическая, технологическая составляющая, диагностика, эмпирическое знание.

Key words: methodology, empirical basis, theoretical core, application of theory, epistemological, methodological, didactic, technological component, diagnostics, empirical knowledge.

Metodologiya (“method” va “logos” soʻzlaridan olingan) – faoliyat mantiqiy tuzilmasi, metodlari va vositalari haqidagi taʼlimotdir. Metodologiya keng maʼnoda ishlatilib, ilmiy va oʻquv bilish metodlari va olamni bilish hamda anglash haqidagi taʼlimotdir. V.V.Krayevskiyning taʼkidlashicha, “metodologiya deganda, avvalambor, ilmiy va oʻquv bilish metodologiyasi, yaʼni, bilish faoliyatining asoslari, shakllari va usullari toʻgʻrisida taʼlimot tushuniladi”.


Fundamental fizikaviy nazariyalar zamonaviy bilimlarning yetakchi asosiy shakli hisoblanib, uning asosini bilimlar tashkil qiladi. Amaliy fizikaviy nazariyalar fundamental fizikaviy nazariyalar asosida yaratiladi, bu insoniyat tamaddunidan bizga maʼlum. M.Djoʻrayevning ilmiy tadqiqot ishida fundamental nazariyalarga konsepsiyaga koʻra, quyidagicha ajratish mumkin:

–ushbu fundamental nazariya uchun xos boʻlgan asosiy tushunchalar va kattaliklar (molekular, termodinamik, optik, elektrodinamik jarayon uchun holat funksiyalari);

–hodisa va jarayonlarni oʻziga xos turlarga va shakllarga egaligi, oʻzining predmetli tadqiqot sohasiga ega boʻlishi;

–oʻzining maxsus tamoyillari va mustaqil postulatlarini tizimining mavjudligi (ideal va real gaz qonunlari, mikroskopik tizimlarning termodinamik muvozanat holati, Klauzius tengsizligi, Karno sikli, ekvivalentlilik gʻoyasi va boshqalar).

Fundamental fizik nazariyalar, umuman olganda, bir-biri bilan ilmiy bilish tizimi bilan bogʻlangan. Fundamental fizik nazariyalarni ilmiy-falsafiy, psixologik tasavvurlar asosida tahlil qilish natijasida gnoseologik (bilim haqidagi fan) bilish zanjiri nuqtayi nazaridan: yagonalik-umumiylik-chegaraviy umumiylik, empirik asos, nazariy konseptual yadro, nihoyat, natija koʻrinishdagi tizim elementlardan iboratdir, degan xulosa chiqarish mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Fizika” oʻqitishning tashkiliy-mazmuniy tuzilmasi.


Fizikaviy nazariyalar real borliqning umumlashgan shakllari sifatida – ajralgan va nisbatan berk va yopiq konseptual tizimdir. U empirik bilimlarni tafakkur qilish asosida umumlashtira oladi, bilvosita emotsional kuzatuv imkoniyatlaridan, obyektiv va subyektiv mavjud fizik qonuniyatlarni izlab topish empirik bilishdan koʻra koʻproq mohiyatlarni belgilash va aniqlash vazifasini qoʻyadi.

Har qanday fizika nazariya modeli tavsifga ega boʻlib, fizikaning qismlarga boʻlinishi hamda ilmiy va oʻquv bilish metodlari bilan uygʻunlashishi orqali amalga oshadi. “Fizika”ning mazmuniy tuzilishini yuqorida keltirilgan maʼnoda, yaʼni ilmiy va oʻquv bilish metodlari asosida tahlil qilamiz:

1. Empirik asos – bu empirik ilmiy dalillar hisoblanib, tajriba maʼlumotlarni induktiv umumlashtirish metodi orqali amalga oshiriladi. Tajribalar asosidagi fizika qonunlari Y.Mayer, Dyulong va Pti qonuni, va Jouling umumlashmalari va boshqalar empirik qonunlar kiradi.

2. Nazariy yadro – bu fizikaviy nazariyalarning yadrosi asosiy fizika qonunlaridan iborat. Fizikaviy nazariyaning fundamental qonunlari real fizik jarayonlarda empirik tarzda kuzatilmaydigan munosabatlarning bog‘lanishlarini tavsiflaydi, bunda faqat nazariy obyektlar o‘rganiladi. Bashorat qiluvchi va tushuntiruvchi-illustrativ funksiyalarning qo‘llanish doirasida nazariyaning o‘zagi rivojlanadi.

3. Nazariyaning qo‘llanilishi – ilmiy bilishning deduktiv metodi yordamida termodinamik tizimlarning nazariy yadrosi shakllantiriladi. «Issiqlik texnikasi», «Termodinamika» va «Issiqlik almashinuvi jarayonlari» deb nomlanuvchi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar nazariy yadrosining deduktiv natijasiga misol bo‘la oladi. Ichki yonuv dvigatellarini o‘rganishda ishchi jismning yonilg‘i tarkibi, xossalari, havo miqdori, solishtirma yonish issiqligi va boshqa fizik kattaliklar aniqlanadi. Fizikaviy nazariyalar yadrosining deduktiv natijalarini nazariyaning konseptual yadrosi bilan ikkinchi darajali nazariy umumlashmalar kiradi. Fizika o‘qitishning mazmunli tuzilishi va nazariya elementlarining mantiqiy aloqalarini 2-rasmda keltirib o‘tilgan.



2-rasm. “Fizika” o‘qitishning mazmunli tuzilmasi.

Fundamental fizikaviy nazariyalar yaxlit tizimdir. Agar fizik obekt muayyan tizim xususiyatlariga ega bo‘lsa, u yaxlit bir butun tizim hisoblanadi. Obyektning tizim sifatidagi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

–tizim har doim atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Bunday o‘zaro aloqa-tizim faoliyati va rivojlanishining o‘ziga xos shartidir;

–konseptual tizimlarda ilmiy nazariya elementlarining o‘zaro aloqasi mantiqiy tavsifga ega bo‘lib, o‘zaro aloqada bo‘lgan elementlardan iborat bo‘lgan tizim sifatida qaraladi;

–tizim elementlarining o‘zaro aloqasi tizim elementlarida mavjud bo‘lmagan xususiyatlarni namoyon qiladi. Tizim-yaxlit bir tuzilma sifatida nafaqat unga kiradigan elementlarning xususiyatlari bilan o‘zaro aloqasi belgilanadi;


– tizimning o‘zi-megatizim elementi bo‘lib, iyerarxik tuzilma elementi hisoblanadi.

Texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalariga fizikani o‘qitishning metodik tizimlari komponentlarini tanlash ta‘lim mazmuni, maqsadlari, vazifalari predmeti bilan belgilanadi.

Maqsadli komponent raqobatbardosh muhandisni kasbiy faoliyatga tayyorlashni o‘z ichiga oladi va bu bilan hozirgi jamiyatning yuqori malakali texnik, texnolog, muhandislarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Metodik tizimning mazmuniy komponenti ilmiy va o‘quv bilish metodlari-gnoseologik (yagonalikdan umumiylikka, umumiylikdan chegaraviy umumiylikkacha bog‘langan), metodologik (empirik asosdan nazariy yadroga, yadrodan esa deduktiv natijaga yo‘nalgan) va didaktik (kuzatish, eksperiment, modellashtirish, gipotezani ilgari surish, sintez qilish, formallashtirish, modellashtirish, umumlashtirish) metodlari bilan bog‘langan.


Mohiyatan texnologik bo'lgan jarayonli komponent talabalarning termodinamikaning empirik asoslari, nazariy yadrosi va deduktiv natijasini umumlashtirish bo'yicha ma'ruzalar hamda seminarlarda, fizikadan kasbga yo'naltirilgan umumtexnik masalalarini yechishdagi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Metodik tizimning diagnostik komponenti bo'lajak muhandisning kasbiy bilimlarini shakllanishi asosida fizika ta'limi natijalarini mazmunan tavsiflaydi. Xususan, fizikadan olgan bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash qobiliyati va bunga tayyorligi, zamonaviy asbob-uskunalardan samarali foydalanish bilan ilmiy-loyihaviy tadqiqotlar natijalariga ishlov bera olish qobiliyati, umumtexnik masalalarni yechishda fundamental fizikaviy nazariyalar asoslari bilimlariga ega bo'lish qobiliyati va eksperiment natijalariga ilmiy yondasha oladigan muhandislar tayyorlashni qamrab oladi. Shunday qilib, tizimli, metodologik va kompetensiyaviy yondashuv g'oyalari va ilmiy va o'quv bilish metodlari asosida texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini fundamental fizikaviy nazariya sifatida o'qitish bo'yicha metodik tizimning tashkiliy-tarkibiy-funksional modelini qurish mumkin (3-rasm). Bunda u yuqorida sanab o'tilgan talablarga to'liq mos keladi, uning komponentlari va ilmiy va o'quv bilish metodlari, o'qish orqali bilish faoliyati turlari, bo'lajak muhandisning kasbiy kompetensiyalarini shakllanganligi natijalari o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni yaqqol refleksiyalaydi.



3-rasm. Bo'lajak muhandislarga "Fizika" o'qitish metodik tizimining tashkiliy-funksional modeli.

Oliy ta'lim maqsadlari jamiyat va davlat buyurtmasining ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bunda global maqsad sifatida bo'lajak muhandisni har tomonlama uyg'un ravishda kasbiy kompetensiyalarini fizikani o'qitish orqali rivojlantirish maqsadini ajratib ko'rsatish mumkin.



4-rasm. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbga yo'naltirilgan umumtexnik masalalarni yechishga tayyorlashning metodik modeli.

Oliy ta'lim maqsadlariga tizimli ravishda fizikaviy bilimlarning shakllanishini, kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi, tarbiyaviy va kasbiy maqsadlarga yo'nalgan ilmiy dunyoqarashning shakllanishini, rivojlan-tirish maqsadlariga esa tafakkur va mustaqillikning tarkib topishini qo'llab-quvvatlaydi.

Maqsadlarning yakuniy natija bo'yicha tasnifi shunga olib keladiki, muhandislik yo'nalishi talabasi uchun uning yuqori kasbiy darajasi maqsadga aylanadi, professor-o'qituvchi uchun esa asosiy maqsad bo'lajak muhandisni haqiqiy mutaxassisga aylanishi va uni kasbga yo'naltirilgan umumtexnik masalalarni yechishni o'rgatish uchun vazifalarni tanlash va qo'llashdan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.В.Краевский, Й.В.Березынова. Методология педагогики. Новый этап. М., "Академия", 2008, с. 7.
2. Milwaukee (Nee Zirmhelt) age 75, Thur., Oct. 21, 2021. Private family services will be held. Please see web-site for complete obituary.
3. O'rinov Sh.S. Talabalarни физикадан касбга йўналтирилган умумтехник масалаларни ечишга тайёрлаш. "Ta'lim, fan va innovatsiya", ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, 304-bet.
4. Qulboyev Z., Urinov S., Abduraxmonov A. Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida qattiq jismlar fizikasi bo'limini o'zlashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Science and Education. 2021, 2-t, №. 10, 380 – 386-betlar.
5. Urinov S.S. Absolute luminosity detector: problems and prospects. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2023, T. 2, №. 1, p. 15 – 20.
6. Qulboyev Z., Urinov S., Abduraxmonov A. Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida fizikani o'qitishda ta'lim klasteri metodidan foydalanishga doir ba'zi tavsiyalar. "Science and Education", 2021, T. 2, №. 11, p. 939 – 945.
7. Mustafakulov A.A., Khalilov O.K., Urinov S.S. The purpose and objectives of students' independent work. 2019.
8. Ўринов Ш.С. Талабаларни физикадан касбга йўналтирилган умумтехник масалаларни ечишга тайёрлаш. "Ta'lim, fan va innovatsiya", ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, 304-bet.

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat universiteti o'qituvchisi (PhD);

e-mail:madaminov.9290@gmail.com)

YOSH GANDBOLCHI QIZLARNI TEXNIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh gandbolchi qizlarni jismoniy tayyorgarlik jarayonida harakatli o'yinlardan salmoqli foydalanish, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, yetuk sportchilarni tarbiyalash uchun fundamental vazifasi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В данной статье даны предложения и рекомендации по рациональному использованию подвижных игр в процессе физической подготовки юных гандболисток, гармонизации воспитания и обучения, изложены фундаментальные задачи воспитания зрелых спортсменов.

Annotation. In this article, suggestions and recommendations are given on the importance of using mobile games during the physical training of young handball girls, on the harmony of education and training, and on the fundamental task of training mature athletes.

Kalit so'zlar: gandbol, jismoniy sifatlar, jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, maxsuslashtirilgan harakatlar, o'yin mashqlari, umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, mashg'ulot, ekstremital, estafeta.

Ключевые слова: гандбол, физические качества, физическая подготовка, двигательные игры, специальные движения, игровые упражнения, общая подготовка, специальная подготовка, тренировки, экстрим, эстафета.

Key words: Handball, physical qualities, physical training, movement games, specialized movements, game exercises, general training, special training, training, extreme, relay.

Kirish. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rini hisobga olib, sportni ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish, aholining sportga bo'lgan qiziqishini amalga oshirish yo'lida maqsad davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilmoqda. Shuning uchun o'quvchi qizlar hayotida gandbol sport turining mazmun va mohiyati, sport o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Yurtimizning o'quv maskanlarida «Uch bosqichli» sport musoboqa tizimini shakllanishida va rivojlanishida sport o'yinlarga alohida o'rin ajratilgan.

Sog'lom avlodni kamolga yetkazish va tarbiyalashning turli yo'l-yo'riqlari, o'ziga xos usullari mavjud. Ayniqsa, o'quvchiarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, ertalabki badantariyasi va sport bilan shug'ullan-

tirish, sport o'yinlarni o'rgatish ota-ona va murabbiy oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Bola tarbiyasidagi bu jihatlar davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir.

Ta'lim va tarbiyaning bunday uyg'unligi yetuk insonni tarbiyalash uchun dasturilamal vazifasini o'taydi. Sport o'yinlar, sport turlari ham xalq qadriyatlariga daxldor bo'lib, ularni yig'ish, boyitish va bolalarga taqdim etish sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lidagi muhim va zaruriy vazifalardan biridir.

Harakatli o'yinlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular bolalarga xos, ular tomonidan xursandchilik bilan qabul qilinadi, hatto energiya sarflash bilan hamda yuqori hissiy darajada o'tadi. Buning hammasi murabbiyga sportchi qizlarning tashabbusini boshqarish, muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan irodasini tarbiyalashda katta imkoniyatlar yaratadi.

Texnik tayyorgarlik – bu kurash vositasi bo'lib xizmat qiladigan harakat texnikasini o'zlashtirish jarayoni. Texnik tayyorgarlik hujumda va himoyada o'yinning barcha usullarini mutlaqo bajarish uchun ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishni hisobga oladi. Sport texnikasini o'zlashtirish optimal vosita usullarini topish va o'rganishdan iborat, hal qilinayotgan vosita muammosining muayyan sharoitlarida sportchining harakat qobiliyatini qo'llashning optimal usulini ta'minlash.

Maqolaning maqsadi. Yosh gandbolchi qizlarni zamonaviy gandbolda yuqori sport natijalariga erishish, har qanday gandbol jamoasining muvaffaqiyati, shu jumladan, yoshlar, asosan, uchta omil bilan belgilanadi: o'yinchilar texnikasi, har bir gandbolchi qizlarning taktikasi va umumiy holati – jismoniy, axloqiy-irodaviy, psixologik va boshqalar.

Asosiy qism. Bu yosh uchun tanadagi sezilarli o'zgarishlar xarakterlidir. Bolaning fiziologik shakllanishi tananing tez o'sishi va mushak-skelet tizimining konstruktiv shakllanishida namoyon bo'ladi. O'zgarishlar yurakqon tomir asab tizimida sodir bo'ladi, jinsiy bezlarning yetilishi va boshqa biologik harakatlarga uchraydi. Shu bilan birga, organizmdagi o'zgarishlar bilan psixologik shakllanish ham sodir bo'ladi.

Murabbiy uning oldida bola borligini unutmasligi kerak, hatto u jismoniy jihatdan kattalarnikiga o'xshash bo'lsa ham, bu uning katta yoshdagidek ortiqcha yuklarni bajarishga qodirligini anglatmaydi. Murabbiy doimo o'smir yoki yosh yigit bilan yuzma-yuz turishini eslab turishi kerak. Agar yosh yigit bo'lsa ham, lekin balandligi va tuzilishi kattalarnikiga o'xshash bo'lsa ham, bu uning kattalar kabi qiyinchilik va hajmdagi ishni bajarishi mumkinligini anglatmaydi. Balog'at yoshida jismoniy rivojlanish jarayoni tezlashadi. Bu yoshdagi faol harakatlar o'sish va rivojlanishning muddatidan oldin to'xtashiga olib kelishi mumkin.

Bu yosh sportchilarning ba'zida rivojlanishni to'xtatib qo'yadigan omillardan biridir. Hayot davomida mushak-skelet tizimida o'zgarishlar mavjud. Suyaklar va ularni tashkil etuvchi elementlarning rivojlanishi notekis. Skeletning magistralini qo'llab-quvvatlash, uning shakllanishi tashqi va ichki muhitning turli xil sharoitlarining ta'siriga qarab o'zgarib turadigan bir qator bosqichlardan o'tadi. Skeletning shakllanishiga bolaning motor faolligi ta'sir qiladi. Orqa miya, tos suyagi, pastki oyoq-qo'llar va qo'llarning suyaklari shtanga bilan mashqlardan sezilarli darajada ta'sirlanadi. O'smirlarning suyak to'qimasida katta morfologik o'zgarishlar sodir bo'ladi, chunki suyak va bo'g'imlarning o'sishi hali tugamagan. Suyaklar og'ir jismoniy zo'riqish paytida (ayniqsa, statik) shaklini osongina o'zgartirishi mumkin. Ossifikatsiya jarayoni notekis davom etadi. 20-25 yoshga kelib, suyak to'qimalarining rivojlanishi tugaydi. Bunga to'g'ri va oqilona ovqatlanish, vosita faolligining to'g'ri dozasi va boshqa turli xil sharoitlar yordam beradi. Gormonal ta'sir tufayli suyak to'qimalarining ko'payishi va shakllanishi jarayoni tezlashishi yoki kechiktirilishi mumkin. Jismoniy mashqlar va mehnat faoliyati suyaklarning rivojlanishi va o'sishida katta ahamiyatga ega. Katta, haddan tashqari yuklar suyaklar va mushak-skelet tizimining shakllanishiga ta'sir qiladi, ularning shakli va tuzilishini kattalarga qaraganda ko'proq darajada o'zgartiradi.

Shu sababli mashg'ulotlarning xilma-xilligi, mashqlarning murakkabligi prinsipiga rioya qilish, mashg'ulot jarayoniga turli mashqlarni kiritish, umurtqa pog'onasi, tos suyagi va pastki ekstremitalarni tiklashga hissa qo'shish, o'quv yuklarining to'g'ri taqsimlanishi bolaning rivojlanishidagi salbiy og'ishlar haqida ogohlantiradi, uning suyaklarining o'sishi va normal shakllanishiga ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Stressning umurtqa pog'onasi, tos mintaqasi va pastki oyoq-qo'llarga ta'sirini kamaytirish uchun, ularning cho'zilishi"ga ma'lum darajada hissa qo'shadi, ratsional ravishda, shtanga bilan bir qator mashqlardan so'ng va mashg'ulot jarayonining asosiy qismi oxirida sportchilardan shtanga, halqalar yoki panjaralarga osilgan va tebranishlarni bajarishlari kerak, shuningdek, mushaklarni tiklash uchun cho'ziladi. Davomiyligi – 3–5 daqiqa.

Biz tomonimizdan taklif etiladigan harakatli o'yinlar (maxsuslashtirilgan harakatlar, o'yin mashqlari) to'plami yosh gandbolchilarni asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash bo'yicha dastur materiallarini o'zlashtirishga mo'ljallab tuzib chiqilgan.


Taklif etilayotgan harakatli o'yinlarning o'ziga xos jihati – bu o'yin ishtirokchilarining g'alaba uchun kurashishidir, g'alaba qozanishga intilish esa shug'ullanuvchilardan aniq jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi.

Harakatli o'yinlarni boshqa mashqlar bilan birga to'g'ri qo'llash orqali murabbiy o'quvchilarning mashg'ulotga yanada ongli munosabatda bo'lishiga erishadi. Harakatli o'yinlar gandbol o'yini singari, murabbiy tomonidan turli xil tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ham keng qo'llaniladi.

Harakatli o'yinlarni tasnifi turli xil bo'lishi mumkin. Bizning misolimizda o'quv jarayonining asosiy vazifalariga bog'liq holda, bu o'yinlar ikki guruhga bo'lingan. Harakatli o'yinlarning birinchi guruhi – asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan harakatli o'yinlar, ikkinchisi – texnik-taktik malakalarni egalashga qaratilgan harakatli o'yinlar. Birinchi guruhdagi harakatli o'yinlar koordinatsion qobiliyatlar, kuch imkoniyatlari, egiluvchanlik, harakatlanish tezligi, shuningdek, umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirishga mo'ljallangan.

Ikkinchi guruh shunday harakatli o'yinlarni birlashtirganki, ularni bajarish jarayonida gandbolchilar turli xil texnik elementlar va taktik usullarni o'zlashtiradilar. O'yinlarning bunday bo'linishi birmuncha shartli bo'lib deyarli har bir o'yinda ko'p qirrali vazifalarni hal qilish mumkin. Masalan, bir o'yinda to'pni ilib olish va uzatish texnikasi o'zlashtiriladi va bu asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Asosiy vazifa bilan bir qatorda, ikkinchi darajali vazifalar, harakatlanish tezligi, egiluvchanlik va boshqalar hal qilinadi. Quyida birinchi guruhga kiruvchi, gandbolchilarni asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan harakatli o'yinlar taqsimlangan.

Harakat chaqqonligi




“Chaqqon qo'llar”. O'yinchilar individual yoki jamoaviy musobaqa paytida quyidagilarni bajarishlari lozim:

- stuldan tushmasdan, stuldan 1 m radiusda joylashtirilgan 10 xil narsalarni yig'ish;
- qo'llar yordamida 3 dona gugurt qutisini yonma-yon bir-birining ustiga qo'yish;
- tennis raketkasi ustiga tennis to'pini qo'ygan holatda stul ustiga ko'tarilish;
- gimnastika tayoqchasi yordamida (lekin urib yubormasdan), shaharchani “darvoza”ga (stullarning oyoqlari orasiga) kiritish va orqaga qaytarish;
- stulda o'tirgan holatda gandbol to'pini o'z atrofida aylantirish.


Sakrash qobiliyati


“Qoqilib ketma”. Ikkita jamoa musobaqalashadi. Har bir jamoaning vakillari bir oyog'ida (chap, o'ng) sakrab, oldinga harakatlanishni boshlaydilar. Qolgan o'yinchilar yonma-yon yugurishadi. O'yinchilardan biri qoqilib ketishi bilan uning o'rnini jamoasidagi sherigi egallaydi. O'yinchilari chidamliroq va chaqqonroq bo'gan jamoaning “zanjiri” uzunroq bo'ladi.



Oyoq kuchi


“Joylarni o'zgartirish”. Maydonning qarama-qarshi tomonida, oxirgi chiziqlar orqasida, ikki jamoa bir-biriga qarama-qarshi qatorda joylashgan bo'ladi. O'yinchilar oyoqlariga o'tirgan holda qo'llarini tizzalariga qo'yishadi. Signalga ko'ra, barcha o'yinchilar sakrab (“quyonlar” kabi) oldinga harakatlanadilar va o'rta chiziqni tezroq kesib o'tishga intilishadi. O'rta chiziqni oxirgi bo'lib kesib o'tgan o'yinchi o'yindan chiqib turadi. Oltita urinishdan keyin eng ko'p o'yinchi qolgan jamoga g'alaba qozonadi.






Harakat tezligi

“Yuguruvchilar”. O‘yinda ikkita jamoa qatnashadi, ulardan biri 10×10 metr kvadrat ichiga joylashadi. Maydon tashqarisida turgan o‘yinchi esa tartib bilan joylashadilar. Murabbiy ma‘lum bir raqamni aytadi, u raqamga ega bo‘lgan o‘yinchi maydonga (kvadratga) yuguradi va u bo‘ylab tarqalib ketgan raqib jamoa a‘zolarini tutishga harakat qiladi. 15 soniyadan keyin “Uyga!” signali berilsa, o‘yinchi maydonni tark etadi va murabbiy keyingi raqamni aytadi va o‘yin shu tariqa davom ettiriladi. Tutilgan o‘yinchi maydonni tark etmaydi. Ajratilgan vaqt ichida qancha o‘yinchi tutilgani hisoblab chiqiladi. Keyin jamoalar rollarni almashtiradilar va o‘yin takrorlanadi.



Egiluvchanlik

“O‘rindiq bosh ustida”. Ikkita yoki uchta jamoalar ketma-ket kolonnalarga saflanishadi. Jamoalarning o‘ng tomonida gimnasitika o‘rindig‘i turadi. Signal bo‘yicha o‘yinchi o‘ng tomonga egilib, o‘rindiqni teskari ushlagan xolda uni bosh ustiga ko‘tarishadi, chap tomonga o‘tkazib, polga qo‘yishadi. Shundan so‘ng o‘yinchi o‘rindiq ustidan chap tomonga sakrab o‘tib, yana o‘ng tomonga egilishadi va o‘rindiqni boshqa tomonga qo‘yish uchun uni ko‘tarishadi. Hamma jamoalar maydonning bir tomonidan boshqa tomonga harakatlanib etib borguniga qadar o‘yin davom etadi.



Chidamlilik

“Poezd”. Guruh 5–6 kishidan iborat jamoaga bo‘linadi, ular bittadan bo‘lib kolonnaga saflanishadi. Kolonna oldida 10 – 12 metr masofada chiziq tortiladi. Signal bo‘yicha birinchi raqamli o‘yinchi chiziq tomonga yugurishadi va qaytishadi hamda ikkinchi raqamli, keyin uchinchi raqamli o‘yinchi bilan birga start oladilar. O‘yinni tezroq tugatgan o‘yinchi tashkil topgan jamoa g‘olib bo‘ladi.

Varianti. Chiziq ortida bitta o‘yinchi qolishi mumkin. Harakatlanayotganda o‘yinchi sherigini qo‘li, yelkasi, belidan ushlashi mumkin.

Xulosa. Har bir o‘qituvchi va murabbiy o‘quv rejasiga muvofiq o‘yin faoliyatini deyarli har bir mashg‘ulotda qo‘llashi mumkin. Buning uchun u mashg‘ulot vazifalariga javob beruvchi turli xil musobaqa mashqlari, harakatli o‘yinlarni tanlab olishi kerak [2].

Mashg‘ulot jarayonidagi musobaqalashuv-o‘yin uslubi – bu aksariyat qiyin jismoniy mashqlarni oson, go‘yoki o‘ynab va musobaqalashib, bajarishga imkon beruvchi vositalar hamda uslublardan foydalanish imkoniyatidir. Shu orqali mashg‘ulotlarning bir xilligi yengib o‘tiladi, ularning evaziga jismoniy tarbiya jarayonining zerikarli va bir xil tusda o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Musobaqalashuv – o‘yin uslubi sportchilarning emotsiyalarini ishga solish hisobiga mashg‘ulotlarda harakat faoliyatini follashtirishning tekshirilgan vositasi hisoblanadi. Jismoniy rivojlanishda ancha yuqori ko‘rsatgichlarga erishishga imkon yaratadi, mashg‘ulotlarning o‘zini esa qiziqarli qiladi. Demak, o‘yin topshiriqlari va harakatli o‘yinlardan foydalanish yosh sportchida maqsadga erishishda jasurlik hamda qat’iyyatlilikni, jamoadoshchilik hamda do‘stona munosabatlarni, tezkorlik, chaqqonlik, kuch va egiluvchanlik, chidamlilik hamda g‘alabaga bo‘lgan irodani tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Черданцева Т.Р., Афонина Л.Е., Соколова А.В., Беланова Е.С. Использование подвижных игр в соревновательно-игровой деятельности гандболиста. Методическое пособие. Новокузнецк, 2008, 100 с.
2. Salayev T.K. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (gandbol). O'quv qo'llanma, "Lesson Press", T., 2022, 237-bet.

Joldasova Kamila Jollibaevna (A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti tadqiqotchisi) “INFORMATIKA” FANI O‘QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari "Informatika" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini zamonaviy talablar asosida individuallashtirish maqsadida ta'limning institutsionallashtirilmagan turlaridan foydalanish metodikasi, samaradorlikni aniqlashtirish mexanizmlari, malaka oshirish turlarini o'zaro integratsiyalash texnologiyalari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье освещена методика использования неинституционализованных видов обучения, механизмы уточнения эффективности и технологии взаимной интеграции видов обучения в целях индивидуализации процесса повышения квалификации учителей информатики в общеобразовательных школах на основе по современным требованиям.

Annotation. This article highlights the methodology for using non-institutionalized types of training, mechanisms for clarifying the effectiveness and technologies for mutual integration of types of training in order to individualize the process of advanced training for computer science teachers in secondary schools based on modern requirements.

Kalit so'zlar: informatika o'qituvchilari, malaka oshirish, individuallashtirish, institutsionallashtirilmagan ta'lim, samaradorlik.

Ключевые слова: учителя информатики, повышения квалификации, индивидуализация, неинституциональное образование, эффективность.

Key words: computer science teachers, advanced training, individualization, non-institutional education, efficiency.

Jahonning rivojlangan davlatlari va respublikamizda istalgan soha xodimlarining malakasini oshirish jarayonini ilg'or texnologiyalar asosida individuallashtirishga bugungi kunda jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Sababi, bu har bir sohaning xodimlariga ishdan ajralmagan yoki qisman ajralgan holda kasbiy ehtiyojlari asosida mustaqil ravishda malaka oshirishiga hamda "Hayot davomida ta'lim olish" konsepsiyasiga mos ravishda butun kasbiy faoliyati davomida uzluksiz va izchil o'zining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Individuallashtirilgan malaka oshirishni institutsionallashtirilgan va unga qo'shimcha ravishda institutsionallashtirilmagan ta'lim sifatida informal ta'lim asosida olib borilishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar va respublikamiz tajribalarida malaka oshirish jarayonini ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirishga iqtisodiy va boshqa sohalarning raqamlashtirilishi o'zining ta'sirini o'tkazayotganligini ko'rish mumkin. Bu boradagi kuzatishlar va tahlillar asosida umumta'lim maktablari "Informatika" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini bir qator yo'nalishlarda takomillashtirish kerakligi ko'rsatmoqda. Takomillashtirishga zaruriyat sezayotgan yo'nalishlar sifatida malaka oshirishning davriyligi, uzluksiz emasligi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar talab darajasida emasligi, individual ta'lim olish trayektoriyasini qurishga sharoit yaratish bo'yicha ishlar qoniyatli emasligi va boshqalarni aytish mumkin.

Bunda, muhimi, "Informatika" fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish uchun ularning individual ta'lim trayektoriyasini qurish hisoblanadi. Individual ta'lim trayektoriyasi – bu o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari, kasbiy qiziqishlari, o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tug'iladigan zaruriyatini qondirishga qaratilgan holda, tayyorlangan malaka oshirish rejasi va bu reja asosida individual malaka oshirish yo'lidir [3.4].

Individual ta'lim trayektoriyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin [3]:

- *individuallashtirish* – malaka oshirish toifalari va yo'nalishlari bo'yicha reja har bir o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy ehtiyojlari, motivlari, psixologik jihatlari, nihoyat, oldiga qo'ygan maqsadlari bo'yicha tuziladi;

- *o'zini-o'zi tashkil etish* – o'qituvchilar o'zining individual malaka oshirish rejasi asosida o'quv jarayoni loyihalash va uni zamonaviy talablarga mos ravishda olib borishda o'zini namoyon qilish;

•*moslashuvchanlik* – individual ta’lim trayektoriya o’qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari va salohiyatiga mos keladigan modullarni tanlash va o’quv jarayonini avtomatlashtirilgan yoki an’anaviy muhitda olib borishga imkon berish;

•*manzillilik* – o’qituvchilarning individual ta’lim trayektoriyasi, ko’pincha, ularning oldiga qo’ygan vazifalarini bajarish orqali tegishli ta’limiy maqsadlariga erishish uchun yo’naltirish jarayoniga oid imperativ komponentlarni qamrab oladi.

Umumta’lim maktablari “Informatika” fani o’qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish uchun individual ta’lim trayektoriyasi qurish va uni olib borishni kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida amalga oshirish mumkin. Masalan, ish faoliyati boshlanish davrida o’quvchilar bilan ishlash uchun fundamental psixologik bilimlar, darslarni sifatli o’qitish uchun darsni tashkil etish va belgilangan qoidalar asosida 45 yoki 80 minut ichida uni bosqichma-bosqich olib borish va boshqalar. Shuningdek, o’qituvchilar mazkur usulda nafaqat o’zining faniga oid bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishi mumkin, balki boshqa yo’nalishlarni ham o’rganishga imkon tug’iladi, masalan, yoshlar yoki kattalar bilan ishlash psixologiyasi, xorijiy tillar, ilmiy tadqiqot olib borish va h.k.

“Informatika” fani o’qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish majburiy va tanlov xususiyatiga ega bo’lgan o’quv dasturlar asosida umumiy o’quv jarayonini olib borishda bir qator ijobiy natijalarga ega bo’lishi mumkin. Masalan, xususiy yondashuv sifatida har bir o’qituvchi o’zining salohiyatidan kelib chiqib, moslashuvchan o’quv dasturlardan foydalanishi, o’zini-o’zi boshqarish sifatida o’qituvchilar o’zlarining shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda tanlanadigan modullar, mavzular, o’qitish metodikasi asosida strategik harakatlanishi, turli xil elektron ta’lim resurslari sifatida, elektivlik tamoyillari asosida taqdim etiladigan elektron ta’lim resurslari, dasturiy ta’minotlar, onlayn kurslardan foydalanish, doimiy o’zini-o’zi baholash sifatida o’qituvchilarning boshqa ishtirokchilar bilan muntazam ravishda o’zining kompetentligining rivojlantirishini mustaqil ravishda baholash va o’zgaruvchan jamiyatga qarab malaka oshirish rejalarini ham tezkorlik bilan qayta qurishi mumkin. Shuningdek, maqsadlarini belgilashda o’qituvchilar, ko’pincha, o’zlarining ta’limiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda faol ishtirok etadi.

“Informatika” fani o’qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish yanada samarali bo’lishi uchun o’qituvchilarning qiziqishlarini o’rganish va mustaqil ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam berishiga qaratish hamda o’quv jarayonida xilma-xil mazmun, o’qitish usullari va shakllardan foydalanish lozim.

“Informatika” o’qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini individuallashtirish orqali har bir o’qituvchining o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, yanada samarali, maqsadli, manzilli natijalarga erishish mumkin. Bunda informatika o’qituvchilar nazariy bilimlarini va amaliyotda mustahkamlash orqali muhim ko’nikmalarga ega bo’lishiga erishiladi.

Malaka oshirishni individuallashtirishda bir qator metodlardan foydalanishga to’g’ri keladi. Masalan, loyihalash metodi asosida o’qituvchilarning kasbiy muammolarini hal qilish orqali o’z bilimlarini amalda qo’llash imkoniyatini beradigan usuldan foydalanish, boshqa hamkasblar bilan hamkorlik qilish maqsadida o’zaro bilim va tajriba almashish va hamkorlikda o’qitish usullarini amaliyotda qo’llash, o’zining ko’nikmalarini boshqalar yordamida tanqidiy baholash va uni mahorat bilan korreksiya qilish samarali hisoblanadi [2].

Malaka oshirishni individuallashtirish shakllari va turlari sifatida malaka oshirishning institutsionallashtirilgan turlari bilan birga, institutsionallashtirilmagan turlaridan foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda davlatimiz qonunchiligida nazarda tutilgan rasmiy, norasmiy va informal malaka oshirishlardan foydalanish nazarda tutiladi [1]. Bunda informal malaka oshirish rasmiy o’quv dasturlar asosida emas, balki ilmiy-nazariy, pedagogik, andragogik, metodik, didaktik, psixologik va boshqa adabiyotlarni o’qish, turli videolarni ko’rish va audiolarni eshitish, turli xil seminarlar, master-klasslar, tadbirlarda ishtirok etish, hamma uchun ochiq bo’lgan onlayn kurslarda ishtirok etish nazarda tutiladi, shuningdek, bunda hozirgi kundagi kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali har kunlik yangiliklarni o’zgartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, umumta’lim maktablari “Informatika” fani o’qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini zamonaviy talablar asosida individuallashtirish maqsadida ta’limning institutsionallashtirilmagan turlaridan foydalanish metodikasi, samaradorlikni aniqlashtirish mexanizmlari, malaka oshirish turlarini o’zaro integratsiyalash texnologiyalarini amaliyotda qo’llash bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беленко Т.В. Формирование готовности будущего учителя к индивидуализации обучения школьников средствами педагогического дизайна. Дис. ...канд. пед. наук, Белгород, 2020, 235 с.

2. Повышение квалификации и профессиональная переподготовка для педагогов. Сборник дополнительных профессиональных программ АУ «Институт развития образования». Под общ. ред. В.В.Клюсовой. Ханты-Мансийск, Институт развития образования, 2020, 57 с.

3. Шарифзянова К.Ш. Проектирование индивидуальной образовательной траектории повышения квалификации педагогов в условиях информационной образовательной среды. Автореф. дис. канд. пед. наук, Казан, 2014, 220 с.

4. Шедровицкий П.Г. Проблема индивидуальности. Сборник научных трудов по материалам IV Всероссийской научной тьюторской конференции, Томск, 2000, с. 13 – 25.

**Xodjaniyazov Sardor Umarovich (Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini professori),
Yo‘ldosheva Iqbol Bekbo‘lsin qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti)**

AXLOQIY-ESTETIK TARBIYA JARAYONINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada axloqiy-estetik tarbiyaning mohiyati va vazifalari, axloqiy-estetik tarbiya mezonlari, estetik tarbiya va axloqiy tarbiya mohiyati, talabalarda o‘z-axloq va estetik go‘zallikni tarbiyalash masalalari yoritilgan.

Аннотация. В статье освещены вопросы нравственно-эстетического воспитания студентов, его суть и значение, а также цели и задачи, критерии эстетической воспитанности молодёжи.

Annotation. The article covers the issues of moral and aesthetic education of students, its essence and significance, as well as goals and objectives, criteria for the aesthetic education of youth.

Kalit so‘zlar: tarbiya, axloq, estetika, axloqiy-estetik tarbiya, estetik tarbiya, estetik madaniyat, go‘zallik kategoriyasi.

Ключевые слова: воспитание, нравственность, эстетика, нравственно-эстетическое воспитание, эстетическое воспитание, эстетическая культура, категория прекрасного.

Key words: education, morality, aesthetics, moral and aesthetic education, aesthetic education, aesthetic culture, category of beauty.

Har bir insonning insoniy xususiyatlarini ochib beruvchi jihatlardan eng muhimi tarbiyadir. Ota-ona haqiqiy husnni, insoniy fazilatlarini aynan estetik tarbiya bilan farzandida shakllantiradi. Oilada bolani estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun, eng avvalo, ota-onaning o‘zi estetik mas‘uliyatli va qat‘iyatli bo‘lmog‘i lozim. Talabalarning axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta‘lim tizimida o‘qitish talabalarni axloqiy mukammallashtirish bilan birga olib boriladi. Ularda ong bilan bir qatorda, xulq ham tarbiyalaniladi. Har tomonlama barkamol yetuk mutaxassis bo‘lish uchun, avvalo, talabalar ta‘lim, bilim bilan bir qatorda, axloqiy va estetik tarbiyaga ega bo‘lishi kerak.

Shu o'rinda, aktual va leksik ma'no o'rtasidagi munosabat masalasi ko'tariladi. Aktual ma'nolar uzoq muddatli xotirada saqlanadigan va qayta tiklangan leksik ma'nolar bilan, aslida, bir xil deyish qay darajada o'rinli? Psixologik nuqtayi nazardan, bu haqiqatga to'g'ri kelmaydigan savol, ayniqsa, qisqa muddatli xotira *Wind*, *Schnee*, *Sturm* kabi so'zlarning barcha leksik ma'lumotlarini faollashtirish va uni qisqa muddatli xotiraga o'tkazish qobiliyatiga ega emas. Shuni unutmaslik kerakki, matnlarda so'zning faqat bitta ma'nosi uchramaydi. Aktual ma'no leksik ma'no bilan ham, tegishli kontekst orqali ham tasvirlanadi va yoritiladi. Biz fikrimizni tushuntirish uchun tilimizdagi so'zlarni o'zboshimchalik bilan istalgancha ishlata olmaymiz. Chunki so'zlar juda aniq va qat'iy tarkibga ega. Matn va suhbat vaziyatiga qarab, bu tarkib farqli bo'lishi mumkin, lekin ma'noning muhim qismlari saqlanib qoladi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

In Gipfellen der Mittelgebirge sind Sturmböen möglich, auf dem Brocken weht der *Wind* mit über 100 Kilometern pro Stunde und könnte sogar Orkanstärke erreichen [2].

Ushbu misolda tahlil qilinayotgan *Wind* so'zining tabiat hodisalaridan biri bo'lgan shamol ma'nosida qo'llanilayotganini gapning boshqa bo'laklari orqali anglab olish mumkin. Vaholanki, ushbu so'z ko'p ma'nolidir. Matnda berilayotgan boshqa vositalar orqali bilib olish mumkinki, bu yerda gap ob-havo haqida ketyabdi. Tabiiki tahlil qilinayotgan so'zning yuqorida berilgan birincha ma'nosi qo'llanilmoqda. Buni har qanday suhbatdosh anglab olishi mumkin.

So'z kommunikatsiya jarayonida ifodalagan aktual ma'nosidan tashqari, ko'pincha, vaziyatdan kelib chiqadigan qo'shimcha ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Bu kommunikativ yoki pragmatik ma'no deb ataladi. O'zbek tilida berilgan quyidagi misolni tahlil qilib chiqamiz: ...yuziga sovuq shamol tegib,...

Bu o'rinda tahlil qilinayotgan so'zning ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Matnsiz alohida olingan ushbu berilgan misolda so'zlovchining nimani nazarda tutayotgani mujmal qoladi. Keltirilgan matn yoki dialoglar orqali leksemadagi nazarda tutilgan sememani anglab olish oson bo'ladi.

Chopib tashqariga chiqdi, yuziga sovuq *shamol* tegib, to'xtab qoldi. Bir nafas ko'ksini ochib, ayvon panjarasiga o'tirdi va to'satdan shu qadar bo'shshib ketdiki, yerga guppa yiqilib, o'lib qoladigandek bo'ldi. Haqiqatan ham guppa yiqildi... [7.52].

Ikkinchi keltirilgan misolda esa *shamol* leksemasi ifodalagan konotativ ma'no konkret, unda jadvalda keltirilgan birinchi ma'no – tabiat hodisasi ifodalangan.

So'zlarni ularning ma'nosiga e'tibor bermasdan ishlatish muloqotda turli muammo va tushunmovchiliklarga olib keladi. Ko'p ma'noli leksemalar matnda qo'llanganda monosemiya yuzaga keladi. Ushbu jarayonda aktual ma'no aniq bo'ladi:

Der *Himmel* ist eine Spur heller geworden. Drei Uhr morgens. Der *Wind* ist *frisch* und *kühl*, die fahle Stunde macht unsere Gesichter grau [7.48].

Ushbu matnda keltirilgan *Himmel, frisch, kühl* soʻzlari *wind* soʻzining tabiat hodisasi nomi ekanini izohlash orqali yaqqol koʻrsatib turubdi.

Xulosa. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, soʻzni toʻgʻri ishlatish va fikrni aniq ifodalash uchun uning maʼnosini bilish kifoya qilmaydi. Shuningdek, u qaysi soʻzlar bilan muvofiq kelishini, moslashishini ham bilish zarur. Shunday qilib, soʻzni toʻgʻri ishlatish uchun predmetning oʻzi haqida, bu soʻz bilan ifodalan- gan tushuncha haqida tasavvurga ega boʻlish kerak. Soʻzning maʼnosini tushuntirish usullarini tanlashda, bir tomondan, uning muayyan til leksik tizimidagi lingvistik tabiati, maʼno xarakteri – erkin yoki bogʻlangan, toʻgʻri yoki koʻchma, qaysi soʻz turkumiga tegishli, aniq yoki mavhum, yasama yoki yasalmagan, bir maʼnoli yoki koʻp maʼnoli, soʻzning semantik guruhlari. yaʼni, tematik, leksik-semantik, sinonimik, antonimik guruh- larga kirishi, grammatik shakllarni hosil qilishda oʻziga xos xususiyatlarga egaligi hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistik. “Tafakkur avlodi”, 2020.
2. www.t-online.de
3. Duden. Berlin. Dudenverlag. Berlin, 2014.
4. Langenscheidt. München. Langenscheidt, 2019.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent, 2022.
6. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild.
7. Erich Maria Remarque. Im Westen nichts Neues. Kiepenheuer & Witsch Köln Berlin, 1971.

**Tadjimatova Gulnoraxon Shavkatovna (Andijon davlat universiteti oʻqituvchisi; gulya.ikramova@mail.ru),
Arslanbekova Shaxnozaxon Dilshatbek qizi (Andijon davlat universiteti oʻqituvchisi;
arslanbekova.shahnoza@list.ru)**

INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA “DOʻSTLIK”NI IFODALOVCHI MAQOLLARNI OʻRGANISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollarni tarjima qilishda tarjimaning ayrim muammolari (inglizcha- oʻzbekcha, oʻzbekcha-inglizcha) yoritilgan va ularning oʻziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil orqali koʻrsatil- gan.

Аннотация. В данной статье освещаются некоторые проблемы перевода (англо-узбекский, уз- бекско-английский) при переводе пословиц и путем сравнительного анализа раскрыты их уникальные особенности.

Annotation. This article illuminates some problems of translation (English-Uzbek, Uzbek-English) while translating proverbs and shows the unique features of them by comparative analysis.

Kalit soʻzlar: tarjima, tarix, falsafa, adabiy ijod, oʻzbek millati, taniqli durdona asarlar.

Ключевые слова: перевод, история, философия, литературное творчество, узбекская нацио- нальность, известные шедевры

Key words: translation, history, philosophy, literary creativeness, Uzbek nationality, well-known mas- terpieces.

Maqol soʻzning koʻrki, nutqning oʻtkir quroli, xalqning donishmandligidir. Har bir xalqning tarixi, ta- fakkuri va ruhiy holatlari maqol, matallarda oʻz ifodasini topadi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalq- ning timsoli, xalqning miliy madaniy merosi namoyon boʻladi. Maqol matallarda vatanni sevish, mehnat qilib yashash gʻoyalari va boshqa koʻplab insoniy fazilatlar ilgari suriladi. Ikki yoki undan ortiq til sistemasining oʻziga xos xususiyatini hamda chogʻishtirilayotgan tillar sistemalari orasidagi muvofiqlik qonuniyatlarini aniqlash, qiyosiy tipologiya va tarjima nazariyasining umumiy vazifasidir. “Tarjima nazariyasi oʻz mohiyati bilan ikki til sistemasini ilmiy asosda chogʻishtirishdan boʻlak narsa emas”, deb yozadi prof. L.S.Barxudarov. Ma- qolada “doʻstlikni ifodalovchi ayrim maqol va matallarning tarjimada ifodalanishini oʻrganish bilan birga uning badiiy adabiyotlarda ingliz va oʻzbek tillarida ularni anglatuvchi sinonimik vositalarini quyidagi misollar orqali tahlil qildik [1]. Masalan: *An empty purse frightens away friend*. Ushbu maqolni oʻzbek tiliga tarjima qilar ekanmiz, uni oʻzbek tilida bir necha muqobillarini keltirishimiz mumkin. Yani *Doʻst boshga kulfat tushganda sinalar*. *Doʻst kulfatda sinalar* [1].

Tarjima jarayonida, asosan, maqollar toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilinmaydi, chunki maqollar komponent- larini solishtiradigan boʻlsak, ingliz tilidagi maqolda *empty purse* komponenti oʻzbek tilidagi *boʻsh hamyon* deb tarjima qilinsa *kulfat* soʻzi esa ingliz tiliga *sorrow* deb tarjima qilinadi. Demak, yuqorida aytganimizdek, maqollarni oʻzbek tiliga yoki ingliz tiliga toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib boʻlmaydi [2]. Ammo baʼzi maqollar yoki frazeologik birikmalar borki, ularni aynan tarjima qilish mumkin.

Masalan: *to be a friend* – *sodiq doʻst boʻlmoq*.

If you want to be a friend be a friend.

Agar do'st bo'lmoqchi bo'lsang, do'st bo'l.

Ushbu frazeologik birlik va maqollarning tarjima muammolarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning komponentlari *to be true friend* o'zbek tilidagi *sodiq do'st bo'lmoq* komponentlari bilan mutlaqo bir xil. Maqolning komponentlarini qiyosiy tahlil qilganimizda, *If-want-to be-friend* o'zbek tilidagi komponentlari *agar xohlamoq – do'st bo'lmoq* bilan mutlaqo mos kelmoqda [1].

Yuqoridagi maqollardan ko'rinib turibdiki, ikki yoki uch, balki undan ham ko'p maqollar sinonimik qatorni tashkil etishi mumkin. Ularning komponentlari *bo'sh hamyondan do'stni qutqarmoq, muhtojlikdagi do'st, aslidagi do'st yoki haqiqiy do'st* kabi tarjima qilinish holatlariga guvoh bo'lamiz. Agar har ikki maqoldagi umumiy ma'nolar yig'indisiga e'tibor beradigan bo'lsak, ham leksik, ham stilistik jihatdan har ikki maqolda *qiyin ahvolda qolgan do'st* xususida fikr yuritilgan. Birida *pulsiz do'st* semasi, ikkinchisida esa *qiyinchilikda qolgan do'st* semasi keltirilgan.

Maqollarning tarjima muammolarini kuzatar ekanmiz, uning o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanaveradi. Masalan, ba'zi maqollar aynan tarjima qilinmasligi yoki muqobillari mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda unga izoh berish orqali tushuntirish mumkin.

Masalan: *A friendship is love with understanding.*

Izoh: *A friendship can be linked with mutual understanding* [4].

Ushbu maqolni o'zbek tiliga aynan muqobillari yo'q. Lekin mashhur faylasuf olim, bashariyat shoiri Jaloliddin Rumiy o'zining *Masnaviyi ma'naviy* asarida *Do'stni topish – o'zni topish* degan fikrni bildiradi. Buning ma'nosi shundaki, do'stlashishda ular bir-biriga fe'l-atvori, dunyoqarashi, odobi, kiyinish odobi, ijtimoiy holati va hokazolar bir-biriga mos keluvchi insonlar bir-birini qidiradilar. Agar ular bir-birini topsalar, demak, ular o'zlarini topibdilar.

Maqollar sinonimik qator yoki antonimik qatorlarni tashkil qilishi mumkin.

Masalan: *False friends are worse than better enemies.*

Do'sti nodondan dushmani ziyrak yaxshi.

Friends may meet but mountains never greet.

Tog' tog' bilan uchrashmaydi, do'st do'st bilan uchrashadi.

Do'stlar uchrashadi, lekin tog'lar hech qachon bir-biriga ta'zim qilmaydi.

Old friends and old wine are best.

Kiyimning yangisi, do'stning eskisi [4].

Agar e'tibor bersak, ingliz tilidagi maqolning komponentlari *old friend* o'zbek tilidagi *eski do'st* komponenti bilan aynan bir xil. Ingliz tilidagi *old wine* komponenti esa o'zbek tiliga *yangi kiyim* muqobili orqali tarjima qilinmoqda [2]. Agar maqol o'zbek tiliga aynan tarjima qilinsa, ma'no, umuman, o'zgarib ketishi, tabiiy.

Yani: *Eski do'st va eski vino yaxshidir.*

Shu o'rinda boshqa bir misolni olaylik: *Friendship is not to be bought at a fair.*

Do'stlik oltinga sotilmas. Yoki:

Oltin – do'stilikka tenglashmas.

Send me a friend that will tell me of my faults.

Sen do'sting kimligini aytsang, men senga kimligingni aytib beraman.

Even checking on makes long friends.

Hisobli do'st ajralmas, qush qanoti qayrilmas. Yoki:

Do'sting do'st bo'lsin, hisobing durust bo'lsin.

Speak well of your friend, of your enemy say nothing.

Dushmaningga kimxob kiygiz, do'stingga alaq.

Do'stingning qo'lini o'p, dushmanning oyog'ini.

Friend to everybody is a friend to nobody.

Har kimga do'st tutingan, hech kimga do'st bo'lolmas.

Tarjimada sinonim va ma'nodosh so'zlarni tanlay bilish tarjimonning so'z boyligi va mahoratini namoyon etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Demak, maqollarni o'rganish jarayonida ularning tarjimasi, ma'no va qo'llanish ko'lamini kommunikativ pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish ularning struktural-semantik va funksional aspektlarining nafaqat til-da, balki shaklan xilma-xil bo'lgan nutqda faollashuvi va mavjud bo'lish qonuniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, tarjimada maqollar va matallarni to'g'ri tushinish va badiiy o'girish jarayoni alohida o'rin egallaydi. Bu yerda tarjimondan o'tkir ziyraklik va katta mahorat talab qilinadi. Chunki aynan maqol va matallarning tarjimasini chiroyli yoritib bera olmaslik badiiy asar mazmuniga putur yetkazish mumkin [3]. To'g'ri, har

bir maqol va matal ham shakl, ham ma'no, ham funksional jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Lekin bular-dagi umumiylik masalasi ham ahamiyatlidir. Shuni aytib o'tish kerakki, ko'plab maqollarning har xil tillar-dagi shakllarda ham shakl, ham ma'no jihatidan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan o'xshashlik topsa bo'ladi, o'zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi yoki buning aksi. Shu bilan birga, ma'lum bir tildan ikkinchi bir tilga berilgan o'girilishlarda maqollarning aynan o'xshashini topish qiyin bo'ladi. Shunda izohlarga yoki ikkinchi bir adikvat variantiga murojat qilinadi. O'zbek tilidagi maqollar-ning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o'rni kelganda izoh berib o'tish tarjimaga putur yetkazmaydi, balki uni to'ldiradi va boyi-tadi. Maqollarning yana bir tarafi borki, bular deyarli ko'plab hollarda umumiy mazmun mohiyati saq-langanda o'xshashliklarga ega bo'ladi [3]. Maqollar, aslida, maqol bilan tarjima qilinsa, badiiy matn bo'yoqdorligi oshadi. Chunki maqol uchun asos bo'lgan so'z tarjima qilingan chog'ida ham fikr umumiy-ligida chalg'ishlar yuzaga keladi. Maqol obyektini hamisha saqlash ko'p hollarda g'alazliklarga olib kelsa-da, uni milliy an'anaviy birikmalar bilan almashtirishda ham asardagi ma'lum komponentlarni buzub yuborish ehtimoliga olib keladi. To'g'ri milliy sayqal berish ba'zida samara beradi, asar jozibasini oshirishga imkon ya-ratadi, matn bo'yoqdorligi darajasini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бархударов Л.С. К вопросу о типах межъязыковых лексических соответствий (на материале английского и русского языков). "Иностранные языки в школе", 1980, № 5.
2. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Cambridge University Press, 2008.
3. <http://ziyo.uz/en/poetry/44-modern-uzbekpoetry/195-abdulhamid-chulpon>
4. <http://ziyo.uz/en/uzbek-literature/40-literature-of-jadids-period/93-abdulla-qodiriy-1984-1938>.

Shamsiddinova Zebo Fazliddinovna (Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Sharq tillari" kafedrasida o'qituvchisi; e-mail: sita-zebo@inbox.ru)

O'ZBEK TILIDAGI -DI AFFIKSI YORDAMIDA YASALADIGAN O'TGAN ZAMON FE'L SHAKLINING XITOIY TILIDAGI EKVIVALENTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi -di affiksi orqali yasaladigan o'tgan zamon fe'l shakli hamda xitoy tilidagi o'tgan zamoni yasovchi 了 le morfemasining o'ziga xos ifodalanish xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari tahlil etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности выражения, сходства и различия между узбекской формой глагола прошедшего времени с аффиксом -ди и китайской морфемой 了 le, которая формирует прошедшее время.

Annotation. This article analyzes the features of expression, its similarities and differences between the Uzbek form of the past tense verb (-di) and the Chinese formative morpheme of the past tense 了 (le).

Kalit so'zlar: o'tgan zamon aniq (qat'iy) fe'li, -di affiksi, 了 le morfemasi, o'tgan tugallangan zamon, chegaralangan (natijaviy) fe'l, chegaralanmagan (natijasiz) fe'l.

Ключевые слова: глагол прошедшего определенного (категорическое) времени, аффикс -ди, морфема 了 le, прошедшее совершенное время, ограниченный (результативный) глагол, неограниченный (нерезультативный) глагол.

Key words: past definite (strict) tense verb, affix -di, morpheme 了 (le), completed past tense (or past/present perfect), finite (resultative) verb, nonfinite (non-resultative) verb.

O'tgan zamon aniq (qat'iy) fe'li fe'l o'zagiga -di affiksi va shaxs-egalik affikslarini qo'shish orqali yasaladi. -di shakli barcha turkiy tillarda turli fonetik variantlarda mavjud [1.205-217]. Bu shakl harakatning nutq davrigacha aniq, qat'iy bajarilganligini ifodalaydi. Bu harakat, odatda, so'zlovchi o'zi ko'rgan, bilgan harakat bo'ladi.

O'zbek tili grammatikasi mualliflari har qanday istisnosiz aniqlik (indikativ) maylning (ba'zi tilshunoslar "ijro mayli" deb atagan) [2.113] o'tgan zamon shakllari tizimiga -di shaklini kiritadilar, lekin uning o'tgan zamonning boshqa shakllaridan farqini aniq izohlamaydilar. -di shakli o'zbek tili shevalarida ham, adabiy nutqning turli uslublarida ham qo'llaniladi.

O'tgan aniq (qat'iy) zamon o'tmishda bir va ko'p marotaba sodir bo'lgan ish-harakat hamda uning tugallanligiga ishora beradi [3.146].

O'zbek tilida o'tgan aniq (qat'iy) zamonning asosiy semalari: 1) ish-harakatning tugallanganligini; 2) ish-harakatning ko'p marta amalga oshirilganligini (iterativlik); 3) nutq vaqti bilan aloqadorlikning uzilganligini ifodalaydi. Xitoy tilida mazkur zamonning ma'nosi 了 le morfemasi orqali ifodalanishi mumkin. 了 le morfemasining gapdagi o'rni ikki xil bo'lib, u fe'ldan so'ng joylashganda, o'tgan zamonni yasovchi suffiks, gapning oxirida qo'llanilganda, modal yuklama yoki yordamchi so'z vazifasini bajaradi. Demak, o'tgan zamon shaklini yasovchi 了 le suffiksi fe'ldan so'ng kelib, u harakat fe'llari, holat fe'llari, chegaralangan (natijaviy) fe'llar (ba'zi xitoyshunoslar fe'llarni chegaralanmagan va chegaralangan turlarga ajratadi) [4.81–82], chegaralanmagan (natijasiz) fe'llar bilan birgalikda qo'llanilganda turli xil, jumladan, ish-harakatning sodir bo'lganligi, boshlanishi, tugallanganligi yoki davomiyligi kabi ma'nolarini ifodalab keladi. Masalan:

... Qishda shu odam (shifokor) bizga yana bir yaxshilik qildi [5.83].

那年冬天这位医生有一次帮助了我们

...Nà nián dōngtiān zhè wèi yīshēng yǒu yīcì bāngzhùle wǒmen [6.83].

Mazkur jumlada o'zbek tilidagi qat'iy o'tgan zamon shakli xitoy tilidagi chegaralangan (natijaviy)帮助 bāngzhù “yordam bermoq” fe'li va 了 le suffiksining birikishi orqali yasilib, bunda ish-harakat tugallanganligini ifodalab kelgan. Qat'iy o'tgan zamonni ifodalashda 那年冬天 nà nián dōngtiān “o'sha yilgi qish faslida” payt ravishi leksik ko'rsatkich sifatida muhim rol o'ynagan.

-di affiksi yordamida yasalgan fe'l o'tgan zamonda bir va bir necha marta sodir bo'lgan ish-harakatlarni bildiradi, bu xususiyat xitoy tilidagi 了 le suffiksi yordamida yasalgan o'tgan zamon fe'l shaklining ifodalanish jihati bilan deyarli bir xil. Chunki 了 le suffiksi orqali ifodalangan o'tgan zamon fe'li o'tmishda nafaqat bir, balki bir necha marotaba takrorlangan ish-harakatni ham ifodalab kelib, bunday gaplarda fe'ldan so'ng 儿 /son+hisob so'z shakldagi birikmalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi, masalan:

Men uni bir necha marta ko'ndirishga harakat qildim, u ko'nmadi.

我劝了他几次，他没同意

Wǒ quànle tā jǐ cì, tā méi tóngyì

Yuqoridagi jumlada 了 le suffiksi yordamida ifodalangan 劝 quàn “ko'ndirmoq” fe'li 几次 jǐ cì “bir necha marta” birikmasi bilan birikib kelib, o'tgan zamonda ish-harakat bir necha bor sodir bo'lganligini ko'rsatib kel-moqda.

-di affiksi yordamida yasalgan fe'l shakli birinma-ketin ro'y bergan bir necha ish-harakatlarni ham ifodalab kelib, gapda mazkur ish-harakatlar nutq vaqtidan oldin tugallanganligi ma'nosini saqlab qoladi. Xitoy tilidagi 了 le suffiksi ham bu kabi xususiyatdan mustasno emas, faqat gapda qo'llanilish jihatidan biroz o'ziga xos, garchi bir gap tarkibida birinma-ketin sodir bo'lgan ish-harakatlarni ifodalab kelgan bir necha fe'llar qatnashsa-da, mazkur suffiks gapning eng oxirida kelgan fe'ldan so'ng bir marta qo'llaniladi, o'tgan zamon ma'nosi esa barcha fe'llarga tegishliligicha qoladi, masalan:

Oyim tomog'imni achchiqtoş bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib, suvini ichirdi, bo'l-madi... Oxiri tomog'im xippa bo'g'ilib qoldi [5.16].

妈妈让我用药水漱口，没用，给我喝杏汁也没有效果...最后我失声了

Māmā ràng wǒ yòngyào shuǐ shù kǒu, méi yòng, gěi wǒ hē xìng zhī yě méiyǒu xiàoguǒ...zuihòu wǒ shīshēng [6.21].

Berilgan gap tarkibidagi uchta 漱口 shù kǒu “og'iz chaymoq”, 喝 hē “ichmoq” va 失声 shīshēng “bo'g'ilib qolmoq” fe'llari ishtirok etib, 了 le suffiksi eng so'nggi 失声 shīshēng “bo'g'ilib qolmoq” chegaralangan fe'lidan so'ng qo'llanilib, ish-harakatning tugallanganligini bildirib kelmoqda.

-di affiksi orqali yasalgan ko'p martali (iterativ) harakat shaklini belgilash tegishli leksik ko'rsatkichlar bilan birga kelishi mumkin. Bizningcha, mazkur shakl uchun asosiy bo'lgan iterativlik ma'nosiga ega o'tgan aniq (qat'iy) zamon xitoy tilida gap tarkibida 了 suffiksidan tashqari turli leksik vositalar orqali ifodalanishi jihatidan farq qilmaydi. Masalan:

U chap oyog'ini ko'targancha hakkalab sakray boshladi. Ammo o'n qadam ham yurolmadi. Har sakraganda burni buloqdek qaynaydi. Qayta-qayta artgani bilan foydasi yo'q. Bolalar xaxolaydi. Ayniqsa, men huzur qilib kulaman. Oxiri bo'lmadi – Toy yiqilib tushdi [5.36].

他站着右(左 bo'lishi kerak)腿开始跳，但连十步也跳不了，而且每次跳步会流鼻涕。他有一次地擦掉鼻涕，却没用。孩子们都哈哈大笑。尤其是我，觉得异常愉快。然后，他又失败了

Tā zhànzhe yòu tuǐ kāishǐ tiào, dàn lián shí bù yě tiào bùliǎo, érqiě měi cì tiào bù huì liú bíti. Tā yīcì yǒu yīcì de cā diào bíti, què méi yòng. Háizimen dōu hāhā dà xiào. Yóuqí shì wǒ, juéde yìcháng yúkuài. Ránhòu, tā yòu shībàile [6.42].

Onam vafot etganda Toy onasi Niso xolani boshlab keldi. Keyin ham ko‘p yelib-yugurdi. Kunora keladi [5.37].

妈妈去世的时候塔依跟塔依妈妈来了。之后他天天来问我要不要帮忙

Māmā qùshì de shíhòu tā yī gēn tā yī māmā láile. Zhīhòu tā tiāntiān lái wèn wǒ yào bù yào bāngmáng [6.43].

Berilgan gaplarda -di bilan yasalgan fe‘l shakli ko‘p martali ish-harakatning birin-ketin hamda takroriy ravishda bajarilganligini ifodalab, xitoy tilida 一次有一次地 yīcì yǒu yīcì de “qayta-qayta”, 又 yòu “yana” (matnda “Oxiri bo‘lmadi – Toy yiqilib tushdi” tarzida berilgan), 天天 tiāntiān “kunora” leksik vositalari yordamida iterativlik ma‘nosi mustahkamlanmoqda.

-di yordamida yasalgan fe‘l shakli ish-harakatning boshlanishini anglatishi va imperfektivlik ma‘nosini o‘z ichiga olishi mumkin. Ilmiy adabiyotda bunday alohida ma‘no ba‘zan inxoativ (boshlanish) deb ataladi. Mazkur holat xitoy tilida ham mavjud bo‘lib, bunda 了 le morfemasi chegaralangan fe‘llar, holat fe‘llari, sifatlar bilan birikib kelganda, u ish-harakatning yakunlanganligi haqida emas, balki uning boshlanganligi, paydo bo‘lganligi haqida xabar beradi, masalan:

Birdan Daminning (uning) jahli chiqib ketdi [5.24].

突然他生气了

Túrán tā shēngqìle [6.29].

Mazkur gapda ishtirok etgan 生气 shēngqì “jahli chiqmoq” holat fe‘liga o‘tgan zamon shaklini yasovchi 了 le suffiksining birikishi natijasida ish-harakat yakunlanganligini emas, aksincha, boshlanganligini anglatmoqda.

Sukunat cho‘kadi [6.14].

突然安静了

Túrán ānjìngle [5.19].

Mazkur gapning xitoy tilidagi tarjimasida 安静 ānjìng “sokin”, “tinch” sifati 了 le morfemasi bilan birgalikda qo‘llanilib, “sukunat cho‘kadi” ma‘nosini, ya‘ni ish-harakat paydo bo‘lganligi haqida xabar bermoqda. Ammo bu bilan ushbu sifat fe‘lga aylanmaydi. Bunga asosiy sabab, xitoy tilidagi sifatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, shuning uchun bunga alohida to‘xtalib o‘tishimizga hojat yo‘q deb hisoblaymiz.

Ba‘zan -di affiksi bilan kelgan fe‘l shakli buyruq mayli ma‘nosida qo‘llaniladi.

Qani, chopdik!

Ammo, xitoy tilida 了 le suffiksi yordamida yasalgan buyruq mayli ma‘nosidagi gaplar aksariyat holatlarda inkor shakl orqali namoyon bo‘ladi, masalan:

别说话了!

Bié shuōhuàle!

Gaplashmang!

-di affiksi orqali ifodalangan fe‘l shakli ba‘zi hollarda boshqa zamon va mayllarga xos kontekstda ishlatilishi mumkin. Bunda o‘tgan zamon semasi o‘rniga boshqa semalar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha, -di affiksi yordamida yasalgan fe‘l shakli hozirgi aniq va kelasi zamon ma‘nosida namoyon bo‘ladi:

Bu safar (Habiba) buvining shinnisiga umid bog‘lamadim [5.67].

我知道这次不吃了哈比芭奶奶的葡萄饴糖了

Wǒ zhīdào zhè cì bù chīle hā bǐ bā nǎinai de pútáo yítángle [6.69].

Mazkur gap tarkibidagi “bog‘lamadim” fe‘li, garchi -di affiksi yordamida shakllangan bo‘lsa-da, u kelasi zamonga oidligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Xitoy tilida 了 le morfemasi ham bunday xususiyatdan mustasno emas, ya‘ni, mazkur morfema ishtirok etgan gaplar faqat o‘tgan zamonga emas, balki kelasi zamonga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Istisno tariqasida shuni ta‘kidlash joizki, 了 le morfemasi qatnashgan gap kelasi zamonni bildirishidan tashqari, gapning mazmuni o‘ziga xos modal tusni, xususan, qarorning qat‘iyligi, e‘tiroz, hayratlanish, rad etish yoki ish-harakatni amalga oshirish imkonsizligi kabilarni tavsiflab keladi. Shuning uchun o‘zbek tilidagi “yeyishga umid bog‘lamadim” jumlasining (ish-harakatni amalga oshirish imkoniyati mavjud emasligi) ma‘nosini inobatga olib, 不吃了 bù chīle “yemayman” yoki “yeya olmayman” tarzida xitoy tiliga tarjima qilingan.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– -di affiksi yordamida yasalgan o‘tgan aniq (qat‘iy) zamon fe‘l shakli xitoy tilida 了 le morfemasi bilan ifodalangan o‘tgan tugallangan zamon shakli bilan deyarli bir xil funksiyani bajargani bilan ular qo‘llanilish jihatidan birmuncha farqli;

– di affiksi orqali yasalgan o‘tgan zamon fe‘l shakli shaxs-son qo‘shimchalari bilan birgalikda qo‘llaniladi, ammo xitoy tili izolatilgan bo‘lagani uchun, xitoy tilida fe‘lga tuslanishdan mustasno;

– 了 le morfemasi yordamida yasalgan o‘tgan zamon xuddi o‘zbek tilidagi -di affiksi orqali ifodalangan o‘tgan zamon shakli singari o‘tmishda ish-harakatning nafaqat bir, balki bir necha marta sodir bo‘lganligini ifodalaydi;

– o‘tgan zamon shaklidagi gap bir necha ish-harakat birinma-keyin bajarilganligi haqida xabar berayotgan bo‘lsa, 了 le morfemasi faqat eng oxirgi fe‘ldan so‘ng bir marotaba qo‘llanilib, bu jihatdan -di affiksi har bir fe‘l tarkibida ishtirok etishi bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баскаков Н. Причастия на -ды/-ты в тюркских языках. Труды Московского института востоковедения, 1951.
2. Hojiyev A. Fe‘l. Toshkent, 1973.
3. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Ташкент, 1965.
4. Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. Л., ЛГУ, 1957.
5. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Toshkent, 2005.
6. 欧特克尔·哈希莫夫. 生活琐事. (O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Valiyeva Noiba tarjimasini). T., 2021.
7. Грунина Э.А. Индикатив в турецком языке (в сравнительно-историческом освещении). Автореф. дисс. ... докт. филол. наук, М., 1975.

Marufova Zulfiya Nabiyevna (O‘zbekiston San’at va madaniyat instituti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); zulfiyaxon2018@gmail.com)

MUHAMMAD YUSUF SHE‘RIYATIDA NOODATIY BOG‘LANISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fe‘lning noodatiy bog‘lanishlari strukturasi yoritib berilgan. Ularning poetik ifoda xususiyatlari Muhammad Yusuf she‘riyati misolida tahlilga tortilgan. Fe‘l asosli bog‘lanishlarning morfologik tarkibi turli ma‘no munosabatlariga ko‘ra tasniflangan. Semantik valentlik asosida va noodatiy bog‘langan birikmalar strukturasi qiyoslangan.

Аннотация. В данной статье освещена структура необычных спряжений глаголов. Особенности их поэтического выражения анализируются на примере поэзии Мухаммада Юсуфа. Морфологическая структура глагольных связей классифицируется по различным семантическим отношениям. Сравниваются на основе семантической валентности и строения необычно связанных соединений.

Annotation. In this article, the structure of unusual verb conjugations is highlighted. The characteristics of their poetic expression are analyzed on the example of Muhammad Yusuf’s poetry. The morphological structure of verb-based connections is classified according to different semantic relations. On the basis of semantic valence and the structure of unusual connected compounds are compared.

Kalit so‘zlar: noodatiy bog‘lanish, uzvlar, semantik valentlik, sintaktik qurilma, umumlashtiruvchi va farqlovchi semalar, predikat, argument.

Ключевые слова: необычная связь, элементы, семантическая валентность, синтаксическая структура, обобщающая и дифференцирующая семы, предикат, аргумент.

Key words: unusual connection, members, semantic valence, syntactic device, generalizing and differentiating schemes, predicate, argument.

Bizga ma‘lumki, fe‘l gapning ham mazmuniy, ham grammatik markazini tashkil qiladi. Shu sababli u ham semantik, ham sintaktik jihatdan e‘tibor markazida turadi. «Fe‘l predikatlar ma‘lum leksik ma‘noni ifodalash bilan bir qatorda, u o‘zida bo‘lajak gap maketini ham aks ettiradi» [4.51]. Predikat va uning argumentlari propositiv strukturaning asosiy qismlari hisoblanadi. Predikat semasining asosiy xususiyati ma‘lum miqdordagi argument sememalar bilan bog‘lana olish imkoniyatidir. Bu ularning semantik valentliklaridir. «O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi» qo‘llanmasida ta‘kidlanishicha, «predikat va uning argumentlari munosabati sintaktik modellarni vujudga keltiradi. Sintaktik modellar ma‘lum sintaktik ma‘no asosida ma‘lum sintaktik maydonni hosil qiladi» [4.53].

Biz predikat va uning argumentlari munosabatini noodatiy bog‘lanishlar misolida ko‘rib chiqamiz. Ayni holatda «noodatiylik» belgisi sintaktik qurilmaning faqat mazmun planiga tegishli bo‘lib, struktur qurilish, sintaktik modellar odatdagi shaklini saqlab qoladi. Noodatiy bog‘lanishlar badiiy adabiyot, asosan, she‘riyat tilida

ko'p uchraydi. «She'riyatda normadan chekinish, leksik va grammatik ma'nolar ustidan tajribalar qilish, valentlikni buzgan holda til birliklarini noodatiy tarzda biriktirish kabi holatlarga ruxsat etiladi» [2.65].

Muhammad Yusuf asarlari tilida noodatiy bog'lanishlarning xilma-xil ko'rinishlari uchraydi. Turkiy til-larda fe'l asosli gaplar ot asosli gaplarga nisbatan ko'proq qo'llanishi bizga ma'lum. «Chunki fe'l predikatlikni ifodalash uchun ko'proq xoslangandir» [4.58]. Biz tahlilga tortayotgan bog'lanishlarning aksariyatini ham fe'l-ning noodatiy argumentlari tashkil qiladi.

M.Yusuf she'riyatida uchraydigan fe'l asosli noodatiy bog'lanishlarni morfologik tarkibga ko'ra quyidagicha guruhlab olish mumkin:

1. Ot+fe'l (*fontanlar kuladi, surnay yig'laydi*).
2. Ot+ot+fe'l (*etakka to'ldi armon*).
3. Ot+bog'lovchi+fe'l (*shamol bilan mushtlashsin*).
4. Ot+ravishdosh+fe'l (*kulib kun chiqodur, yig'lab kun botar*).

She'riyat qoidalarining talabi bilan sintaktik strukturalardagi so'z birikmalarining o'rni almashib kelishi mumkin.

Fe'lning noodatiy argumentlari mazmuniy planda bir necha xil uzvlar bilan ifodalanadi. Fe'l predikati-ning qaysi argumenti reallashuviga ko'ra ular tarkibidagi uzvlarni quyidagicha farqlab olish mumkin:

- I. Predmet uzvli.
- II. Holat uzvli.
- III. O'rin (makon) uzvli.
- IV. Payt (zamon) uzvli.

Predmet uzvli fe'l argumentlarining o'z ichida bir necha guruhlarga ajratib tahlil qilish fikrimizni aniq-roq ifodalashga yordam beradi. Ular jumlasiga:

1. Tabiat hodisalari bilan ifodalangan uzvlar.
2. O'simlik nomlari bilan bog'liq uzvlar.
3. Osmon jismlari nomlari bilan bog'liq uzvlar.
4. Narsa-buyum nomlari bilan ifodalangan uzvlarni kiritish mumkin.

Tabiat hodisalari bilan bog'liq uzvlar qatnashgan bog'lanishlar M.Yusuf ijodida ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardagi noodatiy qurilmalar shoirning his-tuyg'ularini, emotsional-eksressiv holatlarini ifodalash bilan birga tabiat hodisalariga lirik yondashuvning namunasi bo'lib xizmat qiladi.

*Oshiqlarim – oshiqdek
Mayli, ko'ngil xushlasin,
Ikki oshiq istasa,*

Shamol bilan mushtlashsin (“Qo'yavering, o'ynasin”).

Shamol bilan mushtlashsin – sintaktik qurilmasi komponentlari “bilan” bog'lovchisi orqali birikkan. «Mushtlashmoq» kabi fe'llarda obyekt valentligi mavjud emas, deb ta'kidlaydi S.Muhammedova. – Zero, bunday fe'llar qatnashgan gaplarda kontragens valentligi yuzaga keladi. Bunda agenslar bir-biriga qarshi harakat qiladilar, demak, ular bir-biriga nisbatan obyekt hamdir. Har ikki agensning harakati bir-biriga o'tadi, ular o'zaro harakat ta'sirida bo'lishadi» [3.228]. «Shamol» va «Mushtlashmoq» leksemalari umumiy semalar yordamida bog'lanish hosil qilib, grammatik aloqaga kirishadi. Differensial semalar esa orqa planga o'tadi:

Shamol – *tabiat hodisasi, havo oqimi, zarba, sirtga ta'sir, urmoq, kuchli, kuchsiz, sovuq, issiq, esmoq*.
Mushtlashmoq – *harakat, musht, zarba, sirtga ta'sir, jarohat, urmoq, janjal*. Har ikki so'zga tegishli bo'lgan «zarba» «sirtga ta'sir», «urmoq» semalari tufayli kuchli havo oqimining tana sirtiga kelib, urilishi musht tushirish, zarba berish harakatiga o'xshatilgan. Mushtlashmoq fe'li tarkibida birgalik nisbati qo'shimchasi borligini inobatga olganda, lirik qahramonning ham musht tushirishga o'xshash qo'l harakatlarini bajarishi ham ta-savvurda gavdalanadi. Bu o'rinda *zarba, musht* harakatining bir-biriga o'tishi–kontragens valentligini reallash-tirgan.

Tabiat hodisasi, «sovuq», issiq, kuchli, kuchsiz, esmoq – harakat, musht, janjal kabi differensial sema-lar esa ularning turlicha semantik maydonga mansubligini ko'rsatib turibdi.

O'simliklar bilan bog'liq uzvlar. «Kishilarning his-tuyg'ularisiz hech mahal kishilarda haqiqat qidirish bo'lmagan, bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas» [1.5]. His-tuyg'ular tufayligina badiiy adabiyot tilida odatiy holatlardan chekinishlar yuz beradi. Adib tasavvuridagi lavha va manzaralarni haqqoniy tasvirlash za-rurati tufayli mantiqiy bog'lanishlar buzilib, g'ayrioddiy birikuvlar paydo bo'ladi. Chunki odatiy fikr ifodalash usullari shoir xayolidagi haqiqatni anglashga ojizlik qilib qoladi.

Aksariyat shoirlar kabi M.Yusuf ijodida ham o'simliklar olamiga murojaat qilish ko'p uchraydi. O'sim-lik uzvli bog'lanishlar asosida turli o'ziga xos ifodalar yaratgan.

*Matematika qo'yni to'la sir bo'ladi,
Birga birni ko'paytira – bir bo'ladi.
Derazadan mo'ralaydi olma shoxi,
Ufqda bulut – ertaga yomg'ir bo'ladi* (“Matematika darsi”)

Derazadan mo'ralaydi olma shoxi misrasida jonlantirish san'ati orqali obraz yaratilgan bo'lib, bunda agens valentligini yuzaga chiqaruvchi argument – daraxt fitonimi (olma shoxi). «**Olma shoxi**» birikmasi o'simlik, daraxt, meva, olma, bog', tashqari, qism (daraxt qismi), egilmoq kabi semalar tarkibiga ega. **Mo'ralamoq** fe'lida esa harakat, ko'z, tirqish, to'siq, qisman (qarash), tashqari, ichkari, egilmoq kabi semalar mavjud.

Komponentlarning semalari orasidan «tashqari», «qismanlik», «egilmoq» singari umumiy semalarni ajratib olib, ularning tutashuv nuqtasini topish mumkin. Mo'ralash harakati yo tashqaridan ichkariga, yoki ichkaridan tashqariga nisbatan amalga oshiriladi. Daraxtning esa (uy ichida emas) tashqarida o'sishi hammaga ma'lum. Daraxtning butunicha emas, bir shoxining, shoxning ham ma'lum bir qismining egilib, tashqaridan deraza orqali ichkariga ko'rinib turishi manzarasi mo'ralash harakatiga o'xshatilgan.

Osmon jismlari nomlari bilan bog'liq uzvlar. *Samo, yulduz, bulut, quyosh, oy* kabi kosmonimlar vositasida ham go'zal poetik ifodalar yaratilgan.

*Yer yonar jahannam Afg'onda yal-yal,
Kulrang ko'rpa yanglig' bulut yonodur.
Yonar ne tiklagan bo'lsa bir mahal –
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur–,* (“Ikki buyuk shoir”)

misrasidagi noodatiy tarzda bog'langan **kulrang ko'rpa yanglig' bulut yonodur** konstruksiyasini ko'rib chiqamiz. Me'yoriy holatdan chekinish subyekt-predikat bog'lanishda ro'y beradi. **Bulut** leksemasi tarkibida osmon, yomg'ir, qizg'ish, qora, olovrang, oq, bug', yog'du, suzmoq kabi semalar mavjud. Yonmoq fe'li esa olov, yog'du, qizg'ish, olovrang, kuymoq, kulrang, tutun kabi semalar qatoriga ega. Har ikki so'z uchun umumiy bo'lgan *qizg'ish, yog'du, olov* rang ularni bog'lashga asos bo'lgan. Bug', suzmoq, kuymoq, olov singari zidlovchi semalar esa bu ikki so'zni mantiqan bir-biridan uzoqlashtiradi.

Qayd etilgan konstruksiya tarkibida argument – predikat munosabatidan tashqari argument aniqlovchisi ham mavjud (*kulrang ko'rpa yanglig'*). «...argument fe'l predikatida mavjud bo'lgan «bo'sh o'rinlar»ni to'ldirib (ikkinchi qavatni hosil qilib), sintaktik ma'nosini konkretlashtirsa, qurilma (konstruksiya)ning aniqlovchilari deskripsiyani hosil qilib, argument ma'nosini kengaytiradi» [4.60]. Subyekt argumenti – **bulut** ma'nosini uning aniqlovchisi – **kulrang ko'rpa yanglig'** birikmasi kengaytirgan. Aniqlovchi tarkibidagi kulranglik belgisi «yonmoq» so'zi tarkibidagi «kulrang tutun» semasi bilan ma'noviy tutashib, manzarani boyitishga yordam bergan. **Ko'rpa** so'zi esa «bulut» so'zi tarkibidagi «paxtasimonlik», «yoyilganlik» belgilari bilan umumiylik hosil qilgan.

Ko'rib turganimizdek, asosiy bog'lanish subyekt va predikat orasida yuz berayotgan bo'lsa-da, subyekt aniqlovchisi nafaqat argumentga, balki, ma'lum semalar bilan bevosita predikatga ham bog'lanib, o'xshatish elementlarini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. T., “Fan”, 1990.
2. Гальперин И.П. К проблеме необычных сочетаний. В кн. Проблемы общего и германского языкознания. М., 1978.
3. Muhamedova S. Harakat fe'llarining obyekt valentligi. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami, III qism, T., 2006.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992.

Otajonova Lola (UrDU tayanch doktoranti)

SAJ' SAN'ATINING TARJIMADA SAQLANISHI ASLIYAT BADIYYATI IFODASI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqola Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining Y.Bregel tomonidan ingliz tiliga tarjimasida saj' san'atining tarjimalari, tarjima muvofiqligi, adekvatligi va pragmatikasiga bog'liq masalalar tahlili ko'rsatilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы, связанные с переводом, совместимостью, адекватностью и прагматикой искусства саджа в переводе произведения Муниса и Огахи «Фирдавс уль-Икбал» на английский язык со стороны Ю.Брегеля.*

Annotation. *This article analyzes translation coincidence, adequacy and pragmatics of sajj art in English translation of Munis and Agahi's work “Firdavs ul-Iqbal” by Y.Bregel.*

Kalit soʻzlar: tarjima, tarixiy realiya, adekvatlik, muvofiqlik turlari, pragmatika, sajʼ, alliteratsiya.

Ключевые слова: перевод, исторические реалии, адекватность, виды соответствия, прагматика, садж, аллитерация.

Key words: translation, historical reality, adequacy, types of correspondence, pragmatics, saj, alliteration.

Tarjima jarayonining oliy maqsadi mavjud tillarda gaplashuvchi xalqlarni jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishtirishdan iboratdir. Albatta, badiiy asar tarjimasiga kirishishdan oldin tarjimon tarjimaning barcha usullari, modellari va qonun-qoidalari, bir soʻz bilan aytganda, tarjima nazariyasi yutuqlari, uning tarjima amaliyotida aks etish tajribalari tarixidan yaxshi xabardor boʻlishi maqsadga muvofiqdir.¹ Tarjima – azaldan til bilan bir qatorda mavjud boʻlib, adabiyot bilan uzviy bogʻliqlikda taraqqiy etgani bois bu sohalarini bir-biridan alohida ajratish mumkin emas.² Asliyatning tarjima tilida qayta yaratilish jarayoni tarjimashunos olim Gʻ. Salomov tadqiqotlarida quyidagicha ifodalanadi:

1. Asliyatni tarjimon qanday qabul qilishi yoki qay darajada tushunib yetishi.

2. Asarning gʻoyasi, muallifning maqsad-muddaosi va uning oʻziga xos uslubini qay tarzda talqin qilishi.

3. Soʻz sanʼati namunasini oʻz ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, usul va yoʻl topa olishi.³

Darhaqiqat, oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari oʻzga tilda qayta yaratishga kirishgan har bir muttarij sharq adabiyotchiligi anʼanalarini mukammal anglashi va oʻz tilida asliyat mazmun-mohiyati bilan birgalikda musiqiy ohangdorligini saqlagan holda jaranglatmogʻi kerak.

Oʻzbek adabiyotida “gʻazal mulkingning sultoni” Alisher Navoiydan keyingi oʻrinni egallagan shaxs Ogahiy hisoblanib, nasrdagi badiiylarning betakror namunasini yaratgan. Bu borada A.Oʻrozboyev fikrini eʼtirof etishimiz kerakki, Ogahiyning tarixiy asarlari oʻzbek tarixiy va badiiy nasrining oʻziga xos noyob durdonalaridir. Ushbu asarlar eski oʻzbek tilining turli sathlar doirasida bor imkoniyatlarini namoyon qiluvchi muhtasham obidalari sanalishi bilan birga, ular XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi oʻzbek adabiy tili shakllana boshlaganini eʼtiborga olsak, eski oʻzbek tilida bitilgan soʻnggi koʻlamdor yodgorliklar ham hisoblanadi.⁴

Garchi tarixiy voqealar tasvirlangan boʻlsa ham, bu asarlar sajʼ asosida yozilgani, poetik ifoda uslubi, turli janrlarga doir nazm namunalari berilgani jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ular tarixiy jihatdan qanchalik ahamiyatli boʻlsa, badiiyatiga koʻra ham shunchalik qimmatli baland. Shunga koʻra, bu asarlarni badiiy-tarixiy nasr namunalari deyilsa, toʻgʻri boʻladi.⁵ Ogahiyshunos olim N.Jabborov “Firdavs ul-iqbol” asarining nafaqat tarixiy ilmiy asar, balki badiiy-tarixiy asar ekanligini taʼkidlab, asarning badiiy qiymatini asarning badiiy uslubi va tilining oʻziga xosligida ekanligini eʼtirof etadi. Shu bilan birga, asarda qalamga olingan maʼlumotlarning keltirilish uslubi narsada sajʼning betakror namunasi ekanligida deb isbotlaydi.

Sajʼ soʻzi arabcha boʻlib, lugʻaviy maʼnosi jihatidan qumri, bulbul, toʻti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qoʻshilib, joʻr boʻlib ketishini anglatadi. Istilohda (termin sifatida) esa, yuqorida aytilgandek, badiiy sanʼatlardan birini ifodalaydi.⁶

Tarjimashunoslik sohasida sajʼ sanʼatining tarjima mantlarida qayta yaratilishi borasida Z.O.Jumaniyozov,⁷ A.Abdullajonov,⁸ D.Xoshimova⁹ va Sh.Shergʻoziyev¹⁰ tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, sajʼ sanʼatining tarjimasida borasida D.Xoshimova pragmatikaning ahamiyati haqida ham eslatib, “Boburnoma” asaridagi

¹ Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Masʼul muharrir O.M.Muminov. T., “Mumtoz soʻz”, 2011, 11-bet.

² Hamidov X. Tarjima – asarning boshqa tildagi toʻliq nusxasi (soʻzboshi). Yosh tarjimashunos. V. “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” va “Sinxron tarjima” mutaxassisliklari magistrantlari hamda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yoʻnalishi talabalarining yillik anʼanaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari, T., 2020, 3-bet.

³ Salomov Gʻ. Tarjima tashvishlari. Toshkent, Gafur Gulom, 198. 110-bet.

⁴ Oʻrozboyev A. Xazon bilmas davlat bogʻlari (“Riyoʻz ud-davla”ning ilk toʻla nashri munosabati bilan). Toshkent, Navoiy universiteti nashriyat matbaa uyi, 2020, 174-bet.

⁵ Jabborov N. “Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi. Muhammad Rizo Ogahiyning oʻzbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan oʻrni. Toshkent, Navoiy universiteti nashriyat matbaa uyi, 2020, 151-bet.

⁶ Sarimsoqov B. Oʻzbek adabiyotida sajʼ. Toshkent, “Fan”, 1978, 12-bet.

⁷ Jumaniyozov Z.O. “Ravshan” dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish. Filol. fan. nomz. diss., Urganch, 2008.

⁸ Abdullajonov A. Munojot tarjimasida mazmun va shakl birligi. Содружество языков. Содружество культур (Материалы 4-республиканской научной конференции). Наманган, 2017.

⁹ Xoshimova D. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, Toshkent, 2018.

¹⁰ Shergʻoziyev Sh. Boburnoma mantidagi shaxslar tasvirida sajʼi matavoziyning oʻrni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi. FarDU “Ilmiy xabarlar”, 2022, 3-son, 413-bet.

keltirilgan saj' namunalari tarjimasida ularning qo'llanilishiga emas, real voqealigiga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi.¹

“Firdavs ul-iqbol” asarida saj' san'atining turli shakllari keltirilgan bo'lib, tarixiy-badiiy asar nasrdagi nazmning nodir namunasi ekanligining guvohi bo'lamiz. Asarda voqealar tasvir-u tavsifiga qaratilgan saj'lanish xarakteri ham murakkab strukturaga ega. Mutaxassislarining tadqiqotlariga binoan, “Ogahiy tarixiy asarlaridagi, xususan, kirish qismlar, lirik chekinishlar, kiritma o'rinlarda saj'ning go'zal namunalari yaratilgan. Ogahiy tarixiy asarlarida saj'ning yetakchi san'at, asosiy badiiy ifodaga aylanish ildizlari, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodi namunalari shakllangan asriy an'analar; ikkinchi navbatda, Munis va Ogahiy o'zlari tarjima qilgan fors tilidagi tarixiy solnomalar uslubi, uchinchi navbatda, muarrixlarning real voqealarga badiiy tus berish mahorati bilan bog'lanadi”²

Nasriy asarda saj' qo'llash mahoratining go'zal namunalari, odatda, hukmdorlar tasviri bilan keltirilgan: “...jahon fozillarining afzali va zamon komillarining akmali, fazlu donish tengizining timsohi, aqlu binish safinasining mallohi, ilm quyoshining matla'i va kamol ahlining marja'i... halloli mushkuloti daqoyiq, kashshofi g'atoyoyi haqoyiq, fazoilmaob, kamolotintisob, ya'ni, Munis mirob marhumiy saqaallohu sarohuakim, ul hazratning qadim al-xizmat chokar va davlatxohi ixlos nustarlaridin erdi, anga lutfi beg'oyat va karami bilonihoyat izhor qilib, bu humoyun kitobning ta'lifin buyurub, ani o'z aqronidin mumtoz va sarafroz qildi” (FI. 394).

Misol tariqasida keltirilgan parchada *jahon – zamon, fozillarining – komillarining, afzali – akmali, fazlu – aql-u, donish – binish, timsohi – mallohi, matla'i – marja'i, halloli – kashshofi, mushkuloti – g'atoyoyi, daqoyiq – haqoyiq, fazoilmaob – kamolotintisob – Munis mirob, beg'oyat – bilonihoyat, mumtoz – sarafroz* sajlanishning turlari keltirilgan.

Y.Bregel tomonidan amalga oshirilgan tarixiy solnoma tarjimasida asliyat va tarjima matnlarida saj' san'atining bir-biriga muvofiqligi masalariga etibor qaratish joiz. “Firdavs ul-iqbol”da saj' ko'pincha biror tarixiy shaxsning sifat va siyrati, harakat va holati bayonida qo'llaniladi. Masalan, Abul-G'ozixon haqida ma'lumot berilganda juda qisqa, ammo komil saj' qo'llanilgan:³ “Hazrat *xoqoni a'zam va sultoni olam*” (FI. 36).

Misolda keltirilgan saj' namunasi hukmdor tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, muallif tarixiy shaxs shaxsiyatini qisqa usulda ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Asliyatning tarjima matni “The felicitous person of his majesty, the greatest *khaqan* and the *sultan* of the world” (FI.9) tarzida berilgan. Darhaqiqat, asliyatdagi ikkita saj'lanuvchi qismlar *xoqoni – sultoni* va *a'zam – olam* so'zlari bilan ifodalangan. Tarjimada saj'lanuvchi qismlardan faqat *xoqoni – sultoni* tarjimada *khaqan* va *sultan* tarixiy realiyalari vositasida asliyatdagi saj' san'atining badiiyati va poetik jozibasini tarjima tilida qayta yaratilishiga turtki bo'lgan. Qiyos qilish natijasida *khaqan* va *sultan* so'zlaridan oldin kelgan so'zlar ham sajlanuvchi hisoblanib, ular tarjimada saj' sifatida saqlanmagan. Tarjimonda *a'zam* va *olam* saj'lanuvchilarni qofiyadosh muqobil bilan ifodalamay tarjimada *greatest* va *world* leksik birliklari orqali mazmunini berish bilan kifoyalangan. Shunga qaramasdan, bu, o'z navbatida, asliyatdagi to'liq saj'ning namunasi bilan birga tarjimada mazmunning saqlanishida ham adekvatlikka erishilganligining isbotidir. Masalan, Abulg'ozixon haqida ma'lumot berilganda juda qisqa, ammo komil saj' qo'llanilgan:⁴ “Adulg'ozixon *sultoni dono* va *xoqoni tavono* erdi” (FI. 90). Asliyatda tasvirlangan Abulg'ozixonning *sultoni dono* va *xoqoni tavonoligi* tarjima mantida *sultan* va *khaqan* shaklida sajlangan: “Abu'l Ghazi Khan was a learned *sultan* and a mighty *khaqan*” (FI.43).

Muallifning asarda ushbu saj' san'atidan foydalanishining maqsadi shundan iboratki, tasvirlanayotgan tarixiy shaxs xulq-atvori lo'nda hamda qahramonga xos xislatlar kitobxonga tez yetib borishi va xotirada saqlanishini ta'minlashdir. Agar muttarjim muallif maqsadini tarjimada amalga oshirsa, demak, asliyatdagi ko'zlangan xuddi shu rejalar tarjimada ham aks etadi.

Aksariyat saj'li parchalar tarjimada to'liq muqobillikni tashkil etadi. Tarjima jarayonida asliyatdagi va tarjimadagi muqobillik adekvat hisoblanib, qofiyadoshlik va mazmun jihatidan mutloq tenglikni shakllantiradi. Bunday holatni quyida keltirilgan misolda kuzatamiz: “Amir Iskandar saroy otoliq boshliq Buxoroning mashohir va maorifi *tuhafi bisyor* va *peshkashi beshumor* bila qal'adin chiqib, xonning huzurida ubudiyat tufroqin o'ptilar” (FI.93). “With amir Iskandar Saray Ataliq at the head, the eminent people of Bukhara went out of the city with *numerous gifts* and *countless presents* and kissed the ground in submission before the khan” (FI.48).

¹ Xoshimova D. Ko'rsatilgan manba. 206-bet.

² Yusupova Q., O'rozboyev A. Ogahiy tarixiy asarlarida tajnisi muharraf va saj' hosil qilishda lug'aviy imkoniyatlar. Innovative Development in Educational Activities. Volume 2, Issue 12, 2023, 53-bet.

³ Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. Toshkent, “Fan”, 1978, 133-bet.

⁴ O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi. II tom, tuzuvchi O.Sharafiddinov. Toshkent, 1945, 569-bet.

Asliyatdagi saj'lanuvchi qismlar deb *tuhafi – peshkashi* va *bisyor – beshumor* hisoblansa, tarjimada bularga *numerous – countless* va *gifts – presents* ekvivalentlari bilan berilgan. Demak, bu usul asliyatdagi saj' san'atining tarjimada *to'liq muvofiqlikka* erishilganligi bilan adekvatlikni tashkil etishi sanaladi.

Darhaqiqat, ushbu tarixnomada keltirilgan saj' namunalari betakrorligi bilan ajratilib turadi desak, mubohlag'a qilmagan bo'lamiz. Asarda xonning xatti-harakati ifodasidagi saj' san'atini misol tariqasida tahlilga tortsak: "Xon ko'p *inbisot* va g'oyat *nishot* bila ichkari kirib o'lturdi" (FI.91). Keltirilgan misol saj'lanishning saj'i mutarraf turi *inbisot* va *nishot* birliklari bilan ifodalangan. Tarjima mantida bu saj'lanish "The khan entered and sat down *utterly delighted and extremely pleased*" (FI.50) tarzida keltirilgan. Asliyatdagi sajlanuvchi qismlar *inbisot – delighted* va *nishot – pleased* muqobillari bilan tarjimada almashtirilgan. Shunisi e'tirofqa sazovorki, misol tariqasida asliyatdan keltirilgan parchada saj'lanish hosil qilmagan birliklar tarjimon mahorati tufayli qofiyadosh saj'lanish turini vujudga keltirdi. Y.Bregel tarjima tilida yaratgan sajlanuvchi birliklar nihoyatda nafis bo'lib, natijada ingliz tilidagi kuchaytiruvchi *utterly* va *extremely* ko'rsatkichlar bilan musiqiy ohangdorlikni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan. Bizga ma'lumki, sharq adabiyotiga xos bu san'at aslida ingliz adabiyotshunosligida uchramasa ham, tarjimon asliyatda keltirilgan bu tajribani *rhymed sentences* shaklida ishlatilishini qayd etib, tarjima matnida turkiy adabiyotda ishlatilishini keltirib o'tadi.

So'zlar orasida ohangdorlikni saqlab saj'lanuvchi qismlarni qayta yaratish muttarjimdan katta mahorat va sa'y-harakat talab qiladi. G'.Salomov "Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya'ni, ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni, iloji boricha, to'laroq ifodalash tashvishida yonadi",¹ degan haqiqatni qayd etadi.

Quyidagi tahlilga diqqat qaratamiz: "*Jiloandud binosi oshiqlar ko'nglidek musaffo va safoomud asosi ma'shuqlar yuzidek mujallo. Fazoi dilkushoi Eram gulzori sahnidin xabar berguvchi va havo'i g'oliyasi Firdavs nasimi fayzidin asar yetkurguvchi*" (FI.185). "Its *pleasant* court recalls the garden of Iram, and its *fragrant* air brings a whiff of a breeze from paradise" (FI.171).

Bino va inshootlar tasviriga bag'ishlangan ushbu parchada *jiloandud – safoomud, binosi – asosi, oshiqlar – ma'shuqlar, ko'nglidek – yuzidek, musaffo – mujallo, fazoi – dilkushoi – havo'i, sahnidin – fayzidin, xabar – asar, berguvchi – yetkurguvchi* kabi saj'lanishlar soni to'qqizga teng bo'lib, miqdor jihatidan tarjima matni bilan mutanosib emasligini payqashimiz aniq. Tarjimada keltirilgan saj'lanuvchi qismlar deb *pleasant* va *fragrant* birliklarini ayta olamiz. Chog'ishtirilayotgan tillardagi saj'lanishlarni qiyoslaydigan bo'lsak, muttarjim tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, badiiy san'atni boshqa birliklarni o'girish orqali qayta yaratdi. Bu degani asliyatdagi sajlanishlar tarjimada o'z aksini topmadi. Shuningdek, tarjima jarayonida asliyatdan keltirilgan birinchi gap ingliz tiliga o'girilmasdan tushub qoldirilgan. Biroq tarjima matni saj'lanishlar miqdorining asliyatdagi miqdor bilan taqqoslash mantiqqa to'g'ri kelmasligining asosiy sababi tarixiy asar sintaktik nuqtayi nazardan o'ta murakkab strukturaga egaligida deb sabab keltirishimiz aniq.

Asliyatdagi badiiyatning tarjimada saqlanish an'alariga nazar soladigan bo'lsak, ayrim holatlarda saj' san'ati tarjimada aynan asliday saqlanmaganligi kuzatiladi. Tarjimon asliyat badiiyatining tarjimada boshqa tajribalarini sinab ko'rishni ma'qul ko'radi. Biz qiyos natijasida asliyatdagi saj' badiiyati boshqa nasrning ritmik ohangdorlik bilan navbat almashganligining guvohi bo'lamiz: "muonidlar cheriki bila *korzori ajib* va *kirdori g'arib* zuhurg'a yetkurdilarkim," (FI.149). "fought such an amazing fight and extraordinary battle against the rebel troops" (FI.127).

Tahlilga tortilgan parchadan shunisi ma'lumki, asliyatda *korzori – kirdori* va *ajib – g'arib* sajlanuvchi qismlar keltirilgan. Muqobillarni solishtiradigan bo'lsak, asardagi *korzori – kirdori* saj'lari tarjimada *fight* va *battle* bilan, *ajib – g'arib* so'zlari esa *amazing* va *extraordinary* variantlari bilan berilgan. Bu o'z navbatida, tarjimada keltirilgan ekvivalentlarning bosh harflari ishtirokida hamohanglikni kuzatamiz. *f* harfi bilan boshlangan *fought* va *fight* so'zlarimiz bir vaqtning o'zida ham saj' namunasini ham tovushlar uyg'unligini yaratgan. Lekin *ajib – g'arib* sajlanuvchi qismlarning tarjima matnidagi muqobillari saj' hosil qilmasdan, balki parchadagi *amazing* va *against* til birliklari ham tovushlar uyg'unligini paydo qilgan. Bunday asliyatdagi badiiyat tarjima matnlarining boshqa o'rinlarida ham duch kelamiz. Masalan: "Aksari avqot bazmu ishrat va majlisi tarabda *axyor* va *abrori shuaro* va *fuzalo* bila suhbat tutu halli *mushkiloti aqliy* va kashfi *mug'alliqoti naqliy* qilib, maonii rangin sharobidin sarshori kayfiyat bo'lur erdi" (FI.236). "Most of the time, during feasts and festive *gatherings*, he was in the company of *religious* and pious men, poets and scholars; solving the intricacies of knowledge and unfolding obs are points in tradition, he would become intoxicated with the wine of allegorical *meanings*" (FI.231).

¹ Salomov G'. Tarjima san'ati. Toshkent, 1973, 57-bet.

Mazkur parchada ham asliyatdagi saj'lanuvchi qismlar tarjimada saqlanmagan bo'lsa ham, boshqa birliklar muqobili tarjimasida kuzatiladi. Dastlabki e'tiborni tortuvchi qofiyalanish ingliz tilidagi ko'plik shalk yashovchi *s* affiksining tarjimasida saj' hosil qilish tamoyilidir. Bunday yasalgan saj'lar sirasiga *feasts, gatherings, poets, scholars, intracacies, points, meanings* kabilarni keltirish mumkin. Shuningdek, parcha tarjimasida qayta yaratilgan *religious – pious* va *gatherings – meanings* so'zlari saj' hosil qilish tamoyillari asosida keltirilgan deb ta'kidlashimiz mumkin. Bundan tashqari, *f* va *p* tovushlari bilan boshlanuvchi so'zlar *feasts – festive* va *pious – poets – points* o'zaro hamohang bo'lib, tarjimada alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Shunday qilib, keltirilgan misollardan ma'lumki, tarjimadagi birliklar boshlanishida alliteratsiya va saj'ning yangi namunalari orqali tarjima badiiyatining qayta yaratilishi amalga oshgan. Bu asliyatdagi badiiyatning tarjima tili ichki imkoniyatlari asosida *qisman muvofiqlikni* tashkil etilishi sanaladi.

Asarda murakkab sajlanishli tarkibdan tortib, to sodda tuzilishli ohangdor nasr namunalarini ham o'qishimiz mumkin. O'zbek og'zaki ijodiga xos lingvokulturologik xususiyatlar tarixiy asarda ham keltirilganligi fikrimiz isbotidir: "Asfandiyorxon *shahriyori oqil* va *podshohi odil* erdi" (FI.89). Misol tarzida keltirgan parcha tarjimada o'z poetik xususiyatini saqlay olmagan: "Isfandiyor Khan was a wise monarch and a just king" (FI.41). Asliyatdagi *shahriyori oqil* va *podshohi odil* saj'lar *wise monarch* va *just king* muqobillari yordamida tarjimada berilgan. Natijada muqobil tariqasida tanlangan so'zlar saj' tamoyillariga binoan musiqiy ohangdorlikni paydo qilmagan. Aynan shunday holat quyidagi misolda ham uchraydi: "Aning zamonida qo'ngrot qaboilining *davlat* va *sarvati* ortti" (FI.114). "In his time the power and wealth of the Qongrat tribe increased" (FI.82).

Bunday tarjima jarayonlarida tarjimaga nisbatan adekvatlik tamoyilini ishlata olmaymiz. Asliyat matnidagi badiiyat tarjimada mazmun va shakl xususiyatlarini saqlaganicha gavdalansa, bu tarjimani adekvat deya olamiz. Biroq asliyatdagi keltirilgan mazmun va mohiyat saqlanib badiiylik ifodalanmasa, tarjimada pragmatik muvofiqlik yuzaga kelgan deya olamiz. Masalan: "Eshniyoz mehtar va Abdulrahmon boy Urganjiy va Niyoz-muhammad Oqoy Qahramoniykim Muhammadamin inoqning *davlatxohi samimiy* va *xavoxohi qadimiy*si erdilar" (FI.145). "Ish Niyaz Mehter, 'Abd ar-Rahman Bay Urgenchi and Niyaz Muhammad Aqa-yi Qahramani, who were *sincere well-wishers* and *old friends* of Muhammad Amin Inaq" (FI.122).

Keltirilgan matn tarjimasida *davlatxohi samimiy* va *xavoxohi qadimiy* asliyatdagi sajlanuvchi fosilalar tarjimada qofiyadosh bo'lmagan muqobillar orqali ifodalansa ham, mohiyat tarjimada to'liq saqlangan. Tarjima qilingan jumlaning ma'nosi aniq ifodalanishi uchun gap aniqlovchi qo'shma gap shaklida berilgan va asliyatda mavjud bo'lmagan sintaktik struktura tarjima tilida paydo qilingan. Bu esa *who* birligi qo'shilishi natijasida pragmatik tarjimani paydo etgan. Bu tajriba saj' san'atining tarjima shaklida mutloq mavjud emasligi *muvofiqlikning mavjud emasligi* sifatida qaraladi.

Asarda keltirilgan saj' san'ati tarjimalari tadqiqi natijasida quyidagicha nazariy xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Asliyatdagi saj' san'ati turlari ifodalanishidan qat'iy nazar, ikki tilning ichki imkoniyatlari asosida mutarjim tomonidan tarjima matnida san'at sifatida saqlab qolingani, ya'ni asliyatdagi saj' san'atining tarjima shaklida to'liq muvofiqligi. Masalan, *xoqoni – khaqan, sultoni – sultan* va *numerous – countless*.

2. Asliyatdagi saj' san'atning tarjima matnida boshqa birliklarda saqlanib qolishi, ya'ni asliyatda bu san'atning qisman muvofiqligi: Mashhurdurkim, aning bila ov orasida ko'p hikoyati *ajiba* va mutoibot *g'ariba* voqe bo'lubdur" (FI.94). "It is well known that there are many amusing *stories* and wonderful *pleasantries* of their relationship, including the following" (FI.50). Bu misolda asliyatdagi *ajiba – g'ariba* saj'lanish hosil qiluvchi qismlar tarjimada saqlanmagan, biroq tarjimada boshqa birliklar *stories – pleasantries* saj'lanish tamoyillari asosida qo'llanilgan va badiiyat saqlangan.

3. Asliyatda keltirilgan saj' namunalari tarjima tilining lingvistik imkoniyatlardan kelib chiqib, saj' san'ati tarjimada saqlab qolinmagan. Biroq til xususiyati tufayli asliyatning mazmun-mohiyati saqlangan. Tarjimada muvofiqlikning mavjud emasligi, boshqacha qilib aytganda, pragmatik tarjima hisoblanadi: "Muhammadamin inoq bag'oyat donishmand va *kordon* va maishatdo'st va *komron* erdi" (FI.159). "Muhammad Amin Inaq was very learned and clever, (304) with a taste for life and pleasure" (FI.144).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ingliz tilida mavjud bo'lmagan saj' san'ati Y.Bregelning Xiva xonligi tarixidan chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, turkiy xalqlarning badiiy san'atlaridan ham yaxshi xabardor ekanligining samarasi tarjima namunalari tahlilidan ayon. Tarjimonning biz sanab o'tgan mahoratlari – ma'lumotlarning originalligicha kitobxonga yetib borishida asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullajonov A. Munojot tarjimasida mazmunva shakl birligi. Содружество языков. Содружество культур (Материалы 4-республиканской научной конференции). Наманган, 2017.

2. Hamidov X. Tarjima – asarning boshqa tildagi to‘liq nusxasi (so‘zboshi). Yosh tarjimashunos. V. “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” va “Sinxron tarjima” mutaxassisliklari magistrantlari hamda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi talabalarining yillik an‘anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T., 2020, 3-bet.
3. Jabborov N. “Firdavs ul-iqbol”. Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi. Muhammad Rizo Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni. Toshkent, Navoiy universiteti nashriyat matbaa uyi, 2020, 151-bet.
4. Jumaniyozov Z.O. “Ravshan” dostoni nemischa tarjimasida milliylikni qayta yaratish. Filol. fan. nomz. diss., Urganch, 2008.
5. O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi. II tom, tuzuvchi O.Sharafiddinov. Toshkent, 1945, 569-bet.
6. O‘rozboyev A. Xazon bilmas davlat bog‘lari (“Riyo ud-davla”ning ilk to‘la nashri munosbati bilan). T., Navoiy universiteti nashriyat matbaa uyi, 2020, 174-bet.
7. Salomov G‘. Tarjima san‘ati. Toshkent, 1973, 57-bet.
8. Salomov G. Tarjima tashvishlari, Toshkent, Gafur Gulom, 198. 110-bet.
9. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj‘. Toshkent, “Fan”, 1978, 4-bet.
10. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Mas‘ul muharrir O.M.Muminov. T., “Mumtoz so‘z”, 2011, 11-bet.
11. Sherg‘oziyev Sh. Boburnoma mantidagi shaxslar tasvirida saj‘i matavoziyning o‘rni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi. FarDU “Ilmiy xabarlar”, 2022, 3-son, 413-bet.
12. Xoshimova D. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, Toshkent, 2018.
13. Yusupova Q., O‘rozboyev A. Ogahiy tarixiy asarlarida tajnisi muharraf va saj‘ hosil qilishda lug‘aviy imkoniyatlar. Innovative Development in Educational Activities. Volume 2, Issue 12, 2023, 53-bet.

Raximova Ilmira Marksovna (Urganch davlat universiteti ingliz tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti)
TOPISHMOQLARDA SOMATIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada topishmoqlarda ko‘p uchraydigan somatik birliklarning o‘z va ko‘chma ma‘nolarda kelishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о возникновении соматических единиц, которые часто встречаются в загадках в собственном и переносном значении, и их специфических характеристиках.*

***Annotation.** This article provides information about the occurrence of somatic units that are often found in riddles in their own and figurative meanings and their specific characteristics.*

***Kalit so‘zlar:** topishmoq, jumboq, somatik birlik, frazeologiya, ko‘chma ma‘no, qiyoslash, mantiq.*

***Ключевые слова:** загадка, головоломка, соматическое единство, фразеология, переносное значение, сравнение, логика.*

***Key words:** riddle, puzzle, somatic unity, phraseology, figurative meaning, comparison, logic.*

Topishmoq, topmacha, jumboq, matal – xalq og‘zaki poetik ijodining eng qadimgi va ommaviy janrlaridan biri. Jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urf-odatlarini ma‘lum darajada o‘z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo‘lgan so‘roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma‘nosi yashirincha bo‘ladi. Topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatish, o‘zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavalantiriladi. Topishmoqlar ba‘zan nasriy, ko‘pincha she‘riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo‘ladi. Masalan, “Bir parcha patir, olamga tatir” (oy); “Oppoq dasturxon yer yuzini qoplagan” (qor); “Past osmondan qor yog‘ar” (elak). Ayrim topishmoqlar maqol xususiyatiga ham ega bo‘ladi. Masalan, “Hammaga to‘n tikaman, o‘zim yalang‘och” (igna). Topishmoqlarda metafora, o‘xshatish, mubolag‘a, sifatlash, takror kabi ifoda vositalari keng foydalaniladi. Masalan, “O‘zi bir qarich, soqoli qirg qarich” (igna), “Yer tagida oltin qoziq” (sabzi). Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so‘z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Topishmoqdan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. “Oshiq Oydin”, “Oshiq Alvand”, “Xirmon Dali”, “Yozi bilan Zebo”, “Alpomish” va boshqa dostonlarda, “Podsho bilan donnishmand chol” ertagida topishmoq namunalari bor. Topishmoq bilan bog‘liq masalalar folklorshunoslikda tadqiq etiladi.¹

Ingliz va o‘zbek tillari topishmoqlar olami rang-barang va keng qamrovlidir. Somatizmlar, ya‘ni tana a‘zolarini ifoda etuvchi so‘zlar esa ular tarkibida faol qo‘llaniluvchi leksik birliklar hisoblanadi. Tilshunoslikda somatizm atamasi birinchi marta eston tili tadqiqotchisi F.Vakk tomonidan qo‘llanilgan, uning fikricha,

¹ Husainova 3. O‘zbek topishmoqlari. Topishmoq. 1966.

somatizm frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biridir.¹ Yana bir tilshunos olim E.M.Mordkovichning “Семантика – тематические группы соматических фразеологизмов” nomli dissertatsiyada «Somatik frazeologizm» atamasi inson tana a’zolari nomlari bilan bog’liq bo’lgan frazeologizmlarni tadqiq etgan. Bu kabi tadqiqotlar o’zbek tilshunoslarini ham chetda qoldirmadi. Ular tildagi birliklarning shakllanish tamoyillari, ularning o’zbek nutqi funksional ko’rinishlarida yashash shart-sharoitlari, uslubiy imkoniyatlari, jumladan, badiiy-publitsistik matnlardagi emotsional-ekspressiv vazifalari borasida sezilarli tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu kuzatishlar nafaqat bir til, balki bir necha tillarni qiyoslash asosida ham olib borildi. M.Gadoyeva, A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, Sh.Nazirova, H.Alimovlar tomonidan somatik frazeologizmlarni o’rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar o’zbek tilidagi frazeologik birliklarning lingvistik va ontologik tabiatini o’rganishga muhim hissa bo’lib qo’shildi.² Somatizm, somatik frazeologik birlik yoki somatik frazeologik komponent deganda imo-ishora, mimika, inson tanasining psixosemantikasi, yuz ifodasi, ishoralari tushuniladi.³ Ingliz va o’zbek topishmoqlari mazmunan va shaklan yaqinlik kasb etishida ularda qo’llangan somatizmlarning goh o’z, goh ko’chma ma’noda kelishida kuzatiladi. Topishmoqlar bir yoki bir nechta somatizm ishtirokida shakllangan bo’lishi bilan e’tiborni tortadi.⁴ Ushbu maqolada tarkibida somatizm berilgan topishmoqlarni tahlil etilgan.

I have eyes but I can't see.

I have skin but I can't feel anything.

I can be sweet but I'm not a piece of candy.

I can be baked but I'm not a cake.

I can be peeled but I'm not a carrot. (A potato)

Ushbu topishmoqda eye va skin somatizmlari kartoshkani tasvirlash uchun qo’llanilgan.

Qo’l leksemasi qatnashgan topishmoqlar. “Bir soqchi bor, turadi ostonada, Bir qo’li ko’chada, bir qo’li xonada.” (eshik tutqichi) ushbu maqolda qo’l leksemasi somatizm sifatida kelgan bo’lib, insonga xos belgi tutqichga nisbatan qo’llanilib, ma’no ko’chishi yuzaga kelyabdi. Bu turdagi ma’no ko’chishini tilshunoslikda metafora deb ataladi. “Yelkasi bor, boshi yo’q, Oyog’i bor, qo’li yo’q.” (stul) bu topishmoqda ham xuddi shunday, ya’ni, yelka, bosh, oyoq va qo’l leksemalari somatizm hisoblanib, ma’no o’xshashlik belgisi orqali stulga ko’chgan.

They have not flesh, nor feathers, nor scales, nor bone. Yet they have fingers and thumbs of their own. What are they? (Gloves) Besh og’ayni qo’rasi bor, Xonasi boshqa (Qo’lqop). Yuqoridagi topishmoqda flesh (teri), bone (suyak), finger (barmoq), thumb (bosh barmoq) leksemalari somatizm sifatida ko’chma ma’noda qo’llanilgan.

Shuningdek, oyoq somatizmi ko’p topishmoqlar tarkibida qo’l somatizmi bilan birgalikda qo’llanilib, ushbu tana a’zolariga ega bo’lmay turib, ya’ni ularsiz qandaydir harakat amalga oshirish mumkinligini tasvirlab topishmoq javobiga ishora qiladi. “Qo’lsiz, oyoqsiz eshik ochar.” (Shamol), “Qo’lsiz, oyoqsiz gul soladi.” (Sovuq, deraza qirovi), “Oyoqsiz, qo’lsiz tomga chiqdi.” (Tutun) Bundan ko’rinib turibdiki, oyoq somatizmi ko’p hollarda qo’l somatizmi bilan birgalikda qo’llaniladi.⁵ Keyingi o’rinda esa bosh somatizmi turadi. Ingliz tili topishmoqlarida head va eye somatizmlari faol qo’llanishini quyidagi topishmoqlarda kuzatamiz. Ular yakka holda ya’ni topishmoqlar tarkibida bitta somatizm bo’lib ham qo’llanib keladi. O’zbek tili topishmoqlarida esa oyoq somatizmi yetakchi o’rin egallayapti. Lekin oyoq somatizmi ko’p hollarda boshqa somatizmlar bilan birgalikda qo’llanilib kelyapti. Bu somatizm tarkibida birdan ortiq somatizmlar qatnashgan topishmoqlarda faol qo’llanilgan. Shuningdek, qo’l va ko’z somatizmlari ham topishmoqlar tarkibida tez-tez uchraydi.

Bosh leksemasi qatnashgan topishmoqlar. “Boshida bor kokili, Belidadir hosili.” (makkajo’xori) Bu o’rinda bosh bilan bel leksemalari somatizm hisoblanadi. Makkajo’xori haqidagi topishmoqning ingliz tilidagi ekvivalenti ham bor, lekin unda somatizmlar boshqa tana a’zosi bilan ifodalanganini ko’rishimiz mumkin:

¹ Фразеологические соматизмы как средство вторичной номинации лексико-семантической системы немецкого языка. М.А.Федорова, М.С.Никонюк, ул.1.

² Somatik frazeologik birliklar haqida ayrim mulohazalar. Kurbonova M. S., Muallim hem uzluksiz bilimlerdendur, ilmiy-metodologik jutnal, page38.

³ Ingliz va o’zbek tillarida somatizmning qo’llanilishi. Sayfullayeva Xabiba To’lqin qizi O’zMU Xorijiy filologiya fakulteti IV bosqich talabasi Multidisciplinary Scientific Journal May, 2023 138

⁴ Ingliz va o’zbek tillari topishmoqlar tarkibida somatizmlarning qo’llanilishi. M.I. Gadoyeva Ingliz tilshunosligi kafedrası professorı, f.f.d. (DSc) Buxoro davlat universiteti L.B.Yodgorova Buxoro davlat universiteti Lingvistika: ingliz tili yo’nalishi magistranti, page 1.

⁵ Ingliz va o’zbek tillari topishmoqlar tarkibida somatizmlarning qo’llanilishi, M.I. Gadoyeva, L.B.Yodgorova, Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research International scientific online conference, page 238.

This normally grows in fields, It is a grain from what I hear.

It can be eaten piece by piece, Or straight from a long ear. Bu topishmoqda *ear* (quloq) leksemasi somatizm bo‘lib, ma’noning ko‘chishi sodir bo‘lgan, ya’ni, metafora, va o‘zbekchaga tarjima qilganda makkajo‘xo-rini dona-dona olib yeyish mumkin, yoki boshidan butunlay tishlab yeyish mumkin ekanligi nazarda tutilmoqda.

What can run but never walks, has a mouth but never talks, has a head but never weeps, has a bed never sleeps? (A river) Ingliz topishmoqlarida leksik-stilistik vositalardan keng foydalaniladi. Misolda berilgan topishmoqda antiteza figuralaridan biri ishlatilgan. Bu yerda qarama-qarshilik tasvirlangan. Og‘iz va bosh, inson tanasini bildiruvchi so‘zlar qismlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Daryoning og‘zi va boshi bo‘lmaydi. Ushbu misolda og‘iz metafora sifatida ishlatilgan va daryoning okeanga kiradigan joyini ifodalab kelgan.¹

Ko‘z leksemasi qatnashgan topishmoqlar. *Ko‘zlarimga qilib zo‘rluk, Tongda ketdi charchab, sho‘rluk.* (Uyqu) Bu topishmoqda ko‘z leksemasi somatizm sifatida o‘z ma’nosida ifodalangan, charchab so‘zi esa uyquga nisbatan shaxslantirilgan. *I can fly but I have no wings. I can cry but I have no eyes. Wherever I go, darkness follows me. What am I? (Cloud) Oyog‘i yo‘q qochadi, qanoti yo‘q uchadi.* (Bulut) Bu topishmoqda bulut so‘zini ifodalashda wing (qanot), eyes (ko‘zlar), oyoq leksemalari somatizm sifatida kelgan. Bu yerda fly va cry so‘zlari o‘zaro qo‘fiyadosh va personification ya’ni shaxslantirish hodisasi orqali ifodalangan.

Bir uy bor: Ko‘r bo‘lib kirasan, Ko‘zli bo‘lib chiqasan. (Maktab) Bu topishmoqda *ko‘zli bo‘lib chiqamoq* iborasi somatizm bo‘lib, savodli, o‘qimishli bo‘lmoq degan ma’noni ifodalab kelgan. Ma’no ko‘chishining metafora usuli qo‘llanilgan.

Shunday qilib maqolada olib borilgan tahlillarga ko‘ra, shuni aytish mumkinki, inson tana a’zosini ifodalovchi so‘zlar somatizm sifatida topishmoqlarda ko‘p uchraydi. Somatizmning xalq og‘zaki namunalari ko‘chma ma’nolarda ifodalash katta ahamiyatga ega bo‘lib, nutqning ohangdorligi va bo‘yoqdorligini oshiradi va bir qancha so‘z san’atini qo‘llanilishida katta yordam beradi.

**Abdusalomova Lobar Akbar qizi (“Ipak yo‘li” Turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti
tayanch doktoranti; e-mail: cool.abdusalomova@mail.ru)**

CHINGIZ AYTMATOVNING “OQ KEMA” QISSASI POETIKASIDA ODOROKOLOFONIK MOTIVLARNING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov ijodining ikkinchi bosqichida yaratilgan, ilgari surilgan badiiy-estetik g‘oyasi jihatidan muallifning boshqa asarlaridan keskin farq qiluvchi “Oq kema” qissasidagi poetikasida rang, hid va tovushlarning badiiy-estetik funksiyasi tahlili yoritilgan va o‘rganib chiqilgan. “Oq kema” qissasi alohida ranglar tasviriga o‘ta boy emas, biroq undagi har bir koloristik detal, asar nomidan boshlab, eng mayda unsurlarigacha, muayyan bir badiiy-estetik vazifani bajarishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, nihoyatda ustalik bilan ishlatilgan. Qissada muallif ranglar palitrasi ko‘magida falsafiy ibtidoni, asar leytmotivi bo‘lgan muhim umumbashariy mavzuni chuqurlashtiradi, qahramonlar xarakterini muvaffaqiyatli yoritadi va ularning ichki olamini tasvirlaydi.*

Аннотация. *В данной статье выделен и изучен анализ художественно-эстетической функции красок, запахов и звуков в поэтике рассказа «Белый пароход», созданного на втором этапе творчества Чингиза Айтматова, данное произведение резко отличается от других с точки зрения его художественно-эстетической идеи. Рассказ «Белый пароход» не очень богат изображениями отдельных цветов, но каждая колористическая деталь в нем, начиная от названия произведения и заканчивая мельчайшими элементами, направлена на выполнение определенной художественно-эстетической задачи и используется очень умело. В рассказе автор с помощью цветовой палитры углубляет философское начало, важную общечеловеческую тему, которая является лейтмотивом произведения, удачно освещает характер героев и описывает их внутренний мир.*

Annotation. *This article highlights and studies the analysis of the artistic and aesthetic function of colors, smells and sounds in the poetics of the story “The White Steamer”, created at the second stage of Chingiz Aitmatov’s work, which differs sharply from other works of the author in terms of his artistic and aesthetic idea. The story “The White Ship” is not very rich in images of individual colors, but every coloristic detail in it, from the title of the work to the smallest elements, is aimed at fulfilling a specific artistic and aesthetic task and is used very skillfully. In the story, the author, with the help of a color palette, deepens the philosophical*

¹ THE ANALYSIS OF SOMATISMS IN ENGLISH RIDDLES. Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna Yodgorova Laylo Bakhtiyorovna. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786 page 22

principle, an important universal theme, which is the leitmotif of the work, successfully illuminates the character of the characters and describes their inner world.

Kalit soʻzlar: ranglar palitrasi, plastik tasvirlash, ezgulik va adolat tasviri, oq rang gammasi, rang-tasvirlar, personajlar portreti, "sariq qadam" iborasi, Shoxdor ona bugʻu obrazi.

Ключевые слова: палитра красок, пластическое изображение, образ добра и справедливости, белая цветовая гамма, цветообразные эпитеты, портрет персонажей, словосочетание «желтый шаг», образ Рогатой матери-оленихи.

Key words: palette of colors, plastic image, image of goodness and justice, white color scheme, color-like epithets, portrait of characters, the phrase "yellow step", image of the Horned Mother Deer.

Chingiz Aytmatov asardan asarga badiiy matnda qoʻllagan rang-tasvir palitrasini va odorizmlar hamda fonologik detallar xilma-xilligini boyitishga harakat qiladi. Bunga dalil sifatida ijodining ikkinchi bosqichida yaratilgan "Sarvqomat dilbarim" ("Тополёк мой в красной косынке". 1961), "Boʻtakoʻz" ("Верблюжий глаз". 1961), "Birinchii muallim" ("Первый учитель". 1962), uchinchi bosqichida yaratilgan "Alvido, Gulsari" ("Прощай, Гульсары". 1966) hamda "Oq kema" ("Белый пароход". 1970) asarlarida misol keltirish mumkin. Bu maʼnoda, hatto sarlavhasiga ham koloristik palitra qoʻllangan "Oq kema" alohida ahamiyatga ega. Bu asar mavzusi, ilgari surilgan badiiy-estetik gʻoyasi jihatidan muallifning boshqa asarlaridan keskin farq qiladi, biroq uni adibning boshqa asarlari bilan birlashtirib turadigan, asarning obrazlari tuzilishiga keng qamrov baxsh etish, muayyan voqea va hodisalarni umumahamiyatli darajaga kutarish, matnga falsafiy mazmun kasb ettirish kabi yagona bir intilishning mavjudligidir.

Oʻsha paytdagi intervyularidan birida yozuvchi Ch. Aytmatov eʼtiborni borliqni koʻp qirrali, plastik tasvirlash zaruratiga, "zamonlar aloqasiga" qarata turib, tom maʼnodagi katta adib sifatida shunday taʼkidlaydi "biz faqat oʻzimizning ajoyib zamonamizni, ishlarimizni, tariximiz va bugungi hayotimizni koʻramiz. Ammo adabiyotda qiyalab, bir tomonlama nazar tashlash, nazarimda, oʻz davrini oʻtab boʻlmoqda, qoʻshimcha, yon-boshlama va chuqur nazar tashlamoq, oʻtmishni koʻra bilmoq zarurati mavjud" [2].

Aynan "Oq kema" qissasida muallifning badiiy izlanishlari boʻrtib koʻzga tashlana boshlaydi, u xalq ogʻzaki ijodiga murojaat qiladi, bu esa obrazlarning ifodaviyligini kuchaytiradi. Ushbu asardan boshlab Ch. Aytmatov asarlari poetikasida afsona va rivoyatlar, qoʻshiqlar va xalq matallari oʻziga xos doimiy badiiy-estetik qatlamni tashkil etadi. Ular vositasida inson borligʻining muammolari tasvirlanadi, hayot mohiyati mazmuni yoritiladi.

"Oq kema" qissasida falsafiy ibtido chuqurlashishi bilan bir qatorda, borliqni rang-tasvir vositasida anglash va koʻrish ham kuchayadi, soʻzning obrazli, emotsional ifodaviyligi oʻsib boradi. Unga ulkan maʼno-mazmun yuki ortiladi va aksariyat hollarda leytmotivga aylantirilib, toʻgʻri maʼnodagi mazmunga nisbatan anchayin keng va chuqur maʼno ifodalaydi.

Borliqning murakkab hodisalarini bola nazari va idroki vositasida tasvirlash priyomi orqali, yozuvchi narsa va hodisalarning ichkarisiga kiradi va ziddiyatlarga oʻzini kutilmaganda namoyon etish imkonini yarata-di. Natijada qissada ezgulik va yovuzlik kuchlari hayratomuz murakkab hayotiy chalkashliklarga uchraydi.

Qissa sujeti asosida yotgan voqealar oʻrmon kunjagida, odamlardan ovloqdagi yerda kechadi. Oʻrmon qorovullari xoʻjaligida-oʻrmon kardonida (kardon – oʻrmon chekkasidagi daraxti kam, ochiq yer) jami uch oila yashaydi. Baland togʻli joy boʻlganligi uchun, kunjak hududi dengizga tutash boʻlib, asar qahramoni\–bola durbindan suzib ketayotgan oq kemani koʻradi. Yozuvchi har bir oila aʼzosining aloqalarini, kechinmalarini va tuygʻularini batafsil oʻrganadi. Biz insoniy munosabatlar tub-tubigacha yalongʻoch tasvirlangan hayotiy orolchani koʻramiz. Sujet voqealari, oilaviy aloqalar va tabiat tasviri bir-biridan yaqqol ajratilgan, boʻrttirilgan holda mukammal chiziladi.

Qissada oʻzida ezgulik va adolat gʻoyasini moʻjassamlashtirgan qariya Moʻmin chol va uning nabirasi Bola uchun mutlaqoʻ imkonsizlik vaziyati yuzaga keltirilgan. Yuzaga kelgan vaziyat, Oʻrazqulga yoqish uchun intilayotgan bekorchi takasaltang Seydaxmadning tezlashi, zugʻumi taʼsirida, bechora mehribon Moʻmin chol Shoxdor ona bugʻuni otadi, oʻz qoʻllari bilan ezgulik va adolat tinchlik, goʻzallik va mangulik haqidagi orzusini oʻldiradi va bu bilan Bola qalbidagi mavjud yorqin va porloq narsalarga boʻlgan ishonchni ham halok qiladi.

"Oq kema" qissasi alohida ranglar tasviriga oʻta boy emas, biroq undagi har bir koloristik detal, asar no-midan boshlab, eng mayda unsurlarigacha, muayyan bir badiiy-estetik vazifani bajarishiga yoʻnaltirilgan boʻlib nihoyatda ustalik bilan ishlatilgan. Qissada muallif ranglar palitrasi koʻmagida falsafiy ibtidoni, asar leytmotivi boʻlgan muhim umumbashariy mavzuni chuqurlashtiradi, qaxramonlar xarakterini muvaffaqiyatli yoritadi va ularning ichki olamini tasvirlaydi. Bizning hisobimizga koʻra, asarning original matnida 188 marta rang-tasvirga murojaat qilingan boʻlsa ham (shundan 35 martasi oq rang bilan bogʻliq), muallif ulardan shunday mahorat bilan foydalanganiki, kitobxonda matn rang tasvirga boy deygʻan chuqur taassurot qoldiradi.

Asarda oq rangning yetakchilik qilishi bejizga emas, bu asar ruhiga, badiiy g'oyasiga mos keladi. Qissani bolaning o'y-xayollari va orzulari asosiga qurilgan desak, to'g'ri bo'ladi. Birinchi o'rinda bolaning baxt, yaxshilik va adolatga ishonchi va umidi turadi. Uning bu orzusini oq kema va oppoq Shoxdor ona bug'u o'zida mujassam qiladi. Shu sababli asarda dominant rang – oq bilan barcha ezgu, go'zal va e'tiborga molik narsalar bog'lanadi.

Qissada ranglardan, koloristikadan foydalanishning o'ziga xos bir jihatini ta'kidlash joyiz. Qissa muallif nomidan hikoya qilinayotganda, ranglar palitrasining turlicha tonlari kuzatiladi (ko'karib ketgan suv, malla tosh, turli ranglardagi tepachalar, yorqin moviy, nastarin tus, kulrang tosh, qo'ng'ir ot va hokazo), bola hikoyani yuritganida esa oq rang gammasi ustivorlik qiladi: oq kema Issiqko'ldan suzib o'tadi, u gulxan yorug'ida cho'pon bolalari bilan o'ynaydi, uning nazarida, buyuk tog'lar derazadan taralayotgan nurga jamlanishadi; qirg'iz qabilasining oq motam bayrog'i yerga egiladi, oq Shoxdor ona bug'u o'z bolalarini odamlar va yirtqichlardan uzoqroqqa olib ketadi, u oq qayindan beshik keltirib beradi, bug'uliklar o'z ajdodlari qabrlariga oq maral shoxidan yodgorlik qo'yishadi. Shubhasiz, oq rang bu yerda o'zining birlamchi ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda, soflik, adolat, ezgulik va abadiyat ramziga aylanadi. Yozuvchi bu falsafiy va axloqiy kategoriyalarni birgina oq epiteti vositasida mujassamlashtirishi bejizga emas. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, nisbatan turlicha koloristik palitrada ega matnda oq rang qo'llanishiga ko'ra yetarli darajada barqarorlikka ega. Shu bilan birga, bizningcha, yozuvchi har xillik, ko'p ranglilik yoki buyoqdorlikka emas, balkim aynan o'sha borliqdagi xilma-xillikni va ola-bo'lalilikni yaxlit bir butunlikka birlashtirishga urinadi. Bolaning hikoyasida muallif barcha narsalardagi tozalikni, rangsizlikni, oqlikni va boshqalarni, ya'ni, xilma-xillik va variatsiyalarni inkor etuvchi hamda bolaning nazarida xotirjamlik, sokinlik va xarakatsizlikni tasdiqlovchi narsalarni alohida ta'kidlaydi. Oq tus bilan birga, yozuvchi bolaning borlig'iga xos bo'lgan dinamikaga qarshilikni, pasaytirilgan faollikni, uning yopiqlig'ini, siqilganligini ma'lum qiladi. Shu sababli ham uning maishiy hayotining “harorati past”, o'zi sovuq va “muzlagansimon”. Bu ma'noda bolaning morallar-bug'ular bilan uchrashishi o'ziga xos tarzda xarakterlidir: “Shoxdor ona bug'u bo'lsa, hamon bolaga tikilib turardi... Bola nafasini ichiga yutib, toshlar panasidan chiqdi va xuddi tushdagiday, qo'llarini oldinga cho'zib, qirg'oqqa, suvning o'ziga yaqin keldi. Bug'ular hech bir hurkmadi, narigi qirg'oqdan unga bamaylixotir qarab turaverdi. O'rtada, suv ostidagi toshlar ustidan irg'ishlab, tezoqar, ko'm-ko'k tiniq daryo qaynab oqib yotardi. Agar ularni ayirib turgan shu daryo bo'limganda go'yo bug'ularning oldiga borib, ularga qo'l tekkizish mumkinday edi. Bug'ular tekis, toza shag'al ustida turishardi. Ularning orqasida, shag'al tugagan joyda zich o'rmonning kuzgi xazonrezgisi alvon tusda tovlanardi. Undan yuqorida, jar tepasida qarag'ay va tog' teragi yal-yal yonadi. Undan ham yuqoriroqda cheksiz o'rmon-u tog' tizmasidagi oppoq qor ko'zga tashlanadi” [1.43] O'zaro bir-biridan farqlanadigan hodisalar o'rtasidagi analogiyalar va parallellar, bola dunyosidagi turg'un, statik narsalar to'g'risidagi fikrlarni uning tosh va o'simliklarni tasvirlashida hamda personajlar portreti o'rtasida kuzatamiz. Tosh obrazlar va o'simliklar o'rtasida yashirin yaqinlik seziladi, ular “ziyon”, “yaxshi”, “ayyor”, “ahmoq”, “sevimli”, “jasur”, “qo'rqqoq” kabilarga bo'linadi. “Yotgan tuya”, katta malla granit tosh, ko'ksigacha yerga cho'kkancha Mo'min cholni eslatadi, u va turfa gulli o'simliklar qariyaga o'xshab donishmand. “Egar” tosh, yarmi oq, yarmi qora chagir tosh, uning ustiga minib o'tirish mumkin hamda shamolning bir buyrug'i bilan hammasi boshini o'ynatib qoluvchi kovul o'simligi Seidahmad obraziga yaqin. Osmonni to'solmaydigan shiroljinlar va daryo yuvib ketayotgan qirg'oqdagi “tank” tosh Kulubek obraziga o'xshatiladi, “bo'ri” tosh esa xayratomuz tarzda O'razqulni eslatadi. Ta'kidlash joyizki, yozuvchi mazkur asarda ilk marta ramzli – obrazlarni qo'llaydi, bu bilan u qiziqarli masalani ko'ndalang qo'yadi, ramzli obrazlar vositasida xarakter yaratish muammosini hal qilishga urinadi. Bu usul nafaqat qaxramonlarning xatti-harakatidagi psixologik o'ziga xoslikni so'ndiradi, balki ularni ochib berishda san'atkor-ga ko'maklashadi.

“Oq kema” qissasida xarakterlarni rang-tasvir vositasida hal qilishga, o'ziga xosligini ko'rsatib berishga harakat qilinganligi kuzatiladi. Masalan, Mo'min cholning portreti shunday tasvirlanadi: “Mo'min o'rmon mahkamasining odatdagi furajkasini kiyishga or qilardi («Nima, men biron-bir boshliqmanmi? Men o'zimning qirg'iz qalpog'imni boshqa hech qanaqasiga almashmayman»). Yozda ham Mo'minning boshida qora sidirg'a satin bilan hoshiyalangan yo'l-yo'l oq qalpoq – almisoqdan qolgan eski kigiz qalpoq, qishda ham shunday daqqiyunusdan qolgan teri taqiya bo'lardi” [1.9]. Mo'min ajdodlarning an'ana va odatlarini hurmat qiluvchi inson. U hayotida faqatgina bug'u avlodidan bo'lgan kimsalarning marosimlariga aytishmasagina xafa bo'lardi. Oq qalpoq – qirg'izlarning milliy bosh kiyimi. Yozuvchi buni maxsus tarzda ta'kidlaydi: Mo'min boshida va qalbida o'z xalqining urf-odatlarini qadrlab ko'tarib yuradi. Shu tariqa, faqat bir marta, qissaning birinchi qismida Mo'min obraziga nisbatan rang-tasvirli epitet ishlatiladi va ziddiyatning yechimiga qadar muallif ongli ravishda biron marta ham boshqa koloristik unsurlarni ishlatmaydi. Buning ahamiyati muvaffaqiyatsiz qo'llanilgan yoki matnda ortiqcha bo'lib qolgan rang tasvirdan ko'ra, ko'proq va kattaroqdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, muallifning rang-tasvirga bo'lgan munosabati chuqur o'ylanilgan: Mo'minning yuksak darajadagi tragizmga boy tarixi tasvirida har qanday rangli buyoq o'rinsiz bo'lib ko'rinadi, biroq yakunda, fojia sodir bo'lishi bilan, chol, so'nggi la'natlangan bug'u avlodi sifatida, Shoxdor ona bug'uni otgach, yozuvchi sinovdan o'tgan rangli tasvir usuliga murojaat qiladi va Mo'minning ichki kechinmalarini yoritadi: "Chol bolaga qandaydir begonaday, g'ayritabiiy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko'rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nimpushti rangta kirdi va shu zahotiyiq boboning yuzlari oqara boshladi" [1.65]. Qissa so'nggida o'z e'tiqodidan voz kechtirilgan, ma'naviy toptalgan Mo'minning tasvirlanishi o'ziga xos ko'rinish kasb etadi: "Bola bobosini yonbosh bilan ag'darilib yotishga majbur etdi va no-gahon mast holda soqollarigacha loy va tuproqqa belanib, ayanchli holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O'razqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug'uning kallasini xayolidan o'tkazdi va qo'rquvdan o'zini chetga tortdi" [1.68]. Bu amalda ma'naviy xudkushlikning, o'z joniga, bizning holatda e'tiqodiga, suiqasd qilishning dalillangan badiiy tasviridir, unda rang-tasvir sodir bo'lgan voqelikning ahamiyatini ta'kidlaydi. O'razqul obrazi qissaning e'tiborga molik personajlaridan biri bo'lib, qaynotasi Mo'min uchun qadrli bo'lgan ajdodlarning urf-odatlarini, qadimgi ertak va rivoyatlari bir pul. Uning uchun ona tili ham, ichki monologidan ma'lum bo'ladiki, arzimmas narsa. Bu milliy nigilist timsoli bo'lib, o'zi harakatlarning lokal doirasiga umuminsoniy muammolarni singdiradi. U kiborlarcha yashash mumkin bo'lgan shahar hayotini qo'msab yashaydi. Uning orzulari zamonaviy iste'molchilik kayfiyatidagi yoshlar dunyoqarashiga mos keladi.

Bu obrazga xos psixologiyani, ichki dunyoni tasvirlar ekan, muallif koloristikaga, kontrastli rang-tasvirga murojaat qiladi. O'zining tashqi qiyofasi bilan aytilganidek O'razqul "bo'ri" toshni eslatadi. Uning portretini muallif chindan bo'riga o'xshatib yaratadi: "qo'ng'ir tusli, oq oralagan, quyuq yolsimon sochli va mustahkam do'ngpeshonasi bor". Bola bu toshni yoqtirmaydi, shu sababli uning oldiga emaklab borib nishonga olardi. O'razqul araq ichar, cho'ponlarga o'rmon yog'ochini va'da qilib, keltirilgan hadyalarni olishga shoshar-di. Hisob-kitob vaqti kelgach, "bo'g'ilgancha, terga botib, butun dunyoni haqoratlagancha bololarni tog'dan yumalatib kelardi". Bir marta toqqa chiqishga erinib, bug'u avlodidan bo'lgan urug'doshiga oldidan chiqqan birinchi daraxt bilan hisob-kitob qilmoqchi bo'lganda, o'rtasida gap qochib qoladi va sherigi uning ustidan shikoyat yozib yuboradi. U katta qiyinchiliklar bilan bu ishni "bosti-bosti" qiladi va hech kimga hech narsa bermaslikka o'z-o'ziga va'da beradi. Biroq yoz kelishi bilan "bo'rining ishtahasi ochiladi": "Ko'm-ko'k tog'li yaylovlarda o'tovlar oqarib, yer-ko'kni podalarning shovqin-suroni tutib, ariqlarda va daryoda suv tortilib qoldi. Quyosh porlagan, sarxush qimiz hidi kelar, gul bo'yi ufurardi. Ochiq havoda o'tovlarning oldida, ko'm-ko'k maysalar ustida, oshna-og'aynilar davrasida o'tirib qimiz ichib, qo'zi go'shtiga to'yib kayf qilishga nima yetsin" [1.32].

Bunday paytlarda O'razqul o'ziga bergan va'dasini unutardi. Uning atrofdagilar ham qissada qora ranglarda tasvirlanadi. Shoxdor ona bug'u go'shtini baham ko'radigan Ko'katay "ko'l qirg'og'idagi kolxoz hisobchisi, yirik qora odam". Yozuvchi rang-tasvir yordamida bir necha so'z bilan bu mehmonning ichki dunyosini yoritishni uddalay biladi. Kechga qolmoqchi bo'lmagan Ko'katoy semiz bug'ularni ko'rgach mehmondorchilikka qoladi. Bu epizod ranglar kontrastiga quriladi: "Bug'ular qoyaga ketma-ket ko'tarilib borardi. Oldinda qo'ng'ir erkak bug'u o'zining qudratli shoxlarini mag'rur tutib borar, uning orqasidan shoxsiz bug'ucha va bu namoyishga ergashib Shoxdor ona bug'u borardi. Qirdan siljib tutpgan tuproqning tiniq qo'ynida bug'ular ravshan va latif ko'zga tashlanardi. Ularning har bir harakati, har bir qadami yaqqol ko'rinib turardi... Mashinaning ko'nikilmagan hayqirig'ini eshitib, bug'ular so'qmoqda qadamini tezlatdi. Olazarak nazar tashlab, jarlikdan sakrab o'tdi va qarag'aylar orasiga yashirindi. – O, g'oyib bo'ldi! – xatosini birdan anglab qoldi Ko'katoy. U shunday afsus bilan entikardiki, xuddi qo'lidagi o'ljasidan ayrilganday edi. – Hechqisi yo'q, hech qayoqqa ketmaydi ular! – uning xayolidagini topib va bundan xursand bo'lib, O'razqul kerilib qo'ydi. – Bugun kechgacha jo'namaysan, mening mehmonim bo'lasan. Xudoning o'zi kam qilmasin. Izzat-hurmat bilan men seni mehmon qilaman. – U xaxolab turib oshnasining yelkasiga urib qo'ydi. O'razqul xushchaqchaq ham bo'la olardi. – Xo'p, sen aytgancha bo'la qolsin, sen mezbon, men mehmon, – ko'na qoldi azamat Ko'katoy, iljayarkan yo'g'on sariq tishlarini ko'rsatib" [1.61].

Matnda sariq rangdan epitet sifatida foydalanishning o'ziga xosligi bor. Bu yerda sariq rang o'z ma'nosida, yirtqichning o'tkir tishlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Biroq asarda sariq rang "kulfat, g'am tashvish tashrifi" ramziy ma'nosiga ham ega. Turkiy xalqlar leksikasidagi "sariq qadam" iborasi aynan shu ma'noni anglatadi. Poyqadami yoqmagan, halokat olib keluvchi obraz, asar kulminatsiyasida Ko'katoy bo'lib chiqadi. Bu g'oya Seidahmadning qo'shig'i bilan mustahkamlanadi: "Sariq-sariq tog'lardan, Sariq otda men keldim. Och eshiging, ey, sariq savdogar, Biz ichamiz sariq vinodan. Ko'ng'ir-qo'ng'ir tog'lardan, Qo'ng'ir otda men

keldim. Och eshiging, ey, qo'ng'ir savdogar, Biz ichamiz qo'ng'ir vinodan..." [1.61]. Shu tariqa, rang-tasvir uyg'un tarzda asar badiiy g'oyasi bilan birikib, qissada struktura tashkillashtiruvchi unsurga aylanadi.

So'nggi sahna, bug'u to'shini boltalanishi, shoxining chopilishi daxshatli tusdagi rang-tasvirga boy. Nabotot olamiga nisbatan brokonyerlik-qotillik, amalda ma'juziy ma'nodagi insoniy qotillik bilan qorishib ketadi. Chunki go'dak bolaning qalbi, toza orzulari ham teginilmagan ozoda, hamma narsadan himoya qilinishi kerak bo'lgan joy. Ammo unga ham chang solinadi va bola halok bo'lib, oq kema ortidan suzib ketayotgan "baliqqa" aylanadi. Asar matnida fonika yoki tovush ifodalovchi birliklar qatori matnning muhim kompozitsion tarkibini shakllantiruvchi unsurga aylantirilgan. Osmon guldushi, kishilar qichqirig'i, o'simliklar "tinglashi", jonvorlar ovozi – tabiatga xos barcha ovoqli partitura, jam bo'lib muallifning badiiy tasvir priyemlari bilan uyg'unlashib muayyan bir vazifalarni bajaradi.

"Oq kema" qissasida xarakterlarni rang-tasvir vositasida hal qilishga, o'ziga xosligini ko'rsatib berishga harakat qilinganligi kuzatiladi. Asar matnida fonika yoki tovush ifodalovchi birliklar qatori matnning muhim kompozitsion tarkibini shakllantiruvchi unsurga aylantirilgan. Osmon guldurashi, kishilar qichqirig'i, o'simliklar "tinglashi", jonvorlar ovozi – tabiatga xos barcha ovoqli partitura, jam bo'lib muallifning badiiy tasvir priyemlari bilan uyg'unlashib, muayyan bir vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Oq kema. Qissa. Elektron manba: www.ziyouz.com kutubxonasi. 68-bet.
2. Айтматов Ч. Духовная опора. "Дружба народов", 1997, № 10, 242 с.
3. Айтматов Ч. Повести. М., СП., 1987, 340 с.
4. Айтматов Ч. Рассказы. М., СП, 1958, 127 с.
5. Айтматов Ч. Собрание сочинений в 3-х томах. Том 3, М., 1982, 33 с.
6. Айтматов Ч. Собрания сочинений в 3-х томах. Том 1, М., 1982, 240 с.

Jabborova Saodat Sattorovna (Turon Zarmed universiteti "Tarix" kafedrasida o'qituvchisi) MA'NAVY SALOHİYAT – IJTIMOYIY TARAQQIYOT MANBAYI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish boqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье раскрывается содержание и сущность реформ, осуществляемых в духовно-просветительском аспекте, наряду с социальными, экономическими и политическими факторами современного развития Нового Узбекистана.

Annotation. In this article, the content and essence of the reforms implemented in the spiritual and educational aspects, along with social, economic and political factors in the current development of New Uzbekistan.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, siyosiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviyat, qadriyat, ta'lim-tarbiya, barkamollik, yetuk kadr.

Ключевые слова: толерантность, политико-экономическая, культурная, духовность, ценность, воспитание и образование, совершенствование, зрелые кадры.

Key words: tolerance, political-economic, cultural, spirituality, value, education, perfection, mature staff.

Avvalambor, haqiqiy ma'naviy yuksalish madaniy taraqqiyot uchun xalqimiz mustaqil davlatga ega bo'lishi, qaramlik siquvidan ozod bo'lishi zarur edi. Qaram bo'lib yashagan xalq ma'naviy erkinlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi, chunki u o'zligidan, o'z ruhiy qudratidan mahrum bo'ladi.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini xalqimiz yaxshi biladi. Ma'naviyat va qadriyatlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq tushunchalar, ya'ni, "Ma'naviyat va qadriyat, aslida, ilohiy bo'lib, oila, avlodlar, mahalla, millat, davlat va davr qadriyatlari va ma'naviyatlari orqali bayon qilinadi" [1].

Qadriyatlarni o'zlashtirish insonning qay darajada ma'naviy shaxsga aylanganligini ko'rsatadi, unga ichki kuch, e'tiqod bag'ishlaydi. Falsafa fanlari doktori, professor, taniqli faylasuf olim M.Imomnazarov esa uni "ilohiy nur" deb hisoblaydi va tushunchaning mazmunini ochishga intilmaydi. "Ma'naviyat inson qalbidagi

ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini "Haqiqat asroring ganjinasi", deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga ahli bashar qudrati yetmaydi" [2]. Biroq, bizning fikrimizcha, ma'naviyat faqat insonga xos. U ilohiy yoki g'ayritabiiy hodisa emas, balki u ijtimoiy hodisa bo'lib, inson faoliyati bilan bog'liq.

Insonning har qanday faoliyati, har qanday xatti-harakati yo tabiat bilan, yo jamiyat bilan, oila a'zolari, boshqa kishilar bilan muayyan munosabati yuzaga keltirishdir, muayyan aloqani, o'zaro ta'sirni amalga oshirishdir. Shu bois insonning ongli faoliyati, avvalo, axloq va huquq, qolaversa, umuman, ma'naviyat nuqtayi nazaridan baholanadi. Inonning ishlab chiqarish faoliyati ham nafaqat iqtisodiy, shuningdek, o'zining ma'naviy jihatlariga ega. Iqtisodiyot bilan ma'naviyatga bir xil katta ahamiyat bergan jamiyat o'zining uyg'un yirik ijtimoiy ziddiyatlarsiz va qarama-qarshiliklarsiz barqaror taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyotning ma'naviyat bilan aloqalari juda murakkabdir. Iqtisodiyot ma'naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma'naviyatga nisbatan "buyurtmachi" vazifasini o'taydi.

Avvalambor, ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi haqida fikr yuritir ekanmiz, albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi. Shuningdek, ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qat-ra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish, ma'naviyatga ozuqa beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Shuni e'tirof etish joizki, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviyat rivojlanishini ta'minlovchi vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Biz bu yo'lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azm-u shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shundagina mamlakatimiz, xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi [3].

Butun insoniyat kabi, jahondagi har bir xalq va millat ham o'zining taraqqiyotiga qarab intiladi. Tabiatning buyuk hodisasi bo'lgan Quyoshning ham erta saharda olamga yuz ko'rsatishi qanchalik go'zal va jozibali bo'lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir. "Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas" [4].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'rni, obro'si va nufuzi juda keskin tarzda oshdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi" [5].

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erki va farovon yashaydigan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat qurish uchun qat'iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz. Shu o'rinda Yurtboshimizning ma'naviyat to'g'riida bildirgan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik: "Mening nazrimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi–ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi va vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etishi zarur".

Tomirlarda buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilish va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak daraja-larga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston–taraqqiyot strategiyasi" nomli asarida: "Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash–eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida belgilangan" [6].

Haqiqatdan ham, bugungi yoshlarimizning iste'dodi, qobiliyati, bilimi, ma'naviyati va ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, kelajakda o'zlarining munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish jamiyatimizning bosh maqsadidir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanadi.

Fikrimizga yakun yasar ekanmiz, biz ishonamizki, yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ajdodlarimiz kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga, albatta, erishadilar. Biz Yangi O'zbekiston yoshlarini yuksak marralarga ko'tarilishi uchun qo'limizdan kelgan barcha imkoniyatlarni yaratib berishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., 2022.
2. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr.
3. Yangi O'zbekiston–demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T., 2021.
4. A.Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T., 2009.
5. Шодиев Ж. Илк уйғониш даврида – комил инсонни шакллантириш ва тарбиялашда тасаввуф таълим-тенинг ўрни. Scientific Bulletin of NamSU, Научный вестник НамГУ, NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022, 4-сон, 229-bet.
6. M.Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimizning takomil boqichlari. T., 1996.

**Xotamov Jaxongir Abdumalikovich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi),
Ummatova Sevinch Zikrilla qizi (Jizzax davlat Pedagogika universiteti talabasi;
e-mail: xotamov_j@jspu.uz)**

RADIOASTRONOMIYADAN MASALALAR YECHISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida radioastronomiya fanini o'qitilishining ahamiyati va ushbu fanga oid ba'zi masalalarni yechish usullari ko'rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье показана важность преподавания радиоастрономии в педагогических вузах и пути решения некоторых вопросов, связанных с этой наукой.

Annotation. This article shows the importance of teaching radio astronomy in pedagogic higher education institutions and ways to solve some issues related to this science.

Kalit so'zlar: radioastronomiya, radioteleskop, radiochastota, qora tuynuk, pulsar, kvazar, energiya, spektr, zenit.

Ключевые слова: радиоастрономия, радиотелескоп, радиочастота, черная дыра, пульсар, квазар, энергия, спектр, зенит.

Key words: radio astronomy, radio telescope, radio frequency, black hole, pulsar, quasar, energy, spectrum, zenith.

Kirish. Bugungi kunda radioastronomiya fanini rivojlantirishi ko'plab koinotning jumboqlari masalalarini yechimini topish yordam bermoqda. Shu boisdan talabalarni ushbu sohaning yetuk va malakali kadrlari etib tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammolari bo'lib qolmoqda. Ushbu fan sohasi yangi bo'lganligi va bu fan bo'yicha o'zbek tilida yetarlicha adabiyotlar yo'qligi fanni o'qitishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida radioastronomiya fanini o'qitilishini, talabalarning bilimlarini yanada mustahkamlash, tasavvurlarini oshirishda radioastronomiyadan masala yechishga katta ahamiyat berish kerak. O'quv mashg'ulotlarida umumiy holda mantiqiy xulosalar, matematik amallar, radioastronomiyadagi qonunlar yordamida yechiladigan muammo radioastronomik masala deb yuritiladi. Ma'lumki, talabalarning radioastronomiyaga oid masalalari ishlashi ularning fan yuzasidan dunyoqarashini oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Radioastronomiya fanini tushunish, fanda ko'rsatib o'rilgan jarayonlar murakkab jarayonlar bo'lganligi bois bu fandan masala ishlash o'qitish jarayoning ajralmas qismi bo'lib, u radioastronomiyaga oid tushunchalarni shakllantirishga katta yoram beradi. Radioastronomiya faniga oid o'quv adabiyotlarda masalalarni yechish metodikasida quyidagi hollar keng qo'llaniladi:

- yangi mavzuni bayon qilishda;
- o'quvchiga muammo qo'yish orqali muammoli vaziyatni hosil qilishda;
- amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda;
- o'quvchilar o'zlashtirgan bilimning mustahkamligi va chuqurligini sinashda;

- o‘tilgan mavzuni mustahkamlab, umumlashtirish va takrorlashda;
- o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda.

Natijalar. Masala yechish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil mulohaza yuritishi, qo‘yilgan maqsadga erishishdagi qat‘iyligi tarbiyalanadi. Endi quyidagi masalalarning yechilish usullarini ko‘rib chiqamiz.

1. Yorqin radio manbali Kassiopeia A 1 GHz li chastotada 3110 Jy (Janskiy) oqim zichligiga ega. Agar biz ushbu manbani 1 GHz li chastotada markazlashtirilgan 100 MHz chastota oralig‘ida (tarmoqli kengligi) 100 m² yoki 10⁶ sm² yig‘uvchi radioteleskop bilan kuzatsak, biz bir soniyada qancha energiya aniqlaymiz? Radio manbasi burchak diametri, taxminan, 3 yoy minutiga teng bo‘lgan hol uchun manbaning o‘rtacha intensivligi qanday?


Yechish. Birinchi talaba biz o‘lchaydigan oqim, oqim zichligi va tarmoqli kengligining yig‘indisiga teng bo‘lishini bilishi lozim. Shundan so‘ng, manba oqimining tenglamasidan aniqlanadigan energiya oqimning qiymati, teleskopning yig‘ish maydoni va vaqt oralig‘iga bog‘liqligini topamiz. Bunda oqim zichligi 3310 Jy gat eng bo‘lib XBSga solinganda, 3,31 10⁻²⁰ erg s⁻¹ sm⁻² Hz⁻¹ ga teng bo‘ladi. Bularning barchasini birlashtirsak,

$$E = FA\delta t = F_v \Delta v A \delta t,$$

Shundan,

$$E = (3.31 \cdot 10^{-20} \text{ erg s}^{-1} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1}) (10^8 \text{ Hz}) (10^6 \text{ sm}^2) (1 \text{ s}) = 3.31 \cdot 10^{-6} \text{ erg hosil qilamiz.}$$

endi biz burchak diametrini yoy minutlaridan radianlarga aylantirishimiz kerak. Radianlardagi burchak diametri, 3 yoy. min (1 daraja/60 yoy.min) (1 radian/57.3 daraja) 8.7 · 10⁻⁴ radian gat eng ekanligini topamiz. Shundan song, manbaning qattiq burchagi topib olamiz. Yaxshiroq tushunish uchun uning chizmasini chizamiz:



$$\Omega_{manba} \approx \frac{\pi}{4} \theta^2$$

$$\Omega_{manba} \approx \frac{3,14}{4} (8.7 \cdot 10^{-4})^2 \approx 6.0 \cdot 10^{-7} \text{ sr.}$$

Shundan so‘ng, o‘rtacha intensivlik topamiz, bunda oqim zichligi manbaning qattiq burchagiga bo‘linadi;

$$I_{o'r} = \frac{F}{\Omega_{manba}}$$

$$I_{o'r} = \frac{3.31 \cdot 10^{-20} \text{ ergs s}^{-1} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1}}{6.0 \cdot 10^{-7} \text{ sr}} = 5.5 \cdot 10^{-14} \text{ ergs s}^{-1} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1} \text{ sr}^{-1}$$

Javob: E=3.31 · 10⁻⁶ erg , I_{o'r}=5.5 · 10⁻¹⁴ ergs s⁻¹ sm⁻² Hz⁻¹ sr⁻¹

2. Astronomik manbaning radiospektral chizig‘i 1420,4058 MHz chastotaga ega. Biz ushbu astronomik manbani kuzatamiz va xuddi shu spektral chiziqning chastotasini 1419,9525 MHz deb o‘lchaymiz. Ushbu astronomik manbaning radial tezligi qanday va u qaysi yo‘nalishda harakat qilmoqda?

Yechish. Chiqarilgan chastota va kuzatilgan chastotani bog‘lashimizda radial tezlik ifodasidan foydalanishimiz. Chastota past chastotalarga o‘tkazilganligi sababli, bizdan obyekt uzoqlashayotganini bilamiz.

$$\vartheta_R \approx c \frac{v_e - v}{v}$$

$$\vartheta_R \approx 3 \cdot 10^5 \frac{\text{km}}{\text{s}} * \frac{1420.4058 \text{ MHz} - 1419.9525 \text{ MHz}}{1419.9525 \text{ MHz}} = +95.8 \frac{\text{km}}{\text{s}}$$

Shunday qilib, radial tezlik musbat bo‘lib, jism uzoqlashayotganini tasdiqladi. Afsuski, Dopler effekti uchun ikkita tez-tez ishlatiladigan taxminlar mavjud. Kuzatilayotgan manbadan olingan chastota va uning radial tezligi orasidagi bog‘lanish Dopler effektining “optik ta‘rifi” deb nomlanadi, shu bilan birga, bu ta‘rifni

radio astronomlari tomonidan “radio ta’rifi” deb nomlagan:

$$\vartheta_R \approx c \frac{v_e - v}{v_e}$$

Ushbu taxmin avvalgi ifoda kabi aniq, ammo ikkala natija biroz farq qiladi va 0,01 dan katta v/c uchun farqlanadi. Dopler effekti uchun tezlik qaysi ta’rif ishlatilayotganligini tekshirib oling.

Javob. $\vartheta_R \approx +95.8 \frac{km}{s}$

3. Bizni galaktikamizdan olisda joylashgan radio manbaning qizilga siljishi $z=1.0$ ga teng. Biz bu obyektдан oladigan yorug‘lik chiqarilganida Koinotning yoshi qancha edi? Ushbu obyektgacha bo‘lgan masofani toping?

Yechish. Qizil siljish z nuri chiqarilganda koinotning yoshini

$$t_e = \frac{2}{3H_0\sqrt{\Omega_\Lambda}} \sinh^{-1} \left[\sqrt{\frac{\Omega_\Lambda}{\Omega_M} \frac{1}{(1+z)^{3/2}}} \right]$$

Ifoda orqali topamiz. Bu bizga beradi

$$t_e = 11.1 \sinh^{-1} \left[\frac{1.53}{(1+1.0)^{3/2}} \right] \text{ milliard yil} = 5.7 \text{ milliard yil.}$$

Biz koinotning hozirgi yoshi 13,5 milliard yilga teng deb taxmin qilganimiz sababli, yorug‘lik, taxminan, 8 milliard yil oldin chiqarilgan.

Biz $r_p = \int_{t_e}^{t_0} \frac{c}{R(t)} dt$.

ifodadagi raqamli integratsiyadan to‘g‘ri masofani topamiz. Ilova B dagi Matematika kodidan foydalanish quyidagi natijani beradi:

$$r_p = 3.30 \cdot 10^9 \text{ pc} = 3300 \text{ Mpc.}$$

Kosmologik masofalarni hisoblash mashaqqatli bo‘lganligi sababli, bu raqamli integratsiyani talab qiladi. Umumiy holda masofani taxminiy baholash uchun Habbli qonunidan foydalanamiz:

$$= \frac{cz}{H_0} = \frac{3 \cdot 10^5 \frac{km}{s} \cdot 1.0}{70 \frac{km}{s \cdot Mpc}} = 4286 \text{ Mpc.}$$

bu to‘g‘ri hisoblangandan 30% katta qiymatni beradi.

Javob. $t_e = 5.7 \text{ milliard yil. } r = 4286 \text{ Mpc.}$

4. Ma’lum bir galaktikadan bizgacha bo‘lgan masofasi 429 Mpcga teng bo‘lsa, Ushbu galaktikaning qizilga siljish ko‘ffitsiyenti z nechiga teng bo‘lishini aniqlang.

Yechish. Biz qizilga siljishni faraz qilamiz yetarlicha katta deb, shuning uchun u butunlay kosmologik qizil siljish bilan bog‘liq, shu sababli biz Habbli qonunidan masofa, qizil siljish va uning ko‘ffitsiyentini quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\vartheta = H_0 * r$$

bundan

$$\vartheta \approx c \frac{\lambda - \lambda_e}{\lambda_e} \text{ va } z = \frac{\lambda - \lambda_e}{\lambda_e}$$

larni birlashtirsak, $\vartheta = cz$ ni hosil qilamiz

$$z = \frac{H_0 r}{c} = \frac{70 \frac{km}{s \cdot Mpc} * 429 \text{ Mpc.}}{3 \cdot 10^5 \frac{km}{s}} = 0.1$$

Javob. $z=0.1$

5. Dumaloq astronomik manba radiusi 1×10^{18} sm va 100 pc masofada joylashgan. Agar manba $I_v = 1 \times 10^{-16} \text{ erg s}^{-1} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1} \text{ sr}^{-1}$ bir xil intensivlikka ega bo‘lsa, bu manbaning oqim zichligi qanday bo‘ladi?

Yechish. Qattiq burchak (Ω) konusning ochilish burchagini ifodalaydi. Kichkina burchakka yaqinlashganda, uzoqda joylashgan doiraviy astronomik maydon manbasi

$$\Omega = \frac{A}{d^2}$$

ga teng burchakka yoki unga teng burchakka ega bo‘ladi. Bunda A aylana uzunligini ifodalab, $l = 2\pi r$ ga teng, bundan

$$\Omega = \frac{2\pi r}{d^2}$$

oqim zichligi ifodasidan

$$F = \int I_\nu \Omega = \int I_\nu \frac{2\pi r}{d^2}$$

$$F = \int 1 * 10^{-16} \text{ erg}^{s^{-1}} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1} \text{ sr}^{-1} \frac{2 * 3.14 * 1 * 10^{18} \text{ m}}{(3 * 10^{16})^2 \text{ m}}$$

Javob. $F = 7 * 10^{-29} \text{ erg}^{s^{-1}} \text{ sm}^{-2} \text{ Hz}^{-1} \text{ sr}^{-1}$

Xulosa. Radioastronomiyani o'qitishda masalalar yechish muhim ekanligini nazarga olib, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga radioastronomiya fani o'quv rejasidagi amaliy mashg'ulotlardagi masala yechish darslariga kengroq e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. Talabalarda masalalarni mantiqan to'g'ri ishlay olish qobiliyati shakllantirishi fan bo'yicha dunyoqarashining oshishiga olib keladi. Bo'lajak o'qituvchining maktabda astronomik va radioastronomik masalalarni sodda shaklda ishlashi o'quvchilarga tushunarliroq bilim berilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, radioastronomiya fanini tanlov fanlar ro'yxatidan olinib majburiy fanlar ro'yhatiga qo'shish hozirgi davrning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Ronald, E.Stanley, M.Jonathan. Fundamentals of Radio Astronomy. Taylor & Francis, 2019.
2. Kurbaniyazov S., Ajabov A. Radioastronomiya asoalari. O'quv-uslubiy majmua, Samarqand, 2017.
3. Diane Fisher Miller. Basics of Radio Astronomy. California JPL, 1998.
4. <https://web.njit.edu/~gary/728/>
5. T.L.Wilson, S.Huttemeister. Tools of Radio Astronomy Problems and Solutions. Springer, 2021.

Sayidova Muhabbat G'affarovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti Kimyo-metallurgiya fakulteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasida katta o'qituvchisi;

e-mail: jayronmalika@mail.ru)

YOSHLAR DUNYOQARASHINI TOLERANTLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar haqida mulohaza yuritiladi hamda bajarilgan ishlarning amaliy natijalari raqamlar orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston hukumati tomonidan vijdon erkinligini ta'minlash bo'yicha xalqaro paktlar me'yorlarining bajarilishi borasidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Аннотация. В статье приводятся некоторые предвидения по соблюдению свободы совести в Узбекистане, объём проводимых работ выражается в цифрах. Кроме этого, в данной статье приводятся факты по исполнению норм международных пактов по обеспечению свободы совести со стороны правительства Узбекистана.

Annotation. This article provides some predictions on the observance of freedom of conscience in Uzbekistan, and the work carried out is expressed in numbers. In addition, this article provides facts on the implementation of the norms of international pacts to ensure freedom of conscience on the part of the government of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: din, vijdon, bag'rikenglik, konfessiya, ehtirom, do'stlik, pluralizm, jamiyat, erkinlik, diniy e'tiqod, ma'naviyat.

Ключевые слова: религия, совесть, толерантность, конфессия, терпимость, дружба, плюрализм, общество, свобода, вероисповедание, духовность.

Key words: religion, conscience, tolerance, confession, faith, friendship, pluralism, society, freedom, religious belief, spirituality.

Ma'lumki, din azal-azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevorlaridan biri bo'lib kelgan. Kishi ongining tarkibiy unsurlari bo'lmish dunyoqarash, hayotiy pozitsiya, hayot tarzi, shu jumladan, diniy e'tiqod shaxsning turmushdagi psixologik himoyasi hisoblanadi. Bu unsurlarni o'zgartirish xavfli ekanligini har bir inson intuitiv tarzda his etadi. Aynan shu o'zgarishlarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan kurashlar turli ko'rinishlarida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, kurash bevosita hudud, zaxira yoxud iqtisodiy foyda uchun emas, insonning ongini egallash uchun olib borilmoqda.

Milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy boy merosimizni tiklash va ularni chuqur tahlil qilish, mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz o'rtasida targ'ib etish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk muhaddis, faqih, muta-

savvuf va mufassir allomalar merosini har tomonlama teran o'rganish, yuksak insoniy g'oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan manbalarni tatqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish borasida hozirgi davr barcha sohalar qatori, diniy soha vakillari oldiga ham bir qator muhim vazifa va talablarni qo'yimoqda.

Yoshlar dunyoqarashining boyishi va zamonaviy texnika asosida dunyoviy bilimlarni egallashlari o'zgalarni tinglay bilishlari orqali amalga oshishi ta'kidlab kelinadi. "Tolerantlik" nihoyatda keng ma'noda qo'llaniladigan atama bo'lib, uni, asosan, shaxslar va guruhlararo munosabatga nisbatan qo'llab kelinadi. Mazkur atamani shaxsga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, shaxs o'zgalarni tinglay bilishi, boshqalar fikrini baholay olishi va qolaversa uni qurshab turgan shaxslarni xuddi o'zi kabi shaxs sifatida tan olishini anglatadi. Asosiy qonunimizda ko'zda tutilganidek, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.¹

"Tolerantlik" – lotincha "tolerare", ya'ni, "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosini anglatib, shaxsning o'z dunyoqarashi va qat'iy tushunchalari bo'lishi bilan birga, o'zgalarni fikr va mulohazalarini tinglay olishi hamda ularni mushohada uchun qabul qilishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish erkinligi huquqidan foydalanadi hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.²

Ilk bolalik davrida, bola dunyoni anglash jarayonida unga qanday bilim berilsa, shundayligicha qabul qilaveradi. Yoshi biroz ulg'ayib, tafakkur jarayonida analiz, sintez va umumlashtirish boshlangandan so'ng, u o'z fikrini boshqalarga uqdirishga hamda boshqalarning fikrini inkor etishga harakat qiladi. Boshqalarga o'z fikrini uqdirish yoki boshqalar fikrini inkor etish uchun, avvalambor, sabr bilan tinglab, so'ng mushohada qilish kerakligini ko'pchilik yoshlar anglab yetmaydilar. Ayniqsa, munozarali, bahsga sabab bo'ladigan masalalarda yoshlar hissiyotga berilish holatlari ko'zga tashlanib turadi. Shu kabi holatlarning oldini olish uchun ham yoshlar xulq-atvorida tolerantlik xususiyatini shakllantirish lozim.

Har bir yosh o'z dunyoqarashini bayon qilish hamda himoya qilish huquqiga ega, lekin ana shu jarayonlarni aniq bilimlarga asoslanib, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilvosita va bivosita bahslashayotgan shaxsga nisbatan tolerantlikni saqlagan holda, uning dunyoqarashini hurmat qilishi kerakligini anglashi kerak. Tolerantlik barcha sohaga taalluqli xususiyat ekanligi yoshlar ongiga singdirish orqali, avvalo, boshqalarning va o'zining fikrini hurmat qilish kabi yuqori darajali ijtimoiy-psixologik xususiyatni yoshlarda shakllantirish davrimiz talabi hisoblanadi.

Shaxsning dunyoqarashi, avvalambor, bilimlarini nutq orqali bayon qilishida namoyon bo'ldi. Yoshlar dunyoqarashini bayon qilishida muomala psixologiyasi texnikasini egallashlari maqsadga muvofiq.

Fan-texnika taraqqiyoti va axborotlar bo'roni tezligi ortib borayotgan davrda yoshlarning dunyoqarashi darajasi ham nihoyatda tez o'zgarib borishi, tabiiy. Shuni inobatga olgan holda, yoshlar dunyoqarashini boyitish manbalariga alohida e'tibor qaratiladi. Badiiy va ilmiy adabiyotlarga nisbatan yoshlar ongiga tez ta'sir etayotgan internet manbalari nafaqat dunyoqarashni, balki xulq-atvorni ham o'zgartirish imkoniyatiga ega ekanligi bugungi kunda sir emas.

Tolerantlik asosida internet ma'lumotlarini o'zlashtirish orqali dunyoqarashni boyitishda yoshlar ko'r-kona ma'lumotlarni qabul qilishlari emas, aksincha, mulohaza orqali bilimlarni o'zlashtirishlariga va noto'g'ri ma'lumotlarga nisbatan immunitetga ega bo'lishlari uchun doimiy ravishda o'z ustilarida ishlashlari ijobiy natijalarga olib keladi. Demak, tolerantlik asosida dunyoqarashni boyitishda xorijiy tillarni bilish asosiy omillardan biri sanaladi.

Yoshlardagi dunyoqarashning tolerantlik asosida shakllantirishni eng asosiy omili bu o'z milliy va diniy qadriyatlarini chuqur o'zlashtirishi bilan bir qatorda, boshqa millat urf-odatlarini o'zlashtirishdir. Yurtimizda turli dinga e'tiqod qiluvchilar azal-azaldan tinch-totuv yashab kelmoqdalar. Bugungi kunda respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2223 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda.³ Tolerantlikning yoshlar dunyoqarashi

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi. <https://lex.uz/docs/-6445145><https://lex.uz/docs/-6445145> 2023, 30.04.

² Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 6-modda. <https://lex.uz/docs/-5491534>

³ O'.Xasanboyev. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari. Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. Toshkent Islom universiteti NMB, T., 2014, 27-bet.

shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu ijtimoiy muhit bo'lib, u o'z ichiga oila, mahalla, o'quv maskanlari, qolaversa, yoshlar ma'lumot oladigan axborot vositalari hisoblanadi. Shu sababdan yoshlarni qanday axborotlarni olayotganliklarini muntazam nazorat qilish orqali ularda tolerantlikni shakllantirish jamiyat a'zolariga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlar dunyoqarashi kundan kunga kengayib borishi, tabiiy. Ana shu dunyoqarashni tolerantlik asosida boyishi zamonamiz yoshlarini har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Tolerantlikning yoshlarni dunyoqarashlarida har tomonlama milliy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular ruhiyatidagi bag'rikenglikni mukammal shakllanib, dunyo yoshlari o'rtasida o'zbek xalqini o'ziga xos va o'ziga mos etnopsixologik qirralarini namoyon etadi

Ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida shakllantirilgan va asrlar osha sayqallanib kelayotgan ma'naviy merosimiz bo'lgan diniy e'tiqod yoshlar dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, farzandlarni dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligida tarbiyalash orqali amalda sog'lom e'tiqod shakllanadi hamda har xil bid'at-xurofat amallarni bir-biridan farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish imkonini yaratadi. Hadislarda ham: "Sizlarning yaxshilaringiz oxirati deb dunyosini, dunyosi deb oxiratinini tark qilmaydiganlaringizdir", deya ta'kidlangani fikrimiz isbotidir. Shu o'rinda, diniy e'tiqod faqat ibodatdan iborat deb anglamaslik kerakligini ta'kidlash lozim.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda e'tiqod tushunchasi turlicha izohlanadi. Insoniyat tomonidan allaqachonlar yaratilgan bilimlar insonning o'zi uchun, o'z ehtiyojlari uchun qayta kashf etilgandagina chinakam e'tiqod darajasiga ko'tariladi.

Islom dini azaldan insoniyatga asl muruvvatni, hatto o'zga din vakillariga ehtirom hamda bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatib, ular bilan tinch-totuv yashashga, fitna va turli adovatlariga barham berishga chaqirgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarimizni tolerantlik boshqa din vakillariga hurmat asosida tarbiyalashimiz davlatimizning tinchlikparvar va tinch qo'shnicilik borasida olib borayotgan amaliy siyosatining ijobiy natijasi bo'lishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xudayberganov Samandar (UrDU "San'at" kafedrası professorı. O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi)

XONANDA OVOZINING JIHATLARI

Annotatsiya. *Ovoz tebrantiruvchining (rezonator) o'Ichovi qanchalik kichik bo'lsa, ovozning ingichkaligi shuncha ortadi, aksincha, qanchalik katta bo'lsa, ovozning yo'g'onligi shuncha ortadi, Insonning ovoz chiqaruvchi a'zolari tuzilishi ba'zi holatlarda istalgan musiqiy asbobdan mukammalroqdir.*

Аннотация. *Чем меньше размер резонатора, тем тоньше звук, и, наоборот, чем он больше, тем звук плотнее. Строение голосовых органов человека в ряде случаев совершеннее любого музыкального инструмента.*

Annotation. *The smaller the size of the resonator, the thinner the sound, and vice versa, the larger it is, the thicker the sound. The structure of the human vocal organs is in some cases more perfect than any musical instrument.*

Kalit so'zlar: *o'pka, hiqildoq, alveo, boylam, morgani, falset, oberton, fistula, gers.*

Ключевые слова: *легкое, гортань, альвеолы, связки, морган, фальцет, обертон, свищ, герц.*

Key words: *lung, larynx, alveo, connection, morgani, falsetto, overtone, fistula, gers.*

Xonandalarning jismoniy va ovoz akustik jihatlari bironzgina oydinlik kiritamiz. Ma'lumki, asab tizimidagi shartli (ko'nikma) reflekslarga ko'ra, ovoz chiqarish uchun ishlab turadigan ichki a'zolarining barchasi bosh asab tizimiga bo'ysunadi. Shu sababli kuylash murakkab psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Har bir xonanda ovoz apparatining ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Doimiy ravishda o'z hissiyatini tekshirib turishi, ya'ni nimani, qanday va nima uchun qilayotganini tushunishi kerak. Insonning ovoz apparati uchta asosiy qismdan iborat: bular o'z vazifasiga ko'ra, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan o'pka, hiqildoq va tebrantiruvchi bo'shliqlardir. O'pka to'qimasi odamning ko'krak qafasi bo'shlig'ini egallab turgan konus shaklida bo'ladi. O'pka yuz millionga yaqin alveolalardan tashkil topgan. Alveolalar juda kichkina pufakchalar shaklida bo'lib, organizmga kerakli kislorod, ular orqali to'qimalarga, karbonat angidrid gazi esa to'qimalardan alveolalarga o'tadi [1.6].

Shu tariqa, gaz almashinuvi jarayoni ro'y beradi. Alveolalar bo'shlig'i borgan sari kengayib boruvchi mayda kanallar-bronxeola, bronxlar bilan bog'langan bo'ladi. Bu kanallar esa bronxlar tizimini tashkilotadi. O'pka tarkibida bronxlar tizimidan tashqari, uning arteriya va venalari mavjud. Bu qon tomirlari o'pka to'qimasining oziqlanishi va gaz almashinuvida xizmat qiladi. O'ng va chap o'pkaning bronxlari traxeyaga birikadi. Traxeyalar o'zaro o'ziga xos boylamlar bilan birikkan 18-20 ta tog'aysimon halqalardan tashkil topgan. Tra-

xeya esa, o'z navbatida, hiqildoqqa ulanadi. Tabiiyki, fiziologik gaz almashinuvi jarayoni tinch va ritmik nafas olishdir. U yurak qisqarishiga o'xshaydi. Ya'ni, bizning ixtiyorimizga bog'liq bo'lmagan holda, avtomatik tarzda ishlaydi. Nafas jarayoni uzluksiz qaytariluvchi uchta holatdan iboratdir: [1.6] *nafas olish, nafas chiqarish va pauza*.

Nafas olish orqali alveolalar havo bilan to'ladi. Bu yerdan to'qima qon tomirlariga kislorod, to'qimalardan alveolalarga karbonat angidrid gazi o'tadi. Nafas chiqarish vaqtida esa alveolalar siqilib kerak bo'lmagan gazlar o'pkadan chiqarib tashlanadi. Pauza esa nafas olishdan oldingi tayyorgarlikdir. Hiqildoq traxeya va halqum o'rtasida joylashgan. Bu a'zo ovoz hosil bo'lishida asosiy vazifani o'taydi. U bir bo'shliq bo'lib, ichki tomondan shilliq qavat bilan qoplangan. Hiqildoqning ichida 4 ta tog'ay mavjud, ular: qalqonsimon tog'ay, halqasimon tog'ay va ikkita cho'michsimon tog'aylardir. Ular o'zaro boylamlar va mushaklar bilan birikkan.

Yosh o'tgan sari bu tog'aylarda suyaklanish jarayoni ro'y bera boshlaydi, shu bilan birga, hiqildoq mu-shaklari bo'shashadi, noziklashadi va kuchsizlanib boradi. Buning natijasida ovoz boylamlari kuylashvaqtida bir-biri bilan mos tushmaydi va yosh xonandalarniki kabi mustahkam turmaydi. Xonandalar ovozi qarilikda zaiflashadi. Hiqildoqning ichki devori nafas yo'lining davomi bo'lib, tobora torayib boradi va tor teshikcha bilan tugaydi. Bu esa ovoz teshikchasi deyiladi. Ovoz teshikchasi chekka qismlarida ovoz boylamlari va buklamlari mavjud. Ovoz boylamlari hiqildoq bo'rtmasida joylashgan bo'lib, qadoq bilan himoyalangan bo'ladi [1.1]. Qadoq erkaklarda ayollarga nisbatan bo'rtib turadi. Ovoz boylamlari oq yaltiroqrangda bo'lib, hiqildoqning yon devoriga birikkan. Hiqildoqning maxsus tuzilishi sababli ovoz boylamlari o'z vazifasini keng xarakterda o'zgartira oladi. Ovoz boylamlari ishida ikki guruh mushaklar ishtirok etadi: ichki ovoz va tashqi tortuvchi. Bularning har biri muayyan vazifani bajaradi. Ovoz mushaklari ovoz boylamlarining tanasida joylashgan bo'lib, ko'krak registrida ularning uzunligi, qalinligi va kengligini o'zgartiradi. Mushaklar qisqarib ovoz teshikchasi ochiladi va bo'shashib yopiladi. Boylamlarni tortuvchi mushaklar bosh registr vaqtida hiqildoq mushaklari qisqarib boylamlarni tortadi va boylamlar tarangligi sustlashadi. Aralash registrlarda ikkala guruh mushaklar ishlaydi. Ovoz boylamlari uzunligining o'zgarishi sezilarsiz darajada bo'ladi, lekin bu holat kuylayotgan xonanda ovozining ikki oktava oralig'ida o'zgartira oladi [1.1].

1 "Boylam" – iborasi rus tilidan svyazka so'zidan tajjima sifatida olindi. Ayrim o'zbek tilidagi manbalarda uning ma'nosidan kelib chiqib "tovushlog'ich" deb keltirilgan. Tinch holatda boylamlar orasida keng uchburchaksimon teshik hosil bo'ladi. U yerdan havo erkin o'tadi. Tovush chiqayotgan paytda esa ovoz boylamlari yopiladi. Tovush hosil bo'lishi nafas chiqarish fazasida ro'y beradi. Chin ovoz boylamlaridan yuqorida shilliq qavatning xaltasimon chuqurlashgan qismi mavjud bo'lib, ular *morgan qorinchalari* deyiladi. Morgan qorinchalarining yuqori qirralari soxta ovoz boylamlarini hosil qiladi. Kuylash vaqtida pastki tovushlarda ular kengayadi. Yuqorigi tovushlarda esapasayadi. Ular o'rtasida ovoz teshikchasiga o'xshash teshikcha mavjud. Chin va soxta ovoz boylamlarining birikkan umumiy qismi nafas olish va ovoz hosil bo'lish vaqtida soxta boylamlarning chin boylamlarga o'xshab harakat qilishida ishtirok etadi. Lekin ular o'rtasidagi masofa, taxminan, 6–7 mm ni tashkil etadi. Shuning uchun ham og'iz bo'shlig'ida chin ovoz boylamlarini ko'rish qiyin kechmaydi. Uchburchak shakldagi tog'aysimon plastinka taom mahsulotlarining nafas olish vaqtida hiqildoqqa tushishidan himoya qiladi [1.2].

Tebrantiruvchilar ovozni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Akustikada tebrantiruvchi deb mustahkam devorda tugagan havo hajmi tushuniladi. Odamda ular suyakli tog'aysimon yoki mushakli yumshoq bo'lishi mumkin. Tebrantiruvchilarning hajmi va shakli ovoz kuchiga va tembriga ta'sir etadi. Tebrantiruvchining tabiiy hajmi har bir xonanda uchun o'ziga xos bo'ladi.

Tebrantiruvchining o'lehoivi qanchalik kichik bo'lsa, ovoznining ingichkaligi shuncha ortadi, aksincha, qanchalik katta bo'lsa, ovoznining yo'g'onligi shuncha ortadi.

Insonning ovoz chiqaruvchi a'zolari tuzilishi ba'zi holatlarda istalgan musiqiy asbobdan mukammalroqdir. Odam ovozida ikkita tebrantiruvchi: *yuqori* va *pastki* tebrantiruvchilar mavjud bo'lib, musiqiy sozlarda esa faqat bittagina, u o'sha cholg'u sozining korpusidir. Yuqori tebrantiruvchilarni yana bosh tebrantiruvchilar ham deyishadi. Ya'ni, ular boshning yuz qismida, tanglaydan yuqorida joylashgan. Pastki tebrantiruvchilar esa ko'krak tebrantiruvchilari deyiladi. Bu ikkala tebrantiruvchilarni hiqildoq birlashtiradi. U esa, o'z navbatida, ham tebrantiruvchi, ham o'ziga xos boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Yuqori tebrantiruvchilar tarkibiga quyidagilar kiradi: *halqum*, *og'iz* va *burun* bo'shliqlari. *Burun halqum* bo'shlig'i hamda burunning yon bo'shliqlari, ya'ni *pehshona* va *goymo* bo'shliqlaridir. Pastki tebrantiruvchilarga *traxeya* va *yirik bronxlar* kiradi. Qolgan barcha tebrantiruvchilar tovushni kuchaytirishda deyarli hech qanday ahamiyatga ega emas. Ular tashqaridagi havo bilan bog'liq emas va eshituvchilarning qulog'iga yetib bormaydi. Shunday ekan, ovoz yangrashida qolgan tebrantiruvchilarning vazifasi qanday? Ularda bosh va ko'krak tebranishi namoyon bo'ladi, ya'ni xonandalarning muhim sezgilari bo'lgan o'z ovozi haqida fikr yurita olish

imkonini beradi. Bosh tebrantiruvchilar burun, halqum bo'shlig'idan boshqa bo'shliqlar hajmini va tebrantiruvchilik faoliyatini o'zgartira olish xususiyatiga ega emas. Ular havoni ma'lum bir hajmda saqlaydi. Shuning uchun faqatgina ovozning yuqori tovuş obertonlarini tebrata oladi. Bundan shuni tushunish mumkinki, kuylayotgan vaqtda ovoz tembri yuqori chastotali obertonlarga boy bo'lgandagina yuz qismidagi tebrantiruvchilar faoliyati yaqqol ko'rinadi. Og'iz halqum yo'llari orqali tovuş o'tayotgan vaqtda uning energiyasining katta qismi yuz skeletining qattiq to'qimalari orqali ovoz tebrantiruvchilariga uzatiladi. Shu bilan birga, u yerdagi havoni tebratadi va tebranish holatini keltirib chiqaradi. Bosh tebrantiruvchilarida to'plangan energiya havo yo'llari orqali tashqariga chiqish imkoni bo'lmagani uchun tebrantiruvchilar devorning titrashini keltirib chiqaradi. Mana shu tebranishlarni xonanda tebrantiruvchiga tushgan tovuş sifatida qabul qiladi. Bosh tebrantiruvchidagi tebranma holati ovoz vazifasining eng muhim kuchaytiruvchisidir.

Demak, tovuş tebrantiruvchiga tushishi xonanda uchun kuylash vaqtida qulay sharoit yaratib beradi. Bosh tebrantiruvchilar to'g'ri nafas olganda va hiqildoq mo'tadil ishlaganda sof ovoz hosil bo'ladi. Bo'lajak xonandalarda tebrantiruvchilarning ishini his etishni tarbiyalash juda muhimdir. Qachonki, yosh xonanda halqum tubida kuylash jarayonida tovuşni to'g'ri yo'llay olsa, shunda uning tebrantiruvchilari ham to'g'ri faoliyat ko'rsatadi va obertonlarga boy bo'lgan go'zal ovoz hosil bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bosh tebrantiruvchilarni his eta olish barcha xonandalarda ham bir xil emas. Shuning uchun ham har bir xonandaga o'ziga xos ravishda yondoshmoq lozim bo'ladi. Ko'krak havo yo'llari orqali ovoz chiqayotganda ko'krak qafasi tebranadi. Qo'lni ko'krakka bosib bu holatni his etish mumkin. Ko'krak qafasidagi tebranish hislari ham eshituvchi uchun bosh tebrantiruvchilarning tebranishlari kabi foydasizdir. Ko'krak qafasi o'pka bilan to'lgan. O'pka to'qimasi esa tovuşni yutadi. Shuning uchun tebranish traxeya va yirik bronxlarda rivojlanadi. Traxeya va bronxlamning uzunligi va bo'shliqlarning kattaligi o'zgarib turishi mumkin. Bunda faqat past tovuşlar boshqariladi. Shuning uchun ham soxta ovoz(falset)da ko'krak rezonatori, umuman, ishlamaydi [1.2].

Falset – italyanча *falsetto* – so'zidan olingan bo'lib, yolg'on ma'nosini anglatadi. Bu yolg'on ovoz yoki yuqori registrlarda g'ing'illash deganidir. Ba'zida uni “bosh” registr yoki “fistula” deb ham atashadi. Ko'krak tebranishlari ovozning to'liqligi, boyligi, hajmi, iliqiligi, mayinligi, dilkashligi va go'zalligini ta'minlaydi. Ovoz balandlashgan sari ko'krakda tebranishlar soni kamayadi. Tayanch hissi diafragma va qovurg'alar zimmasiga, tebrantiruvchi vazifasi esa bosh tebrantiruvchilar zimmasiga o'tadi. Kuylash vaqtida boylamlarning birgalikda ishlashiga harakat qilish kerak, shunda bosh va ko'krak tebrantiruvchilari bir vaqtda faoliyat yuritadi hamda registrdan registrga osonlik bilan o'tishni ta'minlaydi. Shuni ko'zda tutish kerakki, bosh va ko'krak tebrantiruvchilarini yaxshi o'zlashtirib olgan xonanda o'z ovozi ustidan nazoratini erkin boshqara oladi. Faqatgina bosh yoki ko'krak tebrantiruvchilariga, ya'ni, bir tomon tebrantiruvchilariga, tayanib tovuş hosil qilish ovoz sifatiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat ovoz sofligi va sifatini ham buzadi.

Ma'lumki, inson qulog'ining eshitish chastotasi 16 gersdan 20000 gersgacha bo'lgan tebranishlarni qabul qiladi. So'zlashish va kuylash vaqtidagi tovuş balandligi eshitish diapazonining bir qismini egallaydi. Ya'ni inson ovozi 74 gersdan 1056–1057 gersgacha bo'ladi. Odam ovozinin balandligi ovoz boylamlarining tebranish chastotasiga bog'liqdir. Ovoz boylamlari qanchalik kalta va ingichka bo'lsa, kuchlanishi, tebranishlar chastotasi, hamda hiqildoq teshigidan o'tuvchi havoning tezligi katta bo'ladi. Bu holda ovoz balandligi oshadi yoki aksincha. Inson ovozinin kuchi va boylamlari tebranishlar oralig'i orqali hosil bo'ladi. Tebranishlar oralig'i qanchalik katta bo'lsa, ovoz yangrashi shunchalik kuchli bo'ladi. Tebranishlar oralig'i ovoz mushaklarining qisqarish kuchiga va nafas olishga bog'liq holda hosil bo'ladi. Bundan tashqari, ovoz kuchiga tebrantiruvchi bo'shliqlarning holati ham ta'sir etadi. Eshituvchining ongiga ovozning jilosi va tembri tez yetib boradi. Tembrning asosiy qismi hiqildoqda hosil bo'ladi. Go'yo bu tovuşlar tarkibidagi tebranishlarning kuchi va chastotasi ham ovoz tembriga ta'sir etadi. Ovoz balandligi va izchilligining o'zgarishi tembrning o'zgarishiga olib keladi. Ovozda notekis harakatlar uning sinishiga va tembrning xunuklashishiga sabab bo'ladi. Ovoz manbaidan tembrgacha bo'lgan oraliq masofa ham unga ta'sir etadi. Chunki yuqori obertonlarning havo yutib ketishi, pastki asosiy tovuşlarni mustahkam bo'lishi tembr kuchi va jilosiga bog'liqdir. Chiroyli tembr hosil qilish bilan birga, uning sofligiga ham e'tibor berish lozim [1.4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirov Raxmatullo. “Ustoz-shogird” (erkaklar ovozi uchun). Uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2010.
2. O'lmas Rasulov. “An'anaviy xonandalik”. Uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2008.
3. Primatov sherzod. “Vokal texnikasi asoslari”. Uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2011.
4. Samandar Xudayberganov. “An'anaviy xonandalik”. Darslik, Toshkent, 2020.
5. Samandar Xudayberganov. So'z va soz sohibi. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2014.
6. Xurriyat Isroilova. “An'anaviy hofizlik san'ati”. Uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2007.

Bushuy Tatyana Anatolyevna (Doctor of Philological Science, professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages; e-mail: tanya.bushuy@mail.ru)

FEATURES OF REPRESENTATION OF SYNONYMY IN CONTRASTIVE LEXICOGRAPHY IN THE PERSPECTIVE OF PHRASEOLOGICAL UNITS

***Annotatsiya.** Maqolada kontrastiv leksikografik manbalarda frazeologik birliklar sinonimlarining muammolari haqida soʻz boradi. Shu bilan birga, sinonim boʻlgan frazeologik birliklarning lugʻatlarda ajratib koʻrsatish yoʻllariga, semantik jihatdan birligiga va bir-biriga sinonim hisoblangan frazeologik birliklarning yaqinlashish hodisalariga asosiy eʼtibor qaratilgan.*

***Аннотация.** В статье описывается проблема синонимии фразеологических единиц в контрастивных лексикографических источниках. Особое внимание уделяется анализу приёмов выделения фразеологических единиц-синонимов в словарях, семантическому единству и случаям сближения между фразеологическими единицами-синонимами.*

***Annotation.** The article describes the problem of synonymy of phraseological units in contrasting lexicographical sources. Particular attention is paid to the analysis of techniques for isolating phraseological units – synonyms in dictionaries, semantic unity and cases of convergence between phraseological units as synonyms.*

***Kalit soʻzlar:** frazeologik birlik, kontrastiv leksikografik manbalar, sinonimlar, sinonimik munosabatlari, ishlatilish xususiyatlari.*

***Ключевые слова:** фразеологическая единица, контрастивные лексикографические источники, синонимы, синонимические отношения, функциональные характеристики.*

***Key words:** phraseological unit, contrastive lexicographic sources, synonyms, synonymous relations, functional characteristics.*

The process of stabilization in a language of different compatibility of a dictionary reference word leads to the formation of pairs or groups of synonymously correlated phraseological units. For example, in Spanish: *a voz en grito = a voz en cuello* with the meaning *благим матом* (scream bloody murder).

It is obvious that the selection of synonymous (as well as antonymic and other) means of phrasology, i.e. vocabulary is significantly influenced by the volume of contrasting lexicographical sources, the sequence of its orientation towards the actualized core of the language. For example, the “Немецко-русский словарь” (German-Russian Dictionary) [2.988] is built exclusively on the basis of the most commonly used lexical and phraseological fund of the languages described. In this case the authors and editors of such types of dictionaries try to deliberately exclude rare synonyms from its plot (along with outdated, regionally limited, etc. words and phraseological units).

Moreover, fixed synonymous relations between phraseological units are subject to disclosure in contrastive lexicographic dictionaries through the technique of co-location.

As a result, pairs or groups of phraseological units form a whole fragment in the context of large associations of different phraseological units with a common reference word-component, which facilitates the selection of the necessary synonym depending on the purpose and conditions of the utterance.

Compare examples of phraseological units-synonyms in contrasting lexicographical sources: in the “Русско-карачаево-балкарский словарь”.1965). (Russian-Karachai-Balkar Dictionary – further RKBD) – “*в один миг, одним духом* (in one moment, in an instant)” [5.360]. *Взять за сердце, взять за живое* (to excite, to make a strong impression) [5.67]. In the first volume of the “Русско-белорусский словарь” (1982). (Russian-Belarusian Dictionary – further RBD) – *взять за живое, взять за сердце* (to excite, to make a strong impression) [3.401]. *Делать большие глаза, смотреть большими глазами* (be surprised, wonder) [3.177]. *Бог знает, бог весть* (God knows, something unknown) [3.65]. “*Очертя голову, сломя голову* (without thinking, recklessly) [3.182]. In the second volume of RBD (1982) – *палец о палец не ударить, пальцем не пошевелить* (to be inactive, lazy, not take any steps to achieve a goal) [3.7]. In the first volume of the “Русско-грузинский словарь” (1956). (Russian-Georgian Dictionary – further RGD) – *бить тревогу, бить в набат* (loudly declare, draw everyone’s attention to the impending danger, trouble somewhere, in something) [4.68].

As you can see, contrastive lexicographical sources take into account phraseological units-synonyms and the main ways of their structural organization:

1) single-structural phraseological units-synonyms, correlated with one part of speech.

For example, a) a noun – from volume III of the RGD (1959) *глухой угол или медвежий угол* (re-mote place) [4.492] and *от чистого сердца* or *от всего сердца* (completely sincerely, from the bottom of my heart

or with all my heart) [4.204]; b) with a verb – from volume I of the RGD (1956) *здать встрѣнку, здать перцу, здать баню* (cruelly scold, severe reprimand with swearing) [4.402];

2) similar structural phraseological units – synonyms, in which only the dictionary reference word is expressed by one part of speech.

For example, from Volume III with the verb *увидеть свет, явиться на свет* (to come into the world) [4.179]; from Volume I *орать во всю глотку, драть глотку* (scream at the top of your lungs, very loud (shouting, singing, etc.)) [4.252].

However, the use of this technique of identifying synonymous phraseological units in contrasting lexicographical sources is quite limited. For example, outside the corpus of contrasting lexicographical sources, as a rule, there remains a systemically correlated layer of phraseological units-synonyms, implemented in completely different semantic-figurative structures.

Compare German phraseological units-synonymous with the common conceptual basis of “*толочь воду в ступе* (engage in any unimportant or useless activity): *leeres Stroh dreschen* (молотить пустую солому) = *Holz nach dem Walde tragen* (уносить дрова в лес)=*den Sand pflügen* (вспахивать песок).

